SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

1
2026
ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

№ 1, 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – **ISSN 2181 – 8096**

Bosh muharrir – **Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay’ati

D. Sayfullayev	*tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
D. Muxiddinova	*filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)*
A. Mannonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
R. Xodjayeva	*filologiya fanlari doktori, professor*
Sh. Shomusarov	*filologiya fanlari doktori, professor*
Q. Omonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
U. Muxibova	*filologiya fanlari doktori, professor*
X. Xamidov	*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
B. Abduhalimov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Xodjayev	*tarix fanlari doktori, professor*
M. Is’hoqov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Doniyorov	*tarix fanlari doktori, professor*
I.Xaydarov	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
X. Fayziyev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
N.Karimov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
D.Xodjimuratova	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
Sh. Yovqochev	*siyosiy fanlar doktori, professor*
N.Abdullayev	*siyosiy fanlar doktori, dotsent*
A. Vahobov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Abdullayev	*iqtisod fanlari doktori, professor*
I. Mavlanov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Bahodirov	*falsafa fanlari doktori, professor*
E. Izzetova	*falsafa fanlari doktori, professor*
G. Glizon	*AQSHning New Mexico universiteti professori*
A. Shonazarova	*AQSHning Kolumbiya universiteti professori*
Ono Masaki	*Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori*
Li Dji In	*Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori*
V. Mesamed	*Isroilning Quddus universiteti professori*
A. Gurer	*Turkiyaning Anqara universiteti professori*
A. Vorobyov	*Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi*
G. Avda	*Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori*
A. Tohir	*Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori*
H. Baydemir	*Turkiyaning Otaturk universiteti professori*

Nashrga tayyorlovchilar:
J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2026

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK, TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ, ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDIES, LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

Qoraboyev S. Muhammad Ibrohim Atoyining “Osiyo yuragida to‘fon” romanida kompozitsiya masalasi 5
Ochilov A., Ermatov U. The methodology of explaining grammatical rules in Alfiya by Ibn Malik 18
Таджихужаева Ф. Лексико -семантический анализ персидского соматизма دست *dast* «рука» в произведении «Хамса» Алишера Навои 26
Sa’dullayev Sh. Ilk o‘rta asrlarda o‘rta hind-oriy tillaridan va sharqiy eroniy tillarga o‘zlashgan leksika: tarixiy bosqichlar va omillar 36
Dr. Sayyada Begum Essay Writing in Urdu with Specific Reference to Professor Zaman Azurdah 50
Ibragimova N. Ilmiy-texnik terminologiyani standartlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari: XXR va O‘zbekistonning qiyosiy tahlili 60

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Pulatova M. “Arba’in” – hadis to‘plamlari xususida 72
Мадраимов А. Опыт сравнительной верификации данных «Бабур-наме» о государственности Темуридов 77
Odilov B. O‘zbekistonda kulolchilik maktablarining vujudga kelishiga doir bazi mulohazalar 89

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Yuldashev A. Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy vaziyatda Turkiya va Turkiy davlatlar tashkilotining ahamiyati 103
Alimov O. Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi energetika diplomatiyasining rivojlanish dinamikasi 115
Xodjimuratova D. Erondagi diniy-siyosiy tizim modernizatsiyasi jarayonlari tarixi 130
Shazamanov Sh., Sabirov L. XXRda havo va kosmos transporti siyosati 140
Kasimov M. Xalqaro munosabat shakllaridan biri – tizimli xavf-hatar va qarshi muvozanatlarni o‘rganishning nazariy asoslari 152
Ризаев А. Методология исследования проблемы национальной идентичности 162
Dustov U. US–China Strategic Competition and Regional Security: Central Asian Perspective 178

Abdulxayev A. Xitoyda modernizatsiya jarayonlarining siyosiy va ijtimoiy jihatlari 188
Олимов Д. Трансформация энергетического сектора Афганистана в контексте региональной политики Узбекистана 199
Boyxonov Sh. Pokistonning ko‘p vektorli tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bilan hamkorlik strategiyasining amaliy jihatlari..... 217
Mamatqulov S. Experience of combating terrorist groups and their activities in Pakistan 226
Aliyev J. Xitoyda axborot xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari 236
Abdazimov J. O‘zbekiston–Xitoy munosabatlarining shakllanish xususiyatlari 247
Маннопова О. Экономическое сотрудничество Узбекистана и Российской Федерации во время мирового финансово-экономического кризиса 253
Исамухамедов Т. СМИ и общественное мнение как ресурс обеспечения государственной и общественной безопасности Узбекистана 262
Murzayeva Sh. Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari 281
Seitov A., Mahmudova Z. Turkiy jamiyatda siyosiy ong, psixopolitik ta’sir va yetakchilik fenomeni 293

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

Izzetova E., Shomukimov L . Ideas for Modernizing Social Reality in Ismail Gasprinsky’s Thought and the Formation of Jadidism in Central Asia in the Context of Philosophical Discourse..... 312

ADABIYOTSHUNOSLIK, TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ, ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDIES, LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

MUHAMMAD IBROHIM ATOYINING “OSIYO YURAGIDA TO‘FON” ROMANIDA KOMPOZITSIYA MASALASI

SARDOR QORABOYEV
Assistant Professor,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada Muhammad Ibrohim Atoyining “Osiyo yuragida to‘fon” tarixiy romanida kompozitsiya masalasi ko‘rib chiqilgan. Unda romanning kompozitsion tuzilishi, kompozitsiya qismlarining o‘zaro munosabati masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy roman, kompozitsiya masalasi, kompozitsiya qismlarining o‘zaro munosabati.*

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос композиции в историческом романе «Ураган в сердце Азии» Мухаммада Ибрагима Атаи. Анализируются вопросы взаимоотношения компонентов композиции.*

Ключевые слова: *исторический роман, вопрос композиции, взаимоотношение компонентов композиции.*

Muhammad Ibrohim Atoyining ikkinchi ingliz-afg‘on urushi voqealariga bag‘ishlangan د آسیا په زړه کې توپان [D’ osiyo p’ zr’ ke to‘fon] – “Osiyo yuragida to‘fon” nomli tarixiy romani kompozitsiyaning puxtaligi bilan ajralib turadi. Kompozitsion tuzilish jihatdan roman muqaddima, 27 fasl, izohlar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Asarning muqaddima – سریزه [sariza] qismida muallif ikkinchi ingliz-afg‘on urushi imperializmga qarshi kurashdagi eng yirik kurashlardan biri sifatida insoniyat tarixida qolganligini, inglizlarning bu urushdan maqsadi Afg‘onistonni mustamlaka qilish va O‘rta Osiyoda o‘z ta’sirini kengaytirishdan iborat bo‘lganligini ta’kidlab o‘tadi.

Romanning 1-fasli “Bir shum yulduzning botishi” deb nomlanadi. U Kobul shahrining yoz faslidagi tasviri bilan boshlanadi. Romanning deyarli barcha fasllari atrof-muhit tasviri, turli fasllarda shahar va qishloq mintaqalaridagi tabiat manzaralarini tasvirlashdan boshlanadi. Bunday tasvirlar, shuningdek, urf-odatlar va an’analar tafsilotlarini berish orqali muallif atrof-muhitning tarixiy jarayonlarga mosligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Fasl asosan rus generali Stoletov[1] va doktor Yavorskiy[2]ning Afg‘onistondagi vaziyatni muhokama qilgan suhbatidan tashkil topgan.

“Qora va qizil kunlar” deb nomlanadigan 2-faslni yozuvchi Kobuldagi kuz fasli tasviri bilan boshlaydi. Osmon qora bulut bilan qoplangan. Bunday tabiat tasviri bobdagi voqealar mazmuniga hamohang. Qora bulut bilan qoplangan osmon Amir Sheralixon oilasidagi motamga ishora qiladi. Hatto barglarning yashil ranglari sariqqa o‘zgarayotgani va to‘kilayotgani hayot doim bir rangda davom etmasligi va albatta xotimasi borligini isbotlayotgandek. Peyzaj (tabiat tasviri) bobdagi voqealar rivojiga mos qilib tasvirlangan.

Shahzoda Abdullaxon vafoti munosabati bilan Bolohisor qasrida joylashgan Amir Sheralixon oilasida motam tutilayotgan shunday qora kunda ham Britaniya Hindistondagi ingliz amaldorlari amirga bosim o‘tkazishga harakat qilayotgani amirning inglizlardan ko‘ngli qolishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun harbiy masalalar bo‘yicha amir maslahatchisi Qozi Abdulqodir ingliz siyosiy ishboshqaruvchisi Navob G‘ulom Husayn kelganligini aytganida uni xushlamay qabul qiladi. Amir Sheralixon inglizlar haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Inglizlar ajoyib xalq! O‘z josuslariga din va taqvo kiyimini kiydirishadi, keyin “bizning bu dunyo tashvishlari bilan ishimiz yo‘q”, deydigan bu jodugarlar hatto mening saroyimdagilarga ham qurol berib, menga qarshi oyoqqa turgizadilar”[3]. Amir ba’zi o‘rinlarda inglizlarni ochiqdan-ochiq dushman deb ataydi. “Mening obro‘yimni to‘kishga harakat qilgan dushmanni hech qachon kechirmayman”[4], deb inglizlarga nisbatan o‘zining murosasiz siyosiy qarashlarini namoyon qiladi. Shu bilan birga Amirning ruslarga xayrixohligi ularni inglizlar bilan solishtirish orqali beriladi: “Ular (ruslar) juda tartibli xalq. Inglizlarga nisbatan oliyjanob va vijdonli bo‘lganliklari uchun ular bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatib, inglizlar bosqinidan xalos bo‘lamiz.”[5]

---

[1] Stoletov Nikolay Grigoryevich – 1831-1912 yillarda yashagan rus generali hamda siyosiy arbobi. 1978-yilning fevral oyida rus delegatsiyasini rahbari sifatida Afg‘onistonga kelgan va amir Sheralixon bilan uchrashgan.

[2] doktor Yavorskiy (Иван Лаврович Яворский) – 1853-1920 yillarda yashagan rus shifokori. U etnograf va yozuvchi sifatida ham tanilgan. 1978-yilning fevral oyida rus delegatsiyasining tarkibida Afg‘onistonga kelgan va amir Sheralixonning vafotigacha amir oilasining shifokori bo‘lib ishlagan.

[3] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 24 مخ

[4] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 25 مخ

[5] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 24 مخ

Shuningdek, bu faslda shimoliy viloyatlardan (Turkiston deb nomlangan) amir nomiga yuborildan sovg‘a-salomlarni taqdim qilish marosimi ham o‘tkaziladi.

3-fasl “Afridiylar (pushtun qabilalaridan biri) inglizlarni qo‘ymayaptilar” deb nomlanadi. Fasl pashtunlar milliy kengashi - jirgani tasvirlash bilan boshlanadi. To‘rtsaper qishlog‘ida afridiy qabila oqsoqollari yig‘ilib, jirg‘a o‘tkazishadi. Muallif jirga o‘tkazish tartibini batafsil yoritib beradi. Unga ko‘ra, doira shaklida o‘tirgan oqsoqollardan bir necha qadamdan keyin qurolli yigitlar va ularning ortida ayollar joylashgandi. Sal uzoqroqda nog‘orachi jirga uchun nog‘ora chaladi. Jirganing taomiliga ko‘ra, hech kim bir-biri bilan gaplashmasdi. Jirga boshlanguncha salomlashi ham ta’qiqlangan. Jirgani yoshi ancha katta bo‘lgan qabila sardori asosiy masalani o‘rtaga qo‘yish bilan boshlaydi: “Azizlar, biz bugun sizlar bilan muhim masalani hal qilish uchun bu yerga yig‘ilganmiz. Bizga inglizlar Alimasjiddan (joy nomi) Tardakigacha ularni kuzatib borishimizni so‘rab murojaat qilishdi. Bir ingliz generali delegatsiya bilan Kobulga ketayotgan ekan. Unga yordam beramizmi yo‘qmi shu masalani hal qilishimiz kerak.”[1]

Masalani hal qilishda jirga a’zolari ikkiga bo‘linadilar. Bir guruh a’zolar “inglizlar bizning dushmanimiz, ularga yordam berganlarga ham dushmanga qilgandek muomalada bo‘lamiz”, deb chiqsa, boshqa guruh “pushtunvolay[2]ga ko‘ra ninavoti[3] so‘ragan kishiga yordam berish kerak”, deb o‘z fikrlarini asoslaydilar.[4]

Shuningdek, jirgada har ikkala tomonni, ya’ni inglizlar va Amir Sheralixonni dushman sifatida ko‘radigan toifa ham mavjud bo‘lib, ular Amir Sheralixonning otasi tomonidan Jamrud vodiysida xaybarlik pushtunlar qatl qilinganini, uning amakisi Sardor Sulton Muhammad Taloyi inglizlar tomoniga o‘tib, pushtunlarning azaliy dushmani Ranjit Singh bilan til biriktirganligini eslatib o‘tadilar.[5]

Jirga taomiliga ko‘ra, faqat oqsoqollar gapiradilar. O‘z noroziliklarini ifodalash uchun ayollar qo‘llaridagi toshlarini, qurolli yigitlar qurollarini bir-biriga urib ovoz chiqaradilar. Jirga yakunida aylana shaklida o‘tirgan oqsoqollar ovoz berish yo‘li bilan yakuniy qaror qabul qiladilar. Ayollar va qurolli yigitlar masalaga umumiy ovoz beradilar. Ovoz berish yakunlangach, qurolli yigitlar davraga tushib, qurollaridan osmonga o‘q uzgan holda atan raqsiga tushadilar. Mazkur jirgada afridiy qabilalari inglizlarni Xaybar dovonidan o‘tkazmaslikka qaror qiladilar.[6]

---

1 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 32 مخ

[2] “Pushtunvolay” pushtun millatining qadriyatlari, urf-odatlari va kundalik hayotida amal qilishi lozim bo‘lgan yozilmagan qonun-qoidalari majmui hisoblanadi.

[3] Ninavoti – pushtunvolay tamoyillaridan biri bo‘lib, mushkul ahvolga tushib qolgan har qanday insonga yordam berishni nazarda tutadi. Pushtunlar boshpana izlab kelgan har bir insonga “ninavoti” berishni o‘zlari uchun farz deb biladilar. Qochqin hukumat vakillari tomonidan ta’qib qilinayotgani ham unga boshpana berishlariga to‘sqinlik qilolmaydi.

4 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 36 مخ

5 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 37 مخ

6 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 38 مخ

Har bir fasl deyarli tabiat tasviri bilan boshlanadi. Masalan, “Qinida zanglagan qilich” deb nomlangan 4-fasl kuzning so‘nggi kunlarida sovub borayotgan kunlar, urushga tayyorlanib, qilich yalang‘ochlayotgandek barglarini to‘kayotgan daraxtlar va bargsiz daraxtlarga o‘tirib, bo‘lajak noxushlikdan ogohlantirayotgan qarg‘alarning yoqimsiz ovozini tasvirlashdan boshlanadi. Tabiat tasviridagi sarg‘aygan xazonni tasvirlash fasl sarlavhasini asoslash uchun xizmat qiladi.

Sherpur qarorgohidagi harbiy kengashda Amir Sheralixon lashkarboshi Husayn Aliga barcha chegara qo‘shinlariga Afg‘onistonga bostirib kelayotgan inglizlarni mamlakat ichkarisiga o‘tkazib yuborishga buyruq berishni ta’yinlab, Rossiya bilan strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun Peterburgga yo‘l oladi.

5-fasl “Behuda urinish” deb nomlanadi. Chunki amirning Rossiya safarini eshitgan malika Oyisha xavotirga tushib, uni o‘z fikridan qaytarishga behuda urinib ko‘radi. Sababi amirning o‘rniga Oyisha sababli 8 yil zindonda o‘tirgan shahzoda Yoqub qolayotgandi. Kobuldagi Bolohisor saroyida malika Amir Sheralixonga u Rossiyaga ketsa, inglizlar shahzoda Yoqubni amir sifatida taxtga o‘tkazishga harakat qilishini aytib, uni safardan qaytarishga harakat qiladi. Amir Sheralixon Afg‘oniston inglizlarning qo‘lidagi birovga osonlikcha berib yuboriladigan o‘yinchoq emasligini, Yoqubning atrofida Amirga sodiq sardorlar, lashkarboshilar qolayotganini aytib, malikani tinchlantiradi va shahzoda Yoqubni chaqirib, unga kerakli yo‘riqnomani beradi. Amir Sheralixon Yoqubga qaynatasi Yaxyoxondan ehtiyoq bo‘lishini tayinlaydi. Chunki bir vaqtlar aynan Yaxyoxonning otasi Amir Kabir Jalolobodni inglizlar ittifoqchisi Ranjit Singxga jangsiz topshirganini yodga oladi. Shundan keyingina safarga otlanadi.

“Hujum” deb nomlangan 6-faslda Jalolobodning Behsud qishlog‘i janubida joylashgan ingliz lagerida o‘tkazilgan muzokara jarayoni tasvirlanadi. Ingliz harbiy amaldorlari general Braun[1], mayor Kavanyari[2], brigada generallari Makforsen[3], Titler[4] va pushtunlarning behsud, shinvoriy, mo‘mand qabila oqsoqollari o‘rtasida o‘tkazilgan muzokara samarasiz yakunlanadi va inglizlar mahmand qabilasiga hujum qiladilar.

7-fasl “Pevor jasorati” deb nomlanadi. Bungacha bo‘lgan barcha fasllar tabiat manzarasini tasvirlash bilan boshlangan bo‘lsa, bu fasl to‘g‘ridan-to‘g‘ri inglizlarning

[1] Samuel James Brown (1824 - 1901) ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Peshovar diviziyasini boshqargan qo‘mondon. Ali-Masjiddagi jangda g‘alaba qozonib, Jalolobodni egallagan.

[2] Lui Napoleon Kavanyari (1841 - 1879) ikkinchi ingliz-afg‘on urushida qatnashgan ingliz harbiy diplomati, Gandamak shartnomasi asosida Kobulga siyosiy agent sifatida yuborilgan, afg‘on qo‘zg‘olonchilari tomonidan o‘ldirildan.

[3] Gerbert Teylor Macforson (1827 - 1886) ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Peshovar diviziyasining 1-brigadasini boshqargan qo‘mondon. Ali-Masjid va Jalolobodagi janglarda qatnashgan.

[4] John Titler (1831 - 1893) ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Peshovar diviziyasining 2-brigadasini boshqargan qo‘mondon. Ali-Masjid va Jalolobodagi janglarda qatnashgan.

hujumini bayon qilishdan boshlanadi. Unda inglizlarning General Roberts boshchiligidagi katta qo‘shini 1879-yilning 21-noyabrda Tal[1]ga yetib keladi. General Roberts bilan birga general Tahilvol[2], general Kobb[3], polkovnik Dryu va mayor Polmer qo‘shinni boshqarayotgan edilar. Kuchlar teng bo‘lmaganligi sabab afg‘onlar partizanlik urushi taktikasiga o‘tadilar va aholi punktlari va harbiy istehkomlar inglizlar nazoratiga o‘ta boshlaydi. Xo‘st[4]dagi janglarda general Kobb qo‘lidan yaralanadi. Inglizlar 27-noyabrgacha Kurramgacha bo‘lgan hududdagi qal’a va istehkomlarni egalladilar. Shu tarzda Pevor tepaligiga chiqib bordilar. Lekin bu taktik g‘alabalar ularni strategik mag‘lubiyatga boshlab borayotgan edi. Ular Pevor tepaligida qamalda qolib ketadilar. Yaqinlashib kelayotgan qishning sovuq kunlarida bu juda xavfli vaziyat edi.

Shu joyda yozuvchi badiiylikni kuchaytirish maqsadida asarga harbiy kengash sahnasini olib kiradi. Asarda xavfli vaziyatdan chiqish uchun chaqirilgan harbiy kengash mojaro bilan tugaydi. Bunda general Roberts va general Kobbning keyingi harbiy harakatlar haqida fikrlari o‘zaro muvofiq kelmaganligi ziddiyatga sabab bo‘ladi. General Roberts marsh yordamida qamaldan chiqib ketishni taklif qilsa, general Kobb “qabul qilingan qaror xato bo‘lsa, butun boshli qo‘shinni jarga uloqtirgan bo‘lamiz”,[5] deb e’tiroz bildiradi. Chunki dovondan qaytish yo‘llari tor va bu so‘qmoq yo‘llar jangovar harakatlar paytida muntazam armiya sifatidagi qo‘shinni partizanlik urushini olib borayotgan qarshi tomonga tayyor o‘lja sifatida tutib berishi tayin edi.

Ta’kidlash joizki, tarixiy manbalarda ham general Robertsning jangovar salohiyati juda past darajada bo‘lganligi qayd etilgan. Uning qo‘shin qo‘mondoni lavozimiga tayinlanishi Britaniya Hindistonining o‘sha paytdagi general-gubernatori lord Lilton[6] bilan iliq munosabati bilan bog‘lanadi. Chunki general Roberts asosan qo‘mondonlik shtabida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, oldin dala sharoitida qo‘shinni boshqarmagan, bu borada tajribasiz ofitser edi.[7]

Harbiy kengash qamaldan chiqish uchun kechqurun hujum qilishga qaror qiladi. Reja bo‘yicha kun tartibiga hech qanday o‘zgarish kiritilmaydi. Askarlar o‘z vaqtida ovqatlanib uyquga ketadilar. Hujum askarlar bir muddat uxlagandan keyin, uyg‘otilib,

---

[1] Joy nomi, bugungi kunda Afg‘oniston va Pokiston chegarasida joylashgan aholi punkti.

[2] General Tahelvall - ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Kurram diviziyasining 2-brigadasini boshqargan qo‘mondon. Pevor va Xostdagi janglarda qatnashgan.

[3] General Kobb - ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Kurram diviziyasining 1-brigadasini boshqargan qo‘mondon. Pevor va Xostdagi janglarda qatnashgan.

[4] Joy nomi, hozirda Afg‘onistonning sharqida joylashgan viloyat.

[5] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 73 مخ

[6] Lord Edvard Robert Bulwer Lilton (1831-1891) – ingliz siyosiy arbobi, 1876-1880 yillarda Britaniya Hindistoni vitse-qiroli. 1878-yilda ingliz qo‘shinlarning Afg‘oniston hududiga kiritishga qaror qilgan va ikkinchi ingliz-afg‘on urushini boshlagan shaxs sifatida tarixda qolgan.

[7] Вторая англо-афганская война – даты, ход, противоборствующие стороны, итоги – РУВИКИ

to‘satdan amalga oshiriladi. Hujum haqida shaxsiy tarkib bilmasligi, ayniqsa qo‘shin tarkibidagi pushtun millatiga mansub askarlar xabardor bo‘lmasligi va hujumga jalb etilmasligiga kelishib oladilar.

Lekin polkovnik Dryu pushtunlar oldiga borib, ularga 5 rupiyadan pul mukofoti beradi va “qurshovdan chiqib olsak, general Robertsning o‘zi ko‘proq miqdorda sizlarni mukofotlamoqchi, shuning uchun qurshovni yorib o‘tishda jonbozlik ko‘rsatinglar”, [1] deb yo‘riqnoma beradi. Muallif asarning shu qismida Britaniya Hindistoni armiyasi tarkibida xizmat qilayotgan ikki nafar pushtun obrazini olib kiradi. Birinchisi Hazratshoh ismli askar bo‘lib, u tarixiy shaxs hisoblanadi. Hazratshoh Pevor jangida inglizlarning to‘satdan qilmoqchi bo‘lgan tungi hujumini barbod qilganligi va pushtun partizanlariga yordam berganligi uchun o‘limga hukm qilingan.[2] Ikkinchisi Mirboz ismli askar bo‘lib, u to‘qima obraz sifatida kiritilgan. U Hazratshohga pushtun partizanlarini inglizlar hujumidan ogohlantirishga yordam beradi.

Romanda Hazratshoh boshchiligidagi 19 nafar pushtunlarni dala sudida sud qilish jarayonida general Roberts ularning barchasini o‘limga hukm qilishni taklif qiladi. Lekin nisbatan mulohazakor bo‘lgan general Tahilvol armiya tarkibidagi boshqa pushtunlar bunda keskin aksulamal bildirishini aytib, unga e’tiroz bildiradi.[3] Uning taklifi bilan pushtunlar surgundagi og‘ir mehnatga mahkum etiladilar. Polkovnik Dryu Hazratshohni qatl etish lozim, deb qat’iy turib oladi va u qatl etiladi. O‘limidan oldin Hazratshoh generallarga “o‘z oyoqlaring bilan qabrlaringga keldilaring”, deb general Maknoten va Berns[4] taqdirini eslatadi.[5]

Qo‘qqisdan hujum qilib qurshovni yorib chiqish rejasi barbod bo‘lgandan keyin general Roberts boshchiligidagi qo‘shin Pevor tepaligida bir necha kun qolib ketadi. Ular qurshovdan qiyinchilik va og‘ir talafotlar bilan chiqadilar va Alixeyl qabilasi yerlariga borib, o‘sha yerda qarorgoh quradilar.

Shuningdek, yozuvchi pushtunlarning jangovar sifatlarini tasvirlashda ham biroz mubolag‘aga yo‘l qo‘ygan. Muallif hujum paytidagi afg‘onlar tomonidan chalingan do‘l ovoziga ingliz generali Tahilvol tilidan “bu shunday xalqki, shu do‘l ovozi bilan butun Osiyoni larzaga solgan. Biz shunday xalq bilan jang qilyapmiz”,[6] deb ta’rif beradi.

“G‘azablangan xalq” deb nomlangan 8-faslda jadiy (22-dekabr – 21-yanvar) oyining oxirgi kunlarida ketma-ket uch kun yog‘gan yomg‘ir Qandahor shahri aholisiga ancha qiyinchiliklar olib kelgani bilan boshlanadi. Eski loysuvoq uylar buzilgan, buzilmaganlaridan ham suv o‘tib ketgan, shahar atrofidagi dalalarga sel kelgan. Buning

---

1 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 91 مخ

2 تاريخ د قاضي عطاءالله اثر درييم جلد د پيشاور چاپ 343 مخ

3 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 109 مخ

4 Birinchi ingliz-afg‘on urushi (1838-184)da qatnashgan va afg‘onlar tomonidan o‘ldirilgan ingliz generallari.

5 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 114 مخ

6 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 77 مخ

ustiga Chaman[1] tomondan Qandahorga ingliz qo‘shini kelayotganini eshitgan xalq o‘zini oziq-ovqat g‘amlashga urgan. Bug‘doy, un va gurunchning narxi ko‘tarilib ketgan. Ingliz qo‘shini kelayotganini eshitgan shahar hokimi amir Afzalxon shaharni o‘z holiga tashlab qochib ketgan edi. General Biddalf[2] rahbarligidagi qo‘shin shunday ahvoldagi Qandahorga shaharning Shikorpur darvozasidan kirib keldi. Shaharga inglizlar tomonidan tayinlangan yangi hokim G‘ulom Husayn va ingliz siyosiy agenti San’atxonga hujum qildi, deb tahmin qilingan etikdo‘zni chorsu maydonida dorga osilishi xalqning g‘azablanishiga olib keladi.

9-fasl “Mirrix o‘g‘lonlari” deb nomlangan. Fasl dekabr oyining so‘nggi haftasi tasviri bilan boshlangan. Faslda Amir Sheralixonning Afg‘onistonning shimoliy viloyatlariga kelishi, Toshqo‘rg‘on shaharchasida qarorgoh qurishi va aholining amir askarlariga munosabati aks ettirilgan. Shuningdek, qarorgohning bir chetida general Roskunov boshchiligidagi rus delegatsiyasiga ajratilgan xona va delegatsiya faoliyatiga alohida ahamiyat berilgan. Bu xonada general Roskunov va doktor Yavorskiy Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashardilar. Doktor Yavorskiy Toshkentda yurganida general fon Kaufman general Roskunov uni Markaziy Osiyodagi umumiy vaziyatdan xabardor qilib turishini aytganligini ta’kidlaydi va inglizlarning Afg‘onistondagi faoliyati haqida so‘raydi. General Roskunov unga ingliz qo‘shinlari allaqachon Afg‘onistonga kirib kelganligi, shu sababli amir Peterburgga yordam so‘rab ketayotganligini ma’lum qiladi. General Yevropa matbuotida Afg‘onistondagi vaziyat juda keng ko‘lamda yoritilayotganligi, Kobul Yevropaning kunlik gazetalarida London va Parijdan[3] ham ko‘proq sahifalar yuziga chiqayotganligi Afg‘oniston atrofida katta o‘yinlar boshlanganligini tahmin qilishga asos bo‘lishini aytadi. Shu o‘rinda general Roskunov yana bir qiziq fakt keltiradi. Uning so‘zlariga ko‘ra, italiyalik inqilobchi qo‘mondan Garibaldi amirga agar unga ruxsat bersa, inglizlarga qarshi kurashda afg‘on qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilishga tayyor ekanligini aytib xat yozgan.[4] Bu faktlar Afg‘oniston bo‘yicha “katta o‘yin”da nafaqat inglizlar va ruslar, balki Yevropaning boshqa mamlakatlari ham ishtirok etganligidan darak beradi.

“Uzun intizorlikning g‘amgin yakuni” deb nomlangan 10-fasl mart oyining oxirgi haftasida Buxorodagi bahor tasviri bilan boshlanadi. Bu fasl Buxoro amiri saroyida Mazori-Sharifda amir Sheralixonning o‘limidan keyin general Kaufmanning buyrug‘iga ko‘ra Buxoroga kelib, tabiblik qilayotgan doktor Yavorskiyning Afg‘oniston haqidagi xotiralaridan tashkil topgan. Doktor Yavorskiy keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, Mazori-Sharifga kelgandan so‘ng Amir Sheralixon Rossiyaga

[1] Joy nomi. Qandahordan hozirgi Pokiston hududiga chiqishdagi chegara tumani.

[2] General Maykl Biddalf ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg‘on urushida Qandahor diviziyasini boshqargan dastlabki qo‘mondon. Keyinchalik boshqaruvni general Donald Styuartga topshiradi.

[3] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 129 مخ

[4] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 130 مخ

borish niyatidan voz kechadi. Bunga Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tomonidan unga Rossiyaga borishni ta’qiqlab yozilgan xat sabab bo‘ldi.[1]

Do‘sti Kuzin bilan suhbatda doktor Yavorskiy amirning zaharlanganligi haqidagi versiyani rad etadi va umrining so‘nggi kunlarida amir Sheralixon podagra kasalligi bilan og‘riganini ta’kidlab o‘tadi.[2] Yavorskiy amirning so‘nggi kunlaridagi holatini tasvirlash jarayonida saroydagi siyosiy vaziyatni ham batafsil yoritib ketadi. U keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, amir o‘limidan ikki kun oldin akasining o‘g‘li bo‘lgan kuyovi Sardor Muhammad Hoshimxonni taxt vorisi sifatida tayinlagani to‘g‘risida ovoza tarqaladi.[3] Shu vaqtning o‘zida lashkarboshi tomonidan amir o‘z valeahdi sifatida nabirasi Sardor Ahmadalixonni tayinlagani ham e’lon qilinadi. U amirning vafot etgan o‘g‘li Sardor Muhammadalixonning o‘g‘li edi. Yavorskiyning tahminiga ko‘ra, bu e’lonni berishga lashkarboshini amir Yoqubni taxtga kelishidan qo‘rqqan malika majburlagan. Shu tariqa hali amir tirikligidayoq taxt talashuvchilar, bir-biriga suiqasd rejalarini tuza boshlaydilar. Amir vafot etgan paytda uning yonida mulla va bir nechta vazirdan boshqa hech kim yo‘q edi. Buning ustiga amir vafot etgach, saroy tabiblari amir rus shifokorining noto‘g‘ri davolashidan vafot etdi, deb ovoza tarqatadilar. Lashkarboshi doktor Yavorskiyni himoya qilishga bir guruh qo‘riqchi ajratadi. Malika va Yoqub tarafdorlari orasida taxt uchun kurash avjiga chiqadi.

Tarovatli bahor tasviri bilan boshlanadigan 11-fasl “Shaytoniy reja” deb nomlanadi. Faslda Kobul shahridagi Bolohisor qal’asida Amir Sheralixon vafotidan keyin taxtni egallagan amir Yoqubning saroy a’yonlari bilan birinchi majlisi tasvirlangan. Majlisda amir Yoqubning taxtga o‘tirishi munosabati bilan Rossiya va Angliya bilan almashilgan xatlar tahlil qilinadi. Rossiya nomidan yangi amirga xat yozgan Turkiston general-gubernatori fon Kaufman uni Turkistonda muhojirlikda yurgan amakivachchasi Abdurahmondan xavotir olmasligi, Abdurahmon u yerda siyosiy motivlar bilan saqlanmayotganligiga ishontirishga harakat qiladi.

Inglizlar esa o‘z vakillari munshi Baxtiyorni Kobulga yuboradilar. Munshi Baxtiyor ingliz hukumati nomidan yangi amirni Gandamakga uchrashuvga taklif qiladi. Amir Yoqubxon ingliz tarafdorlari bo‘lgan Vali Muhammadxon va Yaxyoxon qistovi bilan bunga rozi bo‘ladi.

“To‘fonning birinchi to‘lqini” deb nomlangan 12-fasl Gandamakdagi erta tong tasviri bilan boshlanadi. Gandamakda ingliz qarorgohida tantanali kutib olingan amir Yoqubxonni muallif tartibli va did bilan kiyingan ingliz harbiy amaldorlari bilan solishtirib, “amirning ko‘rinishi inglizlar amaldorlari oldida juda ahmoqona ko‘rinardi va uning libosi shunchalik kulguli ediki, teatrdagi komik aktyornikidan farq qilmasdi”,[4] deb ta’kidlaydi.

---

1 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 136 مخ
2 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 138 مخ
3 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 140 مخ
4 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 157 مخ

Muallif tomonidan amirning bunchalik salbiy bo‘yoqlar bilan tasvirlanishining sababi 1879-yilning 26-mayida amir Yoqubxonning afg‘onlar uchun sharmandali bo‘lgan “Gandamak shartnomasi”ga qo‘l qo‘yib, quyidagi shartlarni qabul qiladi:

Xaybar va Michney vodiylarida Afg‘oniston hukmronligini to‘xtatish hamda ushbu vodiylar va ularning atrofida yashovchi qabilalar bilan siyosiy aloqalarni uzish;

Kurram viloyatining barcha tumanlari, jumladan, Tal tumanidan Shuturgardan tumanigacha hamda Peshin va Sivey tumanlari ustidan inglizlar vakolatini tan olish;

Afg‘oniston hukumatining tashqi siyosatini Britaniya hukumati nazorati ostida, uning maslahati bilan yuritilish;

Britaniya tomonidan tayinlangan ularning maxsus vakillariga o‘z qo‘riqchilar guruhi bilan birga Afg‘onistonning barcha hududida yashash huquqini berish.[1]

Gandamak shartnomasi asosida Kobulga kelgan ingliz missiyasi u yerda uyushtirgan bazm va undagi voqealar tasvirlanganligi sababli 13-fasl “Ingliz bazmi” deb nomlanadi. Ushbu fasl yozuvchi badiiy tasavvurining xosilasi bo‘lib, unda badiiy to‘qima obrazlarning tasviriga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Shuningdek, faslda maxsus xizmat vakillari tomonidan qo‘llaniladigan turli xiyla va o‘yinlar ham batafsil yoritilgan. Badiiy to‘qima obraz sifatida romanga kiritilgan missis Syuzi ingliz elchisinining buyrug‘iga ko‘ra inglizlarga josuslik qilayotgan Vali Muhammadxon bilan ishqiy munosabat o‘rnatishga kirishadi. Bazm paytida muhim xabar bilan elchi oldiga kelgan Vali Muhammadxon alohida xonaga kiritiladi va oldiga maftunkor missis Syuzi elkalari ochiq, ko‘kraklarining ham yarmi ko‘rinadigan engil kiyimda qo‘lida qadah va gitara bilan kiradi. Sharob va musiqa ta’sirida o‘z nazoratini yo‘qotgan Vali Muhammadxon missis Syuzini erkalayotgan paytda xonaga polkovnik Jenkins kirib keladi va “juda noqulay paytda kirib halaqit berganligi uchun” kechirim so‘raydi. Inglizlarning Vali Muhammadxonni bunday noqulay ahvolda qoldirishdan maqsadi uni butunlay o‘z izmiga solish edi. Vali Muhammadxon inglizlarning Kobulga kelishidan norozi bo‘lgan bir guruh yirik qabila sardorlari va hukumat vakillari inglizlar ustiga bosqin uyushtirayotganligini aytib inglizlarni ogohlantiradi.

“Xalqning ko‘tarilishi” deb nomlangan 14-fasl tarovatli kunning boshlanishi, Pag‘mon (Kobulning shimolidagi tog‘li mintaqa) tomondan esib kelayotgan tong shamoli, Bolohisor saroyidagi gullardan taralayotgan ifor tasviri bilan boshlanadi. Lekin tasvir bozorga kelganda vaziyat o‘zgaradi. Erta tongda odamlarning har doimgidan ko‘pligi, do‘konlar oldida guruh-guruh bo‘lib to‘planayotganligi, rastalar oldida har kuni keladigan sut, qatiq va ko‘kat sotuvchilarining yo‘qligi oldinda noodatiy kun turganidan dalolat berardi. Bundan tashqari, bozor va Bolohisor atrofidagi uylarning tomlarida odamlar xuddi tomosha ko‘rish uchun chiqgandek o‘tirib olgan edilar.

Darhaqiqat, bir ozdan keyin shahar ko‘chalari qurollangan odamlarga to‘ladi. Ular tomonidan saroy ham, inglizlarning elchixonasi ham qurshab olinadi. Elchixona

[1] د پښتنو تاريخ ، د قاضي عطاء الله ليکنه ، د کابل چاپ ، درېم جلد 382 مخ

atrofidagi olomonni tarqatish maqsadida Kavanyari to‘pponchasidan ikki marta o‘q uzadi. G‘azablangan olomon elchixonaga bostirib kiradi va u yerdagi ingliz diplomatlarining hammasi o‘ldiriladi.

15-fasl “Rahbarlar inglizlarga ta’zim qilmoqda” deb nomlanadi. Bu fasl Lo‘gar vodiysidagi kuz tabiati manzarasini tasvirlash bilan boshlanadi. Vodiyning Xushi mintaqasida Amir Yoqub boshchiligidagi afg‘on va Roberts boshchiligidagi ingliz delegatsiyalari uchrashib, ingliz elchisining o‘ldirilishi masalasini muhokama qiladilar. Tomonlar Kobulga qarab yo‘l oladilar. Ular Kobulga yetib kelguncha yo‘lda bir necha marta hujumga uchraydilar. Bu hujumlar “Bolohisor alanga ichida” deb nomlanadigan 16-faslning boshida yoritiladi. Ayniqsa, Sang Navishta nomli joyda inglizlar jiddiy qarshilikka duch keladilar va ko‘p odam yo‘qotadilar. Kobulga yetib kelgach, general Roberts 12-oktyabr kuni Kobul shahri aholisini Bolohisor saroyi oldiga yig‘ishni buyuradi. Shu yerda u shahar aholisiga murojaat qilib, nutq so‘zlaydi. O‘z nutqida Roberts ingliz elchisini o‘ldirgan shaxslar, shuningdek, Sang Navishta va Bini Hisor mintaqalarida ingliz qo‘shiniga hujum qilganlar topib jazolanishi, Bolohisor saroyi va uning atrofi tekislanishi, Kobul shahriga inglizlar tomonidan qo‘mondon tayinlanishi va hamma o‘z o‘qotar qurollarini topshirishi zarurligi, qo‘lbola qurollarga 3 rupiyadan, original qurollarga 5 rupiyadan kompensatsiya berilishini, bundan tashqari elchini o‘ldirgan va inglizlarga yo‘lda hujum qilgan shaxslar haqida ma’lumot berganlarga mukofot puli berilishini e’lon qiladi.14-oktyabr kuni Robertsning buyrug‘iga ko‘ra Bolohisor saroyi va atrofidagi uylar buzib tashlandi.

17-fasl “Qasos” deb nomlanadi. Bu fasl dramatik lahzalarga boy fasl bo‘lib, unda inglizlarga qarshi partizanlik urushida qatnashayotgan Akbarxonning uyiga ingliz askarlarining o‘n kishilik guruhi bostirib keladi va uning xotini Sharifani zo‘rlamoqchi bo‘ladi. Lekin Sharifa ularni zaharlab o‘ldiradi. Askarlar shubhaga bormasliklari uchun uning o‘zi ham zaharlangan ovqatdan yeb halok bo‘ladi. Voqealar rivojining eng murakkab sahnasi askarlarning guruh kapitani Sharifaning ko‘z o‘ngida uning ikki nafar yosh bolasiga zahar qo‘shilgan ovqatdan yediradi.

Aksariyat fasllar tabiat tasviri bilan boshlangan bo‘lsa, “Dekabr to‘foni” deb nomlanuvchi 18-fasl pushtunlarning milliy an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan pushtunvolay ta’moyillaridan biri jirga tasviri bilan boshlanadi. G‘azni viloyatida ikki kun davom etgan jirgada pushtun qabila sardorlari inglizlarga qarshi kurashga qaror qiladilar. Jangovar harakatlar 1879-yilning 8-dekabrida general Makforsen boshchiligidagi ingliz qo‘shinlarining Korizmir yaqinida Muhammad Usmonxon va Mir Bachaxon boshchiligidagi Ko‘histon va Tagob lashkari bilan to‘qnashuvidan boshlanadi. Bir qancha og‘ir janglardan so‘ng afg‘on lashkarlari Kobulni har tomondan o‘rab ola boshlaydilar.

“G‘ozi ona” deb nomlangan 19-faslda eri va farzandlari inglizlarga qarshi urushda halok bo‘lgan onaning jang paytidagi qahramonliklari bayon qilinsa, “Qahramon

kelinchak” deb nomlangan 20-faslda esa Kobulda to‘y kuni kuyovini jangga yuborgan kelinchak haqida hikoya qilinadi.

“Mash’um kuy” deb nomlangan 21-faslda 1879-yilning 14-dekabrda bo‘lib o‘tgan shiddatli urush sahnasi yoritilgan. Afg‘onlar har tomondan Sherpur mintaqasiga bostirib keladilar. Inglizlarga Jalolobodan kelgan qo‘shimcha kuchning Sherpurni har tomondan qurshab olayotgan afg‘onlarning ort tomonidan hujum qilishi jang sahnasiga yanada shiddatli tus beradi. Ingliz askarlarini qurshab olayotgan afg‘on kuchlarining Muhammad Usmonxon qo‘mondonlik qilayotgan bir qismi o‘zi qurshovga tushib qoladi va afg‘onlar katta talafot ko‘radilar. Xuddi shu joyda qo‘mondon Muhammad Usmonxon ham halok bo‘lishi bobning “Mash’um kuy” deb nomlanishiga sabab bo‘ladi. Afg‘on kuchlarining bir qismi qurshovda qolgan afg‘on kuchlari tomonga yordamga keladilar va Maykforsen boshchiligida qo‘shin ham asosiy ingliz kuchlari bilan birga qal’a tomonga chekinadi.

“Hirotda” deb nomlangan 22-faslda Hirot shahri hokimi Ayubxon o‘tkazayotgan majlis jarayonida mamlakatdagi harbiy-siyosiy vaziyat muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida Jamshidiy va Jahondod Qipchoq kabi inglizlar tomoniga o‘tib ketgan xoin beklarni tutishga va darhol qatl etishga ko‘rsatma beriladi. Ayubxon majlis qatnashchilariga Kobuldagi vaziyat afg‘onlar foydasiga hal bo‘layotgani to‘g‘risida ma’lumot berib, Qandahorda joylashgan ingliz qo‘shinlariga hujum qilish lozimligini ta’kidlaydi. To‘pchiboshi (artilleriya boshlig‘i) Ahmadgulxon yomg‘ir mavsumi bo‘lganligi sababli zambaraklar Qandahorga yetib borguncha safdan chiqishi mumkin deyishiga qaramay, Ayubxon general Toj Muhammad, qo‘mondonlar Hafizulloxon Lo‘gariy va Xushdilxonga darhol Qandahorga yurishga tayyorgarlik ko‘rishga buyruq beradi.[1]

Ayubxonning Qandahorga yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgani to‘g‘risidagi xabar “Qandahorda” deb nomlangan 23-faslda Qandahor shahrida joylashgan ingliz qo‘shinlari qarorgohida muhokama qilinadi. Dastlab xabarning ishonchliligi ingliz qo‘mondonlarida shubhali tuyiladi. Chunki ingliz siyosiy agenti San’atxon Ayubxonni general Praymzga inglizlar tarafdori sifatida tasvirlagan edi. Lekin inglizlar bilan hamkorlik qilayotgan Qandahor hokimi Sheralixon tomonidan xabar to‘g‘riligi tasdiqlangach, harbiy kengashda ingliz qo‘shinlari Helmand daryosining sharqiy sohilida harbiy istehkom qurib, u yerga batalion joylashtirish kerak, degan qarorga keladilar. Mayor Lich boshchiligidagi guruh Qandahor shahri va Helmand daryosi oralig‘ini rekognostsirovka qilib, batalionni joylashtirish uchun Mayvand eng qulay joy, deb xulosa qiladi. Uning xulosasi navbatdagi harbiy kengashda tasdiqlanadi va general Praymz Britaniya Hindistoni rahbariyatidan ingliz harbiylarining bir qismini Mayvandga yuborishga ruxsat oladi.

“Dovyurak jangchilar” deb nomlangan 24-faslda Ayubxon boshchiligida Qandahorga qarab yo‘lga chiqqan 4100 nafar piyoda, 900 nafar otliq va 20 ta

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 259 مخ

zambarakka ega 500 nafar to‘pchidan iborat artilleriya guruhi, jami 5500 nafar muntazam va 2000 nafar nomuntazam qo‘shinning safar sarguzashtlari tasvirlangan. Ayubxon boshchiligidagi bu qo‘shin Farohga yetib borganida uni Muhammad Umarxon va Muhammad Yusufxon kutib oladi va o‘z lashkari bilan oxirgi tomchi qoni qolguncha uning xizmatida ekanligini aytadi.[1] Achakzay va Nurzay qabilalari ham o‘z lashkari bilan ularga qo‘shiladilar. Ular maslahatlashib, ertasiga Farohdan Qandahorga qarab yo‘lga chiqishga Helmand daryosining bo‘yida Xaydarobod mintaqasida qarorgoh tikishga kelishib oladilar. Bu bobda etnografik ma’lumotlar ham keltirilgan. Farohning “La’l” navli uzumi Ayubxon va qo‘mondonlar tili orqali Afg‘onistondagi eng mazali uzum sifatida tavsiflanadi.[2]

25-fasl “Dovul” deb nomlanadi. Xaydarobodda joylashgan Ayubxon qo‘shiniga Sorvon qal’asidan Muhammadxondan chopar keladi. Chopar Ayubxonga Qandahor hokimi Sheralixon boshchiligidagi pushtunlar lashkari Muhammadxon tomonga o‘tgani, inglizlar Girishk atrofida yig‘ilib, Qandahorga yurmoqchi, Muhammadxon esa ularning yo‘lini to‘sib, hujum qilmoqchi ekanligini ma’lum qiladi. Ayubxon chopar orqali Muhammadxonga inglizlarni ta’qib qilishga, lekin hujum qilmaslikka ko‘rsatma beradi. Shuningdek, uning ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz qo‘shini Mayvandga ketayotgani, Ayubxon Abubakrxon boshchiligidagi alizay qabilasi lashkarini kutayotgani, u yetib kelishi bilan harakat boshlab, inglizlarni Mayvandda kutib olishini ma’lum qiladi va choparni kuzatib qo‘yadi.

Bu faslninng Dovul deb nomlanishining sababi chopar Sorvon qal’asidan Xaydarobodga qisqa muddatda yetib keladi. Bunga Ayubxon va uning lashkarboshilari ishonmaydi. Shunda chopar unga Muhammadxon o‘zining “Chaqmoq” laqabli otini berganini, shu sababli qisqa muddatda yetib kelganini aytadi. Muhammadxonning “Chaqmoq” laqabli uchqur otining dovdug‘i afg‘on zodagonlari orasida mashxur edi. Ayubxon “Chaqmoq”ni ko‘rganini, uning dovulday uchishini aytib, choparga javob beradi. Ortidan borib, chaqmoqni taniydi va chopar aldamaganiga ishonch hosil qiladi.

“Qizil xandaq” deb nomlangan 26-fasl romanning kulminatsiyasi hisoblanadi. Unda afg‘onlar va inglizlar orasida Mayvand dashtida bo‘lib o‘tgan jang batafsil yoritib beriladi.

Romandagi so‘nggi 27-fasli “Yirik mojaroning yakuni” deb nomlanadi. Unda jang maydonidan qochib ulgurgan general Nattal boshchiligidagi ingliz askarlarining Xos Madad[3]ga yetib kelishi, ularga kelgan madad kuchlari bilan Qandahorga yetib borib, harbiy qarorgohni ham shahar ichkarisiga ko‘chirishi aks ettirilgan. Ular Ahmadshohi qal’asi oldida xandaqlar qazib, atrofini tikanli simlar bilan o‘rab, shaharda harbiy holat e’lon qiladilar. Arkning janubiy va sharqiy qismini ingliz batalioni, shimoliy va g‘arbiy qismini 28-bombey polki qo‘riqlashni boshlaydi. Shuningdek, shahar darvozalarining

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 273 مخ
[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 275 مخ
[3] Qandahordan 35 km g‘arbda joylashgan aholi punkti

mudofaasi shaxsan generallar zimmasiga yuklanadi. General Borrouz Hirot darvozasini, general Nattal Kobul darvozasini, general Bruk Shikopur darvozasini, polkovnik Minvong Iydgoh darvozasini qo‘riqlashga mas’ul etib tayinlanadi. Umumiy mudofaaga general Prayms[1] boshchilik qiladi. Afg‘onlar qal’alarni to‘plardan o‘qqa tutishni boshlaydilar. General Prayms muzokara qilish uchun yuborgan vakillari Ayubxon oldigacha yetib borolmaydi. Ular shahardan chiqishi bilan atsakzay qabilasi lashkari tomonidan tutib, qatl etiladi. General Bruk bir guruh ingliz otliqlari bilan Iydgoh darvozasidan chiqib, shaharni qamal qilgan afg‘on kuchlariga hujum qiladi. Jang afg‘onlar foydasiga hal bo‘layotganini ko‘rgach, chekinadi. Lekin shaharga kirib ulgurmasdan o‘ldiriladi.[2] Inglizlar shaharni topshirish uchun vaqt so‘raydilar va bu vaqt orasida ularga Kobuldan qo‘shimcha kuch keladi. O‘rtada sulh tuziladi va inglizlar shaharni Abdurahmonning vakili Sardor Shamsiddinxonga topshiradilar.

“Osiyo yuragida to‘fon” tarixiy romanining kompozitsiyasion qurilish nuqtai nazaridan 27 ta fasldan iborat. Fasllar o‘ziga xos ravishda xronologik ketma-ketlikga amal qilingan holda bo‘lingan.

Har bir fasl butunligicha urush davridagi ma’lum bir muhim voqeaning tasvirlashga bag‘ishlangan va fasl oxirida u o‘z nihoyasiga yetadi. Bu bo‘linish o‘quvchiga voqealarni yaxshiroq tushunish va voqealar orqasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash imkonini beradi.

Shuningdek, har bir faslning o‘z ichki kompozitsion qurilishi bo‘lib, unga ko‘ra fasl tabiat tasviri bilan boshlanadi. Fasllardagi tabiat tasviri unda hikoya qilinadigan voqealarga mos qilib tasvirlanadi. Fasl yakunida berilgan qisqagina xulosada muallifning ushbu tarixiy voqeaga munosabati aks etadi.

Asar uslub jihatdan badiiy va ilmiy uslublarning qorishmasi kabi ko‘rinadi. Chunki muallif tarixiy shaxslar, joy nomlari va voqealarga sharh bilan birga ayrim keltirilgan faktlar qaysi tarixiy asarlardan, hujjatlardan olinganini ham ko‘rsatib, havola berib o‘tadi. Roman sharhlar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati - (توضيحات او مراجع - [tavzihot av maroje’]) bilan tugallanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, I.Atoyining “Osiyo yuragida to‘fon” tarixiy romanida kompozitsion tarkibning bir-biriga mutanosibligi asarning puxta shakllanishiga xizmat qilgan. Kompozitsiya elementlarini mohirlik bilan qo‘llanilganligi muallifga ikkinchi ingliz-afg‘on urushidagi ijtimoiy-siyosiy muhitni tafsilotlari bilan tasvirlash imkonini bergan va asarning mazmunini to‘liq ochilishida katta ahamiyat kasb etgan.

[1] General James Primerows – ikkinchi ingliz-afg‘on urushida qatnashgan ingliz generali, general D.Styuart Kobulga ketgandan keyin Qandahordagi ingliz qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilgan.

[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 295 مخ

Ibn Molik “Alfiyya” asaridagi qoidalarni sharhlash metodologiyasi

AVAZBEK D. OCHILOV
O‘qituvchi, O‘zDJTU

USMONJON K. ERMATOV
Katta o‘qituvchi, O‘zDJTU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arab tili grammatikasining muhim manbalaridan biri bo‘lgan Alfiya asarida qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Asar muallifi Ibn Molik grammatik qoidalarni she’riy shaklda bayon qilgan bo‘lsa-da, ularni aniq, izchil va mantiqiy tizim asosida taqdim etgani bilan ajralib turadi. Tadqiqotda muallif tomonidan grammatik qoidalarni tushuntirishda qo‘llangan asosiy usullar, jumladan, so‘z tartibini o‘zgartirish orqali ustuvorlikni ko‘rsatish, arab qabilalari lahjalariga oid xususiyatlarni keltirish, kam uchraydigan va nodir (shoz) holatlarni izohlash kabi metodologik jihatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, asarda grammatik qoidalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish va nazariy bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari Alfiya asari arab tili grammatikasini o‘rganishda muhim ilmiy manba ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *arab tili grammatikasi, Alfiya, Ibn Molik, metodologiya, nahv ilmi, arab qabilalari lahjalari, shoz holatlar, nodir misollar.*

Annotation: *This article analyzes the methodological approaches used in one of the most important works on Arabic grammar, Alfiya, written by Ibn Molik. Although the grammatical rules are presented in a poetic form, the author managed to organize them in a clear, consistent, and logical structure. The study examines the main methods employed by the author to explain grammatical rules, including the use of word order changes to emphasize priority, references to the dialectal features of certain Arab tribes, and the explanation of rare and irregular cases. The findings indicate that this work serves as an important scholarly source for the comprehensive study of Arabic grammar.*

Keywords: *Arabic grammar, Alfiya, Ibn Molik, methodology, nahw studies, Arab tribal dialects, rare forms, irregular cases.*

Аннотация: *В данной статье анализируются методологические подходы, использованные в одном из важнейших трудов по арабской грамматике - Алфийя, автором которого является Ибн Малик. Несмотря на то, что грамматические правила изложены в поэтической форме, автору удалось представить их в последовательной и логически выстроенной системе. В исследовании рассматриваются основные методы объяснения грамматических правил, применяемые автором, включая изменение порядка слов для подчеркивания приоритетности, обращение к особенностям диалектов арабских племён, а также объяснение редких и отклоняющихся (шазз) форм. Результаты исследования показывают, что данный труд имеет важное значение для глубокого изучения арабской грамматики.*

Ключевые слова: *арабская грамматика, Alfiya, Ibn Molik, методология, наука нахв, диалекты арабских племён, редкие формы, шазз случаи.*

Kirish. Metodologiya muallif o‘z asarini yozishda qo‘llagan yondashuvidir. Yo‘nalishi va mazusidan qat’iy nazar har bir asar o‘ziga xos metadologiya asosida bitilgan hisoblanib, uni o‘rganish ilmiy sohadagi yangi yutuqlarga erishish imkonini beradi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid ilmiy asarlardagi mualliflarning yondashuvini tadqiq etish soha vakillari uchun yuqori ahamiyat kasb etadi.

Asar nasriy shaklda yozilgan bo‘lsa, uni tushunish va yondashuvni aniqlash nisbatan oson bo‘lishi, ammo ibn Molikning “Alfiya”si kabi she’riy shaklda yozilgan bo‘lsa, uning tuzilishini anglash va muallif metodologiyasini o‘zlashtirish murakkabroq kechishi ma’lum. Bunday tadqiqot she’riy uslubda yozilgan ilmiy matn o‘rganuvchilariga uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, matn samaraliroq o‘zlashtirilishida qo‘l keladi.

Abstract. *This study presents a historical-linguistic analysis of lexical borrowings that emerged in the early Middle Ages as a result of language contact between Middle Indo-Aryan languages (Pāli, Prakrits, Buddhist Sanskrit) and the Eastern Iranian languages of Central Asia (Sogdian, Bactrian, Khwarazmian, Saka, Tocharian). The introductory part outlines the decisive role of long-standing economic, cultural, and religious interactions between the Indian subcontinent and Central Asia in shaping these borrowings and emphasizes the particular scholarly importance of Indo-Aryan elements preserved in the lexicon of Eastern Iranian languages whose written sources are fragmentary.*

The aim of the study is to identify the lexical influence of Middle Indo-Aryan languages on Eastern Iranian languages in the early medieval period, to determine the chronological stages of borrowing, and to reconstruct the historical and cultural factors that conditioned this process. In accordance with this aim, the research addresses issues of early substratum contacts, semantic classification of borrowings, and the dynamics of linguistic interference during the Hellenistic, Kushan, and post-Kushan periods.

The methodological framework of the study is based on a combination of historical-comparative, etymological, areal-linguistic, reconstructive, semantic-typological, as well as textological and epigraphic methods. The integrated application of these approaches makes it possible to distinguish inherited and borrowed lexical layers and to trace their semantic development and geographical distribution.

The results demonstrate that the incorporation of Middle Indo-Aryan vocabulary into Eastern Iranian languages occurred through several historical stages, with the most intensive phases corresponding to the Hellenistic period, the expansion of Buddhism, and phases of transregional trade and cultural exchange. The borrowed lexicon covers a wide range of semantic domains, including trade and economy, social structure, religion, philosophy, everyday life, and specialized terminology.

Keywords: *Middle Indo-Aryan languages, Eastern Iranian languages, lexical borrowing, language contact, BMAC substratum, Buddhist terminology, Hellenistic period, Kushan period, areal linguistics.*

KIRISH

Ilk o‘rta asrlarda Sharqiy Eron va O‘rta Hind mintaqalari o‘rtasida shakllangan lisoniy hamda madaniy aloqalar mintaqa tarixining eng muhim qatlamlaridan birini tashkil etadi. Bu jarayon, avvalo, Markaziy Osiyo va Hindiston yarim oroli o‘rtasidagi ko‘p asrlik iqtisodiy, madaniy va dini munosabatlarning tabiiy natijasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, uning lingvistik izlari o‘rta hind-oriy (pāli, prakritlar, buddaviy sanskrit) va sharqiy eroniy (so‘g‘diy, baqtriy, xorazmiy, sak va boshqalar) tillar leksikasida chuqur iz qoldirgan.

Bugungi kunda hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi o‘zaro leksik o‘zlashuv jarayonlarini chuqur o‘rganish nafaqat Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanish mexanizmlarini, balki qadimgi mintaqalararo aloqalarning real ko‘lamini ham qayta tiklash imkonini beradi. Sharqiy eroniy tillarning aksariyati o‘lik tilga aylangan, yozma manbalar esa fragmentar

shaklda saqlangan sharoitda ularning leksik qatlamida kuzatiladigan hind-oriy unsurlar murakkab tarixiy-lisoniy jarayonlarning yagona lingvistik ko‘rsatkichi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari BMAK substrati, buddaviylik ekspansiyasi, ellinistik-mintaqaviy jarayonlar va Kushon davri sivilizatsion aloqalari kabi tarixiy omillar ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Markaziy Osiyo tillaridagi hind-oriy o‘zlashmalarining manbasi, davriy qatlamlanishi, semantik tasnifi va lingvokontakt mexanizmlarini aniqlash bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Hind-oriy va eroniy tillarning katta qismi umumoriy ildizlarga ega bo‘lgani sababli, leksik birliklarning *merosiy* (proto-oriy) yoki *o‘zlashgan* xarakterini farqlash qiyin. Bu esa an’anaviy fonetik-morfologik qiyoslash metodlarining chegaralanganini ko‘rsatadi va masalani yanada dolzarb qiladi. Yana bir muhim muammo – Sharqiy Eron tillarining aksariyatida yozma manbalar kamligi yoki yetarli darajada saqlanmagani sababli lingvistik rekonstruksiyada tarixiy-madaniy faktorlarni integrativ tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o‘rta hind-oriy–sharqiy eroniy lingvokontakt jarayoni izchil tarixiy-bosqichli modelda tahlil qilinadi, substrat unsurlar, buddaviylik terminologiyasining o‘zlashuvi, savdo-tijorat leksikasi hamda ijtimoiy-madaniy atamalar yagona tizim asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati o‘rta hind-oriy tillari va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi lisoniy munosabatlar tarixini chuqurroq anglashga, mintaqa tarixiy-madaniy jarayonlarini qayta rekonstruksiya qilishga hamda hozirgi hind-eroniy tillar qiyosiy tadqiqotlariga yangi materiallar kiritishga xizmat qiladi.

MAQSAD VA VAZIFA

Mazkur ishning asosiy ***maqsadi*** – ilk o‘rta asrlarda o‘rta hind-oriy tillarining sharqiy eroniy tillariga leksik ta’sirini tarixiy, etimologik va madaniy aspektlarda ilmiy asoslangan holda o‘rganish, ularning davriy bosqichlarini belgilash hamda mintaqa lingvokontakt jarayonining asosiy omillarini rekonstruksiya qilishdan iborat.

Tadqiqotning ***vazifalari*** esa ushbu maqsaddan kelib chiqadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi eng qadimgi substrat aloqalarini aniqlash;
- o‘zlashmalarni semantik-guruhiy tasniflash;
- lisoniy interferensiyaning ellinistik, Kushon va post-Kushon davrlari bo‘yicha dinamikasini tavsiflash;

- BMAK substrati, buddaviylik ekspansiyasi, transregional savdo tizimlari va siyosiy tuzilmalarning til hodisalariga ta’sirini ilmiy tahlil qilish;
- o‘zlashmalarni sharqiy eroniy tillarning ichki taraqqiyoti bilan bog‘liq holda izohlash.

USULLAR

Ushbu tadqiqot hind-oriy va sharqiy eroniy tillari o‘rtasidagi lisoniy aloqalarni kompleks yondashuvda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning metodologik asosini tarixiy-qiyosiy va areal lingvistika tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot doirasida quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Tarixiy-qiyosiy metod

Bu usul orqali o‘rta hind-oriy (pāli, prakritlar, buddaviy sanskrit) va sharqiy eroniy (so‘g‘diy, xorazmiy, baqtriy, sak, toxariy) tillarining fonetik, morfologik va leksik tizimlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, leksik birliklarning proto-oriy, protohind-eroniy hamda protohind-yevropa darajasidagi etimologik ildizlari aniqlanib, o‘zlashma va merosiy qatlamlar farqlab chiqildi.

2. Etimologik tahlil metodi

O‘zlashgan leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik rivoji va tarixiy qatlamlanishini aniqlash maqsadida ularning qadimgi manbalardagi shakllari, fonetik almashuvlari va ma’no dinamikasi etimologik lug‘atlar, matnlar korpusi va yozma manbalar asosida tahlil qilindi.

3. Areal-lingvistik metod

Turon va Shimoliy Hindiston mintaqalaridagi tarixiy aloqa zonalari — BMAK hududi, Baqtriya, So‘g‘diyona, Gandhara, Yettisuv va Hindukush bo‘ylab shakllangan lingvokontakt maydonlari aniqlanib, geografik omillarning leksik o‘zlashmalarga ta’siri o‘rganildi.

4. Madaniyatshunoslik va tarixiy-sivilizatsiyaviy tahlil ususli

Leksik o‘zlashuvlar faqat til taraqqiyotiga emas, balki diniy (buddaviylik), iqtisodiy (savdo yo‘llari), siyosiy (ellinizm, Kushon davlati) va madaniy jarayonlarga ham bog‘liq bo‘lgani uchun tegishli davrlarning arxeologik, tarixiy va madaniy manbalari lingvistik ma’lumotlar bilan integratsiyalangan holda tahlil qilindi.

5. Matnshunoslik va epigrafik tahlil metodi

So‘g‘diy, boxtariy, xorazmiy, brahmi, xo‘taniy, prakrit yozuvlari, shuningdek buddaviy matnlar (Tripiṭaka, avadānalar, epigrafik bitiklar) o‘rganilib, ulardagi hind-oriy kelib chiqishiga mansub atamalar identifikatsiya qilindi.

6. Semantik tipologik tahlil metodi

O‘zlashmalar tematik guruhlarga — xo‘jalik terminologiyasi, diniy-falsafiy leksika, boshqaruv va mansab tizimlari, savdo va hunarmandchilik nomlari,

etiket va ijtimoiy terminlar bo‘yicha tasniflanib, semantik o‘zgarishlar va moslashuv jarayonlari aniqlandi.

7. Rekonstruktiv metod

Sharqiy eroniy tillarning bir qismi o‘lik til bo‘lgani sababli, ularning o‘zlashma qatlamini aniqlashda rekonstruksiya tamoyillari qo‘llanildi. Bu jarayonda fonetik qonuniyatlar, morfologik paradigmalarning tarixiy shakllari va umumoriy izomorfizmlar qayta tiklandi.

NATIJALAR VA MULOHAZA

Hindiston yarim oroli qadimdan Sharqning yirik sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida ajralib turadi. Shu bois mazkur hududning qadimgi tarixini rekonstruksiya qilishda mahalliy yozma manbalar korpusi nisbatan yaxshi saqlangan bo‘lib, tadqiqotchilarga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, Markaziy Osiyo tarixining ilk bosqichlarini o‘rganishda mahalliy epigrafik va paleografik yodgorliklarning yetarli darajada saqlanmaganligi, shuningdek Hindiston yoki Eron sivilizatsiyalarida shakllanganidek boy yozma an’ananing mavjud bo‘lmaganligi mintaqaning dastlabki lisoniy kontaktlarini aniqlash va rekonstruksiya qilish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi[1].

Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, oriylarning (protohind-eroniy qabilalarning) migratsiyasidan avval Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarida mavjud bo‘lgan substrat qatlamlarni aniqlash masalasi keyingi til aloqalari hamda leksik o‘zlashmalarni to‘liq anglash uchun fundamental ahamiyatga ega. Shu sababli oriylar kirib kelishidan oldingi davrda Markaziy Osiyoning janubiy qismi va Hindistonning shimoliy hududlarida yashagan mahalliy aholining lingvistik mansubligini aniqlash masalasi tilshunoslikdagi asosiy ilmiy muammolardan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

Xususan, shartli ravishda “Baqtriya–Marg‘iyona arxeologik kompleksi” (BMAK) deb nomlanuvchi, oriylar migratsiyasidan avval Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalarida shakllangan dehqonchilikka asoslangan shahar madaniyati substrati alohida tarixiy-lingvistik ahamiyat kasb etadi. Chunki vedik oriylar Hindiston yarim oroliga kirib kelgan davrda Markaziy Osiyoda muqimlashgan eroniy oriylar ham ushbu yuksak moddiy va ma’naviy madaniyatga ega substrat bilan bevosita aloqada bo‘lgan va undan turli darajada ta’sir olgan. Ushbu madaniy va lisoniy o‘zaro ta’sir, eng avvalo, leksik qatlamda aks etuvchi substrat o‘zlashmalarda kuzatiladi.

Tilshunos A. Lubotskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda BMAK substratidan qadimgi eroniy va qadimgi hind-oriy tillariga o‘tgan 55 ta

[1] Witzel, M. Early Loan Words in Western Central Asia: Substrates, Migration and Trade // Sino-Platonic Papers. — 2003. — Vol. 129. – P.3.

o‘zlashma leksik birlik aniqlangan[1]. Ulardan ayrimlari: *at^{h}r̥ (*atharvan* – “rohib, ruhoniy”), *jawījā (“ariq, sun’iy suv inshooti”), *kan (“kanop”) va boshqalar. Bu birliklar oriy tillarining dastlabki shakllanish bosqichidayoq substrat sivilizatsiyalar bilan madaniy-lisoniy interferensiya jarayonlari faol kechganini ko‘rsatadi.

Tilshunos M. Vitzel qadimgi hind-oriy va eroniy tillarning har ikkala tarmoqlarida uchraydigan *uštr (*uṣṭra – “tuya”), *xar (*xara – “eshak”) va *išt (*iṣṭ – “g‘isht”) kabi leksik birliklarni BMAK substratidan o‘zlashgan deb izohlaydi [2] . Tadqiqotchi bu qarashni BMAK madaniyatida tuyalar xonakilashtirilgani, turar-joylarning xom g‘ishtdan qurilgani, shuningdek Yaqin Sharqdan keltirilgan eshaklar boqilganini ko‘rsatuvchi arxeozoologik va arxeologik dalillar bilan asoslaydi. Ko‘chmanchi oriy jamoalarining dastlabki madaniyatida mazkur tushunchalar mavjud bo‘lmaganini hisobga olganda, ushbu terminlarning substrat manbadan o‘zlashtirilgani haqidagi xulosa ilmiy asosga ega bo‘ladi.

Keyingi bosqichlarda Shimoliy va Markaziy Hindiston hududlariga ko‘chib o‘tgan hind-oriy jamoalari bilan Markaziy Osiyoda muqimlashgan sharqiy eroniy etnoslar o‘rtasida faol lisoniy va madaniy aloqalar shakllandi. Bu davrga kelib leksik o‘zlashuv jarayoni boshqa til oilalari bilan emas, balki bir til oilasining ichki guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarakteriga ega bo‘la boshladi. Mazkur jarayon ayniqsa o‘rta hind davridan (miloddan avvalgi III–II asrlar) boshlab yanada kuchaydi. Chunki aynan shu davrda hind falsafasi, diniy ta’limotlari va madaniy qadriyatlari qadimgi dunyoning turli mintaqalariga — Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Xitoyga qadar faol ravishda tarqaldi.

Miloddan avvalgi III asrdan boshlab Shimoliy va Markaziy Hindistonda klassik sanskritning adabiy me’yor sifatidagi mavqei pasayib, o‘rnini pāli, prakrit tillari hamda ularning turli lahjalari egallay boshladi. Natijada leksik o‘zlashmalar ko‘lami kengaydi, hind-oriy tillarining o‘zaro dialektologik aloqalari va regional tarmoqlanish jarayoni jadallashdi.

Mazkur davrda Markaziy Osiyo hududida boxtariy (baqtriy), so‘g‘diy, xorazmiy, sak (asosan xo‘taniy varianti) va toxariy tillari mavjud bo‘lib, ular g‘arbiy eroniy tillardan (o‘rta fors — pahlaviy, parfiyoniy) dialektal va struktural jihatdan sezilarli farq qilgan. Shu bois tilshunoslikda ushbu tillar majmuasi “sharqiy eroniy tillar” sifatida shartli tarzda tasniflanadi[3].

---

[1] Lubotsky A. The Indo-Iranian Substratum // Early Contacts between Uralic and Indo-European: Linguistic and Archaeological Considerations / eds. C. Carpelan, A. Parpola, P. Koskikallio. — Helsinki: Suomalais-Ugrilainen Seura, 2001. — P. 302.

[2] Witzel M. Early Loan Words in Western Central Asia: Substrates, Migration and Trade // Sino-Platonic Papers. — 2003. — Vol. 129.

[3] Shimin G. On the Fusion of Nationalities in the Tarim Basin and the Formation of the Modern Uighur Nationality // Central Asian Survey. — 1984. — Vol. 3, No. 4. — P. 8

O‘rta hind-oriy tillari (pāli, prakrit va ularning lahjalari) bilan o‘z davrida mavjud bo‘lgan sharqiy eroniy tillari o‘rtasidagi muntazam lisoniy aloqalar geografik yaqinlik va madaniy-iqtisodiy munosabatlar bilan izohlanadi. Bunday aloqalarning intensivligi o‘zaro leksik o‘zlashmalarning ko‘lami orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.

Biroq sharqiy eroniy tillarning o‘rta hind-oriy tillaridan qaysi leksik birliklarni o‘zlashtirganini aniqlash etimologik tahlil uchun murakkab masalalardan biridir. Chunki har ikkala tarmoqda uchraydigan so‘zlarning katta qismi umumoriy ildizdan kelib chiqqan bo‘lib, ularning o‘zlashma yoki merosiy xarakterini aniqlash jarayonida an’anaviy qiyosiy-lingvistik metodlar (formant va semantik o‘xshashlikka asoslangan) yetarli samarani bermaydi.

Masalan, qadimgi xorazmiy tilida qayd etilgan βž — “quvonmoq” fe’li boshqa eroniy tillarda mustaqil leksik birlik yoki morfemik komponent sifatida uchramaydi[1]. Biroq qadimgi va o‘rta hind-oriy tillarida ushbu fe’lga semantik jihatdan mos shakllar mavjud: vedik sanskritda *bhojate* — “rohatlanmoq, quvonmoq”; pāli tilida *bhoga* — “xursandchilik, boylik”; prakritlarda *bhoyai* — “rohatlanmoq, qoniqmoq, to‘ymoq”; *bhojana* — “ovqatlanmoq, to‘yinmoq”[2]. Bu shakllarning fonetik va morfologik jihatdan fe’l-negiz sifatida mustahkamlashgani ularning etimologik markazi hind-oriy, ayniqsa o‘rta hind tillari ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘rta hind-oriy *bhojana* so‘zining “ovqatlanmoq” ma’nosi xo‘taniy (sak) tilidagi *būjsana* — “bazm qilmoq, ziyofat uyushtirmoq” fe’li bilan semantik jihatdan izomorfdir[3].

Shunday qilib, tarixiy-qiyosiy va rekonstruktiv tahlil metodlari asosida xorazmiy tilidagi βž (“quvonmoq”) hamda xo‘taniy tilidagi *būjsana* (“bazm qilmoq”, “ziyofat uyushtirmoq”) fe’llarining hind-oriy, xususan o‘rta hind tillaridan o‘zlashgan bo‘lishi haqida ilmiy asoslangan taxmin ilgari surish mumkin. Bu holat o‘rta hind va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi faol leksik interferensiya jarayonining mavjudligini tarixiy-lingvistik dalillar bilan tasdiqlaydi.

Davriy jihatdan tahlil qilganda, Markaziy Osiyo hududidagi sharqiy eroniy tillarga o‘rta hind-oriy leksikaning o‘zlashuv jarayoni bir necha tarixiy-bosqichlarga ajratilishi mumkin. Ushbu bosqichlar madaniy, diniy va siyosiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda quyidagicha tasniflash mumkin:

[1] Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964. — 2012.

[2] Turner R. L., Turner, D. R. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London; New York: Psychology Press, 2000. — 862 p. – P.540.

[3] Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964. — 2012. – P.19.

1. **Ellinistik bosqich.**

Makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyo va Hindiston yurishlaridan so‘ng shakllangan ellinistik davlatlar tizimi doirasida yuzaga kelgan keng ko‘lamli madaniy va tilshunoslik aloqalari natijasida ayrim leksik birliklarning o‘zlashuvi sodir bo‘lgan. Ushbu davrda yunon, hind-oriy va eroniy unsurlar o‘zaro kontakt zonalari hosil qilib, leksik interferensiya va madaniy almashinuv jarayonlariga zamin yaratgan.

2. **Buddaviylik ekspansiyasi bosqichi.**

Hindistonda shakllangan buddaviylik doktrinasi Kushonlar imperiyasi davrida Markaziy Osiyo orqali Sharqiy Osiyoga yoyilishi bilan birga diniy-falsafiy terminologiyaning keng migratsiyasiga sabab bo‘lgan. Bu jarayon natijasida o‘rta hind-oriy leksik elementlar, xususan, diniy, falsafiy va etik tushunchalarni ifodalovchi terminlar so‘g‘d, baqtriy va sak kabi sharqiy eroniy tillarga singib bordi. Mazkur bosqich o‘rta hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi eng faol lisoniy kontakt davri sifatida tavsiflanadi.

3. **Beqarorlik va tranzit aloqalar bosqichi.**

Markaziy Osiyo hamda Shimoliy va Markaziy Hindistonda siyosiy beqarorlik kuchaygan davrda ham savdo-iqtisodiy tarmoqlar va karvon yo‘llari orqali madaniy hamda lingvistik aloqalar davom etgan. Bu bosqichda leksik o‘zlashuvlar asosan transregional kommunikatsiya natijasida sodir bo‘lgan bo‘lib, lingvistik kontaktlarning uzilmaganligini ko‘rsatadi.

4. **Sharqiy eroniy tillarning inqiroz bosqichi.**

Markaziy Osiyoda turkiy siyosiy tuzilmalarning kuchayishi, shuningdek, islom sivilizatsiyasining kirib kelishi natijasida arabcha va forscha o‘zlashmalarning ustuvorligi ortdi. Shu bois hind-oriy neologizmlarning o‘zlashuv jarayoni keskin susaydi. Bu davrda o‘rta hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi lingvistik interfeys zaiflashdi; natijada so‘g‘d, baqtriy, sak, xorazmiy, parfiyoniy va toxar tillari asta-sekin deyarli o‘lik tillarga aylandi. Shu bilan birga, o‘rta hind-oriy tillari yangi hind-oriy tillar tizimining shakllanish bosqichiga o‘tib, tarixiy-lisoniy evolyutsiyasini yangi yo‘nalishda davom ettirdi.

Ellinistik davrda o‘rta hind-oriy tillaridan Markaziy Osiyoning sharqiy eroniy tillariga bo‘lgan leksik o‘zlashuv jarayoni Mauriya, Yunon-Baqtriya va keyinchalik Kushon davlatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin. Mauriya imperiyasi o‘z taraqqiyotining eng yuksak bosqichida ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq va diplomatik sohalarda sezilarli yutuqlarga erishgan, xususan, podsho Ashoka (mil. avv. III asr) hukmronligi davrida keng ko‘lamli siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy islohotlar amalga oshirilgan va imperiya hududida ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yuksalish ta’minlangan. Ashoka, nisbatan murakkab sanskrit tiliga qaraganda, xalqchilroq prakrit tilining rasmiy va ma’rifiy doiralarda

qo‘llanilishiga alohida e’tibor bergan. Buning dalili sifatida imperiyaning turli mintaqalarida o‘rnatilgan tosh ustunlar (stela) va qoyatoshlardagi prakrit tilidagi farmonlar (Ashoka farmonlari) keltirilishi mumkin. Ushbu yozma yodgorliklar prakrit tilining Mauriya davlati davrida de-fakto davlat tili maqomini egallaganini ko‘rsatadi.

Yunon-Baqtriya podsholigida esa yunon-makedon elitasi mahalliy xalqlarning madaniyati, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy urf-odatlari bilan murosa qilishga majbur bo‘lgan. Qadimgi Baqtriya hududidan, xususan, hozirgi Shimoliy Afg‘oniston mintaqasidan topilgan rasmiy hujjatlar tahliliga ko‘ra, davlat boshqaruvida yunon yozuvi asosidagi boxtariy (baqtriy) tili rasmiy yozuv tili sifatida qo‘llanilgan. Ushbu hujjatlarda qadimgi va o‘rta eroniy unsurlar bilan bir qatorda yunon hamda hind-oriy tillariga oid ko‘plab leksik o‘zlashmalar uchraydi.

Ushbu lingvistik holat o‘rta hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning faqat siyosiy yoki savdo munosabatlari bilan cheklanmaganini, balki madaniy va diniy omillar orqali ham amalga oshganini ko‘rsatadi. Natijada ellin va Kushon davrlarida Hindiston hamda Markaziy Osiyo o‘rtasida murakkab lingvokontakt jarayoni shakllangan bo‘lib, bu jarayon mintaqaning keyingi davr til taraqqiyoti va madaniyati tarixida muhim iz qoldirgan.

Qadimgi boxtariy tilida leksik o‘zlashmalar semantik-guruhiy tasnifda quyidagicha ko‘rinadi:

1. **Savdo-iqtisodiy o‘zlashmalar:**

- *kaučapa* — “jun yopinchiq”, pāli yoki prakrit tilidagi *kojava* so‘zidan o‘zlashgan[1].

2. **Rasmiy-idoraviy terminlar:**

- *dranga* — “idora, mahkama”, Niya prakritidagi *draṃga* so‘zidan o‘zlashgan.
- *rajogolo* — “podsholik sudi, hukmron mahkama”, prakritcha *raja-kula* so‘zidan o‘zlashgan[2].

3. **Xo‘jalik leksikasi:**

- *harg* — “ijaraga (yer) olish, yollash”, Niya prakritidagi *harga* so‘zidan o‘zlashgan[3].

4. **Kasb va mansab-lavozim nomlari:**

[1] Nicholas Sims-Williams. Bactrian Documents from Northern Afghanistan I: Legal and Economic Documents, revised edition; Bactrian Documents from Northern Afghanistan III: Plates // Indo-Iranian Journal. – 2015. – Vol. 58, No. 1. – P.200.

[2] Burrow T. Iranian words in the Kharosthi documents from Chinese Turkestan // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. – 1934. – Vol. 7, No. 3. – P. 509.

[3] Nicholas Sims-Williams. Bactrian Documents from Northern Afghanistan I: Legal and Economic Documents, revised edition; Bactrian Documents from Northern Afghanistan III: Plates // Indo-Iranian Journal. – 2015. – Vol. 58, No. 1. – P.220.

- *ācariya* — “ustoz, o‘qituvchi”, Niya prakritidan o‘zlashgan.
- *dut* — “elchi”, Ashoka davridagi prakritcha *dutā* so‘zidan o‘zlashgan[1].

5. **Diniy terminlar:**

- *vahar* — “ibodatxona”, kech sanskrit tilidagi *vihāra* so‘zidan o‘zlashgan.
- *upāse* — “buddaviy rohib”, buddaviy sanskritchadan o‘zlashgan.

Shu bilan birga, o‘rta hind-oriy tillari va Markaziy Osiyoning sharqiy eroniy tillari o‘rtasidagi lisoniy interferensiyaning eng qadimgi va yaqqol shakli aynan boxtariy tilida kuzatiladi. Boshqa sharqiy eroniy tillarda yozuv ancha kech rivojlangan yoki yozma manbalar yetarli darajada saqlanmaganligi ushbu xulosani ilmiy jihatdan asoslaydi.

Keyingi davrda sharqiy eroniy tillarga o‘rta hind-oriy tillaridan kirib kelgan so‘zlarni ma’no va funksional jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Predmet nomlari. Ushbu guruhga kiruvchi leksik birliklar asosan Markaziy Osiyo tabiiy-geografik sharoitida uchramaydigan, biroq Hindiston mintaqasida keng tarqalgan predmet va tushunchalarni ifodalaydi. Ularning o‘zlashuvi madaniy va savdo-munosabatlar orqali sodir bo‘lgan bo‘lib, lingvokontakt jarayonining semantik kengayishiga zamin yaratgan. Misollar:

- so‘g‘dcha *šunk* — “ikki tabaqali chig‘anoq”, kech sanskritcha *śaṅkha* so‘zidan o‘zlashgan (keyinchalik so‘g‘d tilidan parfiyoniy tiliga *sund* ko‘rinishida kirgan)[2];
- so‘g‘dcha *ambak* — “amla (daraxt mevasi)”, pāli tilidagi *āmlaka* so‘zidan o‘zlashgan[3];
- so‘g‘dcha *əndrnir* — “moviy rangli noyob tosh, safir”, buddaviy sanskritcha *indiranīla* so‘zidan o‘zlashgan[4];
- so‘g‘dcha, xo‘taniycha *kantik* — “qo‘ng‘iroq”, prakrit yoki buddaviy sanskritdagi *ghantikā* so‘zidan o‘zlashgan[5];
- so‘g‘dcha *ratn* — “javohir, gavhar”, sanskrit va prakrit tillaridagi *ratṇa* so‘zidan o‘zlashgan[6].

2. Ijtimoiy leksika. Bu guruhga kiruvchi birliklar jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni aks ettiruvchi shaxs va ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Misollar:

[1] Thomas F. W. Notes on the Edicts of Asoka //The Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. – 1915. – P. 112.
[2] Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964. — 2012. – P. 333.
[3] Gharib, B. Sogdian Dictionary (Book Review) // Orientalistische Literaturzeitung. – 1997. – Vol. 92, No. 4. – P.7.
[4] Op.cit., P.38.
[5] Op.cit., P.191.
[6] Op.cit., P.343.

- boxtariy tilida *ācariya*, so‘g‘d tilida *ācārē* — “ustoz, o‘qituvchi”, buddaviy sanskritcha *ācārya* so‘zidan o‘zlashgan[1];
- so‘g‘dcha *upāsē* — “rohib (buddaviy)”, buddaviy sanskritcha *upāsaka* so‘zidan o‘zlashgan[2];
- so‘g‘dcha *šaman* — “rohib, dindor”, sanskrit va pāli *śramaṇa* so‘zidan o‘zlashgan[3];
- so‘g‘dcha *wauδ*, xorazmiycha *wud* — “xotin, zavja”, kech sanskritcha va pāli *vadhu* so‘zidan o‘zlashgan[4];
- qadimgi xo‘taniycha *muśśa* — “o‘g‘ri”, prakritcha *moṣati* fe’lidan hosil bo‘lgan[5];
- so‘g‘dcha *pintapat* — “tilanchi, gadoy”, prakrit tilidagi *pindha-pāta* birikmasining ma’no o‘zgarishiga uchragan shakli[6];
- so‘g‘dcha *wadkaranē* — “nikoh shartnomasi”, prakritcha *vadhu-karaniya* birikmasidan o‘zlashgan[7].

3. Diniy terminlar. Asosan buddaviylik bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi va Kushon imperiyasi davridan boshlab Markaziy Osiyoga tarqalgan. Misollar:

- boxtariy tilidagi *βaharo*, so‘g‘dcha *farxār* — “ibodatxona”, “Budda monastri”, buddaviy sanskritcha *vihara* so‘zidan[8];
- so‘g‘dcha *ančan (+dast)* — “kaftlarni jipslashtirish” (Hindiston mintaqasidagi diniy ritual), buddaviy sanskritcha *ānjali* so‘zidan[9];
- so‘g‘dcha *nirβān* — “qayta tug‘ilishdan xalos bo‘lish, oliy haqiqat”, buddaviy sanskritcha *nirvana* so‘zidan[10].

4. Falsafiy tushunchalar. Hind falsafasining Markaziy Osiyoda tarqalishi va o‘rganilishi bilan bevosita bog‘liq. Misollar:

---

[1] Op.cit., P.2.
[2] Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973. — P. 410.
[3] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P.375.
[4] Op.cit., P.402.
[5] Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964. — 2012. – P. 269.
[6] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P.335.
[7] Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973. — P. 140.
[8] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P.122.
[9] Op.cit., P. 37.
[10] Op.cit., P.252.

- so‘g‘dcha *əfčanpaδ* — “borliq, dunyo”, sanskritcha *janapada*[1];
- so‘g‘dcha *ākāč* — “cheksiz bo‘shliq, koinot”, kech sanskritcha *ākāśa*[2];
- so‘g‘dcha *paraδok* — “keyingi dunyo”, prakritcha *parāloga*, palicha *parāloka*[3].

5. Savdo-tijorat bilan bog‘liq o‘zlashmalar. Ilk o‘rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo jahon savdosining muhim tranzit hududiga aylangach, Hindiston tijoratining leksik tizimga ta’siri sezilgan. Misollar:

- so‘g‘dcha *pan* — “pul, tanga”, sanskrit, prakrit va pāli *pana*[4];
- so‘g‘dcha *sārt* — “karvon”, sanskrit, prakrit va pāli *sārtha* so‘zining ma’no o‘zgarishiga uchragan shakli[5].

6. Axloqiy va ijtimoiy etiket bilan bog‘liq o‘zlashmalar. Hindistonning o‘troq madaniyati Markaziy Osiyoga sezilarli madaniy ta’sir ko‘rsatgan. Misollar:

- buddaviy so‘g‘dcha *sutr* — “kitob, risola”, sanskrit *sutra*[6];
- buddaviy so‘g‘dcha *šir* — “a’lo, hurmatli”, sanskrit *śri*[7];
- buddaviy so‘g‘dcha *namo* — “salom”, sanskrit va prakrit *namo (+ste)*[8];
- xorazmiycha *maxsī* — “uxlash, dam olish”, sanskrit *mokṣa*, pāli va prakrit *mokkha*[9].

7. O‘rin-joy, jonvor, tibbiyot va o‘lchov terminlari.

- O‘rin-joy otlari: so‘g‘dcha *pattan* — “shaharcha, mavze”, pāli va prakrit *pattana*[10]; buddaviy so‘g‘dcha *δoka* — “dunyo”, sanskrit *loka*[11]; so‘g‘dcha *smutr* — “okean, ummon”, sanskrit *samudra*[12].
- Jonvor nomlari: so‘g‘dcha *purδang* — “qoplon”, prakrit *plandaku*[13].

---

[1] Op.cit., P. 18.
[2] Op.cit., P. 6.
[3] Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973. — P. 440.
[4] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P.265.
[5] Op.cit., P. 351.
[6] Op.cit., P. 265.
[7] Op.cit., P. 380.
[8] Op.cit., P. 240.
[9] Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964. — 2012. – P. 333.
[10] Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973. — P. 434.
[11] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P. 146.
[12] Op.cit., P. 330.
[13] Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973. — P. 474.

- Tibbiyot terminlari: so‘g‘dcha *arsanx* — “bavosil”, “gemorroy”, pāli va prakrit *arisam*[1].
- O‘lchov birliklari: so‘g‘dcha *yučan* — masofa o‘lchov birligi (~12 km), pāli va Gandhari prakrit *yojana*[2].

Shunday qilib, o‘rta hind-oriy tillariga xos leksikaning sharqiy eroniy tillarga kirib kelishi nafaqat diniy, savdo va ijtimoiy-madaniy ta’sir orqali, balki leksik tizimning barcha sohalarida keng qamrovli interferensiya jarayoni sifatida namoyon bo‘lgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta hind-oriy tillari (pali, prakrit, buddaviy sanskrit) sharqiy eroniy tillar (so‘g‘diy, xorazmiy, boxtariy, sak, toxariy) leksikasiga muntazam va faol ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu leksik o‘zlashmalar Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi geografik yaqinlik, savdo-iqtisodiy aloqalar, dinni tarqatish (buddaviylik), siyosiy tuzilmalar (Mauriya, Yunon-Baqtriya, Kushon davrlari) va madaniy almashinuv orqali yuzaga kelgan.

Davriy jihatdan leksik interferensiya bir necha bosqichda kechgan: ellinistik bosqichda yunon-makedon va hind-oriy elementlar aralashgan; buddaviylik ekspansiyasi davrida diniy-falsafiy terminologiya keng tarqalgan; siyosiy beqarorlik va transregional savdo yo‘llari orqali o‘zaro lingvistik ta’sir davom etgan; sharqiy eroniy tillarining inqirozi davrida esa Markaziy osiyo tillaridagi o‘zlashuv jarayonida arab va fors tillari ustunlik qila boshlagan.

O‘zlashgan leksik birliklar predmet nomlari, ijtimoiy va diniy atamalar, falsafiy tushunchalar, savdo-tijorat terminlari, axloqiy va ijtimoiy etiket, o‘rin-joy, jonvor, tibbiyot va o‘lchov birliklari kabi guruhlarga taqsimlanadi. Substrat qatlamlar, buddaviylik ekspansiyasi va savdo-madaniy aloqalar bu jarayonning asosiy vositalari sifatida aniqlangan.

Mazkur tadqiqot ilmiy yangiligi shundaki, u o‘rta hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi lingvokontaktni tarixiy-bosqichli model asosida tahlil qilgan, leksik o‘zlashmalarni semantik-guruhiy tasniflagan va mintaqaviy tarixiy-madaniy jarayonlar bilan integratsiyalashgan holda ko‘rsatgan. Natijada, tadqiqot Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi qadimgi lingvokontakt jarayonlarini chuqurroq anglash va zamonaviy hind-eroniy tillar tadqiqotlariga yangi ilmiy materiallar kiritishga imkon yaratadi.

[1] Op.cit., P. 609.

[2] Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995. — P. 448.

ESSAY WRITING IN URDU WITH SPECIFIC REFERENCE TO PROFESSOR ZAMAN AZURDAH

Dr. SAYYADA BEGUM
Assistant Professor,
Department of English, V.V. PG College Shamli (Uttar Pradesh)
Maa Shakumbhari Vishwavidhalya Punwarka Saharanpur (India)

Abstract*. Essay is a critical prose composition having special focus on a particular subject for discussion and explanation. Essays are generally used to criticize a piece of literary composition, political manifestation, learned notions and observations of daily life in subjective and objective perspectives. Almost all great writers have tried their pen to add their part to the treasure of literature. Despite being an exceptionally popular form, ordinary writers, though well known in fiction writing or their contribution to poetry, have not been very friendly to the technique of the essay writing. It is perhaps due to the specific peculiarities of this prose form. In Urdu also, we do not have many essay writers. Again the same reason that the subject of essay demands a special treatment, unusual bent of mind, keen observation above all the need of projection of a variety of minds on his (writer's) mind while writing an essay. The process of essay writing is actually loud thinking along with putting similar or contradictory thoughts down. In Urdu there are essay writers very less in count when compared with the number of writers known for other genres. However there are some who have contributed prominently to this art of writing. Professor Zaman Azurdah is one among such writers who tried their talent to deal with such a difficult task of writing essays. He is a bilingual writer - in Kashmiri and Urdu languages. I have read his Kashmiri essays translated in English and Urdu languages and his Urdu essays directly. His Sahitya Akademi (National Academy of Letters, India) award in 1984 is for his Kashmiri essay collection ESSAY that has been translated into many Indian languages like Assamese, Rajasthani, Sindhi, Punjabi, Kannada, Hindi, Dogri, Telgeu, Konkani, English etc. The bearing of his writing on social behavior and day to day happenings is marvelous. His satire on social behavior and customary traditions is pinching but not humiliating. A critic named the translation of his Kashmiri essay collection "Essay" as Thorns and Thistles. He has said that he draws blood without putting a dagger.*

His essays as I found are worth reading. These give an insight into the Indian lifestyle, culture and civility besides provoking to think, write, comment and recommend for reading to others.

I feel happy about it that I chose this writer and some of his essays for reading and wrote some lines on these.

Key-Words: *Genre, Specific, Bilingual, Kashmiri, Urdu, Satire, Social behaviour, Customary, Translation.*

Introduction:

During my course of PH.D in English, I happened to go through some stray light literature in English and Urdu both the languages and was surprised to notice that

there are very few essayist in Urdu. Trying to find out the reason went through some essays of Professor Zaman Azurdah. While noticing his unique style of dealing with various subjects found it fascinating to study his essays that led me to discover some individual traits that authors very special and specific. Non-fictional prose has not been promoted adequately in Urdu and some other languages. It has invited attention only when it had historical, biographical, or religious content. Perhaps, there was less space for entertainment and enjoyment in the lives of those who knew Urdu only. Non- fictional prose, especially non-narrative like essay that would provide entertainment and as well as expose readers to the actual imagination and day dreaming of a writer. Very often it would be a combination of science fiction, day dreaming and many other things just carved out of association of ideas or comparison of objects or just recording the loud thinking of a writer. In fact writing, reading and enjoying of the general Essay, needs a different level of mind. Essay actually is life. Life and therefore can be enjoyed in the real sense by those who live a life in a lively manner. Life is not all philosophical, rational, logical and so to say arithmetical. It has numberless shades and appearances. It is actually like a flowing rivulet that starts from such upper reaches that are not seen by everyone. It is speedy if it gets a slope and gets retarded if the surface is plain. It creates noise if joined by pebbles in its rout and tries grabs the air into it as if getting disturbed by it. Real life can be witnessed when we watch a rivulet faces small pebbles and carry them along with its flow and to the contrary when it faces the resistance of a huge stone it very intelligently distributes itself in a number of smaller streams and finds its way through corners to flow ahead. These smaller streams join again after crossing the huge barrier, and take the form of full bloomed stream once again. That is exactly life like. Since one life style by and large is very cowardly so essay appears as unaffordable luxury to us. This is the reason that we have had a very small number of essay writers that could be the reason that our critics in Indian languages especially Urdu have not taken cognizance of this form of prose as it should have been. Anyway I having the back ground of Eng. Literature and reading some essays of Azurdah, my conscience forced rather provoked me to express my feelings in the form of these jottings.

Aims and Tasks:

1. To define the concept and tradition of essay writing in Urdu literature.
2. To analyze the stylistic and thematic features of Urdu essays.
3. To study Professor Zaman Azurdah's contribution to Urdu essay writing.
4. To highlight the critical, social and cultural dimensions of his essays

Literature Review:

There have been traces of writings that could be categorized as essay in earlier Urdu writings too. For example, Dr. Javed Vishisht, while going through the works of Mulah Waghi especially his Dastan "*Sab Ras"* found some passages that could be treated rather named as Inshaiye meaning essays in English. He named one of his

books as “Mulah Wajhi” ke Inshaiye.” In the same manner, we can find such pieces in the writings of early prose writers but the serious and conscious steps in this connection were traceable in Maulana Mohd Hussain Azad, Sir Sayed, Sajid Hyder Yelderam, Munshi Sajjid Hussain, Rashid Ahmad Siddiqui, Mujtaba Husain, Ram Lal Nabavi, Mushtaque Yusufi and some others. Very recently I happened to read Urdu Essays of Muhammad Zaman Azurdah along with one Kashmiri essay collection “Essay” translated by him, himself into Urdu under the title “Kante” published by Khuda Khan Baksh Oriental Library Patna India in 1989 and Fiction Publishers Muzang Lahore in 1991. I found these essays Comparable to Essays written in English by celebrated writers like Samuel Johnson, Francis Bacon, Charles Lamb, John Ruskin, Virginia Woolf, Geoff Dyer, George

Orwell, Ralph Waldo Emerson, Mark Twain, Bertrand Russell and Jonathan Swift. Mr. Azurdah has at times made his subjects known for the first time to readers in a different way.

While going through his essays including“Kante” translated from Kashmiri, one does not feel that these are translated from some other language. May be because he himself is the author and the translator of these creative essays and has command over both the languages. Of course, during the readings, you find some Kashmiri words that are unfamiliar to Urdu readers but the translators (Prof. Muhammad ZamanAzurdah) has managed to maintain the flow of thought or lessoned the burden of Kashmiri words by giving their equivalent in Urdu.

Since this collection of his Kashmiri essays was published in 1983 and awarded by Sahitya Akademi India (National Academy of Letters India) in 1984 and later got translated into many Indian languages including English (twice by two different translators) that made me to mention it first. Before this collection, he had one more collection in Kashmiri, language as mentioned in “encyclopaedia of Indian Literature, and several collections written and published originally in Urdu language.

Research Methodology:

There could be no specific methodology to be applied because every topic or subject dealt with by the author demanded a different treatment. However, taking into consideration the language, specific modes of expression, mixture of fantasies and facts and drawing of conclusions provoked me to analyses the text and find out the reactions of the author while dealing with his subjects. Language was one of the important tools that guided me to feel the essence of his writings. His first collection of Urdu Essays “GhubariKhayal” was published in 1973. The essays included in this collection present an amalgum of all that, what could be the property of human mind. These essays present a blend of wandering mind and scientific aptitude of human mind. Sometimes he tries to defend his fantasies. For example look at his essay speed of weight “Raftar-e-Wazan”. He presumes that it is the normal feature that the weight of things is getting reduced day by day. Then he also propounds that reduction of

weight will be at a good speed and the vehicle will become so light that whenever a person will get stuck in the Traffic Jam, he will get out of car, hold it by hand, raise his hand high and walk through the crowd and put the vehicle again on road when finds it easily drivable. For making his fantasy credible, he refers to so many things in various areas of life that lose weight day by day either itself or due to mechanical interventions. The following translated passage from his essay shows the naturalist of his thoughts:

> "No one can dare to take care of heavy things now. Motor car should by and by become so light, that if it cannot move ahead because of crowd, one should be able to hold it by hand, raise its hand high or put it on his head like vegetable seller's basket and walk through the crowd. After leaving the crowd behind he would put it (the car) on the road, ride it and drive". (Ghubari Khayal 27-28)

"یہ تولازمی بات ہے۔ہمیں ہلکی پھلکی چیزیں چاہئیں۔ اب کون بھاری چیزوں کو سنبھالنے کی جرأت کر سکتا ہے۔ موٹر کار توآہستہ آہستہ اتنی ہلکی پھلکی ہو جانی چاہئے کہ جہاں کہیں بھیڑ بھاڑ کی وجہ سے گاڑی کو آگے نہ بڑھا سکیں، وہاں ڈرائیور اس کو خوانچہ والے کی طرح سر پر اُٹھالے اور بھیڑ کو چیر کر آگے بڑھے۔ کچھ بھی ہو ہماری رفتار میں اضافہ ہونا چاہئے کمی نہیں۔آپ دیکھتے رہئے۔آگے چل کر گاری کا وزن اتنا کم ہو جائے گا کہ یہ پنچھیوں کی طرح اڑنے لگے کی۔آپ کو نہیں معلوم انسان چاند پر پہنچ گیا ہے۔اسی رفتار کی وجہ سے ابھی تو اس میں کافی وقت لگ جاتا ہے لیکن جلد ہی وہ زمانہ آئے، جب پانچ ہی منٹ میں یہ سارا سفر طے ہو گا۔آکسیجن پلانٹ ساتھ رکھنے کی بھی ضرورت نہیں۔ تھوڑی دیر کے لیے ناک کو جیب میں رکھیں گے اور وہی ہوا، اس سفر کے لئے کافی ہو گی"۔(غبار خیال صفحہ 28-27)

This book was published in 1973 and the year of publication indicates towards the year of its writing which must be before 1973. There is no surprise that only a few years back Japanese manufactured a car, that they fold outside their office, put it in a suit case and carry it along with them into their office. I do not mean that this job was done because of Azurdah's essay "Speed of Weight" but the process of thinking goes on in human minds. I am sure before Newton many people among those who saw apple falling on the ground instead of going towards sky, might have thought about it or not surprised over the action or process but it was Newton who was rather destined to crack the puzzle.

Result and Reflections:

Result and Reflections: As is obvious from my article that despite being the members of the same society, same clan and belonging to the same period, different authors deal with their subjects differently. It was amazing to know that different authors think and express their observations about the same topic differently. It was wonderful to feel that all human beings being the same appearance but their finger prints, body Oduor and facial features are not the same and it became easy to draw a conclusion that every author behaves with his or her subject differently. While going through the texts of Professor Zaman Azurdah. I found it very true and it is well

depicted in my article that you are going to read.You will find that Azurdah's thinking is somehow different from other people as shown in his works. Getting surprised and making people surprise by swaying them along with his ideas. His essays contain the traces of science fiction also. He argues for his and with his fantasies. These are the fantasies or I should say thinking differently than routine besides taking the cue from the nature that makes the man a thinker.

Essay being a very powerful genre, a reader can find many shades of thinking in the minds of essayists going on while they write or I should say when they try to invite us to the feast of their loud thinking. These writings are always fascinating as you go along Azurdah in his writings.

His wit and sense of humor are created by the unevenness found in nature itself. Looks at the beaks of different birds, looks at their feather, form, their way of flying, their food and above all their passion while on works. In his small essay 'Bull' his findings, statements, word pictures are all about a bull only, but it makes you to think about your leaders, great scholars, history, geography, social set up or social order so on and so fore. Here I would like to translate a passage from the essay. It is all about what you feel while looking at a bull who is sitting in a square near a police beat of a busy road. Just see:

> "His (bull's) seriousness is a challenge for on lookers. Some feel as if he is a spy from some other country, keeping eye on everyone and everything but remains himself hidden from the sight of people. He carries his job of spying in broad day light in such a manner that no one doubts his identity. Exactly like, some people's silence makes them intellectuals. When there is no scholarly lock on their lips. Instead it is the dearth of self-confidence that bestows them with silence. In the same way the silence of this personality (bull) makes him mysterious for the residents of the city. (Ghubar-ekarawan 43)

"میں اس نظارہ باز بیل کے اپنے تاثرات بھی پیش کرتا مگر یہ آنکھیں زیادہ دیر کے لیے اُٹھتا ہی کب ہے؟ شاید یہ شک ہے کہ نگاہ میلی ہو جائے گی۔ حلیہ کے بارے میں کہنے سے اس لئے قاصر ہوں کہ شہر کے کسی بھی آدمی نے اسے آنکھ بھر کر آج تک دیکھا ہی کہاں؟" (غبار کارواں، صفحہ 43)

One of his collections "Sheereen Ke Khatoot" (Letters of Sheeren) published in 1975 when it was celebrated for the first time as 'International year for Women' globally. Though in Letter form yet in the genre essay. Azurdah has created a character Sheeren who writes her day to day happenings, feelings and painful events. She describes her conditions to reveal, her social, economical, atmosphere she lives in to her friend.

She has tried to record the happenings of academic institutions, governments departments and social and administrative institutions in lighter vein jottings in these essays written in letter form. The main property of these essays is the depiction of

social fiber and culture of Kashmir. Azurdah has tried to include his experiences of life outside Kashmir.

His collection of essays "*Guldasta in four parts"* is the first of its kind in the form of essay. Prior to this much has been written for children in Urdu, but the format and genres have been different. For a pretty long-time people have been writing story books, collection of rhymes, compositions, poems for children, but Azurdah has become the first Essay Writer (Inshaiya Nigar) for children.

The dedication page in the collection is an eye opener. It reads "Dedicated to those young kids who are older than their parents". This book was written in 1979 that was celebrated as International year for children and was published in 1980s and again in 1995 or so on.

This collection was published in four parts so that children could hold it and find easy enough to read. Essays smaller in size, looking at their day-to-day happenings from a child's angle or point of view. For example there is an essay on 'Patriotism', it is written in such a way that there is no country mentioned or focused as such. I am sure that this essay can be read by a child belonging to any nation.

The main treatment to the title of the essay "Patriotism" (حب الوطنی) is so natural that children take to it as ducks take to water. Our major population is there in villages, so the author starts with the behavior of domestic animals who automatically return to their sheds or stables or shelters at dusk. The author has referred to wild birds that in the evening return to their nests. Following this he makes his readers (children) understand that their home or dwelling place is like their homes. There homes are a part of a village or a mohalla, the mohalla a part of a city, a town, a district, a state and then a country. Their love should equally be there for every dwelling or the place they belong to.

In the same manner the author has chosen the thoughts likes' school, playground, leadership etc. These subjects chosen by him do not get the shape of composition but the form of essays, so that children take them in play way and add to their imagination. These help the readers to imagine about these subjects that is why the author has been considered as first essayist for children. The book has been awarded by U.P. Urdu Academy and bought by NCPUL for free distribution for school libraries.

O‘zbekiston hududidagi an’anaviy kulolchilik markazlari tarixi va ularning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini tahlil qilish kulolchilikni faqat maishiy ehtiyojni qondiradigan hunar sifatida emas, balki shahar madaniyati, bozor iqtisodiyoti, kasbiy mahalla tizimi, ustoz–shogird instituti hamda estetik identitetni shakllantiruvchi barqaror an’ana sifatida ko‘rishni talab etadi. XV–XVIII asrlarda shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi, ichki savdo aloqalarining kengayishi va hunarmandchilik mahallalarining ijtimoiy tuzilma sifatida mustahkamlanishi natijasida kulolchilik ishlab chiqarishi ham iqtisodiy, ham kasbiy jihatdan barqaror tizimga aylangan. Aynan shu davrda kasb sirlarini saqlash va uzatish mexanizmlari, mehnat taqsimoti, ustaxona muhitining mustahkamlanishi hamda mahsulotlarning rang, naqsh, shakl xususiyatlari bo‘yicha hududiy farqlanish jarayoni kuchayib, keyinchalik “Rishton”, “G‘ijduvon”, “Xiva” kabi nomlar bilan tanilgan maktablarning ijtimoiy va badiiy belgilarini shakllantirganini ilmiy jihatdan kuzatish mumkin. Shu bois kulolchilik maktablarining shakllanishini ijtimoiy-antropologik ma’noda aynan XV–XVIII asrlar bilan bog‘lash, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida esa bu maktablarning aniq hududiy nomlar bilan manbalarda qayd etilib, ilmiy muomalaga kirishi hamda uslubiy farqlari ravshanlashishi sifatida talqin qilish metodologik jihatdan asosli yondashuvdir (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931).

Mazkur ishning maqsadi O‘zbekiston hududida kulolchilik maktablarining shakllanish bosqichlarini ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy omillar bilan bog‘liq holda tushuntirish, XIX asr oxiri—XX asr boshlaridagi tavsifiy-analitik manbalar orqali maktablar mavjudligini tasdiqlovchi dalillarni ilmiy muhokama qilish, shuningdek XX asr (1920–1980-yillar) davomida sovet siyosati va iqtisodiy tizimi sharoitida kulolchilikning tashkiliy tuzilmasi qanday transformatsiyaga uchraganini, bu transformatsiya mahalliy uslublar, rang tizimi va ustoz–shogird mexanizmlariga qanday ta’sir ko‘rsatganini akademik asosda tahlil etishdan iborat. Ish gipotezasi shundan iboratki, kulolchilik maktablari “paydo bo‘lishi”ni faqat manbalarda nom bilan qayd etilgan davr bilan cheklash to‘liq ilmiy natija bermaydi; aksincha, maktablarning shakllanishi uzoq muddatli ijtimoiy jarayon bo‘lib, XV–XVIII asrlarda barqaror kasbiy muhit sifatida vujudga kelgan, XIX asr oxiri—XX asr boshlarida esa

ularning nomlanishi, tavsifi va hududiy uslubiy identifikatsiyasi kuchaygan (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931). Ushbu gipotezani tekshirish uchun tarixiy manbalar, huquqiy hujjatlar, ekspeditsiya materiallari hamda sovet davri ilmiy adabiyotlari qiyosiy tahlil qilindi (Fakhretdinova, 1972, pp. 46–50; Sukhareva, 1966; Ekimova, 1959; Dzhabbarov, 1959).

RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ NATIJALAR

O‘zbekiston hududida kulolchilik maktablarining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish natijalari, avvalo, “maktab” tushunchasini oddiy hududiy nom yoki faqat badiiy uslub bilan chegaralab bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari kulolchilik maktabi deganda kasbiy muhitning ijtimoiy barqarorlashuvi, ustoz–shogird institutining uzluksizligi, texnologik sirlar va ishlab chiqarish tajribasining avloddan-avlodga o‘tishi, bozor va savdo aloqalari orqali mahsulotning keng tarqalishi, shuningdek rang, bezak va shakl mezonlarining hududiy “me’yor”ga aylanishi kabi bir-birini to‘ldiruvchi belgilarni tushunish zarurligini asoslaydi. Shu ma’noda, XV–XVIII asrlarda shaharlashuv kuchaygani sari hunarmandchilik mahallalari shakllanib, ixtisoslashuv chuqurlashgan va kulolchilik ishlab chiqarishi ham alohida kasbiy institut sifatida barqarorlashgan. Bu jarayon natijasida ustoz–shogird munosabatlari kasb sirlarini muhofaza qiluvchi va uzatuvchi mexanizmga aylangan, ustaxonalar atrofida jamoaviy mehnat tajribasi mustahkamlangan, mahsulotlarning rang va bezak repertuari hamda shakl standartlari hududiy an’ana darajasiga ko‘tarilgan. Natijada keyinchalik “Rishton”, “G‘ijduvon”, “Xiva” singari markazlar bilan bog‘lanadigan an’anaviy maktablarning asosiy xususiyatlari aynan ushbu davrning ijtimoiy-iqtisodiy zaminida vujudga kelganini ilmiy jihatdan asoslash mumkin bo‘ldi. Tadqiqot bu davrni maktablarning “nomlanishi”dan ko‘ra, ularning “institutsionallashuvi” davri sifatida ko‘rish kerakligini ko‘rsatadi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib kulolchilik markazlarining mavjudligi va hududiy uslublarning farqlanishi bo‘yicha manbalar yanada ko‘payadi. Natijalarga ko‘ra, aynan shu davrda Turkiston hududida kulolchilikka oid maxsus tavsifiy materiallarning paydo bo‘lishi ilmiy jihatdan muhim burilish hisoblanadi. Xususan, N. N. Shcherbina-Kramarenkoning 1898 yilda e’lon qilingan “Goncharnoe proizvodstvo u tuzemtsev Sredney Azii” maqolasi mintaqa kulolchiligini tavsiflovchi dastlabki maxsus ishlar sirasiga kiradi va u kulolchilikning badiiy-texnologik holatini tasvirlash orqali maktablar mavjudligini bilvosita tasdiqlovchi dalillar beradi (Shcherbina-Kramarenko, 1898). Mazkur manbada sirlangan sopol mahsulotlarda oq yaltiroq sir, ultramarin, biryuza, qora va to‘q yashil ranglardan foydalanish, bezaklarda o‘simliksimon naqshlar ustunligi, shuningdek ayrim qadimiy kelib chiqishga ega motivlarning saqlanib qolganligi qayd etiladi (Shcherbina-Kramarenko, 1898). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu tavsiflar bir necha muhim xulosaga olib keladi: birinchidan, XIX asr oxirida kulolchilik an’analari hanuz faol bo‘lgan;

ikkinchidan, sir va rang repertuarining boyligi ustalarning texnologik mahoratini hamda estetik qarashlarning rivojlanganligini ko‘rsatadi; uchinchidan, bezaklarda o‘simliksimon naqshlarning ustunligi islomiy bezak an’analari va mahalliy estetik didning davomiyligini bildiradi; to‘rtinchidan, “qadimiy motivlar”ning uchrashi badiiy an’ananing chuqur tarixiy ildizga ega ekanini anglatadi. Demak, XIX asr oxiri kuzatuvlarini kulolchilik maktablarining “paydo bo‘lishi”ni emas, balki ularning “aniq tavsiflanishi va yozma manbalarda mustahkam qayd etilishi”ni ko‘rsatuvchi bosqich sifatida baholash maqsadga muvofiq bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, XIX asr oxiri—XX asr boshlarida kulolchilik ishlab chiqarishi ayrim hududlarda ayniqsa faol bo‘lgan va bu faollik shaharlarning hunarmandchilik infratuzilmasi, savdo yo‘llari va bozor talabi bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Ushbu davrda Samarqand, G‘ijduvon hamda Farg‘ona vodiysidagi Rishton atrofida kulolchilik ishlab chiqarishi eng faol rivojlangan markazlar sifatida ajralib turgani haqidagi ma’lumotlar tahlil qilindi. Samarqand shahrida XX asr boshlarida kulolchilik ustaxonalari keng tarqalgan bo‘lib, kulolchilik shaharning muhim hunarmandchilik tarmoqlaridan biri sanalgani qayd etiladi; bu holat ishlab chiqarishning alohida ustalar faoliyatidan barqaror ustaxona tizimiga ega hududiy ishlab chiqarish muhitiga aylanganini ko‘rsatadi. Farg‘ona vodiysida esa Rishton markazi alohida o‘rin egallagani, Rishton va atrofida ko‘plab ustaxonalar faoliyat yuritgani, bu yerda ishlab chiqarilgan sirlangan sopol buyumlar keng hududlarga tarqalgani haqidagi dalillar Rishtonning mintaqaviy ta’sir markazi bo‘lganini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari bu holatni Rishton an’analari ta’sirida boshqa kulolchilik punktlari ham shakllangan, degan ilmiy talqin uchun asos sifatida ko‘rsatdi. Shu tarzda Rishton nafaqat mahalliy ishlab chiqarish nuqtasi, balki butun mintaqa uchun uslubiy referens vazifasini bajargan kulolchilik maktabi sifatida ko‘rilishi mumkinligi aniqlandi.

Natijalarda hududiy farqlanishning eng barqaror ko‘rsatkichlari sifatida rang va bezak tizimi alohida ko‘rindi. Farg‘ona vodiysi va unga yaqin hududlarda ko‘k rang hamda uning turli tuslari ustunlik qilgani, Samarqand–Buxoro vohasi kulolchiligida esa yashil, jigarrang va sariq ranglarning ko‘proq qo‘llangani qayd etiladi. Tadqiqot natijalari bunday farqlar tasodifiy estetika emasligini ko‘rsatdi: rang tanlovi mahalliy xomashyo, sir tayyorlash tajribasi, bozor talabi, diniy-estetik qarashlar va hududiy identitetning uyg‘unlashgan mahsuli bo‘lib, maktablarning badiiy “pasporti” sifatida xizmat qilgan. Aynan rang tizimi bilan bog‘liq barqarorlik kulolchilik maktablarini bir-biridan ajratishda muhim mezon ekani aniqlandi.

XX asr boshlariga kelib, kulolchilik markazlarining manbalarda alohida “o‘choq” sifatida qayd etilishi ilmiy dalillarni mustahkamladi. B. P. Denike ishlarida Samarqand, Toshkent, Andijon, Xo‘jand, Buxoro hamda Farg‘ona vodiysidagi Rishton kabi markazlar alohida kulolchilik o‘choqlari sifatida ko‘rsatiladi (Denike, 1931). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunday qaydlar ikki muhim mazmunga

ega: birinchidan, kulolchilik ishlab chiqarishi tasodifiy va epizodik emas, balki tarixan shakllangan ixtisoslashgan hunarmandchilik sohasi sifatida mavjud bo‘lgan; ikkinchidan, bu markazlarning savdo yo‘llari va shahar madaniyati rivojlangan hududlarda joylashgani mahsulotlarga talabning yuqori bo‘lganini, buyumlar nafaqat mahalliy iste’mol, balki qo‘shni hududlar bozorlariga ham chiqarilganini anglatadi. Natijada, sopol buyumlar kundalik ehtiyojni qondirish bilan birga, mintaqaning estetik didi va madaniy an’analarini aks ettiruvchi badiiy mahsulotlarga aylanganini ilmiy asosda qayd etish mumkin bo‘ldi.

Natijalar ichida yana bir muhim qatlam sifatida XIX asr oxiri—XX asr boshlarida ayrim kuzatuvchilarning kulolchilik mahsulotlarida texnologik ishlov va rang uyg‘unligi pasayish holatlari sezila boshlaganini, biroq an’anaviy bezak va rang tanlash madaniyati to‘liq yo‘qolmaganini qayd etishi turadi (Denike, 1931). Tadqiqot natijalari bunday holatni XIX asr oxiridagi iqtisodiy o‘zgarishlar, savdo aloqalarining kengayishi va zavod usulida ishlab chiqarilgan arzon sanoat buyumlarining mahalliy bozorlarga kirib kelishi bilan izohlash mumkinligini ko‘rsatdi. Bozorga arzon sanoat mahsulotlari kirib kelishi natijasida an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning bir qismi kamaygan, ayrim ustalar ishlab chiqarishni tezlashtirish va mahsulotni arzonlashtirishga majbur bo‘lgan, bu esa ba’zan buyumlar sifati va bezaklarning badiiy mukammalligiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, natijalar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p asrlik ustoz–shogird an’analari asosida shakllangan bezak uslublari va rang tanlash tajribasi butunlay uzilmagan; aksincha, yangi sharoitga moslashgan holda saqlanib qolgan va bu kulolchilik san’ati tashqi bosimlarga qaramay madaniy merosning yashovchan qismi sifatida davom etganini anglatadi.

Kulolchilik maktablarining tarixiy rivojlanishini yoritishda XX asrning 20–80 yillari alohida bosqich sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aynan shu davrda an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishining tashkiliy tuzilmasi, iqtisodiy faoliyat shakllari hamda kulolchilik markazlarining faoliyat sharoiti tubdan o‘zgarishga yuz tutgan. Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari singari hunarmandchilik ishlab chiqarishi ham markazlashtirish va yangi iqtisodiy siyosat ta’sirida qayta tashkil etilgan. Natijada an’anaviy ustaxonalarga tayangan kulolchilik faoliyati kooperativ va artel tizimlari orqali qayta strukturalashtirilgan, bu esa ustoz–shogird tizimining uzilish xavfini kuchaytirgan, mahsulot turlarining standartlashuvi va shakl-bezak soddalashuviga olib kelgan holatlar kuzatilgan.

Tadqiqot natijalari 1920–1930-yillarni kulolchilik maktablari tarixida “rivojlanish”dan ko‘ra “saqlanib qolish va moslashuv” bosqichi sifatida tavsiflash to‘g‘riroq ekanini ko‘rsatdi. Bu davrda ishlab chiqarishning izdan chiqishi, xomashyo ta’minotidagi uzilishlar va bozor munosabatlarining buzilishi sabab an’anaviy ustaxonalar faoliyati qisqarib, ko‘plab ustalar yangi ishlab chiqarish shakllariga moslashishga majbur bo‘lgan (Fakhretdinova, 1972, pp. 46–50). Etnografik

adabiyotlarda ham XX asr boshlarida Buxoro va unga tutash hududlarda hunarmandchilik ishlab chiqarishining qisqarishi hamda ayrim kasb turlarining faqat mahalliy ehtiyoj doirasida saqlanib qolgani qayd etiladi (Sukhareva, 1966). Shu bilan birga, natijalar ko‘rsatadiki, aholisi gavjum shaharlarda an’anaviy jarayonlar kam sonli bo‘lsa-da saqlanib qolgan va bu holat keyingi davr tiklanishiga tayanch bo‘lib xizmat qilgan.

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda hunarmandchilikni kooperativ shaklga o‘tkazish siyosati kuchayganini huquqiy hujjatlar ochiq ko‘rsatadi. 1927 yildagi normativ hujjatlarda kasb-hunar kooperativi shirkatlari (artellar) a’zolarining shaxsiy mehnati asosida korxonalarni yuritishi hamda xo‘jaliklarni birgalikda foydalanish maqsadida birlashtirishi belgilangan (TsIK SSSR & SNK SSSR, 1927). 1932 yilda promyslov kooperatsiya faoliyati kengaygani munosabati bilan tizimni yanada qat’iy ixtisoslashtirish asosida qayta tashkil etish, kasb-hunar kooperativi ustidan umumiy rahbarlikni maxsus qo‘mita orqali amalga oshirish hamda respublikalarda kooperativ ittifoqlarni qayta tashkil etish vazifasi yuklatilgan (Sovnarkom SSSR, 1932). Tadqiqot natijalari bu jarayonning ikki tomonlama ta’sirini ko‘rsatdi: bir tomondan, kooperativ tizim hunarmandlar faoliyatiga tashkiliy-iqtisodiy barqarorlik unsurlarini olib kirgan; ikkinchi tomondan, an’anaviy ustaxona mustaqilligini institutsional cheklab, mahsulotlarda standartlashuvni kuchaytirgan. Standartlashuv natijasida davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan buyum turlari va shakllari soddalashgan, kundalik ehtiyojga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmi ortgan, ayrim hududlarga xos bezak va shakl xilma-xilligi qisqargan. Biroq natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, kulolchilikning butunlay yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan; ayrim tajribali ustalar yangi tizim doirasida ham an’anaviy texnologiya va bezak elementlarini imkon qadar saqlashga intilgan.

Natijalarda kulolchilik an’analarini saqlab qolishda ko‘rgazma va muzey instituti muhim omil bo‘lib ko‘rindi. 1927 yilda “ustalar asarlarining eng yaxshi namunalari” ko‘rgazmasi tashkil etilganligi, keyinchalik doimiy faoliyat yo‘lga qo‘yilgani, 1938 yilga kelib uy-ustasi hunarmandchiligi muzeyi ochilib, kulolchilik buyumlari namoyish etila boshlaganini rasmiy ma’lumotlar tasdiqlaydi (Direktsiya pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan, n.d.). Tadqiqot natijalari buni kulolchilikni “faqat ishlab chiqarish”dan tashqari “madaniy meros” sifatida institutsional himoya qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qilish imkonini berdi.

1940–1950-yillar natijalarda “o‘tish davri” sifatida namoyon bo‘ldi. Urush sharoitida energiya va yoqilg‘iga ehtiyoj keskin ortgani, respublikada energiya va yoqilg‘i ta’minoti muammolari yuzaga kelgani, bu esa energiyaga bog‘liq ishlab chiqarish sohalarida, jumladan markazlashgan ustaxonalarda ishlab chiqarish hajmi qisqarishiga olib kelgani qayd etiladi (Islamov, 2008). Shunga qaramay natijalar shuni ko‘rsatdiki, kulolchilik buyumlari kundalik turmush ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgani sabab ishlab chiqarish butunlay to‘xtab qolmagan. Metall buyumlar ishlab

chiqarish urush ehtiyojlariga yo‘naltirilgani natijasida ayrim hududlarda sopol idishlarga bo‘lgan talab ortgan va bu an’anaviy kulolchilikni saqlab qolish uchun qo‘shimcha iqtisodiy zamin yaratgan. Urushdan keyingi yillarda kooperativ va artel tizimlari qayta faoliyat ko‘rsata boshlagan, ishlab chiqarish asta-sekin barqarorlashgan va kulolchilik aholi maishiy talabini qondirishda muhim rol o‘ynagan.

Xorazm hududi bo‘yicha ekspeditsiya materiallari natijalarga aniq manbaviy tayanch berdi. Xiva va unga tutash hududlarda kulolchilik ishlab chiqarishi davom etgani, idish-tovoq tayyorlashning mahalliy an’anaviy shakllari saqlanib qolgani, kulolchilik hunari barqarorligini saqlagan holda ayrim aholi manzillarida faoliyat yuritishda davom etgani qayd etiladi (Ekimova, 1959; Dzhabbarov, 1959). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1940–1950-yillardagi jarayonlarni “inqiroz” emas, balki “moslashuv va minimal barqarorlik orqali uzluksizlikni saqlash” bosqichi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bu davrda badiiy bezakdan ko‘ra funksional jihatlar ustunlashgan, ustalar mahsulotni tez va ko‘proq tayyorlashga majbur bo‘lgani sabab bezak tizimi soddalashgan, ayrim hududiy uslubiy tafovutlar kamaygan. Biroq natijalar texnologik tajriba va ustachilik an’analari uzilmaganini, aksincha keyingi badiiy tiklanish uchun zarur “kasbiy xotira” saqlanganini ko‘rsatdi.

1960–1980-yillar natijalarda “badiiy tiklanish va ilmiy e’tirof” davri sifatida ajraldi. Tadqiqot natijalari 1960-yillardan boshlab madaniy merosga qiziqish ortgani, xalq amaliy san’atiga e’tibor kuchaygani, turizm rivojlanishi va zamonaviy insonning ma’naviy ehtiyojlari kengaygani natijasida sopol buyumlarga qiziqish oshganini ko‘rsatadi (Korolyova, 1972, pp. 39–50). Bunday ijtimoiy talab kulolchilik markazlari faoliyatida badiiy yo‘nalishning qayta jonlanishiga olib kelgan: kulolchilik buyumlari endi faqat kundalik ehtiyoj predmeti emas, balki ko‘rgazma, interyer bezagi va san’at asari sifatida ham qadrlana boshlagan. Natijalar ko‘rgazmalar, muzey fondlarini boyitish jarayonlari kulolchilikka nisbatan qiziqishni oshirganini, ayrim markazlar mahsulotlari san’at asari sifatida namoyish qilinib, hududiy uslubiy xususiyatlarga e’tibor kuchayganini ko‘rsatdi (Direktsiya pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan, n.d.).

Bu davrda ilmiy doiralarda kulolchilik buyumlarining texnologiyasi, bezak tizimi va hududiy farqlari tizimli tahlil qilina boshlagani, ayrim hududiy markazlar alohida maktablar sifatida qayd etilib, ularning tarixiy taraqqiyoti va uslubiy xususiyatlari tavsiflangani natijalarda yaqqol ko‘rindi (Zhadova, 1963). Zhadova O‘zbekistonda qadimdan shakllangan mahalliy kulolchilik xususiyatlari saqlanib qolganini, ular zamon talablariga mos ravishda rivojlanishda davom etayotganini, kulolchilik markazlari “maktab” sifatida uzluksiz yashab kelayotgan va bir vaqtning o‘zida tajriba almashuvi orqali yangilanib borayotgan tizim ekanini ta’kidlaydi (Zhadova, 1963). Tadqiqot natijalari bu fikrni maktablar tarixini o‘zgarmas qolip sifatida emas, balki davomiylik va yangilanish uyg‘unligida kechadigan jarayon sifatida talqin

qilishga asos bo‘lishini ko‘rsatdi. Shu davrda uchta an’anaviy bezak texnikasi keng qo‘llanilgani haqidagi qaydlar ham bezak texnologiyasi kulolchilik maktablarini ajratib turuvchi muhim amaliy mezon ekanini tasdiqlaydi (Zhadova, 1963). Natijada maktablar rivoji ko‘pincha butunlay yangi uslub paydo bo‘lishidan ko‘ra, mavjud texnik repertuar doirasida uslubiy izlanishlar, mahalliy talqinlar va rang-kompozitsiya me’yorlarining kuchayishi orqali kechgan.

Natijalarda kulolchilik markazlarini mintaqaviy guruhlar sifatida ajratish va klassifikatsiya qilishga oid yondashuvlar ham qayd etildi. 1974-yilgi albomda O‘zbekiston bo‘yicha kulolchilik markazlari uch yirik mintaqaviy guruhga va yigirmaga yaqin markazlarga ajratilgani, shuningdek buyumlarning xususiyatiga ko‘ra sirlangan sopol, sopol o‘yinchoqlar va qo‘lda yasaladigan keramika turlariga klassifikatsiya qilingani ko‘rsatilgan (Derviz et al., 1974). Tadqiqot natijalari buni “maktab” tushunchasini faqat maishiy idishlar bilan cheklamay, badiiy-ixtisoslashgan yo‘nalishlar bo‘yicha ham tushuntirishga qaratilgan ilmiy urinish sifatida baholashga imkon berdi. Biroq natijalar ayni davrda ishlab chiqarishning davlat tizimi doirasida tashkil etilishi mahsulotlarni ma’lum darajada standartlashtirish jarayonini ham kuchaytirganini ko‘rsatdi: ko‘plab ustaxonalar ko‘rgazma va savdo uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqargan, bu esa ayrim hollarda an’anaviy shakl va bezaklarning soddalashishiga olib kelgan. Shunga qaramay, tajribali ustalar tomonidan hududiy bezak va texnologik an’analarni saqlab qolishga intilish davom etgani natijalarda qayd etildi. Demak, 1960–1980-yillar maktablar tarixida ikki tomonlama jarayon sifatida namoyon bo‘ldi: bir tomondan badiiy meros sifatida e’tirof va ilmiy muomalaga kirish kuchaydi, ikkinchi tomondan standartlashuv bosimi ayrim mahalliy tafovutlarni qisqartirdi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy tizimda yuzaga kelgan inqiroz holati hunarmandchilik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani natijalarda alohida ko‘rsatildi. Markazlashgan ta’minot tizimining izdan chiqishi, davlat buyurtmalarining kamayishi va iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi kulolchilik ustaxonalari faoliyatida beqarorlikni kuchaytirgan. Avvalgi davrlarda artel va ishlab chiqarish birlashmalari orqali tashkil etilgan ustaxonalar qo‘llab-quvvatlashdan mahrum bo‘la boshlagan, ko‘plab ustalar buyurtmalar yo‘qligi sabab ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo‘lgan, ayrim hududlarda ustaxonalar vaqtincha to‘xtagan yoki ustalar boshqa daromad manbalarini izlagan. Shu bilan birga bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni boshlanishi ayrim ustalar uchun yangi imkoniyatlar yaratgani, ular mahsulotni mustaqil ishlab chiqarib bozorga chiqarishga kirishgani, natijada xaridor didiga moslashish kuchaygani qayd etildi. Tadqiqot natijalari bu davrni mustaqillik davrida hunarmandchilikni qayta tiklash jarayonlari uchun muhim tajriba bosqichi sifatida ko‘rish mumkinligini ko‘rsatdi.

Umumiy natija sifatida tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston hududida kulolchilik maktablarining shakllanishi uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

jarayonlar mahsuli bo‘lib, bu jarayonni birgina davr bilan cheklab bo‘lmaydi. XV–XVIII asrlarda maktablarning ijtimoiy barqaror institutsional asosi vujudga kelgan, XIX asr ikkinchi yarmi—XX asr boshlarida maktablar aniq hududiy nomlar bilan manbalarda qayd etilib, uslubiy farqlari ravshanlashgan (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931). XX asrning 20–80-yillarida esa siyosiy va iqtisodiy tizimdagi tub o‘zgarishlar kulolchilik faoliyatini tashkiliy jihatdan qayta shakllantirgan, ayrim hududiy tafovutlarni qisqartirgan bo‘lsa-da, texnologik tajriba va ustachilik an’analari uzilmagan, aksincha moslashgan holda davom etgan (TsIK SSSR & SNK SSSR, 1927; Sovnarkom SSSR, 1932; Fakhretdinova, 1972, pp. 46–50; Korolyova, 1972, pp. 39–50). Shu tariqa kulolchilik maktablari tarixini “uzilish”lar zanjiri sifatida emas, balki barqaror yadroga ega bo‘lgan, biroq davr talablari bilan shakl va tashkiliy ko‘rinishini o‘zgartirib boradigan transformatsion jarayon sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli ekani aniqlandi.

DISCUSSION/ ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA

Olingan natijalar kulolchilik maktablari tarixini talqin qilishda metodologik nuqtayi nazardan eng avvalo “maktab” tushunchasining mazmun doirasini aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Agar “maktab” faqat ma’lum hududda kulolchilik borligi yoki mahsulotlarda ayrim o‘xshash bezaklar uchrashi bilan izohlansa, bu yondashuv kulolchilikning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatini yetarli darajada ochib bera olmaydi. Tadqiqot natijalari “maktab”ning barqarorligi ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil topishi, ustoz–shogird tizimining uzluksizligi, mehnat taqsimoti, texnologik bilimlar va badiiy repertuarning avloddan-avlodga o‘tishi, mahsulotlarning bozor orqali tarqalishi hamda mahalliy estetik me’yorlarning shakllanishi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan, kulolchilik maktablari tarixini davrlashtirishda ham “nomlanish” va “shakllanish” bosqichlarini farqlash muhim: XV–XVIII asrlar maktablarning ijtimoiy-institutsional asosi kuchaygan davr sifatida, XIX asr oxiri—XX asr boshlar esa ularning yozma manbalarda tavsiflanib, hududiy nom bilan mustahkam identifikatsiya qilina boshlagan davr sifatida talqin qilinishi ilmiy jihatdan aniqroq natija beradi (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931). Bunda muhim jihat shundan iboratki, “manbada nom bilan uchrashi” maktabning endi paydo bo‘lganini emas, aksincha, u avvaldan mavjud bo‘lgan tizimning tashqi kuzatuvchi yoki ilmiy diskursda qayd etilish bosqichiga chiqqanini bildiradi.

Shcherbina-Kramarenko (1898) keltirgan tavsifiy dalillar muhokama nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega, chunki u XIX asr oxirida Turkiston kulolchiligida texnologik va badiiy tajribaning yuqori darajada saqlanganini ko‘rsatadi. Oqartirilgan yaltiroq sir, ultramarin, to‘q yashil kabi ranglarning qo‘llanishi nafaqat estetik did, balki sir tayyorlash, pishirish va rangni barqaror tutish bo‘yicha murakkab tajriba mavjudligini bildiradi. Demak, bunday rang repertuari oddiy “mahalliy hunar” emas, balki barqaror kasbiy maktab muhiti shakllanganini ko‘rsatuvchi indikator bo‘la

oladi. O‘simliksimon naqshlarning ustunligi esa islomiy bezak an’analari bilan mahalliy estetik qarashlar sintezi davom etganini anglatadi. Shu bilan birga, “qadimiy motivlarning” saqlanishi masalasi kulolchilikni madaniy xotira tashuvchisi sifatida muhokama qilish imkonini beradi: hunar tizimi nafaqat buyum ishlab chiqaradi, balki ramziy-badiiy elementlarni ham avloddan avlodga ko‘chiradi. Bu holat kulolchilik maktablarini faqat iqtisodiy faoliyat turi emas, balki estetik va tarixiy xotirani modellashtiruvchi institut sifatida ko‘rsatadi.

Denike (1931)da turli markazlarning “kulolchilik o‘choqlari” sifatida qayd etilishi ham muhokamada “maktab”ning ijtimoiy geografiyasi tushunchasini kuchaytiradi. Markazlarning ko‘pligi, ularning shaharlar va savdo yo‘llari yaqinida joylashishi, ishlab chiqarishning faqat mahalliy ehtiyoj bilan cheklanmasdan bozorlararo almashinuvga kirishganini ko‘rsatadi. Bu yerda muhokama uchun muhim nuqta shundaki, bozor talabining mavjudligi va mahsulotlarning tarqalishi maktab uslubining tanilishiga xizmat qiladi: buyum keng hududga tarqalgani sari u “Rishtoncha”, “G‘ijduvoncha” yoki “Xivacha” kabi tasniflarga zamin yaratadigan barqaror belgilarga ega bo‘lishi kerak. Demak, savdo aloqalari maktablar identifikatsiyasining ijtimoiy mexanizmi sifatida ishlaydi. Shu jihatdan, XV–XVIII asrlardagi shaharlashuv va ichki savdo kuchayishi maktablarning shakllanishi uchun ijtimoiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan, XIX asr oxiri—XX asr boshidagi tavsiflar esa bu poydevor ustida shakllangan uslubiy tizimning “ko‘rinadigan” bo‘lib qolgan bosqichini yoritadi.

Natijalarda qayd etilgan “sifat pasayishi” yoki rang uyg‘unligining ayrim hollarda susayishi haqidagi fikrlar (Denike, 1931) muhokama doirasida transformatsiya nazariyasi bilan izohlanishi mumkin. Buni “inqiroz” sifatida talqin qilish biryoqlama bo‘lib qoladi, chunki natijalarning o‘zi an’anaviy bezak va rang tanlash madaniyati to‘liq yo‘qolmaganini ko‘rsatadi. Demak, bu jarayon hunarmandchilikning bozor va sanoat bosimi ostida moslashuvi sifatida talqin qilinishi kerak: arzon sanoat mahsulotlari kirib kelishi sharoitida ustalar tezlashtirish, soddalashtirish, xaridorgir shakllarga moslashish orqali iqtisodiy omon qolish strategiyasini tanlagan. Bu esa ba’zan mahsulot sifati va bezak mukammalligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq ayni paytda hunarning “yadro” elementi—ustoz–shogird tajribasi, asosiy rang va naqsh repertuari, texnologik minimal bilimlar—saqlanib qolgan. Muhokamada shu holat muhim: maktabning “barqaror yadro”si saqlanganligi keyingi bosqichlarda tiklanish va qayta e’tirof jarayonlarini mumkin qilgan.

Sovet davri natijalari muhokamada institutsional o‘zgarishlarning badiiy an’anaga ta’siri masalasini o‘rtaga qo‘yadi. 1927 va 1932 yillardagi hujjatlar kooperatsiya va artel tizimining huquqiy asoslarini belgilaganini ko‘rsatadi (TsIK SSSR & SNK SSSR, 1927; Sovnarkom SSSR, 1932). Bu hujjatlar asosida hunarmandchilikni kooperativ tuzilmalar orqali barqarorlashtirish va nazorat qilish maqsadi ko‘zlangan. Muhokama nuqtayi nazaridan, bunday tizim ikki xil natija beradi: bir tomondan,

xomashyo ta’minoti, buyurtma, tashkilotchilik jihatidan barqarorlik oshishi mumkin; ikkinchi tomondan, standartlashuv kuchayib, lokal uslubiy tafovutlar qisqarishi xavfi ortadi. Tadqiqot natijalari aynan shu paradoksni ko‘rsatdi: kooperativ tizim kulolchilikning butunlay yo‘qolib ketishini to‘xtatgan bo‘lsa-da, mahsulot turini soddalashtirish va umumiy talabga moslashtirish orqali ayrim hududiy uslubni “yupqalash” ehtimolini kuchaytirgan. Fakhretdinova (1972) va Sukhareva (1966) bergan ma’lumotlar bu davrda asosiy masala “rivoj” emas, “saqlanib qolish” bo‘lganini ko‘rsatadi (Fakhretdinova, 1972, pp. 46–50; Sukhareva, 1966). Demak, muhokamada 1920–1930-yillarni maktablar tarixida “pasayish” yoki “o‘sish” kabi qat’iy baholashdan ko‘ra, “institutsional moslashuv” bosqichi sifatida ko‘rish ilmiy jihatdan to‘g‘riroq.

Urush va urushdan keyingi davrga oid natijalar (Islamov, 2008; Ekimova, 1959; Dzhabbarov, 1959) muhokamada kulolchilikning ijtimoiy funksiyasi faqat estetik yoki iqtisodiy emas, balki “zaruriy turmush infratuzilmasi” ekanini ko‘rsatadi. Urush sharoitida energiya resurslari muammolari ishlab chiqarishni cheklagan bo‘lsa-da, sopol buyumlarga ehtiyoj saqlanib qolgan va hatto ayrim sharoitlarda oshgan, chunki metall buyumlar boshqa ehtiyojlarga yo‘naltirilgan. Bu holat kulolchilikning barqarorligini tushuntiradi: kulolchilik buyumlari kundalik turmushda muqobil bo‘lmagan predmetlar sifatida ijtimoiy talabni doimiy ushlab turgan. Xorazm hududida mahalliy an’anaviy shakllarning saqlanishi haqidagi ekspeditsiya ma’lumotlari (Ekimova, 1959; Dzhabbarov, 1959) esa “uzluksizlik” tushunchasiga empirik tayanch beradi. Muhokama doirasida bu shuni anglatadiki, hatto tashkiliy tizim o‘zgargan, iqtisodiy sharoit og‘irlashgan va bezak soddalashgan davrlarda ham kulolchilik maktablari “texnologik xotira”ni yo‘qotmagan; aynan shu xotira keyingi tiklanish bosqichlarining asosiy resursi bo‘lgan.

1960–1980-yillar natijalari muhokamada “badiiy e’tirof” va “standartlashuv”ning bir vaqtning o‘zida ishlagan murakkab jarayon ekanini ko‘rsatadi. Korolyova (1972) xalq badiiy promysllariga qiziqish oshgani, turizm rivojlangani va ma’naviy ehtiyojlar kengaygani sabab sopol buyumlarga talab kuchayganini qayd etadi (Korolyova, 1972, pp. 39–50). Bu talab kulolchilik buyumlarini maishiy predmetdan badiiy qadriyatga aylantirishga xizmat qilgan, muzey va ko‘rgazma instituti esa bu jarayonni institutsional tarzda mustahkamlagan (Direktsiya pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan, n.d.). Zhadova (1963) esa kulolchilik markazlarini “maktab” sifatida uzluksiz yashab kelayotgan, bir vaqtning o‘zida tajriba almashuvi orqali yangilanayotgan tizim sifatida ko‘rsatadi (Zhadova, 1963). Derviz va hammualliflar (1974) albomidagi mintaqaviy guruhlash va turlarga ajratish esa kulolchilikni ilmiy tasniflash va “maktab” tushunchasini mustahkamlash jarayonining dalilidir (Derviz et al., 1974). Biroq natijalar shu davrda ishlab chiqarishning davlat tizimi doirasida tashkil etilishi mahsulotlarni standartlashtirishni ham kuchaytirganini ko‘rsatdi. Muhokamada bu holat shunday talqin qilinadi: “badiiy e’tirof” kuchaygani sari

ko‘rgazma va savdo uchun mo‘ljallangan mahsulotlar ko‘payadi, bu esa ayrim hollarda bezak va shaklning ommaviylashtirilgan, soddalashtirilgan variantlarini ham yuzaga chiqaradi. Demak, tiklanish jarayoni doimo “aslga qaytish” emas, balki “madaniy merosning yangi talablar ostida qayta formatlanishi” bo‘lib ham kechadi. Shunga qaramay, tajribali ustalar tomonidan hududiy uslubiy yadro elementlarini saqlashga intilish davom etgani natijalarda qayd etilgani muhokamada maktablarning yashovchanligini tasdiqlovchi asosiy dalil bo‘lib qoladi.

1980-yillar oxiridagi iqtisodiy beqarorlik natijalari muhokamada transformatsiyaning bozor mexanizmlari bilan bog‘liq yangi bosqichini ko‘rsatadi. Markazlashgan ta’minot va davlat buyurtmalarining kamayishi ustaxonalarning beqarorligini kuchaytirgan bo‘lsa-da, bozor munosabatlariga o‘tish boshlanishi ayrim ustalarga mustaqil ishlab chiqarish va sotuv kanallarini izlash imkonini bergan. Bunday vaziyatda mahsulotlarda xaridor didiga moslashish kuchayishi mumkin, bu esa uslubiy repertuarning o‘zgaruvchanligini oshiradi. Muhokama doirasida bu jarayonni “maktablar yemirilishi” sifatida emas, balki “maktablar o‘zini qayta tiklash uchun bozorga moslashish strategiyalarini ishlab chiqishi” sifatida ham talqin qilish mumkin. Chunki tarixiy jarayonlar ko‘rsatadiki, kulolchilik maktablari ko‘p marotaba tashqi bosimlar ostida qolgan, biroq yadro elementlarini saqlagan holda yangi sharoitga moslashib kelgan.

Umuman, muhokama natijalar asosida shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik maktablari ijtimoiy tizim, iqtisodiy muhit va madaniy institutlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisadir. XV–XVIII asrlar ijtimoiy barqarorlashuv davri sifatida maktablarning institutsionallashuviga zamin yaratgan, XIX asr oxiri—XX asr boshlar manbalarida esa maktablar hududiy nom va uslub sifatida ravshan identifikatsiya qilina boshlagan (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931). Sovet davri kooperatsiya va standartlashuv bosimi orqali uslubiy tafovutlarga ta’sir qilgan bo‘lsa-da, muzey-ko‘rgazma instituti va jamiyatning badiiy ehtiyoji orqali kulolchilik badiiy meros sifatida qayta e’tirof etilgan (TsIK SSSR & SNK SSSR, 1927; Sovnarkom SSSR, 1932; Korolyova, 1972, pp. 39–50; Direktsiya pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan, n.d.). Shu tariqa, kulolchilik maktablari tarixini chiziqli taraqqiyot yoki uzilishlar ketma-ketligi sifatida emas, balki barqaror yadro va davr talablari bilan bog‘liq transformatsiyalar uyg‘unligi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan eng asosli xulosa ekanini muhokama tasdiqlaydi.

CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari va muhokamasi shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston hududida an’anaviy kulolchilik maktablari “bir davrda paydo bo‘lgan hodisa” emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar mahsulidir. Tadqiqotning asosiy maqsadlariga muvofiq ravishda kulolchilik maktablarining shakllanishi XV–XVIII asrlardagi shaharlashuv, ichki savdo aloqalarining kengayishi, hunarmandchilik mahallalarining mustahkamlanishi hamda ustoz–

shogird institutining barqarorlashuvi bilan izchil bog‘liq ekani asoslandi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida esa mazkur maktablar manbalarda aniq hududiy nomlar bilan qayd etilib, rang, bezak va shakl me’yorlari bo‘yicha uslubiy identifikatsiya kuchaygani aniqlandi (Shcherbina-Kramarenko, 1898; Denike, 1931). Shuningdek, sovet davrida kooperatsiya va artel tizimlari orqali ishlab chiqarishning markazlashuvi bir tomondan hunarning saqlanib qolishiga imkon yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan standartlashuv va soddalashuv tendensiyalarini kuchaytirgani ko‘rsatildi (TsIK SSSR & SNK SSSR, 1927; Sovnarkom SSSR, 1932). Biroq muzey-ko‘rgazma instituti, ilmiy tasniflash va ijtimoiy talabning ortishi (xususan 1960–1980-yillarda) kulolchilikni badiiy meros sifatida qayta e’tirof ettirib, hududiy maktablar tushunchasini akademik muomalada mustahkamladi (Korolyova, 1972; Zhadova, 1963; Derviz et al., 1974). Shu tariqa, ish boshida ilgari surilgan gipoteza tasdiqlandi: kulolchilik maktablarining mohiyatini faqat manbada nom bilan qayd etilgan davr bilan cheklash to‘liq ilmiy natija bermaydi; aksincha, ularning shakllanishi barqaror ijtimoiy institutlashuv (XV–XVIII asrlar) va keyingi yozma identifikatsiya (XIX asr oxiri — XX asr boshlar) uyg‘unligida tushuntirilgandagina mantiqan asosli xulosaga kelinadi. Natijada, kulolchilik maktablari tarixini “uzilishlar ketma-ketligi”dan ko‘ra, barqaror yadro (ustoz–shogird tajribasi, texnologik xotira, rang-bezak me’yorlari) saqlangan holda davr talablari bilan transformatsiyalanib boradigan tizim sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir (Fakhretdinova, 1972; Ekimova, 1959; Dzhabbarov, 1959).

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy vaziyatda Turkiya va Turkiy davlatlar tashkilotining ahamiyati

ANVAR YULDASHEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda Turkiya va Turkiy davlatlar tashkilotining geosiyosiy ahamiyati o‘zgarib borayotgan xalqaro tizim sharoitida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning strategik, iqtisodiy va siyosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Ilmiy ishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va institutsional tahlildan foydalanilib, Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va siyosiy muloqotni taraqqiy ettirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, ishda Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi roli tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning ko‘p qirrali tashqi siyosati hamda Turkiy davlatlar tashkilotining institutsional rivojlanishi mintaqaviy hamkorlikning kengayishiga, transport koridorlarining rivojlanishiga va iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, Turkiya va Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyoda shakllanayotgan yangi geosiyosiy arxitekturaning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, Turkiya, Turkiy davlatlar tashkiloti, geosiyosat, mintaqaviy integratsiya, tashqi siyosat, o‘rta koridor.*

Аннотация: *В данной статье анализируется геополитическое значение Турции и Организации тюркских государств в Центральной Азии в контексте меняющейся международной системы. Исследование рассматривает стратегические, экономические и политические направления сотрудничества Турции и со странами Центральной Азии. В работе используется системный подход, сравнительный анализ и институциональный анализ для изучения роли Организации тюркских государств в укреплении региональной интеграции, экономических связей и развитии политического диалога. Результаты исследования показывают, что многогранная внешняя политика Турции и институциональное развитие Организации тюркских государств способствуют расширению регионального сотрудничества, развитию транспортных коридоров и укреплению экономических связей. Также отмечается, что Организация тюркских государств постепенно становится важной платформой для региональной*

дипломатии и экономического сотрудничества. Согласно выводам исследования, Турция и Организация тюркских государств становятся одними из ключевых элементов формирующейся в Центральной Азии новой геополитической архитектуры.

Ключевые слова: *Центральная Азия, Турция, Организация тюркских государств, геополитика, региональная интеграция, внешняя политика, Средний коридор.*

Abstract: *The transformation of the global political order in the 21st century has significantly increased the strategic importance of Central Asia. The region has become a focal point of geopolitical competition among major global actors such as Russia, China, the United States, and the European Union. In this context, Turkey and the Organization of Turkic States (OTS) are emerging as influential actors shaping regional cooperation and integration processes.*

This article examines the geopolitical significance of Turkey and the Organization of Turkic States in Central Asia under the conditions of the evolving international system. The study analyzes the strategic, economic, and political dimensions of cooperation between Turkey and Central Asian countries. The research applies a systemic approach, comparative analysis, and institutional analysis to explore the role of the Organization of Turkic States in strengthening regional integration, economic connectivity, and political dialogue.

The findings demonstrate that Turkey's multidimensional foreign policy and the institutional development of the OTS contribute to enhancing regional cooperation, developing transport corridors, and strengthening economic ties. The study also highlights that the Organization of Turkic States is gradually evolving into an important platform for regional diplomacy and economic collaboration.

The research concludes that Turkey and the Organization of Turkic States are becoming key components of the emerging geopolitical architecture of Central Asia.

Key words: *Central Asia, Turkey, Organization of Turkic States, geopolitics, regional integration, foreign policy, Middle Corridor*

KIRISH

Ma'lumki, XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab xalqaro munosabatlar tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jahon siyosiy tartibining transformatsiyasi, yirik davlatlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, energetika va transport yo'laklari uchun geostrategik kurash Markaziy Osiyoni global siyosatning muhim hududlaridan biriga aylantirmoqda. Markaziy Osiyoning geografik jihatdan Yevropa va Osiyo o'rtasida joylashganligi, uning xalqaro transport va savdo aloqalarining muhim tuguni ekanligidan dalolat beradi. Bu mintaqada Rossiya, Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqi kabi global aktorlarning manfaatlari kesishadi. Ayniqsa, Rossiya–Ukraina urushi, AQSH va Isroilning Eronga bosqini, unga Ko'rfaz mamlakatlarining qo'shilishi, Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi, AQSH va Yevropa Ittifoqining mintaqaga nisbatan yangi strategiyalari Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi soxadagi siyosatini yanada dolzarblashtirib, xamkorlar doirasini kengaytirish kerakligini taqozo qiladi.

Bunday sharoitda mintaqa davlatlari milliy manfaatlari nuqtayi nazaridan Turkiya va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) ning ahamiyati sezilarli darajada ortib

bormoqda. Turkiya so‘nggi yillarda “strategik avtonomiya”, “ko‘p qutbli diplomatiya” va “turkiy hamkorlik” kabi konsepsiyalarga tayanib, Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni faol rivojlantirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun Turkiya bilan hamkorlik bir necha strategik omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, Turkiya iqtisodiy va texnologiyaviy hamkorlik uchun muhim sherik hisoblanadi.

Ikkinchidan, u Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi tranzit ko‘prik sifatida geoekonomik ahamiyatga ega.

Uchinchidan, umumiy madaniy va til merosi mintaqaviy hamkorlik uchun qulay institutsional va ijtimoiy asos yaratadi.

Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Markaziy Osiyoda yangi institutsional platformani shakllantirmoqda. Bu tashkilot transport koridorlari, savdo integratsiyasi, energetika hamkorligi va xavfsizlik masalalarida davlatlar o‘rtasidagi muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

E’tibor uchun, Turkiy davlatlar tashkiloti bu turkiy tilli davlatlarni birlashtiruvchi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. U 2009-yilning 3-oktyabrida Naxichevan kelishuvi asosida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston tomonidan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, turkiy dunyo mintaqaviy integratsiyasining muhim platformasiga aylangan. 2021-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga aylantirilishi mintaqaviy integratsiya jarayonlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Tashkilotning Bosh qarorgohi Turkiyaning Istanbul shahrida. Xozirda a’zo davlatlar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, O‘zbekiston. Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi maqomida. Bosh kotib (2024) Kubanыchbek Omuraliyev.

A’zolikning kengayishi, jumladan, O‘zbekistonning qo‘shilishi (2019) hamda Vengriya va Turkmanistonning kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi uning xalqaro nufuzini va Yevropa bilan aloqalarini mustahkamladi.

TDT faoliyatining asosiy yo‘nalishlari o‘zaro ishonchni mustahkamlash, tashqi siyosatni muvofiqlashtirish, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish, savdo, investitsiyalar, transport, fan, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishni qamrab oladi. Tashkilot barqaror rivojlanishga erishish va umumiy tarixiy hamda til ildizlariga asoslangan yagona turkiy makonni shakllantirishga intiladi.

Tashkilotning eng oliy organ Davlat rahbarlari kengashi. Unga Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Oqsaqollar kengashi va Kotibiyat bo‘ysinadi. TDT tizimiga bog‘liq institutlar — Turkiy davlatlar parlament assambleyasi (TYURKPA), Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TYURKSOY), Turkiy akademiya va Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi kiradi.

Tashkilot transport va raqamli loyihalarni, jumladan, O‘rta koridor va “Raqamli Ipak yo‘li” tashabbusini faol ilgari surmoqda, shuningdek, ekologiya va barqaror rivojlanish sohasida dasturlarni amalga oshirmoqda. 2021-yil 12-noyabrda Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda qabul qilingan “Turkiy dunyo-2040” rivojlanish strategiyasi integratsiya va turkiy davlatlarning xalqaro maydondagi o‘rnini belgilaydigan uzoq muddatli maqsadlarni ifodalaydi .

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o‘ziga xos muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. 160 million aholini qamrab olgan Tashkilotimiz hududi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

G‘arb olimlari Markaziy Osiyo geosiyosatida Turkiyaning rolini ko‘pincha mintaqaviy integratsiya va geoiqtisodiy hamkorlik nuqtayi nazaridan baxolaydilar. Xususan, Amerikalik tadqiqotchi Sebastyan Peyruzning (Peyrouse Sebastien) fikricha, Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy va til yaqinligiga asoslangan tashqi siyosiy strategiyani shakllantirdi [2]. Uning ta’kidlashicha, Turkiya mintaqaga ta’sirini asosan iqtisodiy hamkorlik, ta’lim dasturlari va madaniy diplomatiya orqali amalga oshirmoqda .

Boshqa amerikalik olim Frederik Starr Markaziy Osiyoni Yevroosiyodagi strategik markaz sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, mintaqa transport yo‘laklari, energetika resurslari va geografik joylashuvi sababli katta davlatlar raqobatining markaziga aylangan [3]. Starr Turkiya ushbu geosiyosiy makonda “ko‘prik davlat” vazifasini bajaradi va Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Amerikalik tarixchi, Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizi mintaqasi bo‘yicha mutaxassis Marta Brill Olkott (Martha Brill Olcott) o‘zining “Markaziy Osiyo uchun ikkinchi imkoniyat” (“Central Asia‘s Second Chance”) nomli kitobida Markaziy Osiyoda tashqi siyosiy aktorlar rolini tahlil qilib, Turkiyani mintaqa davlatlari uchun muhim iqtisodiy sherik deb ataydi [4]. Uning fikricha, Turkiya investitsiya va ta’lim sohalaridagi faolligi orqali mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy modernizatsiyasiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Britaniyalik siyosatshunos olim Richard Sakva Yevroosiyo geosiyosiy makonida Turkiyaning rolini tahlil qilib, Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy integratsiyaning yangi institutsional shakliga aylanayotganini ta’kidlaydi. U Turkiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyodagi asosiy maqsadi turkiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash ekanini ta’kidlaydi [5]. Uning fikricha, bu siyosat madaniy yaqinlik va iqtisodiy manfaatlar asosida shakllangan.

Rossiyalik olimlar Markaziy Osiyo geosiyosatida Turkiyaning rolini ko‘pincha Yevroosiyo integratsiyasi va geosiyosiy raqobat nuqtayi nazaridan qaraydilar.

Rossiyalik faylasuf Aleksandr Dugin Yevroosiyo makonida Markaziy Osiyoni strategik ahamiyatga ega hudud sifatida baholaydi [6]. Uning aytishicha, bu mintaqa Rossiya, Xitoy, G‘arb va Turkiya manfaatlari to‘qnashuvi maydoni hisoblanadi. Boshqa bir rossiyalik olim, siyosatshunos Andrey Kazansev Markaziy Osiyoda tashqi siyosiy aktorlar ta’sirini tahlil qilib, Turkiyaning mintaqadagi siyosati madaniy va iqtisodiy aloqalarga asoslanganini ta’kidlaydi [7]. A.Kazansev Turkiya mintaqada Rossiya bilan ochiq geosiyosiy raqobatga kirishishdan ko‘ra, madaniy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi Dmitriy Trenin esa Markaziy Osiyo geosiyosatida yangi kuchlar balansi shakllanayotganini ta’kidlaydi [8]. Uning fikricha, Turkiya mintaqada “o‘rta darajali davlat” sifatida faol tashqi siyosat yuritmoqda.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik tadqiqotlar instituti direktori muovini, siyosiy fanlar doktori Sanat Kushkumbayev Turkiy davlatlar tashkilotini mintaqaviy hamkorlikni rivojlantiruvchi muhim institut deb baholaydi [9]. Uning fikricha, bu tashkilot iqtisodiy integratsiya va transport aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Aksariyat turk olimlari Turkiyaning Markaziy Osiyodagi rolini asosan geosiyosiy faollik, madaniy yaqinlik va institutsional integratsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilganlar. Xususan, Axmad Davuto‘g‘li (Ahmet Davutoğlu) o‘zining “Strategik chuqurlik” (“Stratejik Derinlik”) asarida Turkiya tashqi siyosatini tarixiy-geografik merosga asoslangan holda izohlab, Markaziy Osiyoni Turkiyaning tabiiy geosiyosiy ta’sir doirasi sifatida baholaydi [10]. Uning fikricha, Turkiya “markaziy davlat” sifatida Yevroosiyo makonida faol tashqi siyosat yuritishi va turkiy dunyo bilan integratsiyani chuqurlashtirishi zarur. Davuto‘g‘lining ta’kidlashicha, “tarixiy va madaniy aloqalar tashqi siyosatning strategik resursiga aylanishi mumkin”.

Boshqa bir turk tadqiqotchisi Mustafa Aydin (Mustafa Aydın) Markaziy Osiyoda Turkiya siyosatini tahlil qilib, uni “yumshoq kuch” va iqtisodiy diplomatiya uyg‘unligi sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, Turkiya mintaqada harbiy yoki qat’iy geosiyosiy raqobatdan ko‘ra, ta’lim, investitsiya va madaniy hamkorlik orqali ta’sir o‘tkazishni afzal ko‘radi [11]. Aydin fikriga ko‘ra, bu yondashuv Turkiyaga mintaqada barqaror va uzoq muddatli ta’sir o‘rnatish imkonini beradi.

Bundan tashqari, turk siyosatshunosi Ilxan Uzgel (İlhan Uzgel) Turkiyaning Markaziy Osiyodagi faolligini tanqidiy nuqtayi nazardan baholab, uning imkoniyatlari cheklanganligini qayd etadi [12]. Uning fikricha, Turkiyaning madaniy va til yaqinligiga qaramay, iqtisodiy resurslar va institutsional salohiyat jihatidan Rossiya va Xitoy bilan raqobat qilish imkoniyatlari cheklangan. Shu bilan birga, u Turkiy davlatlar tashkilotini hali to‘liq shakllangan integratsion mexanizm emas, balki rivojlanish bosqichidagi platforma sifatida baholaydi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Markaziy Osiyo geosiyosatida Turkiya va Turkiy davlatlar tashkilotining rolini asosan mintaqaviy integratsiya va tashqi siyosiy diversifikatsiya yo‘nalishi nuqtayi nazaridan tahlil qiladilar.

Masalan, 2021-yilda o‘tkazilgan “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Turkic Council as a New Platform for Economic Cooperation” (Turkiy kengash iqtisodiy hamkorlikning yangi platformasi sifatida) mavzusida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faxriy doktori Sodiq Safoyev chiqish qilgan [13].

S.Safoyevning ushbu ma’ruzasida Turkiy kengashning (hozirgi Turkiy davlatlar tashkiloti) mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, transport-logistika yo‘laklarini rivojlantirish va a’zo davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini kengaytirishdagi strategik roli tahlil qilingan. Muallif fikriga ko‘ra, iqtisodiy manfaatlar va o‘zaro bog‘liqlik darajasining ortishi kelajakda siyosiy integratsiyaga ham zamin yaratishi mumkin. Safoyev, shuningdek, bu jarayonda Turkiyaning yetakchi tashabbuskor sifatidagi rolini alohida qayd etadi.

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti Muxtor Nazirovning “Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanishining Markaziy Osiyo uchun ahamiyati” nomli maqolasida Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanishining Markaziy Osiyo uchun ahamiyati konseptual-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada tashkilotning ko‘p tomonlama, o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun muhim platformaga aylanib borayotgani, O‘zbekiston fundamental qadriyatlar va umimiy til bilan bog‘langan ushbu ulkan geosiyosiy makonning markaziy ustunlaridan biri ekani ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada “Turkiy dunyo nigohi – 2040” konsepsiyasining asosiy jihatlari va Turkiy dunyo Xartiyasini amalga oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan[14].

Siyosiy fanlar doktori, professor Alisher Fayzullayev Londonda chop etilgan “Turkey‘s Central Asia Policy: Interests and Priorities” nomli maqolasida Turkiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatini kompleks geosiyosiy strategiya sifatida ko‘radi. Uning yozishicha, Turkiya mintaqada o‘z ta’sirini kuchaytirishda tarixiy, madaniy va til yaqinligidan samarali foydalanmoqda, biroq bu faqat simvolik omil emas, balki amaliy siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashgan. Muallif Turkiyani “faol va moslashuvchan aktor” sifatida baholab, uning diplomatik tashabbuslari, investitsiya siyosati va ta’lim dasturlari orqali ta’siri ortib borayotganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti Turkiya tashqi siyosatining institutsional tayanchiga aylanib borayotgani qayd etadi. [15]. Fayzullayev fikriga ko‘ra, Turkiyaning mintaqadagi ishtiroki uzoq muddatli va barqaror strategiyaga asoslangan bo‘lib, u mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Toshkentdagi “Bilim karvoni” nodavlat ilmiy muassasa direktori Farxod Tolipov 2020-yil Stokgolmda chop etilgan “Central Asia in the Emerging Geopolitical Environment” nomli monografiyasida Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy muhitni ko‘p qutbli tizim sifatida baxolab, Turkiyani ushbu tizimda muhim muvozanatlovchi kuch sifatida ko‘radi. Uning fikricha, mintaqada Rossiya va Xitoy kabi an’anaviy kuchlar bilan bir qatorda Turkiyaning roli ham ortib bormoqda [16]. Muallif Turkiy davlatlar tashkilotini harbiy blok emas, balki muloqot, ishonch va hamkorlikni rivojlantiruvchi platforma sifatida talqin qiladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, TDT orqali Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, Tolipov Turkiyaning ta’siri asosan iqtisodiy loyihalar va “yumshoq kuch” instrumentlari orqali amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi Baxodir Ergashev o‘z izlanishlarida O‘rta koridorni Yevroosiyodagi yangi geoiqtisodiy arxitekturaning asosiy elementi sifatida ko‘radi. Muallif Turkiyani ushbu koridorning markaziy bo‘g‘ini sifatida baholab, uning tranzit imkoniyatlari va geografik joylashuvi strategik ustunlik yaratayotganini ta’kidlaydi [17]. Uning fikricha, mazkur transport yo‘lagi global savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va yangi logistik zanjirlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti bu jarayonni muvofiqlashtiruvchi institutsional maydon sifatida ko‘riladi. Ergashev transport va logistika sohasidagi hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Ilhom Abdurahmonovning “Xalqaro munosabatlar” jurnalida chop etilgan “Turkiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchi” (“Soft Power Policy of Turkey in Central Asia”) nomli maqolasida Turkiyaning Markaziy Osiyodagi ta’sirini “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasida tahlil qiladi [18]. Uning fikricha, ta’lim, madaniyat, axborot siyosati va gumanitar loyihalar Turkiyaning mintaqadagi nufuzini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muallif Turkiy davlatlar tashkilotini ushbu jarayonni institutsionallashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi mexanizmi sifatida baholaydi. Uning pozitsiyasiga ko‘ra, Turkiya harbiy bosim emas, balki ishonch, umumiy qadriyatlar va madaniy yaqinlik orqali ta’sir o‘tkazmoqda. Abdurahmonov buni uzoq muddatli strategik yondashuv deb hisoblab, uning samaradorligi vaqt o‘tishi bilan yanada oshishini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi xuzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari buyicha Muvofiklashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi Azamat Sharipovning “Markaziy Osiyo davlatlari va Turkiya munosabatlari buyicha so‘ngi yillarda chop etilgan adabiyotlar taxdili” nomli makolasida Markaziy Osiyo davlatlarining Turkiya bilan munosabatlariga oid 2010-2020-yillar oraligida chop etilgan asarlar umumiylashtirib, tasnif qilingan xamda mualliflarning yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Tahlillarga ko‘ra, yangi asr boshlaridagi adabiyotlarda siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy masalalariga ko‘prok e’tibor karatilgan bo‘lsa, undan keyingi o‘n yillikda geosiyosiy aktorlarning raqobati, integratsiya va xavfsizlik masalalari

borasida so‘z boradi. Shuningdek, so‘ngi yillarda Turkiya NATO safida, O‘rta Yer va Qora dengiz mintaqasida, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Kavkaz yo‘nalishlarida faollashganligini aloxida qayd etish zarur.

Yuqoridagi manbalar tahlili Turkiyaning so‘ngi yillarda yevrotsentrizmdan yevroosiyo yo‘nalishiga intilishi kuchayganligi, xususan uning Yakin Sharkdagi tashqi siyosatining faollashganligi, Markaziy Osiyo va Kavkazda "yumshok kuch" siyosatining intensivlashuvi kuzatilmokdaligidan dalolat beradi. Ichki va tashqi siyosiy omillar hamda iqtisodiy faktorlar, migratsiya masalalari, din masalasi, "yumshoq kuch" siyosati natijalariga kamroq yondashilganligini ko‘rish mumkin.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, G‘arb olimlari Turkiyaning Markaziy Osiyodagi rolini asosan geoiqtisodiy va madaniy diplomatiya omillari orqali tushuntiradilar. Ular Turkiyani mintaqadagi katta davlatlar bilan raqobat qiluvchi geosiyosiy kuch emas, balki iqtisodiy hamkorlik va integratsiyani rivojlantiruvchi davlat sifatida baholaydilar. Bizning fikrimizcha, bu yondashuv qisman to‘g‘ri bo‘lsada, Turkiyaning mintaqadagi siyosatida geosiyosiy manfaatlar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan integratsiya jarayonlari Turkiyaning mintaqadagi strategik ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi turk olimlari qarashlarini tahlil qilgan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, ularning aksariyati Turkiyaning Markaziy Osiyodagi rolini ijobiy va istiqbolli deb baholaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur yondashuv ma’lum darajada normativ xarakterga ega bo‘lib, Turkiya tashqi siyosatining strategik manfaatlarini to‘liq ochib bermaydi. Xususan, Davuto‘g‘lining “tarixiy-sivilizatsion” yondashuvi Turkiyaning geosiyosiy maqsadlarini yumshatilgan shaklda ifoda etadi. Shu nuqtayi nazardan, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi siyosati nafaqat madaniy va iqtisodiy omillar, balki aniq geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar bilan ham bog‘liq ekanligini ta’kidlash zarur. Ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsiya jarayonlari Turkiyaning mintaqadagi institutsional ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, Turkiya siyosatiga nisbatan kompleks - ham “yumshoq kuch”, ham geosiyosiy manfaatlar uyg‘unligi nuqtayi nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir.

Rossiya va MDH olimlarining aksariyat tahlillari Markaziy Osiyo geosiyosatidagi kuchlar muvozanati masalasiga qaratilgan. Ular Turkiyaning mintaqadagi faolligini ba’zan Yevroosiyo integratsiyasiga nisbatan raqobatli omil sifatida baholaydilar. Biroq, bizning o‘ylashimizcha, Turkiyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha siyosati asosan iqtisodiy hamkorlik, transport kommunikatsiyalari va madaniy yaqinlik omillariga asoslanadi. Shu sababli Turkiy davlatlar tashkiloti Yevroosiyo integratsiyasiga muqobil emas, balki mintaqadagi ko‘p qutbli hamkorlik tizimining bir qismi sifatida qaralishi mumkin.

O‘zbekistonlik olimlarning mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining asosiy xususiyati sifatida ko‘p vektorli diplomatiya ko‘rsatiladi. Biz esa Turkiy davlatlar tashkiloti ana shu ko‘p vektorli tashqi siyosatning muhim instrumentlaridan biriga aylanmoqda, degan xulosaga kelamiz. Ushbu tashkilot iqtisodiy hamkorlik, transport infratuzilmasi va madaniy aloqalarni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro maydondagi nufuzlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Metodologiya *(Methods)*

Tadqiqot jarayonida siyosiy fanlarda keng qo‘llaniladigan bir qator ilmiy uslub va usullardan foydalanildi.

Birinchi navbatda, tizimli tahlil usuli qo‘llanildi. Bu usul orqali Markaziy Osiyo geosiyosiy tizimidagi asosiy aktorlar — Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Turkiyaning o‘zaro ta’siri kompleks ravishda o‘rganildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Bu usul Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatini boshqa mintaqaviy tashkilotlar, jumladan SHHT, YEOII va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan solishtirish imkonini berdi.

Uchinchidan, kontent tahlil usuli orqali Turkiya tashqi siyosatiga oid rasmiy strategiyalar, sammit deklaratsiyalari va xalqaro tashkilotlar materiallari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda geosiyosiy tahlil, institutsional yondashuv va siyosiy prognozlash usullari ham qo‘llanildi.

Ma’lumot manbalari sifatida quyidagilardan foydalanildi:

xalqaro tashkilotlar hisobotlari;

ilmiy maqolalar, ilmiy jurnallar va monografiyalar;

davlatlararo sammit hujjatlari;

statistik ma’lumotlar.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Natijalar (*Results)*

Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy vaziyatda Turkiya va Turkiy davlatlar tashkilotining roli quyidagi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotganini ko‘rsatdi. Xususan,

Geosiyosiy o‘lcham

Markaziy Osiyo tarixan yirik davlatlar manfaatlari kesishgan hudud hisoblanadi. So‘nggi yillarda esa mintaqa ko‘pqutbli geosiyosiy tizimning muhim elementlaridan biriga aylandi. Turkiya bu jarayonda “o‘rta qudratli davlat” sifatida mintaqa bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Turkiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati “madaniy yaqinlik”, “iqtisodiy hamkorlik” va “strategik sheriklik” tamoyillariga asoslanadi.

Iqtisodiy hamkorlik

Turkiya statistika institutining ma’lumotlariga ko‘ra, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo hajmi 2016 – 2025-yillarda izchil ravishda o‘sib borgan:

Yil	Savdo hajmi (mlrd.)
2016-y.	~6.0 AQSH dol.
2017-y.	~6.8 AQSH dol.
2018-y.	~8.2 AQSH dol.
2019-y.	~9.5 AQSH dol.
2020-y.	~8.7 AQSH dol. (COVID ta’siri)
2021-y.	~11.0 AQSH dol.
2022-y.	~15.0 AQSH dol.
2023-y.	~18.5 AQSH dol.
2024-y.	~20.0 AQSH dol.
2025-y.	~22.0 AQSH dol. [19].

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi savdo aylanmasida Turkiya ulushi 2024-yilda:

Qozog‘iston – 28%;
O‘zbekiston – 24%;
Qirg‘iziston – 16% tashkil etdi [19].

Turkiya Markaziy Osiyo mamlakatlarida infratuzilma, qurilish, tekstil, energetika va logistika sohalarida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ayniqsa, Transkaspiy transport koridori yoki “O‘rta koridor” loyihasi Yevropa–Kavkaz–Markaziy Osiyo–Xitoy o‘rtasidagi muhim transport yo‘lagi sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Marshrut deyarli 6500 km. Asosiy koridor tarmog‘i shimolroqdan o‘tsa-da, O‘zbekiston unga Qozog‘istonning transport tarmog‘i orqali ulanib, Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi aloqani ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu koridor orqali yuk tashish vaqti eronning Bandar Abos porti orqali o‘tadigan dengiz marshrutidan 15 kunga tezroq va Rossiya orqali yo‘lga nisbatan xavfsiz muqobil variant hisoblanadi [20]. 2025-yil noyabr oyida Turkiy davlatlar tashkilotining logistika markazlari va yuk tashuvchilar alyansi tomonidan, O‘zbekiston Transport vazirligi bilan hamkorlikda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Xalqaro multimodal tashuvlar forumida ta’kidlanishicha, 2022-yildan boshlab logistika sohasining ko‘plab ishtirokchilari an’anaviy tranzit yo‘nalishlariga muqobil sifatida O‘rta koridorga murojaat qila boshladi. Kutilishicha, 2030-yilga kelib ushbu yo‘nalish bo‘yicha yuk tashish hajmi 2021-yilga nisbatan uch baravarga oshadi.

Ilgari u asosan neft va mineral xom ashyo kabi resurslarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, hozirda tez sur’atlarda konteyner tashuvlariga o‘tmoqda. So‘nggi 12 oy ichida konteyner tashuvlari hajmi uch baravardan ko‘pga oshdi. Konteyner oqimining 60 foizdan ortig‘ini Yevropaga yo‘naltirilayotgan Xitoy mahsulotlari tashkil etmoqda.

Ushbu yo‘nalishda yuk avtomobillari soni 2015-yildagi 3000 tadan 2022-yilga kelib 19400 taga yetdi. Paromlar (RO-PAX turi) mavjudligiga qarab, yo‘nalishning o‘tkazuvchanlik salohiyati 40 000 tagacha yetishi mumkin. O‘rta koridor bo‘ylab yuk tashish hajmlarining bunday jadal o‘sishi mintaqa mamlakatlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi [20].

Mazkur tashkilot mintaqadagi turkiy tilli davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan institutsional platforma hisoblanadi.

Institutsional integratsiya

Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning yangi institutsional mexanizmini shakllantirmoqda. Tashkilot doirasida:

Turkiy investitsiya fondi;

Savdo va iqtisodiy hamkorlik dasturlari;

Transport va logistika platformalari faol rivojlanmoqda.

Bu jarayonlar Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy diversifikatsiyasiga xizmat qilmoqda.

Xavfsizlik sohasida hamkorlik

Shu bilan bir qatorda ta’kidlash joizki, mintaqada terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlar saqlanib qolmoqda. Turkiya bu yo‘nalishda harbiy ta’lim, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va texnologiyalar orqali mintaqa davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlamoqda.

MUHOKAMA *(discussion)*

Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda Turkiyaning roli so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchi omil — geosiyosiy vakuumning shakllanishi. Rossiyaning Ukrainadagi urushi va uning tashqi siyosiy resurslarining qisqarishi Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatni o‘zgartirdi, mintaqada yangi diplomatik imkoniyatlar yaratdi.

Ikkinchi omil — iqtisodiy manfaatlar. Turkiya Markaziy Osiyoni Yevropa va Yaqin Sharq bozorlari bilan bog‘lovchi tranzit markaz sifatida ko‘radi. Shuningdek, Turkiya Markaziy Osiyo davlatlarida infratuzilma, qurilish, energetika, logistika sohalariga, xavfsizlik masalalariga faol investitsiya qilmoqda.

Uchinchi omil — madaniy va sivilizatsion yaqinlik. Turkiy til va madaniy meros hamkorlikni institutsional darajada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Lekin xozircha, Turkiy davlatlar tashkiloti to‘liq integratsion tashkilotga aylanmagan. Uning institutsional imkoniyatlari hali shakllanish bosqichida.

Kelajakda mazkur tashkilotning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

iqtisodiy integratsiya darajasi;

transport va logistika loyihalarining amalga oshirilishi;

siyosiy muvofiqlashtirish mexanizmlarining rivojlanishi.

Shu nuqtayi nazardan, Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyoda barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim platforma sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA (Conclusions)

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiya va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Markaziy Osiyodagi shakllanayotgan yangi geosiyosiy arxitekturaning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonni quyidagi ilmiy xulosalar bilan ifodalash mumkin:

Ko‘p vektorli muvozanatning yangi instrumenti: TDT Markaziy Osiyo davlatlari uchun an’anaviy kuch markazlari — Rossiya, Xitoy va G‘arb o‘rtasida geosiyosiy muvozanatni saqlash va tashqi siyosiy diversifikatsiyani ta’minlashning samarali institutsional platformasiga aylanmoqda.

Geoiqtisodiy strategik ahamiyat: Turkiyaning “O‘rta koridor” tashabbusi mintaqaning tranzit bog‘liqligini kamaytirish va jahon bozorlariga chiqishi uchun muqobil, xavfsiz va tezkor yo‘llarni yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Institutsional hamkorlikning yangi bosqichi: Turkiyaning mintaqadagi roli faqatgina madaniy-gumanitar (“yumshoq kuch”) omillar bilan cheklanmay, iqtisodiyot, transport va xavfsizlik sohasidagi real institutsional hamkorlik bosqichiga o‘tdi.

Amaliy takliflar (Recommendations)

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish va O‘zbekistonning milliy manfaatlarini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Iqtisodiy integratsiyani raqamlashtirish: TDT a’zo davlatlari o‘rtasida “Raqamli bojxona” va “Yashil yo‘lak” tizimlarini to‘liq joriy etish orqali savdo to‘siqlarini bartaraf etish va tovar ayirboshlash hajmining o‘sish sur’atlarini (2025-yilda bo‘lgan 22 mlrd. dollarlik prognozdan oshirish.

Transport-logistika tizimini muvofiqlashtirish: “Turkiy dunyo — 2040” strategiyasi doirasida Kaspiy dengizi orqali o‘tuvchi O‘rta koridor infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yagona tarif siyosatini ishlab chiqish.

Innovatsion va texnologik sheriklik: Turkiyaning yuqori texnologik tajribasidan (raqamli iqtisodiyot va mudofaa sanoati) foydalangan holda, TDT doirasida qo‘shma texnoparklar va investitsiya fondlari faoliyatini kengaytirish.

Xavfsizlik sohasidagi muloqotni tizimlashtirish: Terrorizm, ekstremizm va kibertahdidlarga qarshi kurashishda TDT doirasidagi xavfsizlik organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini yanada kuchaytirish.

Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi energetika diplomatiyasining rivojlanish dinamikasi

OQILIDDIN ALIMOV

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, TDSHU

Annotatsiya. *Ilmiy-akademik doiralarda Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadlari hamda uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar masalasida yakdil xulosaga kelinmagan. Ayrim olimlar, shuningdek, Yaponiyaning sobiq va amaldagi diplomatik shaxslari Yaponiyaning ushbu mintaqadagi ishtirokida “rivojlantiruvchi” (“developmental”) yondashuv ustuvor ekanini ta’kidlaydilar. Mazkur nuqtai nazarga ko‘ra, Yaponiyaning mintaqadagi faoliyati ijobiy xususiyatga ega bo‘lib, unda ortiqcha siyosiy da’volar yoki manfaat kutish mavjud emas. Bu holat, masalan, Yaponiyaning mamlakatni energiya resurslari bilan ta’minlash maqsadida Yaqin Sharq mamlakatlariga ko‘rsatiladigan rasmiy rivojlanish yordami (ODA) amaliyotidan tubdan farq qiladi. Mazkur talqinlar 1945 yildan keyin shakllangan, “Yosida” va “Fukuda” doktrinalari deb ataluvchi konsepsiyalar doirasidagi Yaponiyaning tinchlikparvar diplomatik pozisiyasiga mos keladi.*

Markaziy Osiyo bilan Yaponiya munosabatlarining butun tarixida Yaponiyaning mintaqaning energiya resurslariga bo‘lgan qiziqishi diplomatik doiralar qarashlari va Tashqi ishlar vazirligi ning “Diplomatik moviy kitoblari”da muntazam urg‘ulanib keladi. 1990-yillarda Yaponiya va Markaziy Osiyoning neft va tabiiy gaz qidiruvi sohasidagi hamkorligi faollashdi. 2000-yillar o‘rtalari va oxirlariga kelib esa Yaponiya diqqatini uglerodlardan Markaziy Osiyodagi uran rudalari va nodir elementlar egallay boshladi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Mintaqaviy energetik strategiyalar, “Markaziy Osiyo plyus Yaponiya” formati, energetika diplomatiyasi, TMKlar, energetik loyihalar, ko‘p tomonlama energetik hamkorlik.*

Аннотация. *В научно-академической среде отсутствует единое мнение относительно геополитических и геоэкономических целей Японии в Центральной Азии, а также факторов, влияющих на их формирование. Ряд исследователей, а также бывшие и действующие японские дипломаты подчёркивают приоритетность «развивающего» («developmental») подхода в политике Японии в данном регионе. Согласно данной точке зрения, деятельность Японии в регионе носит позитивный характер, не предполагая чрезмерных политических притязаний или ожидания односторонних выгод. В этом отношении японская политика принципиально отличается, например, от практики предоставления официальной помощи развитию (ODA) странам Ближнего Востока, направленной на обеспечение Японии энергетическими ресурсами. Подобные интерпретации соответствуют миротворческой дипломатической позиции Японии, сформировавшейся после 1945 года в рамках концепций, известных как доктрины Ёсида и Фукуды.*

На протяжении всей истории отношений Японии с Центральной Азией интерес Японии к энергетическим ресурсам региона последовательно подчёркивался в дипломатических кругах и в «Дипломатических синих книгах» Министерства иностранных дел Японии. В 1990-х годах активизировалось сотрудничество Японии и

стран Центральной Азии в сфере разведки нефти и природного газа. К середине и концу 2000-х годов внимание Японии постепенно сместилось с углеводородных ресурсов к урановым рудам и редкоземельным элементам Центральной Азии.

Опорные слова и выражения: *Региональные энергетические стратегии, формат «Центральная Азия плюс Япония», энергетическая дипломатия, транснациональные корпорации (ТНК), энергетические проекты, многостороннее энергетическое сотрудничество.*

Abstract. *There is no consensus within academic and scholarly circles regarding Japan's geopolitical and geoeconomic objectives in Central Asia, as well as the factors influencing their formation. Certain scholars, along with former and current Japanese diplomatic officials, emphasize the predominance of a "developmental" approach in Japan's engagement with the region. According to this perspective, Japan's activities in Central Asia possess a positive character and are not associated with excessive political ambitions or expectations of unilateral benefits. In this respect, Japan's policy fundamentally differs, for example, from the practice of providing Official Development Assistance (ODA) to Middle Eastern countries aimed at securing energy resources for Japan. Such interpretations correspond to Japan's pacifist diplomatic posture that emerged after 1945 within the framework of the concepts known as the Yoshida and Fukuda Doctrines.*

Throughout the entire history of relations between Japan and Central Asia, Japan's interest in the region's energy resources has been consistently emphasized in diplomatic discourse and in the Ministry of Foreign Affairs' "Diplomatic Bluebooks." During the 1990s, cooperation between Japan and the Central Asian states in the exploration of oil and natural gas intensified. By the mid- and late 2000s, Japan's attention gradually shifted from hydrocarbons toward uranium ores and rare elements in Central Asia.

Keywords and expressions: *Regional energy strategies, the "Central Asia Plus Japan" format, energy diplomacy, transnational corporations (TNCs), energy projects, and multilateral energy cooperation.*

Kirish. Yaponiyaning Markaziy Osiyoga bo‘lgan munosabati 1990-yillarda muvozanat saqlash va faol hamkorlikni birlashtirgan kombinatsiya sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, Sovuq urushdan keyingi davrda xalqaro munosabatlarda global muammolar oqibatida xalqaro xavfsizlikka tahdidlar paydo bo‘la boshladi. Bu global muammolar sirasiga energetika xavfsizligi, energiya resurslariga noqonuniy yoki noteng kirish imkoniyati kabi masalalar ham kirib, o‘sib kelayotgan iqtisodiyotlarda barqaror o‘sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan.

2003 yil oxiridan e’tiboran Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining Markaziy Osiyo yo‘nalishi qayta tashkil etildi va yangi shakllangan jamoa mintaqa bilan munosabatlarni rivojlantirishga nisbatan ancha ochiq yondashuvni namoyon eta boshladi. Mazkur byurokratik o‘zgarish natijasida ilk muntazam hamkorlik formati – “Markaziy Osiyo plyus Yaponiya” (CA+J) forumi shakllantirildi. Ushbu forum 2004 yil avgust oyida o‘sha paytdagi tashqi ishlar vaziri Kavaguchi Yorikoning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonga amalga oshirgan tashrifi ortidan rasman ta’sis etildi.

Yaponiya tashqi siyosatida energetika omili – bu milliy manfaat masalasi bo‘lib, hukumat ushbu masalaga faol va izchil tarzda e’tibor qaratib kelgan. 1973 yilgi neft inqirozi ortidan energiya ehtiyojlarini ta’minlashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, resurs diplomatiyasi (“shigen gaikō”) atamasi Yaponiya hukumati va ekspertlari tomonidan ochiq va keng qo‘llanila boshlangan. Sovuq urushdan keyingi davrda Yaponiya hukumati global sa’y-harakatlarni amalga oshirgan, shu jumladan Markaziy Osiyo hamda sobiq sotsialist mamlakatlarda yangi imkoniyatlarni ilgari surishda faol ishtirok etgan[1].

Markaziy Osiyo bilan Yaponiya munosabatlarining butun tarixida Yaponiyaning mintaqaning energiya resurslariga bo‘lgan qiziqishi diplomatik doiralar qarashlari va Tashqi ishlar vazirligi ning “Diplomatik moviy kitoblari”da muntazam urg‘ulanib keladi[2]. 1990-yillarda Yaponiya va Markaziy Osiyoning neft va tabiiy gaz qidiruvi sohasidagi hamkorligi faollashdi. 2000-yillar o‘rtalari va oxirlariga kelib esa Yaponiya diqqatini uglerod gidrokarbonlaridan Markaziy Osiyodagi uran rudalari va nodir elementlar egallay boshladi.

Maqsad va vazifalar. Tadqiqotning maqsadi sifatida Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi energetik diplomatiyasining rivojlanish dinamikasi, o‘ziga xos xususiyatlari, mintaqa davlatlari bilan energetik hamkorlikning shakllanish jarayonlari, energetik diplomatiyani amalga oshirishda nodavlat aktorlar va TMKlarning roli, yangi mintaqaviy formatlarning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish va yoritish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Usullar: maqolada nazariy-metodologik, statistik tahlil va tizimlashtirish tamoyillari, shuningdek, qiyosiy, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. Markaziy Osiyo resurslaridan Yaponiya ta’minoti uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish yagona maqsad bo‘lmagan. Yaponiya bu resurslarni Markaziy Osiyo davlatlari bozor transformatsiyasi jarayonida farovonlik manbai sifatida ham ko‘rgan. Shu tariqa, Yaponiya faqatgina o‘z manfaatini ko‘zlab resurslardan foydalanish emas, balki raqobatbardosh texnologiyalar, infratuzilma va atrof-muhitga mos texnologiyalar orqali resurslarni qazib olish va kommersializatsiya qilish, shu jumladan eksportni ta’minlashga katta xissa qo‘shgan. Shuningdek, Yaponiya moliyalagan yoki Yaponiya tashabbusi bilan amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari Markaziy Osiyo tovarlarining xalqaro bozorga kirishini osonlashtirib, nafaqat Yaponiyaga, balki boshqa xomashyo xaridorlari va Markaziy Osiyo davlatlariga ham foyda keltirgan.

[1] Murashkin N. Japan and Central Asia: Do Diplomacy and Business Go Hand-in-Hand? Etudes de l’Ifri, April 2019.

[2] Kent E. Calder. Japan’s Energy Angst: Asia’s Changing Energy Prospects and The View from Tokyo. Presentation at the National Bureau of Asian Research, Seattle, WA, 28 September 2004; MOFA Diplomatic Bluebooks (Tokyo, 2014-2024).

Yaponiyaning energetika diplomatiyasi geografiyasi, avvalo, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoni qamrab olgan bo‘lib, keyinchalik Afrika hamda postsovet hududlariga, jumladan Markaziy Osiyoga ham kengaygan. AQShtomonidan siyosiy bosim mavjud bo‘lishiga qaramasdan, Yaponiyaning asosiy neft ta’minotchilaridan biri bo‘lgan Eronga nisbatan yumshoq siyosat yuritgani Tokioning muayyan darajadagi mustaqilligini hamda energetika omilining Yaponiya tashqi siyosatdagi hal qiluvchi ahamiyatini yaqqol namoyon etib kelgan.

Umumiy resurs tanqisligidan tashqari, Yaponiya tarixan xalqaro siyosiy iqtisodiyot tuzilmasidan kelib chiqadigan yana bir muammoga duch kelgan. Yaponiya kompaniyalari Yaqin Sharq nefti uchun qo‘shimcha yuqori narx to‘lashga majbur bo‘lgan, bu holat Xitoy yoki Janubiy Koreya kompaniyalari uchun ham xos edi[1]. 1980-yillar oxiridan boshlab va 1990–2000-yillar davomida Osiyo bozorlariga yo‘naltirilgan narx belgilash mexanizmlari bilan Amerika va Yevropa bozorlari o‘rtasidagi farq doimiy ravishda saqlanib kelib, natijada Osiyo davlatlari uchun uglevodorodlarni xarid qilish qiymati yuqoriroq bo‘lib qolgan[2].

Bundan tashqari, 2000-yillardan keyingi “slanes inqilobi” ortidan global gaz bozori tuzilmasida saqlanib qolgan nomutanosibliklar “Osiyo gaz ustamasi” (“Asian gas premium”) deb ataluvchi hodisani yuzaga keltirdi. Slanes inqilobidan keyin AQShda tabiiy gaz narxlari taklif va talab nisbatidagi o‘zgarishlarga, ya’ni slanes gazi hissasi tufayli yumshagan bozor sharoitiga mos ravishda shakllana boshlagan bo‘lsa, Yaponiya va Osiyoning boshqa mamlakatlarida suyultirilgan tabiiy gaz importi narxlari “asosan Yaponiyaning uzoq muddatli import shartnomalari doirasida neft import narxlariga bog‘lab belgilangan. Shu tariqa, suyultirilgan tabiiy gaz narxlari gaz bozoridagi taklif va talab muvozanatiga emas, balki neft narxlaridagi o‘zgarishlarga muvofiq harakatlangan”[3].

Shu sababli, ushbu tuzilmaviy samarasizliklarni bartaraf etish Yaponiya va boshqa Osiyo davlatlari kompaniyalari uchun neft va gazning yangi istiqbolli manbalarini ustuvor deb bilishda muhim rag‘bat omiliga aylandi. 1991 yilda Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkmaniston kabi Kaspiybo‘yi sobiq sovet respublikalari mustaqillikka erishganida, ularning boy uglevodorod zaxiralari oxirgi

[1] Ogawa Yoshiki. Asia Oil Price Analysis: Middle Eastern Crude for Asian Market Priced at Comparatively Higher Levels and Switchover of Marker Crude Inevitable to Gain Market’s Confidence. The Institute of Energy Economics, Japan, September 2002, http://eneken.ieej.or.jp/en/data/pdf/133.pdf; Moon Young-Seok, Lee Dal-Sok. Asian Premium of Crude Oil, presentation, International Workshop on ‘Cooperative Measures in Northeast Asian Petroleum Sector,’ 6 September 2003, Seoul, Korea.

[2] Ogawa Yoshiki. Asian Premium of Crude Oil and Importance on Preparation of Oil Market in Northeast Asia, presentation, The 26th IAEE International Conference, Prague, http://www.iaee.org/documents/prague/p03ogawa.pdf

[3] Koyama Ken. An Analysis on Asian Premium for LNG Price. A Japanese Perspective on the International Energy Landscape (79), Special Bulletin, The Institute of Energy Economics, Japan.

yirik, hali o‘zlashtirilmagan imkoniyatlar sifatida baholangan va Osiyo kompaniyalari uchu qulay fursat hisoblangan edi. Biroq, 2000-yillar o‘rtalari va oxiriga kelibgina Markaziy Osiyo zaxiralari bo‘yicha o‘tkazilgan audit hisobotlari ularning hajmini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Bu holat 1990-yillar boshida berilgan baholar, ayniqsa Turkmaniston bo‘yicha, ortiqcha optimistik bo‘lganini ko‘rsatdi. Zaxiralar hajmining qayta baholanishi, o‘z navbatida, Markaziy Osiyoning tashqi investorlar, jumladan Yaponiya uchun ham tijoriy jozibadorligini pasaytirdi.

Yaponiya sanoat konglomeratlari hamda savdo uylarining vertikal va gorizontal integratsiyasi umum qabul qilingan holatdir. Ularning xorijga chiqish jarayonlarida ishlab chiqarish va qazib olish tarmoqlari ko‘pincha moliyaviy va savdo bo‘linmalari bilan birga harakat qiladi. Biroq Markaziy Osiyo misolida ishlab chiqarish sohasi hamda tayyor mahsulotlarni sotish masalalari chetda qoldirilib, e’tibor asosan xomashyo tovarlari sektoriga qaratilgan. Bunday yondashuvning sababi mazkur sohalarning Markaziy Osiyoda yapon korporatsiyalari uchun nisbatan past tijoriy jozibadorligi bo‘lib, bu holat ayniqsa Xitoy va Janubiy Koreya kompaniyalari bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tijoriy salohiyat va ishlab chiqarish istiqbollari nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo bir qator omillar tufayli yapon kompaniyalari uchun cheklangan jozibadorlikka ega. Mintaqaning umumiy aholisi 80 milliondan oshiq bo‘lib, bu ko‘plab Osiyo iste’mol bozorlariga nisbatan ancha kamdir. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlarida xarid qobiliyati nisbatan past, bojxona hamda boshqa institusional to‘siqlar esa hanuz qattiq saqlanib qolmoqda. Yapon ishlab chiqaruvchilari tomonidan amalga oshirilgan investisiyalarning mahalliylashtirish darajasi ham past bo‘lib, bu holat yapon mahsulotlarining asosan mintaqada faqat yakuniy qayta ishlanishi, yig‘ilishi bilan cheklanib, asosiy qism va butlovchi elementlar esa boshqa joylarda ishlab chiqarilishini anglatadi.

2000-yillar oxiriga kelib, Qozog‘iston xarid qobiliyati va nisbatan qulayroq ishbilarmonlik muhiti nuqtai nazaridan mintaqada istisno sifatida ajralib chiqdi, bu esa yapon kompaniyalarining unga bo‘lgan qiziqishini ortishiga olib keldi. Shunga qaramay, aholisi taxminan 20 millionni tashkil etuvchi Qozog‘iston ham hanuz kichik bozor bo‘lib qolmoqda.

Aholisi ancha kam bo‘lgan Qirg‘iziston (taxminan 7 milliondan ortiq) va Tojikistonda (10 million) esa ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar davom etmoqda. Aholisi qariyb 8 million bo‘lgan Turkmanistonda esa hanuz yopiq ishbilarmonlik muhiti saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston esa alohida va ayniqsa yuqori ko‘rsatkichni ifodalaydi. 1990-yillarda mintaqada aholisi eng ko‘p bo‘lgan ushbu davlat (o‘sha paytda taxminan 29 million, 2025 yil holatiga ko‘ra qariyb 38 million) iqtisodiy o‘sish sur’atlarining yuqoriligi sababli Markaziy Osiyodagi eng istiqbolli biznes yo‘nalishi sifatida qaralgan. 2006 yilda Eronga nisbatan sanksiyalar joriy etilgunga qadar, hatto O‘zbekistonning ikki

karra quruqlik bilan o‘ralgan geografik joylashuvi ham Yaponiya uchun uni mintaqaning asosiy mamlakati sifatida ko‘rishga to‘sqinlik qilmagan, chunki Eronning Bandar-Abbos porti orqali eksport qilish istiqboli amaliy jihatdan mumkin, deb baholangan edi.

Biroq, 2000-yillar o‘rtalariga kelib tashqi muhit o‘zgardi. Eronga nisbatan xalqaro bosimning kuchayishi hamda Yaqin Sharqdagi nizolar Bandar-Abbos orqali eksport yo‘nalishlari istiqbolini xavf ostiga qo‘ydi. Shu bilan birga, investorlar uchun qulaylik haqidagi rasmiy ritorikaga qaramasdan, O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhiti bosqichma-bosqich yomonlashib bordi. Bunga qat’iy valyutani nazorat qilish tizimining saqlanib qolishi hamda investorlar mulk huquqlari borasidagi muammolar sabab bo‘lib, bu holat xorijiy kompaniyalar faoliyatini jiddiy tarzda chekladi.

Masalan, Mitsui Bussan kompaniyasi 1990-yillar boshidan beri O‘zbekistonda yapon biznesining “flagmani” hisoblanar edi. Biroq 2010-yillar boshiga kelib, O‘zbekistondagi iqtisodiy muhit hamda Turkmanistondagi korrupsiya holatlari kompaniyani o‘z faoliyatini Qozog‘iston tomon qayta yo‘naltirishga undadi.

Bundan tashqari, 2000-yillar o‘rtalarida O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida moliyalashtirish yondashuvlarida nomutanosiblik yuzaga chiqdi. Jumladan, O‘zbekiston bevosita ulushli investisiyalarni afzal ko‘ra boshladi. Yaponiya esa qarz kapitali eksportini ustuvor deb bildi, chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni mulk huquqlarining zaif himoya qilinishi sababli xatarli, deb hisoblar edi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati ilgari keng qo‘llanilgan davlat kafolatlarining hajmi va qamrovini qisqartirdi, bu esa yapon tomonida xatardan qochish kayfiyatini yanada kuchaytirdi.

O‘zbekistondagi iqtisodiy-moliyaviy va siyosiy turg‘unlik faqat 2016 yil oxiridan boshlab, keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlar boshlanishi bilan sekin-asta o‘zgarishni boshladi va shu davrdan boshlab mamlakatning xorijdagi investisiyaviy jozibadorligi orta boshladi.

Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi savdo va investisiya faoliyatidagi xatardan qochish kayfiyatini Yaponiyaning Yaqin Sharqdagi muvaffaqiyatli biznes operatsiyalari yoki Xitoy va Janubiy Koreyaning yuqorida tilga olingan to‘siqlarga qaramay Markaziy Osiyodagi kengayishi bilan taqqoslash ushbu cheklanganlikni bir nechta asosli sabablarini aniqlashtiradi. Bular ko‘p hollarda korporativ madaniyat va kompaniyalarning kelib chiqish bozorlari farqlari bilan bog‘liq ekanligi bilan bog‘liq.

Ko‘pgina yapon ekspertlarining ta’biri bo‘yicha “yo‘qotilgan o‘n yillik”dan so‘ng, Yaponiya korporatsiyalarining strategiyalari global miqyosda kengayishdan ko‘ra erishilgan pozisiyalarni saqlashga o‘zgardi. Bu strategiyalar har bir kompaniyaning korporativ madaniyatiga hamda shaxsiy nuqtai nazarga ko‘ra farq qilar edi. Masalan, ko‘pchilik yapon xususiy neft kompaniyalari qat’iy xatardan qochuvchi va imkoniyatga qarab harakat qiluvchi deb ta’riflanadi. Davlatga tegishli JOGMEC esa yagona xatarni qabul qiluvchi tashkilot sifatida ajralib turar edi. Yapon

kompaniyalari Yevroosiyodagi neft va gaz operatsiyalarida yetarli sarmoyaga ega bo‘lmagan va muntazam ravishda xavfsizlik kafolati uchun Yaponiya hukumatidan yordam so‘rab kelgan. Biroq, davlat tomonidan bu qo‘llab-quvvatlash ta’minlangandan keyin ham, kompaniyalar amalda sezilarli natijalarga erishmagan. Shu bilan birga, yapon xususiy neft kompaniyalari hukumatning bunday qo‘llab-quvvatlovidan hamisha ham qoniqmagan. Ba’zi neft kompaniyalari rahbarlari fikriga ko‘ra, agar AQSh yoki boshqa G‘arb kompaniyalari davlat lobbisidan foydalansa, yapon hukumatining korporatsiyalar manfaatlarini ilgari surishdagi yordami nisbatan zaif va strategik nuqtainazardan mahrum edi.

Markaziy Osiyodagi yirik neft va gaz loyihalarida yapon kompaniyalarining ishtirokini tahlil etish ham energetika diplomatiyasini tadqiq etishda muhim jihat hisoblanadi. Yaponiyaning Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi qo‘llab-quvvatlagan “International Petroleum Exploration Teikoku Oil” (INPEX, ayni paytda Eronda ham faoliyat olib borgan) va “Itochu” kompaniyalari xalqaro konsorsiumlar doirasida ishlagan, bu esa ko‘pchilik Xitoy kompaniyalaridan farq qilgan. Misol uchun Turkmanistondagi 20 milliardlik “Galkynysh” gaz qayta ishlash loyihasida ham yapon kompaniyalari turk sheriklari bilan hamkorlikda ishtirok etgan. Bu konsorsiumlarga va xalqaro hamkorlikka ustunlik berish sababi avvalo, xatarlarni va rivojlantirish xarajatlarini taqsimlash maqsadida bo‘lgan. Shu bilan birga, bu kompaniyalar orasida “Itochu”, “Sumitomo” kabi xatarni qabul qilishdan cho‘chimaydiganlari ham bor edi.

“Sumitomo”ning Qozog‘istonda uran ishlab chiqarishga sarmoya kiritish qarori hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, “Japanese Bank for International Cooperation” va **“**Nippon Export and Investment Insurance” tomonidan ehtimoliy xatarlardan sug‘urtalangan**.** Bu mexanizm yapon kompaniyalariga ehtimoliy xatar va zararni birgalikda ko‘tarish imkonini bergan.

Biroq, alohida korporatsiyalarning bu yondashuvlaridagi farq, paradoksal ravishda, ikki tomonlama vakillik qiluvchi biznes assotsiatsiyalarda teskari tarzda namoyon bo‘lgan. Ya’ni, Markaziy Osiyodagi xomashyo qazib chiqarish loyihalarida alohida yapon kompaniyalarining muvaffaqiyati ularga iqtisodiy hamkorlik qo‘mitalarida avtomatik ravishda yuqori profilga ega bo‘lish imkonini bermagan. INPEX va Itochu Kaspiy nefti va gazida muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa, Sumitomo Qozog‘istondagi uran va kam uchraydigan elementlar loyihalarida ustun kelgan.

Shunga qaramay bu kompaniyalarning barchasi Markaziy Osiyoga nisbatan umumiy holda yuqori darajada xatardan saqlanish qarashlariga ega. Bu jihat, Markaziy Osiyodagi barcha yapon kompaniyalari hali ham to‘liq filiallar emas, balki vakolatxonalar sifatida faoliyat yuritishi bilan izohlanadi. Bu esa o‘z navbatida ularning mas’uliyat va imkoniyatlarini cheklaydi. Bu institusional kamchilik yapon kompaniyalarining Markaziy Osiyodagi ishlab chiqarish va moliyaviy bo‘limlari o‘rtasida an’anaviy aloqalarning yo‘qligi bilan yanada murakkablashadi. Chunki,

yapon xususiy moliyaviy institutlari butun mintaqa bo‘yicha Qozog‘istondan tashqari boshqa davlatlarda mavjud emas.

Buning natijasida yapon kompaniyalarining faoliyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi loyihalar va tovarlarga yo‘nalgan. Tovarlarni Markaziy Osiyodan Yaponiya va boshqa joylarga yetkazish uchun yangi infratuzilma talab qilgan. Shu boisdan 1990-yillardan boshlab Yaponiya Markaziy Osiyoning transport va aloqa infratuzilmasini modernizatsiya qilishga faol hissa qo‘shib, mintaqaning eksport yo‘laklarini asosan shimoli-g‘arbiy yo‘nalishdan sharq va janubga yo‘naltirish va diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratdi. Yaponiya korporatsiyalarining Markaziy Osiyo resurslariga kirishini yaxshilash uchun amaliy va merkantilist motivlari inkor qilinmasa-da, bu jarayon davlat tomonidan moliyaviy yordam orqali amalga oshirilgan idealist yoki funksionalist qarashlar bilan ham qo‘llab-quvvatlangan.

90-yillarning boshlarida “Mitsubishi” kompaniyasi va Xitoyning CNPC neft kompaniyasi Turkmaniston va Qozog‘iston gazini Xitoyning sharqiy sohiliga, shu orqali Yaponiya va Janubiy Koreyaga olib borishni nazarda tutgan uzunligi qariyb 9000 km ni tashkil etadigan “Energetika Ipak Yo‘li” quvur yo‘li g‘oyasini taklif qilgan. Biroq, 1993-1998 yillarda amalga oshirilgan qo‘shma texnik-iqtisodiy tadqiqot natijalari loyihaning rentabelligi past bo‘lishi kutilishini ma’lum qilidi. Bundan tashqari, Xitoyning ichki energetika siyosati ustuvorliklarini o‘zgartirdi, 11 milliardlik yuqori xarajat o‘sha vaqtda past bo‘lgan energiya narxlari bilan qoplanmaydi, deb baholandi. Shuningdek, Yaponiya va Janubiy Koreya tomoni Xitoy orqali bo‘ladigan ta’minotda ehtimoliy uzilishlardan xavotir bildirdilar.

Shuningdek, 90-yillarning o‘rtalarida, “Itochu” kompaniyasi Markaziy Osiyo gazini Eron orqali Turkiyaga uzatadigan xalqaro quvur liniya konsorsiumiga qo‘shilishni ko‘rib chiqqan, ammo bu loyiha ham amalga oshmadi. Bu asosan AQShning Kaspiy siyosatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi. AQSh Davlat departamenti arab mamlakatlari va Eron orqali o‘tmaydigan quvur liniya loyihalarini ilgari surgan bo‘lsa, postsovet Kaspiy respublikalari o‘zining Rossiyaga bog‘liqligini kamaytirishga intilar edi.

Markaziy Osiyodan Xitoy orqali Yaponiyaga gaz quvur liniyasi loyihasi bekor qilinganidan so‘ng, Afg‘oniston orqali janubiy yo‘nalishdagi gaz quvur liniyasi, ya’ni TAPI loyihasi kengroq xavfni taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘lganligi tufayli Yaponiya uchun amaliylik darajasi yuqori edi.

TAPI loyihasining paydo bo‘lishi 90-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, bu vaqtda Turkmaniston gazini Pokistonning dengiz portlariga yetkazuvchi quvur liniya loyihasi birinchi marta Argentina kompaniyasi “Bridas Corporation” tomonidan taklif qilingan va o‘sha paytda Afg‘onistonning tegishli viloyatlarida nazoratga ega bo‘lgan Tolibon harakati bu jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Ushbu loyihada Yaponiyaning ishtiroki konsorsium a’zosidan potensial moliyalashtiruvchigacha (asosan Osiyo taraqqiyot banki orqali) o‘zgarganini kuzatish

mumkin. Bu ishtirok Markaziy Osiyodagi Yaponiya siyosatidagi merkantilist va idealist elementlar o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatib beradi.

Turkmaniston hamda Afg‘oniston bilan muzokaralardan so‘ng, Bridas kompaniyasi AQShning “Unocal” korporatsiyasi bilan almashtirildi. 1997 yilda “Unocal” Yaponiya va Janubiy Koreya kompaniyalari ham qo‘shilgan “Markaziy Osiyo Gaz Konsorsiumi” (“CentGas”)ni tashkil qildi. Ushbu konsorsiumda Yaponiyaning “INPEX” va “Itochu” kompaniyalari vakillik qilgan (har biri 6,5 foiz ulush bilan). Bu sa’y-harakat INPEX va Itochuning Markaziy Osiyo uglevodorodlari sohasidagi birinchi hamkorligi bo‘lib, keyinchalik Ozarbayjonda ham ikki loyiha amalga oshirilgan.

TAPI loyihasining Yaponiya uchun siyosiy ahamiyati Tashqi ishlar vazirligining rasmiy bayonotlarida ham takrorlanar edi[1]. Garchi, “Erkinlik va farovonlik yoyi” konsepsiyasi mualliflari Xitoy yoki Rossiyaga nisbatan ziddiyatni rad etgan bo‘lsalar ham, Vashington qo‘llab-quvvatlagan TAPI loyihasi bo‘yicha Yaponiyaning pozisiyasi uni Rossiya, Xitoy va Eron manfaatlariga zid qo‘ygan. Shuningdek, bu Eron nefti ustidan Xitoy va Yaponiya o‘rtasidagi raqobatning kuchayishiga olib kelgan. AQShning Eronga nisbatan sanksiyalarga qo‘shilish bosimi ortidan, Yaponiyaning “Inpex” kompaniyasi Eronning Azadegan neft konining asosiy ishlab chiqaruvchisi maqomini Xitoyning CNPC kompaniyasiga topshirishga majbur bo‘lgan[2].

2024 yili TAPI loyihasi bo‘yicha Afg‘oniston qismida rasman qurilish ishlari boshlandi. Bu marosimda Turkmaniston va Afg‘oniston rasmiylari ishtirok etdi, va bu loyihani qayta tiklash deb qaraldi[3].

2025 yilning noyabr oyida Qozog‘iston TAPI loyihasiga 30 foizgacha ulush bilan qo‘shilishi mumkinligi yuzasidan loyihaning potensial sheriklariga rasmiy murojaat yuborgan[4]. Strategik jihatdan, TAPI loyihasida ishtirok etish Qozog‘istonning tranzit xab sifatidagi rolini mustahkamlaydi hamda Janubiy Osiyo bozorlariga kirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida mintaqaviy bog‘liqlikni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiya sifatida ham ko‘rilishi mumkin.

2012 yildan to hozirgi vaqtgacha Yaponiya hukumati TAPI loyihasi bo‘yicha ochiq pozisiya bildirmagan, natijada Yaponiyaning OTB orqali ta’siri yagona

[1] MOFA: Speech by Asō Tarō, at the Japan National Press Club, ‘Central Asia as a Corridor of Peace and Stability,’ http://www.mofa.go.jp/region/europe/speech0606.

[2] Hisane Masaki. Japan Joins the Energy Race in Central Asia. The Asia-Pacific Journal 4, no.8.http://apjjf.org/ Hisane-MASAKI/2179/article.pdf

[3] Turkmenistan, Afghanistan resume work on multibillion-dollar gas pipeline project// https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/turkmenistan-afghanistan-resume-work-on-multibillion-dollar-gas-pipeline-project/3327403?utm_source=chatgpt.com

[4] Kazakhstan Seeks 30% Stake in TAPI Gas Pipeline, Awaits Response from Project Partners.// https://caspianpost.com/kazakhstan/kazakhstan-seeks-30-stake-in-tapi-gas-pipeline-awaits-response-from-project-partners?utm_source=chatgpt.com

bilvosita ishtirok sifatida saqlanib qolgan. 2009 yilda Rossiyaning Saxalin gazi bo‘yicha hamkorlikning yaxshilanishi Turkmaniston gazining ehtimoliy xavflarini pasaytirgan. Shunga qaramasdan, 2011 yilgi Fukushimadagi falokatidan so‘ng Yaponiya energiya balansida gaz ulushini oshirishga majbur bo‘lgan[1].

Yaponiyaning Markaziy Osiyo neft sektoridagi ishtiroki, Kaspiybo‘yi davlati sifatida Ozarbayjonni ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, mamlakat tashqi energetika strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan Yaponiya xususiy sektori mintaqa neft aktivlariga investisiyalar kiritib keldi, chunki bu aktivlar, eng avvalo, mavjud “Osiyo ustamasi” muammosini hal etish uchun imkoniyat sifatida baholandi. Shu bilan birga, mazkur investisiyalar neft narxlari past bo‘lgan davrda amalga oshirildi. Demak, Yaponiyaning bu investisiyalardan maqsadi faqat tijoriy emas, balki strategik xarakterga ham ega edi.

2024 yil Yaponiyaning “Inpex” kompaniyasi ilk bor Qozog‘istondagi yirik Kashagan neft konidan o‘z ulushiga to‘g‘ri keladigan neftni Rossiyaning “Drujba” quvur tarmog‘i orqali Germaniyaning Shvedt neftni qayta ishlash zavodiga yetkazib beradi. Chunki, Yevropa Ittifoqi embargosi Rossiya quvurlari orqali yetkazib beriladigan, ammo Rossiyaga tegishli bo‘lmagan neftni sotib olishni taqiqlamaydi.

Bundan tashqari, yapon kompaniyalari hamda ular bilan bog‘liq davlat agentliklari – JOGMEC yoki JBIC kabi institutlar nafaqat Markaziy Osiyoda faoliyat yuritdilar, balki o‘zgarib borayotgan strategik muhitga moslashishda ham yetarli darajada faolikka egadirlar. Qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p vektorli siyosati ya’ni mintaqaviy ishlarga bir vaqtning o‘zida bir nechta tashqi aktorlarni jalb etishga intilishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan Yaponiya manfaatlariga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mintaqa davlatlari orasida birinchi bo‘lib Yaponiya Eksport-Import banki (keyinchalik JBIC bilan birlashgan) va Yaponiya Milliy Neft Korporatsiyasi (JNOC) tomonidan moliyalashtirilgan davlatga aylandi.

JBIC va JICA tomonidan yapon biznesi ishtirokini nazarda tutgan holda taqdim etilgan moliyalashtirish o‘sha davrda eng maqbul shartlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, neft narxlarining juda pastligi Markaziy Osiyo davlatlarining muzokaralardagi pozisiyasini ham, investisiyaviy jozibadorligini ham sezilarli darajada pasaytirgan edi. Ana shu davrda Qozog‘iston tomonidan yapon rasmiylari va biznes doiralariga nisbatan munosabat avvalgi nisbatan “murakkab” va G‘arb yoki Rossiyaga qaraganda kamroq qulay bo‘lgan holatdan yaxshilanish tomon o‘zgardi[2].

Bunday “murakkablik” yapon tijoriy takliflari Qozog‘iston tomonidan ko‘p hollarda iliq qarshilanmaganida edi. Bu holat Qirg‘iziston va O‘zbekistondagi nisbatan yumshoq va ochiq qabul bilan keskin farq qilardi. Qozog‘istonning Yaponiyaga nisbatan iliq munosabati Rossiya ta’sirining susayishi bilan belgilanardi.

[1] MOFA. Japan-Turkmenistan Relations. http://www.mofa.go.jp/region/europe/turkmenistan/data.html

[2] Kawato Akio. Japan’s Strategic Thinking Toward Central Asia. Strategic Thought Toward Asia, ed. Gilbert Rozman et al. New York: Palgrave, Uyama, ‘Japanese Policies,’ 168.

“Inpex” kompaniyasining Shimoliy Kaspiy dengizida joylashgan ulkan Kashagan neft koni xalqaro konsorsiumiga kirishi Qozog‘iston tashqi siyosatidagi o‘zgarishni ham anglatardi.

Yuqorida tilga olingan, ammo amalga oshmay qolgan Turkmanistondagi CentGas loyihasidagi ishtirokdan tashqari, “Inpex”ning Markaziy Osiyodagi ishtiroki Kaspiy bilan bog‘liq uch yirik loyiha – Qozog‘istondagi Kashagan koni, Ozarbayjondagi “Azeri–Chirag–Gunashli” neft konlari va “Boku–Tbilisi–Jeyhan” neft quvurini o‘z ichiga oldi. JNOC (keyinchalik JOGMEC) tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlangan holda, INPEX Kashagan loyihasida 7,56 foizlik ulushga ega bo‘ldi[1]. Uning ishtirokini Qozog‘iston tomoni ham qo‘llab-quvvatladi, chunki rasmiy Ostona investorlar portfelini G‘arb va Rossiya ustuvorligidan diversifikatsiya qilib, Sharqiy Osiyo, jumladan Yaponiya hissasini oshirishni maqsad qilgan edi. Qozog‘istonning bu boradagi harakati, shuningdek, kelajakda Kashagan neftini “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvuriga ulash istiqbollari bilan ham rag‘batlantirildi.

“Itochu”ning Kaspiyning Ozarbayjon qismidagi muvaffaqiyatini asosan kompaniyaning xususiy tashabbuslari hamda JNOC va METI tomonidan ko‘rsatilgan davlat ko‘magi bilan izohlash mumkin bo‘lsa, “Inpex”ning Kashagandagi ishtiroki bundan farqli ravishda hukumatlararo hamkorlikning ancha yuqori darajasini talab etdi. Xavflarni bo‘lish maqsadida JNOC ushbu loyihaga yana bir yapon neft kompaniyasi – “JAPEX” hamda “Mitsubishi Corporation”ni jalb etdi.

Shu tariqa, yapon neft kompaniyalarining Markaziy Osiyodagi faoliyatiga turtki bo‘lgan asosiy omillar tijoriy maqsadlar, xususan, “Osiyo neft ustamasi”ni kamaytirish va bozorga erkin kirib borish strategiyasi bo‘lgan bo‘lsa-da, Rossiya–Markaziy Osiyo munosabatlarining siyosiy dinamikasi hamda uning mintaqa davlatlari tashqi siyosatiga ta’siri ushbu jarayonning kengroq strategik manzarasini namoyon etdi.

Markaziy Osiyoda energetik xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida Yaponiya Qozog‘iston infratuzilmasini yangilash va ilg‘or energetik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan qator loyihalarda ishtirok etdi. Xususan, 2002 yilda Qozog‘iston hukumati va Yaponiyaning Yangi energetika va sanoat texnologiyalarini rivojlantirish tashkiloti (NEDO) o‘rtasida issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilish hamda energiya tejovchi texnologiyalarni namunaviy joriy etishga doir anglashuv memorandumi imzolandi. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 15 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, u Kioto protokoli doirasida amalga oshirildi. Kelishuvga ko‘ra Qozog‘iston har yili Yaponiyaga 62 ming tonna hajmdagi karbon dioksid chiqindilari kvotasini taqdim etishi lozim edi. Shu ma’noda, Yaponiyaning Markaziy Osiyoga bo‘lgan manfaatlari faqatgina xomashyo qazib olish bilan cheklanib qolmasdan, ancha keng va kompleks xarakterga ega bo‘lgan, deya baholash mumkin. Yaponiya–Qozog‘iston neft sohasidagi hamkorlik Yaponiya

[1] https://www.inpex.com/english/business/project/northcaspian.html?utm_source=chatgpt.com

tomonidan ilgari surilgan “Ipak yo‘li energetika missiyasi” orqali yanada keng mintaqaviy yondashuv doirasiga qo‘shildi. Ushbu missiya Markaziy Osiyo davlatlarini uzoq muddatli va yaqin energetik hamkorlikka da’vat etdi.

Kaspiybo‘yi mamlakatlari orasida Yaponiyaning ishtiroki eng yaqqol namoyon bo‘lgan davlat Ozarbayjondir. Garchi Ozarbayjon joylashuviga ko‘ra Markaziy Osiyo tarkibiga kirmasa-da, u ko‘pincha transmilliy korporatsiyalar tomonidan mazkur mintaqaning bir qismi sifatida qaraladi. Shuningdek, Ozarbayjon o‘zining ulkan uglevodorod zaxiralari, geografik o‘rni hamda Markaziy Osiyo bilan mushtarak bo‘lgan madaniy merosi tufayli “Yangi Ipak yo‘li”, “Katta Yaqin Sharq” yoki “Evroosiyo Bolqonlari” kabi g‘oyaviy geosiyosiy konsepsiyalarda muntazam ravishda tilga olinadi. Ozarbayjon Ipak yo‘liga kiruvchi davlatlar ichida neft konlariga xorijiy investisiyalarni faol jalb eta boshlagan ilk mamlakat hisoblanadi.

Yapon kompaniyalarining “Azeri–Chirag–Gunashli” loyihasidagi ishtiroki Yaponiya neft, gaz va metalllar milliy korporatsiyasi (JOGMEC) tomonidan ustav kapitaliga investisiyalar kiritish va kredit kafolatlari orqali qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa, “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvuri qurilishi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirildi. Garchi “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvurining qurilishi sobiq sovet respublikalarining eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va Rossiyaga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan Yevropa Ittifoqi va AQSh strategiyasiga mos kelgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda Yaponiya–Markaziy Osiyo omili ham mavjud edi. Bundan tashqari, Yaponiya Ozarbayjondagi yapon korporativ loyihalarini mamlakatga moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali izchil qo‘llab-quvvatlab keldi. Ushbu yordam doimo to‘g‘ridan-to‘g‘ri muayyan loyihalar bilan bog‘lanmagan bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan ular bilan uzviy aloqador edi.

Yapon kompaniyalarining “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvuridagi ishtiroki geosiyosiy emas, balki asosan tijoriy omillar bilan izohlanadi va qarorlarning aksariyati xususiy sektorning o‘zi tomonidan qabul qilingan. Dastlab tashabbus “Itochu” tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, keyinchalik JNOC tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. “Inpex” esa keyinchalik, JNOC ko‘magida, Rossiyaning “Lukoil” neft kompaniyasi o‘rnini bosish maqsadida loyihaga qo‘shildi. Ozarbayjon tomonidan esa loyiha davlat neft kompaniyasi SOCAR tomonidan ilgari surilgan edi.

2022 yilda SOCAR va KazMunayGaz o‘rtasida neft tranziti bo‘yicha kelishuv imzolandi va 2024 yilda hajmni bosqichma-bosqich oshirish rejasi tuzildi[1]. 2025 yil davomida “Boku–Tbilisi–Jeyhan” orqali jami 24.9 mln tonna neft eksport qilingan, bu 2024 yilga nisbatan taxminan 7.2% kamayishni ko‘rsatadi. Bu 24.9 mln tonnaning

[1] https://en.apa.az/energy-and-industry/kazmunaygaz-resumes-oil-exports-via-baku-tbilisi-ceyhan-pipeline-477997?utm_source=chatgpt.com

85.1%i – Ozarbayjon neftidan, qolgan 14.9% esa Turkmaniston va Qozog‘iston nefti hissasiga to‘g‘ri keladi[1].

Yaponiyaning Turkmaniston bilan munosabatlari, “Inpex” va “Itochu”ning “CentGas” konsorsiumida ishtirok etishiga qaramasdan Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan ancha sust rivojlangan edi. Yaponiyaning Turkmanistondagi elchixonasi faqat 2005 yilda ochilgan bo‘lib, bu Markaziy Osiyodagi yapon diplomatik vakolatxonalari ichida eng kech tashkil etilgani hisoblanadi.

Turkmanistondagi neft konlarining aksariyati G‘arb kompaniyalari tomonidan o‘zlashtirilgan. Gaz sohasidagi hamkorlik esa hanuzgacha asosan TAPI quvur loyihasining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, yapon kompaniyalari Turkmaniston energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega loyihalarni ilgari surib kelmoqda.

Geografik uzoqlik va tranzit bilan bog‘liq xavf-xatarlarning to‘liq bartaraf etilmagani sababli, Markaziy Osiyo uglevodorodlarini Yaponiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri import qilish hanuzgacha amalga oshmagan. Biroq Yaponiya tomonidan ko‘rib chiqilgan yechimlardan biri svop mexanizmi bo‘lgan. Ushbu sxemaga ko‘ra, yapon kompaniyalari Kaspiy dengizida neft qazib chiqaradi va keyinchalik uni Yaponiyaga tegishli bo‘lmagan boshqa hamkor kompaniyalar bilan dunyoning boshqa mintaqalarida, masalan, Janubi-Sharqiy Osiyoda ishlab chiqarilgan neftga almashtiradi, ushbu neft esa keyinchalik Yaponiyaga yetkazib beriladi[2].

Kaspiy nefti sifati jihatidan Yaqin Sharq neftiga nisbatan pastroq hisoblanadi, bu esa unga nisbatan muayyan diskont qo‘llanilishiga olib keladi. Shunga qaramasdan, svop natijasida Yaponiyaga yetkazib beriladigan neftni xarid qilish nuqtai nazaridan qaralganda, Kaspiy neftini yapon svop hamkorlariga “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvuri orqali yetkazib berish Yaponiya uchun tijoriy jihatdan maqbul hisoblanadi. Shu tariqa, yapon korporatsiyalari va davlatga aloqador idoralarning “Boku–Tbilisi–Jeyhan” quvur loyihasidagi ishtiroki Yaponiya milliy manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lib, mamlakatning kompleks va strategik yondashuvga asoslangan siyosatini yaqqol namoyon etdi.

Yapon kompaniyalari Markaziy Osiyoda neft-gaz sohasidagi faoliyatni muvaffaqiyatli ravishda, ma’lum ma’noda esa moslashuvchanlik tarzida yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, doimo mustaqil harakat qilish o‘rniga xalqaro konsorsiumlar tarkibida ish olib bordilar. Natijada, Markaziy Osiyoda faoliyat yuritayotgan yapon neft kompaniyalari asosan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan quyi bo‘g‘in (downstream) yo‘nalishlariga e’tibor qaratdilar. Bular qatoriga neft-kimyo sanoati, qurilish ishlari, neftni qayta ishlash zavodlarini rekonstruksiya qilish va

[1] https://report.az/en/energy/btc-pipeline-transports-nearly-25-million-tons-of-oil?utm_source=chatgpt.com

[2] Madeleine L. Central Asia in the light of globalisation: a geoeconomic approach. Paris: Armand Colin, 2010.

modernizatsiyalash kiradi. Bu yo‘nalish Yaponiyaning xalqaro savdodagi raqobat ustunliklariga – yuqori sifatli infratuzilma, ilg‘or texnologiyalar va rivojlangan ishlab chiqarish salohiyatiga to‘liq mos kelar edi. 2000-yillar boshiga kelib Yaponiya–Markaziy Osiyo resurs diplomatiyasining asosiy e’tibori uran va kamyob elementlarga ko‘chdi.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo bilan uran sohasidagi hamkorligi neft va gaz sektoriga o‘xshash jihatlarga ega edi. Biroq uran sohasi muayyan farqlarga ega bo‘lib, davlatning ta’siri va Yaponiyaning Strategik Energetika Rejalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi orqali kattaroq ahamiyat kasb etdi.

1973 yilgi neft inqirozi Yaponiyani energetika xavfsizligi strategiyasida yadroviy energiyani asosiy element sifatida jiddiy ko‘rib chiqishga undagan birinchi stimul bo‘ldi. Shundan beri yadroviy energiyaning ahamiyati sezilarli darajada oshdi, neft esa nisbatan kam ahamiyatga ega bo‘ldi. Yaponiya 2000-yillar davomida “yadroviy renessans” (“genshiryoku runessansu”) jarayoni yuz bergan dunyodagi asosiy mamlakatlardan biri edi.

“Yadroviy renessans” fossil yoqilg‘ilar narxining ko‘tarilishi va parnik gazlari chiqindilariga oid ekologik xavotirning ortishi sababidan vujudga keldi. Shuningdek, xavfsizlik texnologiyalarining rivojlanishi aholining va davlatning yadroviy sanoatga bo‘lgan munosabatini avvalgi, yadroviy avariyalardan keyingi xadikni yumshatgan edi.

Shuningdek, Yaponiya uchun energiya tarkibida yadroviy energiya ulushini oshirish ikki jihatga bog‘liq bo‘ldi: bir tomondan, neft narxlarining yuqorilashi vajidan energiya resurslarini diversifikatsiya qilish; ikkinchi tomondan, mamlakatning uranga ortib borayotgan bog‘liqligini hisobga olgan holda, uran narxining o‘sishiga moslashish. Yaponiya 2006 yilda Markaziy Osiyo davlatlari bilan uran eksporterlari sifatida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali moslashuvchan strategiya namoyish etdi.

2001 yilda Yaponiyada yadroviy energiya umumiy energiya ehtiyojining 20 foizini, elektr energiyasi ishlab chiqarishning esa 35 foizini tashkil etgan. 2011 yilda bu ko‘rsatkichlar tegishincha 23 foiz va 41 foizga yetkazilishi kutilgan edi. 2011 yildagi Fukushima xalokatidan so‘ng hukumat ko‘pgina reaktorlarni to‘xtatishga majbur bo‘lganidan keyin, yadroviy energiya ishlab chiqarish ulushi 1,6 foizga tushirildi. Biroq, bu Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi uran loyihalarini to‘liq bekor qilishga olib kelmadi, faqat kengaytirishni kechiktirdi va Yaponiya yadroviy energiyani kelajakda qayta tiklash ehtimoliga ishora qildi.

Qozog‘iston va O‘zbekiston birgalikda global uran zaxiralarining 20 foizdan ortig‘ini tashkil etadi, Tojikiston va Qirg‘izistonning istiqbolli zaxiralari ham muhim hisoblanadi. Yaponiyaning 2006 yilgi Milliy Yadroviy Energiya Rejasi Markaziy Osiyoni strategik ahamiyatli hudud deb belgiladi va shartnomaviy asoslarga tayangan holda, Yaponiya kompaniyalari orqali uran konlarini rivojlantirish orqali barqaror

ta’minotni oshirishni rejalashtirdi. Ushbu yo‘nalishda davlatning ko‘magi aniq bo‘lib, u Tashqi ishlar vazirligi va Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi o‘rtasida taqsimlandi. Yadroviy energiya hukumat tomonidan tashqi siyosatning asosiy masalalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Hukumat strategiyasiga muvofiq, JBIC Qozog‘istonda uran konlarini rivojlantirishda ishtirok etish uchun Yaponiya kompaniyalariga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatdi. Amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar Yaponiyaning yillik uran ehtiyojining 40 foizigacha qoplaydi, deb prognoz qilingan edi. Bu hamkorlik Qozog‘iston uchun ham manfaatli edi, chunki u Yaponiya bilan texnologik transferda ishtirok etish, so‘nggi texnologiyalarga ega bo‘lish va mahalliy sanoat mahsulotining qo‘shilgan qiymatini oshirish imkoniga ega bo‘ldi.

JBICning hukumat moliyalashtiruvchi organ sifatidagi roli asosiy bo‘lgani bilan, mazkur loyihalar Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligining yuqori darajada qo‘llab-quvvatlashi orqali ham foyda ko‘rdi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi birgalikda uranga boy davlatlarda resurs diplomatiyasi uchun mas’uliyatni zimmasiga oldi. 2008 yil O‘zbekistonda uzoq vaqt faoliyat ko‘rsatayotgan Mitsui kompaniyasi uran resurslarini qazish uchun geologik tadqiqot olib borishga qaratilgan qo‘shma korxona tuzdi. Yaponiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan Navoiy erkin sanoat-iqtisodiy zonasi bir qator yapon kompaniyalarini ham o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, Mitsuining O‘zbekistondagi uzoq tarixi va yapon korporatsiyalar ichidagi yuqori mavqeiga qaramay, 2000-yillar oxirida uning savdo faoliyati, shu jumladan uran loyihalari ham, stagnatsiyaga uchradi. 2000-yillar oxiri – 2010-yillar boshida O‘zbekiston biznes muhitidagi o‘zgarishlar xususiy investorlarga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Asta-sekin, O‘zbekistonning uran korxonalari Mitsui bilan munosabatlarini davlat tomonidan boshqariladigan JOGMECga o‘zgartirdi va bu davlat sektorining ishtirokini afzal ko‘rishni aks ettirdi.

Yaponiya hukumati energetika siyosatidagi o‘zgarishlar milliy strategiya darajasida emas, balki mahalliy hukumat darajasida sodir bo‘ldi, chunki Yaponiya atom elektr stansiyalari to‘xtatilganidan so‘ng tabiiy gaz iste’molini oshirdi[1]. Bu energiya ulushidagi o‘zgarish Rossiya bilan yaqinroq aloqalarga imkon berdi va Yaponiyaning Markaziy Osiyoda uran kengaytirish rejalari uchun kam e’tiborli holatni ko‘rsatdi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi energetika diplomatiyasi ko‘p qirrali manzarani namoyon etadi. Mintaqada Yaponiya neft diplomatiyasining faollashuvi, ayniqsa uran diplomatiyasining jadallashuvi o‘zgarib borayotgan global strategik va geoiqtisodiy muhitga nisbatan oldindan moslashuvni ko‘rsatdi. Bu jarayon Yaponiya resurs diplomatiyasi jahon energetika bozorlaridagi tendensiyalar, global va mintaqaviy darajadagi geoiqtisodiy

[1] Samuels R. 3.11: Disaster and Change in Japan. 148-50.

transformatsiyalar, Yaponiya energetik balansi va ta’minot tuzilmasini diversifikatsiya qilish strategiyasi, shuningdek, zamonaviy bosqichda nodir elementlar sohasidagi raqobatning siyosiylashuvi kabi tashqi omillar ta’sirida qayta shakllanganini ko‘rsatadi.

Yaponiyaning iqtisodiy sa’y-harakatlari Markaziy Osiyo resurslarini nafaqat Yaponiya, balki jahon bozori uchun ham yanada ochiq qildi, bu esa narx bosimini yumshatib, o‘z navbatida, importchi sifatida Yaponiya manfaatlariga xizmat qildi. Qozog‘iston bilan shakllangan “energetik antanta” Yaponiya resurs diplomatiyasining merkantilistik jihatini yaqqol tasdiqlagan bo‘lsa, geosiyosiy ahamiyati yuqori bo‘lgan O‘zbekiston misolida TAPI gaz quvuri loyihasini qo‘llab-quvvatlashi energetika xavfsizligi yondashuvini namoyon etdi.

Erondagi diniy-siyosiy tizim modernizatsiyasi jarayonlari tarixi

DILSHODA XODJIMURATOVA
Boshqarma boshlig‘i, t.f.d. (DSc) , TDSHU

Annotatsiya. *Maqolada Eron tarixida shakllangan diniy-siyosiy tizimning modernizatsiya jarayonlari tadqiq etilgan bo‘lib, Eron jamiyatida modernizatsiya g‘oyalarining vujudga kelishi, ularning an’anaviy diniy institutlar bilan o‘zaro munosabati hamda siyosiy hokimiyat tuzilmalariga ta‘siri o‘rganilgan. Ayniqsa, konstitutsion inqilob, Pahlaviylar davri islohotlari va islom inqilobidan keyingi siyosiy transformatsiya bosqichlari qiyosiy-tahliliy usullar asosida ko‘rib chiqilgan. Maqolada diniy elita va davlat institutlari o‘rtasidagi munosabatlar, modernizatsiyaning endogen va ekzogen omillari, shuningdek, demokratik va liberal islohotlarning institutsional cheklovlari yoritilgan. Tahlil natijalari Eronda modernizatsiya jarayonlari klassik g‘arb modeliga to‘liq mos kelmasligi, o‘ziga xos diniy-siyosiy kontekstda shakllanganligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Eron tarixi, diniy-siyosiy tizim, modernizatsiya, teologik boshqaruv, konstitutsion inqilob, siyosiy transformatsiya, fuqarolik jamiyati, diniy elita.*

Аннотация. *В статье исследуются процессы модернизации религиозно-политической системы, сложившейся в истории Ирана. Рассматриваются становление идей модернизации в иранском обществе, их взаимодействие с традиционными религиозными институтами, а также влияние на структуры политической власти. Особое внимание уделяется сравнительно-аналитическому анализу этапов политической трансформации в период Конституционной революции, реформ эпохи Пехлеви и постисламской революции. В статье освещаются взаимоотношения между религиозной элитой и государственными институтами, эндогенные и экзогенные факторы модернизации, а также институциональные ограничения демократических и либеральных реформ. Результаты анализа*

показывают, что процессы модернизации в Иране не полностью соответствуют классической западной модели и формировались в специфическом религиозно-политическом контексте.

Ключевые слова: *история Ирана, религиозно-политическая система, модернизация, исламское государство, Конституционная революция, политическая трансформация, гражданское общество, религиозная элита.*

Abstract. *This article examines the processes of modernization of the religious-political system formed in the history of Iran. The study analyzes the emergence of modernization ideas in Iranian society, their interaction with traditional religious institutions, and their impact on political power structures. Particular attention is paid to a comparative and analytical examination of the stages of political transformation during the Constitutional Revolution, the reforms of the Pahlavi era, and the post-Islamic Revolution period. The article highlights the relationship between the religious elite and state institutions, endogenous and exogenous factors of modernization, as well as the institutional constraints on democratic and liberal reforms. The findings indicate that the modernization processes in Iran do not fully correspond to the classical Western model and were shaped within a distinctive religious-political context.*

Keywords: *Iranian history, religious-political system, modernization, Islamic state, Constitutional Revolution, political transformation, civil society, religious elite.*

Sharq mamlakatlaridagi siyosiy tizimlarni tadqiq etish modernizatsiya nazariyalari bilan uzviy bog‘liqlikka ega, zero, demokratlashtirish jarayonlari muvaffaqiyati yoki inqirozi Sharq jamiyatlarining iqtisodiy, madaniy va siyosiy tizimlarini transformatsiya qiluvchi modernizatsion jarayonlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu jarayonlarni tushunishda 1990-yillar oxiridan boshlab modernizatsiya nazariyalarida keng tarqalgan “modernlik shakllarining ko‘p qirraliligi” konsepsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konseptual yondashuvlar guruhi uchun Shmuel Eyzenshtadtning fundamental tadqiqotlari metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Keng qamrovli qiyosiy tadqiqotlar natijasida u modernizatsiyani jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy quyi tizimlarida kechadigan o‘ziga xos transformatsion jarayonlar majmui sifatida baholash mumkinligi haqida xulosaga kelgan. Bu o‘zgarishlar, dastlab, XIX asr G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika jamiyatlariga xos bo‘lib, keyinchalik u yerda shakllangan taraqqiyot modellari dunyoning boshqa mintaqalariga ham tarqalgan, biroq modernizatsiya ko‘plab mustaqil shakllarda namoyon bo‘lgan.

Eronda demokratik jarayonlarning rivojlanishi 1905-1911-yillardagi inqilobiy harakat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning eng muhim natijasi konstitutsiyaviy tuzumning qaror topishi hisoblanadi. Viloyat yig‘inlari va munitsipal kengashlarning ta’sis etilishi bilan uyg‘unlashgan konstitutsiyaviy harakat jamiyat manfaatlarini institutsional shaklda ifodalash mexanizmlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Milliy parlamentni shakllantirishda ishtirok etuvchi mahalliy hududiy boshqaruv organlariga monarxiya tomonidan ko‘rsatilgan qarshilik umumdavlat siyosatining

tarkibiy qismiga aylandi. Bu siyosat davlat tuzilmalari samaradorligining past darajasini kompensatsiya qilish maqsadida avtoritar markazlashuvga tayangan holda amalga oshirildi[1]. Avtokratik tendensiyalar kuchayishi va konsolidatsiyalashgan demokratik kuchlar mavjud emasligi Eronda islohotlarning to‘xtatilishi va shoh Muhammad Pahlaviy diktaturasining o‘rnatilishiga olib keldi.

Shoh M.Pahlaviy hukumati vakillik institutlariga nisbatan repressiv siyosatni davom ettirdi. Xususan, 1949-yilda Ta’sis majlisi tomonidan Konstitutsiyaning 48-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlar shohga parlamentni tarqatib yuborish bo‘yicha cheklanmagan vakolatlarni berdi. Bunday vakolat esa qonunchilik organining siyosiy mavqei pasayishiga sabab bo‘ldi[2]. Shoh tuzumi siyosiy nazoratni kuchaytirishga intilib, 1957-1975-yillarda ikki partiyali tizimni joriy etishga urindi, keyinchalik esa uni yakkahokim partiya tizimiga transformatsiya qildi. Rasmiy “Rastoxez” partiyasidan tashqari barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlanganligi va muxolifatga nisbatan repressiyalar amalga oshirilganligiga qaramay, 1960-1970-yillar davomida mustaqil tashkilotlarning keng doirasi shakllandi. Demokratik blok, xususan, Milliy front va Eron erkinlik harakati tomonidan namoyon etilib, ular 1906-yilgi konstitutsiyani tiklash, erkin saylovlar o‘tkazish va fuqarolik huquqlarini ta’minlashni nazarda tutuvchi siyosiy dasturni ilgari surdilar.

Mazkur birlashmalardan tashqari, mamlakatda so‘l qanot guruhlari, etnik ozchiliklar harakatlari va diniy uyushmalar faol siyosiy kurash olib bordilar. Shoh tuzumiga qarshi inqilobiy harakat boshlanishi bilan fuqarolik institutlari faollashdi, biroq yangi tuzumning institutsionallashuvi ulamolar elitasi va muxolifat tashkilotlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirdi. Bu esa o‘z navbatida, Oliy rahbar Ruhulloh Xumayniy siyosatiga muxolif kuchlarning qatag‘on qilinishiga olib keldi. 1980-yillar siyosiy jarayonlar natijasida ayrim demokratik institutlar butunlay barham topdi, boshqalari esa jiddiy transformatsiyaga uchradi. Bularning natijasida avvalgi siyosiy tuzilmalarni qayta tiklash imkoniyatlari cheklanib qoldi.

Avvalgi siyosiy tajriba demokratlashtirish jarayoniga nisbatan yetakchi aktorlarning strategik pozitsiyalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eronda siyosiy elitalarning imkoniyatlari tarixan shakllangan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, unda kuchli markazlashgan davlat rivojlanmagan fuqarolik jamiyati ustidan gegemonlik mavqeiga ega[3]. Muxolifatning samarali faoliyati tegishli institutsional infratuzilma mavjudligini taqozo etadi. 1980-yillar boshida Eronda ichki siyosiy ziddiyatlar keskinlashgan sharoitda muxolif partiyalar kuchli ta’qib ostiga olindi.

[1] Tajbakhsh K. Political Decentralization and the Creation of Local Government in Iran: Consolidation or Transformation of the Theocratic State? // Social Research. – N. Y., 2000. Vol. 67, №2. – P. 380.

[2] Иранская революция 1978-1979: Причины и уроки. АН СССР, Институт востоковедения. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1989. – С. 26

[3] Boroumand L., Boroumand R. Illusion and Reality of Civil Society in Iran: An Ideological Debate // Social Research. – 2000. Vol. 67, №2. – P. 304.

Istiqbolda ularning bir qismi o‘z faoliyatini qayta tiklashga uringan bo‘lsa-da, davlat tomonidan ko‘rilgan keskin choralar mustaqil siyosiy guruhlar shakllanishiga to‘sqinlik qildi. Liberallashuv bosqichida siyosiy jihatdan faol, hukumatdan tasarrufidan xoli kuchlar yetishmasligi avtoritar aktorlarga demokratik jarayonga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘z nazoratida saqlab qolish imkonini berdi. Mazkur sharoitda 1980-1990-yillar mobaynida amalga oshirilgan islohotlar “yuqoridan nazorat qilish strategiyasi” sifatida namoyon bo‘ldi. Eski tuzum bilan bog‘liq guruhlarning ta’siri va qarorlar qabul qilishdagi ustunligi siyosiy transformatsiyaning sifat darajasi hokimiyat elitasi ichidagi islohotchilar va konservatorlar o‘rtasidagi kurash hamda ommaviy siyosiy harakatning xususiyatlariga bog‘liq ekanligini anglatadi.

Eronda pragmatiklar guruhi tomonidan ilgari surilgan ochiqlik siyosati qator dolzarb muammolarni hal etish zarurati bilan bog‘liq edi. Ularning eng muhim vazifasi ishlab chiqarish tuzilmasini modernizatsiya qilish va samarali iqtisodiy tizimni shakllantirish edi. 1980-yillarning ikkinchi yarmida davlat sektoridagi inqiroz avj olib, iqtisodiy strategiyani qayta ko‘rib chiqish va uni liberallashtirish zaruratini taqozo etdi[1]. Iqtisodiy islohotlardan tashqari Eron hukumati siyosiy rekonstruksiyani amalga oshirishi zarur edi. ushbu yo‘nalishlardagi sa’y-harakatlar istiqbolda Erondagi institutlarni Oliy rahbar omiliga qaramligini kamaytirish imkonini berardi [2]. R.Xumayniy davri yakunlanishi va yagona rahbar atrofida birlashgan bir necha fraksiyadan iborat avtoritar koalitsiyaning parchalanishi legitimlik inqirozini keltirib chiqardi. O‘z navbatida, mazkur inqirozdan chiqish yo‘llarini izlash jamiyatda ichki transformatsiyani izchillashtirdi. Endogen omillar ta’sirida shakllangan bunday kun tartibi siyosiy va iqtisodiy islohotlar sinxron va o‘zaro mantiqiy-uzviy bog‘langan holda amalga oshirilishiga zamin yaratdi.

Eron hukumron elitasining ijtimoiy-siyosiy tahdidlarga munosabati bir xil emas edi. Hukumat ichki kuchlarining bir qismi, xususan, R.Xumayniy tarafdorlarining guruhi joriy siyosiy yo‘nalishni o‘zgarishsiz saqlab qolish pozitsiyasida bo‘ldi. XX asr 1980-yillarida eng katta ta’sir kuchiga ega deb hisoblangan mazkur guruh hukumat va parlamentda yetakchi mavqeni egallagan edi. “Islom Respublikasi partiyasi” tugatilganidan so‘ng uning eng asosiy siyosiy tashkiloti “Kurashayotgan ruhoniylar uyushmasi” bo‘lib qoldi. Konservativ qanotni tashkil etgan diniy radikallarga kapitalistik taraqqiyot modelini qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar qarshi edi. Ular “Kurashayotgan ruhoniylar jamiyati” atrofida birlashgan edilar. Garchi jamiyat konservativ fraksiya sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, yirik sarmoyadorlar manfaatlarini ifodalovchi a’zolarining iqtisodiy manfaatlari ularni siyosiy taktikani

[1] Мамедова Н. М. Иран в XX в. Роль государства в экономическом развитии / Н. М. Мамедова. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 1997. – С. 126.

[2] Sarabi F. The Post-Khomeini Era in Iran: The Elections of the Fourth Islamic Majlis // Middle East Journal. – 1994. Vol. 48, №1. – P. 89.

tanlashda moslashuvchan bo‘lishga va potensial ittifoqchilar bilan muvozanatli munosabatlar o‘rnatishga undagani jamiyatning iqtisodiy islohotlar dasturini ilgari surgan islohotchilar bilan koalitsiya tuzishiga zamin yaratdi[1]. Eronda jamiyatning barcha sohalarida keng ko‘lamli liberalizatsiya amalga oshirilishi tarafdorlari (pragmatiklar) guruhiga 1980-1989-yillarda parlament raisi lavozimini egallagan A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy rahbarlik qilgan.

Eronda 1989-yil 28-iyulda o‘tkazilgan prezidentlik saylovlarida Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy g‘alaba qozondi[2]. Saylovlar bilan bir vaqtda Konstitutsiyani qisman qayta ko‘rib chiqishni legitimlashtirishga qaratilgan referendum ham o‘tkazildi. Konstitutsiyaviy o‘zgarishlarning mohiyati ijro hokimiyatini kuchaytirish, faoliyatining samaradorligini oshirishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning asosida bosh vazir lavozimi bekor qilindi. Maslahatchilar assambleyasi faoliyati asosida qo‘llaniladigan nizolarni tartibga solish mexanizmiga konstitutsiyaviy maqom berildi. Bu islohotlar qaror qabul qilish jarayonini texnokratlar talablariga muvofiq maqbullashtirdi. Ijro hokimiyati vertikalining mustahkamlanishi diniy-siyosiy rahbar institutini modifikatsiya qilish bilan birga kechdi. Konstitutsiyadan Oliy rahbarni tavsiflovchi ayrim qoidalar chiqarib tashlandi. Uning xalq tomonidan e’tirof etilishi va eng yuqori diniy maqom “marja at-taqlid”ga ega bo‘lishligi majburiy talab sifatida belgilanmadi[3].

Konstitutsiyaviy islohotlar tasdiqlanganidan so‘ng, liberallar muhim davlat resurslarini o‘zlarida mujassamlashtirdilar. 1992-yilgi parlament saylovlarida Kuzatuv kengashi yordamida g‘alabaga erishgan liberallar Kurashayotgan ruhoniylar uyushmasi a’zolarini vazirliklardagi asosiy lavozimlardan chetlatib, o‘z rejalari bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish uchun imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1990-yil yanvarda birinchi besh yillik reja to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi bilan yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish boshlandi. 1990-1994-yillar oralig‘ida narxlarni erkinlashtirish, fiskal siyosat rolini kuchaytirish, moliya bozorini tiklash, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, raqobatbardosh valyuta kursiga o‘tish, davlatning tashqi savdo operatsiyalari ustidan nazoratini kamaytirish, subsidiyalar va dotatsiyalarni cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Eng katta qiyinchiliklar xususiylashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida yuzaga keldi.

---

[1] Wells M. Thermidor in the Islamic Republic of Iran: The Rise of Muhammad Khatami // British Journal of Middle Eastern Studies. –1999. Vol. 26, №1. – P. 27.

[2] کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران.
(Kiyanush Bostoniy. Erondagi prezidentlik saylovlarining 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402. (murojaat sanasi: 19.10.2024).

[3] قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.
(Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi, 109-modda). [Elektron manba]. URL: http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution. (murojaat sanasi: 30.01.2025).

Konservatorlarning qarshiligiga qaramasdan, davlat mulkidagi ayrim korxonalar xususiylashtirildi. Hukumat chet el sarmoyasidan foydalanish borasidagi taqiqning olib tashlanishiga erishgani natijasida xorijiy investitsiyalarni va xalqaro moliyaviy tashkilotlar mablag‘larini mamlakatga jalb eta boshladi. Inflyatsiya va narxlar o‘sishi, ishsizlikning oshishi kabilar islohotlarga nisbatan muayyan darajada salbiy munosabatni shakllantirsada jamiyatni modernizatsiyalash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni to‘xtatib qo‘ymadi. 1994-yilda parlament bozor iqtisodiyoti siyosatini davom ettirishga qaratilgan ikkinchi besh yillik rejani (1995-2000-yillar) ma’qulladi. 1990-yillar oxirida bank va investitsiya qonunchiligi kabi muammoli sohalarda tub o‘zgarishlarga erishildi, mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi masalasi keng muhokamaga olib chiqildi.

Erondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahlil qilinar ekan, ular boshqa shu kabi diniy-siyosiy jamiyatlarda amalga oshirilgan islohotlardan farqlanadi. Zero, mazkur davlatlardagi hukumatlar vaziyatni to‘liq nazorat qilish va kutilmagan ta’sirlarning oldini olish imkoniyatiga ega edi. Eron islohotchilarining chora-tadbirlari dastlabki bosqichdanoq Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi[1] tomonidan tavsiya etilgan strukturaviy tartibga solish dasturlariga muvofiq amalga oshirildi. Ularning natijalari Sharqiy Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi iqtisodiy transformatsiyalarga o‘xshashligi bois Erondagi liberallashtirish jarayoni o‘ziga xos siyosiy dinamika bilan kechdi.

Dastlabki bosqichda Erondagi siyosiy transformatsiya qat’iy pozitsiya tarafdorlari tomonidan jiddiy qarshilikka uchramadi. Ularning aksariyati “o‘tmishdagi xatolarni” e’tirof etishga tayyor edi. Biroq “islohotchilar siyosiy nazoratdan xoli bo‘lish va islom inqilobi g‘oyasi maqsadlarini o‘zgartirishni ko‘zlaganlarini” konservatorlar anglab yetganlaridan so‘ng vaziyat tubdan o‘zgardi[2]. Jumladan, konservativ ruhoniyat 1980-yillardan keyin mamlakatda shakllangan status-kvoni pragmatiklar guruhi vakillari o‘zgartirishga intilayotganini tushungan, islohotlar sur’atini susaytirish va islohotchilarga siyosiy bosim o‘tkazishga harakat qildi.

1993-yilgi prezidentlik saylovlarida Kurashuvchi ruhoniylar jamiyati o‘z nomzodi Ahmad Tavakoliyni ilgari surdi. Saylovlarda A.Tavakoliy 23 foiz va A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy 65 foiz ovozga ega bo‘ldi[3]. 1996-yilgi parlament saylovlarida konservativ guruh nomzodlari parlamentdagi aksariyat o‘rinlarni egallab, g‘alaba qozondi. Konservatorlar va islohotchilar o‘rtasida namoyon bo‘layotgan qarama-qarshilik diniy-siyosiy elita ichida jiddiy tafovut mavjudligidan dalolat berardi. Eron

[1] Malik L. Unrest in Iran: Economic and Social Factors // Journal of South Asian and Middle Eastern Studies. — 2000. – Vol. 23, №2. – P. 10.

2 Jahanpour F. Mohammad Khatami: A new fold in the Iranian Republic, or its Thermidor? 08.04.2023. URL: https://fjahanpour.com/2023/04/08/mohammad-khatami-a-new-fold-in-the-iranian-revolution-or-its-thermidor-by-farhang-jahanpour/. (accessed: 30.10.2024).

[3] یحیی فوزی. تحولات سیاسی اجتماعی ایران پس از انقلاب اسلامی **(**1357-1380**).** تهران. جلد دوم**.2020. –** ص**. 365.**

jamiyatini liberallashtirish maqsadida konservatorlar va islohotchilar o‘rtasida tuzilgan koalitsiya parchalanish tahdidi ostida qoldi. Biroq sobiq ittifoqchilar o‘rtasidagi bo‘linish va parlamentda konservatorlar mavqeining kuchayishi Eronda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonini to‘xtata olmadi.

Eronda 1996-yilgi saylovlar arafasidagi ijtimoiy-siyosiy munozaralar jamiyatdagi tub o‘zgarishlarni yaqqol namoyon etdi. Liberallashtirish jarayonining eng muhim natijasi sifatida kasaba uyushmalari va muqobil axborot manbalari vazifasini bajaruvchi mustaqil ommaviy axborot vositalarining shakllanishi alohida ahamiyat kasb etdi. Biroq demokratik harakatning zaifligi tufayli u saylovoldi jarayonlar va ularning natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmadi. Shunga qaramay, fuqarolik huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, siyosiy partiyalar faoliyatiga nisbatan joriy etilgan cheklovlarni bekor qilish, erkin va shaffof saylovlar o‘tkazish kabi talablarni ilgari surishga muvaffaq bo‘ldi. Bunday sharoitda Eron siyosiy amaliyotida yangi tashkiliy tuzilmalar vujudga kelgani e’tiborga molik voqea sifatida baholanadi. Jumladan, 1996 va 1997-yillardagi saylovlarda islohotchilar o‘z nomzodlarini ilgari surish maqsadida “Bunyodkorlik xizmatchilari guruhi”ni ta’sis etdilar. A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy tarafdorlari tomonidan ijro hokimiyati tizimida shakllantirilgan ushbu tashkilot davlat byurokratiyasi islohotlar jarayoniga chuqur integratsiyalashganini namoyish etdi.

Eron jamiyatini liberallashtirish jarayoni demokratik elitaning shakllanishi bilan uzviy bog‘liq holda kechdi. Erondagi demokratik kuchlar shakllanishi uchun 1992-yil burilish nuqtasi bo‘ldi. Parlament saylovlarida mag‘lubiyatga uchragan Kurashayotgan ruhoniylar uyushmasi siyosiy izolyatsiyada qoldi. Diniy radikalizmning g‘oyaviy inqirozi uni yangi siyosiy platformani izlashga majbur qildi. Ayrim demokratik g‘oyalarni qabul qilgan, biroq an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolgan guruh yangilanish jarayonini boshdan kechirdi va 1995-yilda siyosiy maydonga qaytdi. Fuqarolik erkinliklarini qo‘llab-quvvatlagan uyushma 1996-yilgi saylov kampaniyasida ishtirok etdi. Uning a’zolari islohotchilar guruhi bilan yaqinlashish orqali prezidentlik saylovlariga qaratilgan samarali koalitsiyani shakllantirishni ko‘zladilar[1].

Eron demokratik kuchlari ham, konservatorlar ham bilan bir xil diniy muhitdan kelib chiqqanligi, diniy qadriyatlar va institutlarga nisbatan hurmat munosabatida ekanliklarini inobatga olish lozim. Muammolarni radikal uslubda hal etishdan voz kechib, o‘zaro murosa qilish yo‘lini tutdilar. Bu borada M.Xotamiy ta’kidlashicha, “mamlakatda ichki siyosiy ziddiyatlarni yanada kuchaytirishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlardan tiyilish ma’qul deb topildi”[2]. Shu bilan birga, ular madaniy

[1] Раванди-Фадаи С.М. Фракционизм в Иране и роль иранского духовенства в послереволюционной нолитической жизни страны // Иран: ислам и власть: Сб. ст. – М.: Институт востоковедения РАН: «Крафт+», 2001. – С. 69.

[2] متن سخنان سید محمد خاتمی در اجلاس شورای تعامل در جده.

plyuralizm, bozor islohotlarini jadallashtirish va kuchli fuqarolik institutlarini rivojlantirish tarafdori edilar. M.Xotamiy yangi tipdagi siyosatchi bo‘lib, siyosiy mexanizmlar samaradorligi past sharoitida muvaffaqiyatga erishdi[1].

1997-yilgi prezidentlik saylovlari arafasidagi vaziyat demokratik kuchlar uchun noqulay edi. Nodavlat tashkilotlar vakillari saylov kampaniyasiga jalb etilmadi. Konstitutsiyani himoya qilish kengashi ikki yuzdan ortiq nomzodni rad etgani, jumladan, A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy tarafdorlari ham diskvalifikatsiya qilingani islohotchilarning siyosiy kursi davomiyligini xavf ostiga qo‘ydi. Mazkur sharoitda liberal kuchlar Kurashayotgan ruhoniylar uyushmasi nomzodini qo‘llab-quvvatlashga qaror qildi. Hokimiyatga kirish imkoniyatidan mahrum etilgan va kuchlar nisbatiga ta’sir ko‘rsata olmaydigan siyosiylashgan fuqarolik jamiyati institutlari M.Xotamiy tomonida bo‘ldi. Zero uning saylovoldi va’dalaridan biri ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish edi. Ekspertlar fikricha, M.Xotamiyning g‘alabasi “katta umidlar” sharoitida yuz berdi. Chunki turli partiyalar faoliyatiga ruxsat berilishi va siyosiy tizimni demokratlashtirishiga umid qilingandi[2]. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish Eron yoshlari uchun muhim edi. Zero, ular mamlakat aholisining deyarli uchdan bir qismini tashkil etardi. Yoshlarning faol ishtiroki saylov natijalariga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, M.Xotamiy 20,5 million ovoz (69 foiz), uning raqibi, konservatorlar yetakchisi Ali Akbar Natak Nuriy esa 7,25 million ovoz (24 foiz) to‘pladi[3].

Eronda fuqarolik jamiyatining tashkiliy-institutsional shakllanish jarayoni 1997-yilgi saylovlardan so‘ng o‘ziga xos dinamika oldi. Dastlab nodavlat tashkilotlar siyosatdan xoli muhitda shakllangan bo‘lsa, ularning faoliyatiga ruxsat berilgan sohalarda tezda siyosiylashib, ijtimoiy-siyosiy nizolarga jalb etildi. Vakillik mexanizmlarini shakllantirishga berilgan turtki siyosiy partiyalarni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Inqilobgacha bo‘lgan davrning siyosiy identifikatsiyasi qisman yo‘qolganligi sababli yangi siyosiy identifikatsiyani shakllantriish jarayoni boshlandi. Partiyalarning faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar 1980-yillarning boshida yaratilgan edi. Partiyalar to‘g‘risidagi qonun siyosiy tashkilotlar tuzish va yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligini kafolatlab, partiyaviy faoliyat shartlarini belgilab berdi.

(Talabalar yig‘ilishida Muhammad Xotamiyning nutqlari sharhi). [Elektron manba]. URL: https://patakht.blog.ir/1392/04/12/%. (murojaat sanasi: 30.08.2024).

[1] Ansari A. M. Continuous Regime Change from Within // Washington Quarterly. 2003, Vol. 26, №4. – P. 59.

[2] Stephen C., Fairbanks S. Theocracy versus Democracy: Iran Considers Political Parties//Middle East Journal. – Wash., 1998. Vol. 52, № 1. – P. 27.

[3] Киреев А. Особенности ограниченной демократизации в Иране (1989 - 2005 годы). / Дис. ... кан. полит. наук / Российская академия государственной службы при президенте Российской Федерации. – Воронеж., 2006. – С. 121-122.

Partiyaviy hayotning jadallashuvi, yangi tipdagi partiyalar va saylov bloklari shakllanishi 1997-yildan keyingi davrga to‘g‘ri keldi[1].

1997-2005-yillar M.Xotamiy prezidentlik davrida o‘rta qatlamning ijtimoiy bazasi keng edi. Ular shahar o‘rta sinfi, yoshlar, etnik va diniy ozchiliklarning kuchli qo‘llab-quvvatloviga ega edilar. Ularning strategik yo‘nalishi dunyoviy guruhlar va ruhoniy elitaning bir qismi manfaatlarini mujassamlashtirgan “Islomiy fuqarolik jamiyati” konsepsiyasida o‘z ifodasini topdi[2]. Mazkur konsepsiya keng ma’noda demokratik islohotlar dasturi sifatida talqin etilishi mumkin. Ijtimoiy-madaniy jihatdan an’anaviy diniy qadriyatlar ta’sirini saqlagan holda plyuralizmga intilish va diniy me’yorlar hamda fuqarolik tamoyillari o‘rtasidagi tafovutlarni e’tirof etish bilan ajralib turardi.

Siyosiy transformatsiya strategiyasi kutilgan samarani bermagani bois institutsional islohotlar to‘xtab qolmadi. Ular boshqa yo‘nalishlarda ham davom ettirildi. Ushbu mulohazaning dalili sifatida 2001-yilda boshlangan sud-huquq tizimi islohotlarini keltirish mumkin. Sohadagi asosiy yutuqlar qatoriga prokuratura tizimining qayta tiklanishi, jinoyat va fuqarolik sud ish yurituvining ajratilishi, voyaga yetmaganlar sudining tashkil etilishi kiradi. Sud-huquq tizimidagi islohotlar institutsional tuzumning demokratlashuvini kafolatlamasa-da, Eron siyosiy transformatsiyasining asosiy sharti bo‘ldi[3].

M.Xotamiy prezidentligi davrida demokratlashtirish jarayoni ustuvor tendensiyaga aylanmadi. Diniy-siyosiy elitadan iborat konservativ koalitsiyaning mustahkamlanishi siyosiy transformatsiyaga to‘siq bo‘lib xizmat qildi. Bu jihatdan 2005-yil iyunda o‘tkazilgan prezidentlik saylovlarida konservator Mahmud Ahmadinajodning g‘alabasi ramziy ahamiyat kasb etdi. 2005-yil A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy rahbarligidagi Maqsadga muvofiqlik kengashiga hukumat faoliyatini nazorat qilish vakolati berildi. Ushbu qaror Kengash mavqeining oshishi va islohotchilar pozitsiyasi mustahkamlanishidan dalolat berardi. 2009-yildagi ichki siyosiy inqiroz davrida “yashil harakat” nomli muxolifatning norozilik chiqishlari faollashgani sababli harbiy tuzilmalar nazorati kuchaytirildi. Jamiyatning barcha sohalarida teokratik tuzum xavfsizligining kafili sifatida Islom inqilobi posbonlari korpusining ta’siri oshdi[4].

---

[1] List of Legally Registered Parties in Iran // Khorassan; Social & Political (Daily). 30.07.2000. https://www.parstimes.com/politics/legally_registered_parties.html. (accessed: 08.07.2024).

[2] Вагин. В. Президент М.Хатами и его концепции «исламского гражданского общества» и «диалога цивилизаций» // Иран: ислам и власть: Сб. ст. – М.: Институт востоковедения РАН: «Крафт+», 2001. – С. 103-113.

[3] Tajbakhsh K. Political Decentralization and the Creation of Local Government in Iran: Consolidation or Transformation of the Theocratic State? // Social Research. – N. Y., 2000. Vol. 67, №2. – P. 400.

[4] Киреев А. Особенности ограниченной демократизации в Иране (1989 — 2005 годы). / Дис. ... кан. полит. наук / Российская академия государственной службынри президенте Российской Федерации. – Воронеж., 2006. – С.133.

Teokratik tizimning zaiflashgani jamiyatni liberallashtirishga qaratilgan islohotlarning natijalaridan biri bo‘ldi. Bu jamiyat, ayniqsa, siyosiy hayotda diniy institutlar nufuzining pasayishi va quyi qatlamlar o‘rniga yangi o‘rta sinfning shakllanishi bilan namoyon bo‘ldi[1]. Ushbu yangi sinf ziyolilar va yoshlar bilan birgalikda 2017-2023-yillardagi norozilik harakatlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Eronda yillar davomida chuqurlashib borgan institutsional, boshqaruv va tizimli inqirozlar jamiyatda norozilik kayfiyatlari kuchayishining asosiy sabablari sifatida ko‘rsatiladi. Bu holat davlat institutlarining disfunksiyasi, siyosiy hayotda diniy tashkilotlar ta’siri pasayishi, elita ichidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi, boshqaruv kadrlari rotatsiyasining sustligi va korrupsiyaning avj olishida o‘z aksini topdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Eronda demokratik jarayonlar 1905-1911-yillardagi inqilobdan boshlangan bo‘lib, uning asosiy yutug‘i konstitutsiyaviy tuzum o‘rnatilishi bo‘ldi. Biroq monarxiyaning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qarshi siyosati va demokratik kuchlar birlasha olmaganligi islohotlarning to‘xtatilishiga olib keldi. 1989-2005-yillar Eron siyosiy tizimi transformatsiyasida demokratlashtirishdan liberallashtirishga o‘tish davri bo‘ldi. Bu jarayon hokimiyatni vertikalini susaytirish, siyosiy ishtirokni institutsionallashtirish va avtoritar mexanizmlarni demontaj qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni o‘z ichiga oldi.

Eronda 1997-2005-yillar M.Xotamiy prezidentligi davrida “islom fuqarolik jamiyati” konsepsiyasi asosida demokratik islohotlar dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur fuqarolik huquq va erkinliklarini ta’minlash, muxolifat faoliyatini legallashtirish va xalq oldida hisobdor hukumat shakllantirishni nazarda tutardi. 2009-yildagi ichki siyosiy inqiroz, xususan, “yashil harakat” nomi bilan birlashgan ichki muxolifatning norozilik chiqishlari kuchli tuzilmalar nazoratining kuchayishiga olib keldi. Islom inqilobi posbonlari korpusi teokratik tuzumning barcha sohalardagi xavfsizlik kafolatchisi sifatidagi ta’siri ortdi.

2017-2023-yillarda yangi o‘rta sinf, ziyolilar va yoshlar Erondagi norozilik harakatlariga turtki beruvchi asosiy kuch bo‘ldi. Bu davrda institutsional, boshqaruv va tizimli inqirozlar kuchayib, davlat institutlari disfunksiyasi, ruhoniyatning siyosiy hayotga ta’sirining pasayishi, siyosiy elita ichidagi ziddiyatlarning kuchayishi kuzatildi. 1989-2005-yillardagi pragmatik liberal siyosat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi transformatsiya jarayonlarini faollashtirdi. Biroq bu loyiha an’anaviy qadriyatlar tizimini zaiflashtirgani uchun konservativ elitalarni qoniqtirmadi va 2005-yilda M.Ahmadinajod prezidentlikka saylanishiga olib keldi.

[1] Дунаева Е.В. Иран: исламская политическая идентичность и вызовы современности. Религия и общество на Востоке, 2017, № 1. С.51-68

XXRda havo va kosmos transporti siyosati

SHOAZIM SHAZAMANOV
Dotsent, Renessans ta'lim universiteti,
LATIFBOY SABIROV
Tayanch doktorant, Toshkent Kimyo-texnologiya instituti

Аннотация: *В статье анализируется становление и развитие авиационной и космической отраслей Китайской Народной Республики с 1950-х годов до начала XXI века. Показано, что реализация масштабных государственных программ позволила КНР добиться технологической самостоятельности, создать современную авиационную инфраструктуру и закрепиться среди ведущих мировых космических держав. Отмечается роль гражданской авиации как фактора экономической интеграции, а также значение космических проектов — орбитальной станции, спутниковых систем и лунно-марсианских миссий — в укреплении научно-технологического потенциала страны. Делается вывод, что авиационно-космическая стратегия КНР направлена на усиление национальной безопасности и глобального влияния государства.*

Kalit so'zlar: *Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), fuqarolik aviatsiyasi, kosmik dastur, texnologik mustaqillik, milliy xavfsizlik, global nufuz, sun'iy yo'ldosh (1970), "Bir kamar — bir yo'l" / "Aviatsiya ipak yo'li", "Tyangun" orbital stansiyasi, "Chan'e" (Oy) va "Tyanven-1" (Mars).*

Annotation: *The article examines the formation and development of the aviation and space sectors of the People's Republic of China from the 1950s to the beginning of the 21st century. It shows that the implementation of large-scale state programs enabled China to achieve technological self-reliance, build a modern aviation infrastructure, and secure its position among the world's leading space powers. Special attention is given to the role of civil aviation as a driver of economic integration, as well as to major space projects such as the orbital station, satellite systems, and lunar and Mars missions. The article concludes that China's aviation and space strategy is aimed at strengthening national security and enhancing the country's global influence.*

Maqolani yozishda foydalanilgan metodlar: Mavzuni tadqiq qilishda **tarixiy-tahliliy metodi** orqali Xitoy aviatsiya va kosmik sohalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy davrlar kesimida o'rganish uchun qo'llanildi. U orqali sohadagi uzoq muddatli tendensiyalar aniqlandi. **Tizimli tahlil usuli** aviatsiya va kosmik tarmoqlarni yagona o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilishga xizmat qildi. Bu davlat siyosati, infratuzilma va texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, hujjatlar va rasmiy manbalar tahlili kabi usullardan ham foydalanildi

Maqola dolzarbligi: Mazkur maqola dolzarbligi shundaki, XXI asrda aviatsiya va kosmik sohalar davlatlarning texnologik mustaqilligi, milliy xavfsizligi va global raqobatbardoshligini belgilaydigan strategik omillarga aylandi. Xitoy Xalq Respublikasining ushbu sohalarda qisqa tarixiy davr ichida erishgan yutuqlari zamonaviy transport siyosati, innovatsion rivojlanish va davlat boshqaruvi modellarini tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, fuqarolik aviatsiyasining jadal o‘sishi, mahalliy avialaynerlar ishlab chiqarilishi va kosmik dasturlarning kengayishi global aviatsiya bozorida kuchlar nisbatini o‘zgartirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Xitoy tajribasini o‘rganish rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, transport va yuqori texnologiyalar sohasida samarali strategik qarorlar ishlab chiqishda qo‘l keladi.

Yangiligi va ahamiyati: Maqolaning yangiligi Xitoy aviatsiya va kosmik sohalarining rivoji kompleks yondashuv asosida tahlil qilingani, shuningdek, pandemiyadan keyingi aviatsiya bozori va mahalliy samolyot ishlab chiqarish tendensiyalarining umumlashtirilganidir. Maqolaning ahamiyati esa Xitoy tajribasini transport siyosati, texnologik mustaqillik va global raqobat masalalarini o‘rganishda nazariy va amaliy manba sifatida qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi.

O‘rganilganlik darajasi: Xitoy Xalq Respublikasining aviatsiya va kosmik sohalardagi rivoji masalalari xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ayniqsa, Xitoyning transport siyosati, fuqarolik aviatsiyasi infratuzilmasi va kosmik dasturlari xalqaro tashkilotlar hisobotlari, davlat dasturlari va tahliliy tadqiqotlarda atroflicha o‘rganilgan. Xususan, Chjao Chjunszyan, Tomberg I. R., Nigam V., Peng, L qabi xitoylik va xorijiy olimlar asarlari qayd etib o‘tishimiz mumkin. Shu bilan birga, aviatsiya va kosmik sohalarni yagona kompleks tizim sifatida tahlil qilish, hamda ularning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyatini birgalikda yoritishga qaratilgan ishlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

XXI asr boshlariga kelib, Xitoy Xalq Respublikasi aviatsiya va kosmik sohalarda dunyo miqyosidagi yirik o‘yinchilardan biriga aylandi. Bu yutuq mamlakatning 1950-yillardan boshlangan uzoq muddatli tizimli sa’y-harakatlarining natijasi bo‘lib, Xitoy aviatsiya va kosmik sohalarda texnologik mustaqillikka erishish, milliy xavfsizlikni ta’minlash va global nufuzini oshirish maqsadini ilgari surgan edi. Ilk sun’iy yo‘ldoshning uchirilishi (1970) va o‘z kosmonavtini fazoga yuborishi (2003) mamlakat uchun tarixiy marralar bo‘lib xizmat qildi.

Hozirgi kunda Xitoy hukumati havo transportini faqat ichki hududlarni bog‘lovchi vosita sifatida emas, balki jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishning muhim omili sifatida ko‘radi. Kosmik dastur esa sun’iy yo‘ldoshlar, Oy va Mars tadqiqotlari, hamda orbital stansiya qurilishi kabi loyihalar orqali mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini namoyon etmoqda. Aviatsiya va kosmik sohalarda davlat

va xususiy sektorlar hamkorligi orqali Xitoy o‘zining barqaror va raqobatbardosh transport ekotizimini yaratishga intilayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda.[1]

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi eski Xitoydan o‘ta zaif rivojlangan transport tizimini meros qilib oldi. Mamlakatning umumiy transport tarmog‘i uzunligi bor-yo‘g‘i 177 ming kilometrni tashkil etadi. Mamlakatda birorta ham quvur tizimi va muntazam havo qatnovi yo‘nalishlari mavjud emas edi. Materik Xitoy hududida atigi 36 ta aeroport faoliyat yuritgan bo‘lib, ular asosiy yo‘nalishlarda aviaperevozka amalga oshirgan: Shanxay Lunxua, Nankin Daszyaochan, Chunsin Shanxuba, Chunsin Szyulunpo va boshqa oddiy jihozlangan aeroportlar shular jumlasidandir.

KXRning 72 yillik mavjudligi davomida transport sohasida radikal o‘zgarishlar yuz berdi. Davlatning bu sohaga ustuvor e’tibor qaratishi natijasida mamlakat transport tizimining ko‘lamini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar va ko‘pgina tarmoqlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari bir necha barobarga o‘sdi (1- va 2-jadvallarga qarang). 2018-yil dekabrida Xitoy Xalq Respublikasining Fuqarolik aviatsiyasi boshqarmasi (CAAC) “Yangi davrda Xitoy milliy fuqarolik aviatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy harakatlar rejasi”ni e’lon qildi. Ushbu hujjat 2050-yilgacha Xitoyda dunyodagi eng kuchli fuqarolik aviatsiya sektoridagi yetakchi o‘rinni egallashni maqsad qilgan. Xususan, 2021-yildan 2035-yilgacha bo‘lgan davrda Xitoy hukumati havo qatnovi sohasida yetakchilikka erishish, shuningdek, dunyodagi eng raqobatbardosh aviakampaniyalar va aviatsiya markazlarini yaratish niyatini bildirgan. COVID-19 pandemiyasi dunyo fuqarolik aviatsiyasiga jiddiy zarba berdi. Bu holat Xitoy aviaperevozchilariga ham ta’sir qildi va shu sababli 2020-yilda havo qatnovi ko‘rsatkichlari 2019-yilga nisbatan ancha yomonlashdi.

Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik aviatsiyasi Bosh boshqarmasi (FABB)ning statistik byulleteniga ko‘ra, 13-besh yillik (2016–2020 yy.) davomida fuqarolik aviatsiyasi sohasiga 460,8 milliard yuan (taxminan 71,2 milliard dollar) miqdorida investitsiya kiritilgan. 2020-yilda Xitoy fuqarolik aviatsiyasi 420 million yo‘lovchi parvozini amalga oshirdi, bu 2019-yildagi ko‘rsatkichning 63,3 foizini tashkil etadi. Xitoy fuqarolik aeroportlari taxminan 857,2 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatdi va 6,08 million tonna yukni qayta ishladi, bu mos ravishda 2019-yilga nisbatan 36,6% va 6% kamayish demakdir. Shunga qaramasdan, FABBning ambitsiyali rejalari uchun asoslar mavjud. Xitoyda havo transporti shunday tez rivojlanmoqdaki, xalqaro baholarga ko‘ra, 2035-yilga kelib dunyodagi havo tashishga bo‘lgan umumiy talabning to‘rtdan biri aynan Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Xitoy AQSHni ortda qoldiradi va dunyodagi eng yirik havo xabi (markazi)ga aylanadi. Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda jahondagi umumiy aviatsiya harakatining 10 foizi Xitoyga, Xitoydan yoki Xitoy ichidagi parvozlarga to‘g‘ri keladi. 2035-yilga borib esa har beshinchi yo‘lovchi samolyoti aynan shu yo‘nalishlarda parvoz qiladi. Xalqaro havo transporti

[1] Chjao Chjunszyan. Transport v Kitaye. Pekin: Izdatelstvo “Nauka”, 2003. — B. 45–47.

assotsiatsiyasining 2020-yilgi hisobotiga koʻra, Xitoy ichki aviaparvozlar sohasida dunyodagi eng yirik bozorga aylandi, chunki mamlakat COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashish boʻyicha samarali choralar koʻrganidan soʻng, ichki parvozlar boshqa bozorlarga nisbatan tezroq tiklangan.[1]

Fuqarolik aviatsiyasi Bosh boshqarmasi (FABB) ma'lumotlariga koʻra, 2020-yilda Xitoyning fuqarolik aviatsiyasi sohasi soʻnggi 15 yil mobaynida yoʻlovchi tashish hajmi boʻyicha dunyoda ikkinchi oʻrinni saqlab qoldi. 2021-yilda FABB sohaga qoʻllab-quvvatlash koʻrsatish va yoʻlovchilar oqimini 590 millionga yetkazishni rejalashtirgan, bu esa COVID-19 pandemiyasi boshlanishidan avval qayd etilgan koʻrsatkichning 90 foiziga tengdir. Shuningdek, aviaperevozkalar hajmini 7,53 million tonnaga yetkazish koʻzda tutilgan boʻlib, bu pandemiyagacha qayd etilgan yuk tashish hajmiga deyarli teng keladi.[2]

Xitoy havo transporti barcha koʻrsatkichlar boʻyicha — aviaxalokatlar, terrorchilar tomonidan samolyotlarni egallab olish, yuklarning shikastlanishi kabi holatlarni oʻz ichiga olgan holda — dunyodagi eng xavfsiz transport tizimlaridan biri hisoblanadi. Air China aviakompaniyasi tarixida faqat bir marta halokatli halat qayd etilgan boʻlsa, China Eastern kompaniyasida shunday ikki holat kuzatilgan. Bunday yuqori darajadagi xavfsizlik samarali tashkil etish, qat'iy nazorat va intizom, xodimlarga nisbatan talabchanlik hamda raqobatbardosh maoshlar orqali ta'minlanadi. Fuqarolik aviatsiyasi Bosh boshqarmasi (FABB) ma'lumotlariga koʻra, 2021-yil boshiga kelib Xitoyning fuqarolik aviatsiyasi sohasi parvozlar xavfsizligi boʻyicha yangi rekord oʻrnatgan: soʻnggi 10 yil mobaynida xavfsiz parvoz soatlari 89,43 millionni tashkil etgan. Shuningdek, 13-besh yillik davrida (2016–2020 yy.) bu koʻrsatkich 52,7 million xavfsiz parvoz soatiga teng boʻlgan.[3]

2025-yilgacha Xitoy 30 dan ortiq yangi fuqarolik aeroportlarini qurishni rejalashtirmoqda, bu esa yoʻlovchi tashish hajmini 2 milliard kishigacha oshirish imkonini beradi. 2035-yilga kelib Xitoyda fuqarolik aviatsiyasiga oid taxminan 400 ta aeroport faoliyat yuritishi kutilmoqda. Bu esa shundan dalolat beradiki, kelasi 15 yil ichida mamlakat 150 dan ortiq yangi aeroport qurishni rejalashtirgan — oʻrtacha hisobda har yili 10 ta yangi aeroport barpo etiladi.[4]

2019-yilning oxirida muhim voqea sifatida dunyodagi eng yirik aeroportlardan biri — Pekin Dasin xalqaro aeroportining ochilishi boʻldi. Uning yillik yoʻlovchi qabul qilish quvvati taxminan 45 million kishini tashkil etadi, bu esa 2022-yilda

[1] Kitay–krupneyshiy v mire rынok vnutrennix aviaperevozok v 2020 godu. URL: https://chinastocks.net/china-2/2020-dlya-aviaperevochikov-kitaya/?lang=ru

[2] China to further promote recovery of civil aviaton industry. URL: http://www.china.org.cn/business/2021–02/05/content_77192848.htm

[3] Civil air transport sector achieves 10 consecutve years of safe fight. URL: http://www.china.org.cn/business/2021–01/20/content_77134010.html

[4] Chi Jingyi, Liu Zhongyin. China's civil aviaton capacity to rise by 43% to 2 billion passenger trips within 5 years. URL: https://www.globaltmes.cn/page/202103/1219462.shtml

Pekinda bo‘lib o‘tgan qishki Olimpiada o‘yinlari davomida shaharning havo transportidagi yuklamasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi. Rejaga ko‘ra, 2025-yilga kelib ushbu yangi transport markazi 72 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi, 2040-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 100 million yo‘lovchiga yetishi kutilmoqda.[1]

2021-yil 12-avgust kuni Xitoyning sharqiy qismida joylashgan Sindao shahrida “Szyaodun” xalqaro aeroporti rasmiy ravishda ekspluatatsiyaga topshirildi. Aeroportga Xitoy aeroportlar klassifikatsiyasidagi eng yuqori daraja — 4F toifasi berilgan. Bu esa uning dunyodagi eng yirik yo‘lovchi samolyoti — Airbus A380 kabi yirik havo kemalarini qabul qilish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Rejaga ko‘ra, 2025-yilga kelib “Szyaodun” aeroporti har yili 35 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi, 500 ming tonna yukni qayta ishlaydi va 300 ming marta uchish va qo‘nish amalga oshiradi. Huddi shu kuni aeroportning ikkinchi navbatdagi qurilish ishlari ham boshlab yuborildi. Barcha qurilish ishlari to‘liq yakunlanganidan so‘ng, ya’ni 2045-yilda, “Szyaodun” aeroporti yiliga 55 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatishi, 1 million tonna yuk aylanmasini ta’minlashi va 452 ming marta uchish-qo‘nish amaliyotlarini amalga oshirishi rejalashtirilgan.[2]

Alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiy jihatdan qolayotgan mintaqalar, jumladan, Ichki Mo‘g‘uliston va Sinszyan kabi hududlardagi avialiniyalar va aeroportlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hududlarda ziyonkorlik darajasi 40–50%ga yetadi. Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik aviatsiyasi Bosh boshqarmasi rahbariyati ta’kidlaganidek, “aeroportlar — bu foyda olish vositasi emas, balki yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan infratuzilma obyektlaridir. Ular qurilishiga yo‘naltirilgan sarmoyalar aeroportlar faoliyatidan tushadigan daromaddan sakkiz barobar yuqori bo‘lsa-da, biz mintaqaviy aeroportlar tarmog‘ini rivojlantirishni davom ettiramiz”.[3]

Shuni ham ta’kidlash lozimki, aviatsiya turli sohalarning rivojlanishi uchun muayyan turtki beruvchi omil sifatida xizmat qiladi va mintaqalarda transport tizimining shakllanishiga yordam beradi. Eng yirik va ommaviy aviaqatnovlar asosan Pekin, Syangan (Gonkong), Shanxay va Guanchjou orqali amalga oshiriladi. Ularning ortidan Xarbin, Shenyan, Dalyan va Tyanszin kabi mintaqaviy ahamiyatga ega aviatsiya markazlari, shuningdek, Shiszyachjuan, Tayyuan, Xux-Xoto, Chanchun va boshqa shaharlardagi aeroportlar keladi.

2021-yil boshiga kelib, Xitoyda umumiy aviatsiya uchun mo‘ljallangan aeroportlar soni 313 tani tashkil etdi, sertifikatlangan fuqarolik aeroportlari soni esa 241 taga yetdi. Xitoyda umumiy aviatsiya deb kichik va o‘rta samolyotlar hamda

[1] Krupneyshiy v mire aeroport Dasin otkrыt v Pekine. URL: https://news.myseldon.com/ru/news/index/216650487.html

[2] V Sindao otkrыlsya novыy mejdunarodnыy aeroport. URL: https://www.aex.ru/news/2021/8/12/233374/

[3] Sinxua. 09.10.2020

vertolyotlar orqali amalga oshiriladigan parvoz faoliyati tushuniladi (masalan, shoshilinch tibbiy yordam aviatsiyasi, politsiya, qidiruv-qutqaruv ishlari va hokazo), va bu muntazam aviakompaniyalarning parvoz faoliyatini o‘z ichiga olmaydi. Fuqarolik aviatsiyasi Bosh boshqarmasi (FABB) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda Xitoyda umumiy aviatsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 509 ta korxona va 2913 ta umumiy foydalanish samolyoti mavjud bo‘lgan. Umumiy parvoz soatlari esa 1,18 million soatni tashkil etgan. 2016–2020-yillar davomida Xitoyda dronlar (uchuvchisiz) orqali amalga oshiriladigan umumiy aviatsiya bozori shakllandi. 2020-yilda mamlakatda uchuvchisiz qurilmalar orqali umumiy aviatsiya operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi 9700 dan ortiq korxona ro‘yxatdan o‘tgan va Xitoyda tijorat maqsadlari uchun foydalaniladigan dronlar soni 120 mingdan oshib ketgan.[1]

Jadal rivojlanayotgan Xitoy aviatsiya tashish sohasi bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan:

– mavjud havo fazosini kengaytirish zaruriyati, chunki uning 75 foizi harbiy idoralar ixtiyorida bo‘lib qolmoqda;

– aviatsiya yoqilg‘isiga bo‘lgan talab keskin o‘sishi va yoqilg‘i narxlarining oshishi;

– uchuvchi hay’ati va yerdagi xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi.

Xitoy har yili 5000 dan 7000 nafargacha yangi uchuvchi, shu jumladan havo kemalari komandirlariga muhtoj. Infratuzilmaning (ayniqsa aeroportlarning) tez sur’atda rivojlanishi boshqa sohalarda ham doimiy ravishda mutaxassislarga talabni kuchaytirmoqda. Masalan, postsovet mamlakatlari hududida reyslarga xizmat ko‘rsatish rus tilida so‘zlashadigan styuardessalarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi. Shu sababli, ularni ko‘p hollarda boshqa mamlakatlardan, asosan Rossiyadan jalb qilishga to‘g‘ri kelmoqda.[2]

Hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasining fuqarolik aviatsiyasi sohasida mahalliy ishlab chiqarilgan samolyotlarga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. 2021-yil aprel oyida Kommersiyaviy aviatsiya korporatsiyasi (KAKK) tomonidan Nanchan aviatsiya shaharchasida (Szyansi viloyati) mamlakatdagi birinchi aviatsiya ishlab chiqarish va sinov markazi qurilishi to‘liq yakunlandi. Shu tariqa, Xitoyda aviatsiya sanoatida to‘liq ishlab chiqarish zanjiri — ilmiy tadqiqot va loyihalash, ishlab chiqarish, sinov parvozlari, yetkazib berish va ekspluatatsiyaga kiritishgacha bo‘lgan bosqichlar shakllantirildi. Shuningdek, Xitoyda samolyot dvigatellarini ishlab

[1] China‘s general aircraf totals 2,913.htp://www.chinadaily.com.cn/a/202010/28/WS5f990163a31024ad0ba8199f.html

[2] Pochemu luchshiye pilotы uxodyat iz Rossii v Kitay? URL: https://zen.yandex.ru/media/raysikh/pochemu-luchshie-piloty-uhodiat-iz-rossii-v-kitai-5cd45aaa0ae27d00b35ebcd9.html

chiqaruvchi davlat kompaniyalari konsorsiumi tashkil etildi, uning aktivlari 20 milliard dollarni tashkil etadi.

Xitoyda ishlab chiqarilgan mintaqaviy avialayner modeli katta miqyosli tijorat ekspluatatsiyasi fazasiga o‘tdi. 2021-yilga kelib ARJ21 avialaynerlari taxminan 1,6 million yo‘lovchini tashib o‘tdi.[1]

Shanxay Lunxua va Nankin Daszyaochan aeroportlaridan tashqari barcha aeroportlar faqat DC-2 va DC-3 turdagi transport samolyotlarini qabul qila olar edi; yuqoridagi ikki aeroport esa DC-4 modelidagi transport samolyotlarini ham qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ko‘p yillik urushlar va notinchliklar natijasida aeroportlar shoshilinch qurilish va rekonstruksiyaga muhtoj holatda edi.

Transport tarmog‘i past o‘tkazuvchanlikka va katta texnik qolayotganlikka ega bo‘lib, transport park ham ancha eskirgan edi. Ikkita Xitoy aviakompaniyasi xodimlarining qo‘zg‘oloni natijasida 12 ta samolyot qaytarib olindi. Shuningdek, Gomindan tomonidan materik Xitoyda qoldirilgan va keyin tiklangan yana 17 ta samolyot bilan birga, yangi Xitoyning fuqarolik aviatsiyasi parkining boshlang‘ich qismini tashkil etdi. Transport sohasidagi og‘ir holat iqtisodiyot rivojini, mintaqaviy va xalqaro mehnat taqsimotini jiddiy ravishda sekinlashtirdi. Shu bilan birga, sohilbo‘yi hududlar va mamlakatning ichki, chuqur joylashgan rayonlari o‘rtasida transport rivojlanish darajasi bo‘yicha katta farq mavjud edi.[2]

So‘nggi yigirma yil mobaynida Xitoy o‘zining aviatsiya sanoatini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratib kelmoqda, maqsad esa Boeing va Airbus kabi amerikalik va yevropalik ishlab chiqaruvchilarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishdir. Bu strategiyaning markaziy elementi sifatida COMAC C919 yo‘lovchi samolyoti yaratildi, u 2023-yilda parvozga yaroqlilik sertifikatini oldi va tijorat ekspluatatsiyasiga kiritildi. Ushbu samolyot ichki va xalqaro bozorlarda Boeing 737 va Airbus A320 bilan raqobatlashish uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, ichki yo‘nalishlar va Osiyo hamda Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mo‘ljallangan ARJ21 va MA700 kabi mintaqaviy samolyotlar ishlab chiqarish faol rivojlanmoqda.

Davlat sarmoyalari faqatgina samolyotlarni ommaviy ishlab chiqarishga emas, balki butlovchi qismlar, avionika, dvigatellar ishlab chiqarishga ham yo‘naltirilgan bo‘lib, bu Xitoyga to‘liq texnologik mustaqillikka erishish imkonini bermoqda. Shuningdek, Xitoy ilmiy tadqiqotlar, sinov markazlari va aviatsiya muhandislarini tayyorlash dasturlariga ham faol investitsiya qilmoqda. Alohida e’tibor parvoz xavfsizligi, energiya tejamkorlik, shovqin ifloslanishini kamaytirish va zamonaviy ekologik standartlarga moslashish masalalariga qaratilayapti. Shu bilan birga, pochta tashish va gumanitar missiyalar uchun maxsus yuk samolyotlari yaratish dasturlari

[1] ARJ21 jetliner to expand commercial operaton in overseas market. URL: http://www.china.org.cn/business/2021–01/14/content_77116234.htm

[2] Tomberg I. R. Vozdushnыy transport Kitaya Vostochnaya analitika. 2022. S. 24–35

ham rivojlanmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda flotni modernizatsiya qilish Xitoyga nafaqat ichki talabni qondirish, balki xalqaro aviatsiya texnikasi bozorida faol raqobat qilish imkoniyatini ham yaratadi.[1]

Tarixan Xitoy fuqarolik aviatsiyasi bozori qat'iy markazlashgan va Air China, China Southern Airlines va China Eastern Airlines kabi yirik davlat aviakompaniyalari nazoratida bo‘lgan. Ammo 2010-yillardan boshlab sohada raqobatni rag‘batlantirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati oshirish maqsadida liberallashtirish jarayonlari boshlandi. Hukumat xususiy aviakompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash, litsenziya olishni yengillashtirish va bozorga yangi operatorlarni kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga kirishdi, ayniqsa, mintaqaviy parvozlar segmentida.

Natijada, Spring Airlines, Juneyao Airlines va boshqalar kabi yangi aviakompaniyalar paydo bo‘lib, arzonroq tariflar va innovatsion xizmatlar taklif qila boshladi. Liberallashuvga qaramay, Pekin strategik ahamiyatga ega sohalarda — masalan, ustuvor yo‘nalishlar belgilanishi, asosiy yo‘nalishlarda narxlar tartibga solinishi va xavfsizlik standartlari nazoratida — qat'iy davlat nazoratini saqlab qolmoqda. Parvoz xavfsizligi ustidan nazorat Xitoy Fuqarolik Aviatsiya Ma'muriyati (CAAC) orqali amalga oshiriladi, va aviakompaniyalarga yuqori talablar qo‘yiladi. Bunday yondashuv bozor iqtisodiyoti elementlarini davlat rejalashtirishi bilan uyg‘unlashtirish imkonini berib, xavflarni kamaytirish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Kelgusida bozorning ochiqroq bo‘lishi sarmoyalar o‘sishi, aviaperevozkalar samaradorligini oshishi va Xitoyning global aviatsiya bozoridagi ulushining ortishiga xizmat qilishi kutilmoqda.[2]

Zamonaviy aviatsiya infratuzilmasini rivojlantirish KXR transport siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. "2035-yilgacha fuqarolik aviatsiyasi rejasi" doirasida Xitoy 2025-yilgacha 30 dan ortiq yangi aeroport qurishni, 2035-yilga kelib esa umumiy aeroportlar sonini 400 dan oshirishni maqsad qilgan. Ayniqsa, Pekin Dasin xalqaro aeroporti kabi yirik xalqaro xablar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda; ushbu aeroport dunyodagi eng yirik va eng texnologik jihatdan ilg‘or aeroportlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, mavjud aeroportlarni modernizatsiya qilish, uchish-qo‘nish yo‘laklarini kengaytirish, terminallar qurish va havo harakatini intellektual boshqarish tizimlarini joriy etish loyihalari amalga oshirilmoqda. Aviatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yer usti transport tarmoqlari rivoji bilan uzviy bog‘liq: tezyurar temir yo‘llar va avtomagistrallar aeroportlar bilan integratsiyalashtirilmoqda. Xitoy aeroportlarni nafaqat aviaparvozlar markazi, balki ko‘p funksiyali logistika va biznes markazlariga aylantirishni maqsad qilmoqda. Bu sa'y-harakatlar orqali Xitoy ichki va

[1] Nigam, V. China‘s Civil Aviation Industry. New Delhi: Centre for Air Power Studies, 2022. — B. 12–18.
[2] Peng, L. "Newly established airlines developing processes and changing competition in China‘s airline industry." Transportation Research Procedia, 2017.

xalqaro savdoni qo‘llab-quvvatlaydigan, o‘ta samarali va keng qamrovli transport tarmog‘ini yaratishni rejalashtirgan.[1]

Xitoy aviatsiya sohasidagi muhim strategik yo‘nalishlardan biri xalqaro hamkorlikni faol kengaytirishdir. Xitoy ikki tomonlama va ko‘p tomonlama havo qatnovi kelishuvlarini imzolab, ayniqsa Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Sharqiy Yevropada to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar geografiyasini kengaytirmoqda. Pekin ayrim kelishuvlar doirasida “ochiq osmon” tamoyilini qo‘llab-quvvatlamoqda, bu esa fuqarolar harakatlanishini yengillashtirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish imkonini beradi. Xitoy aviakompaniyalari xalqaro alyanslarga qo‘shilmoqda va xorijiy tashuvchilar bilan qo‘shma korxonalar tuzmoqda. Masalan, China Eastern Airlines va Delta Airlines o‘rtasidagi strategik hamkorlik yoki China Southern Airlines va American Airlines o‘rtasidagi hamkorlik Xitoyning Shimoliy Amerika bozoridagi pozitsiyalarini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, Xitoy aviakelishuvlarda o‘zarolik prinsiplarini ilgari suradi, o‘z tashuvchilari uchun xorijiy bozorlarda teng huquqlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro havo qatnovini rivojlantirish “Bir kamar — bir yo‘l” tashabbusining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Istiqbolda bunday hamkorlik Xitoyning iqtisodiy diversifikatsiyasi va global transport tizimidagi nufuzini oshirishga yordam beradi. “Aviatsiya ipak yo‘li” — bu Xitoyning “Bir kamar — bir yo‘l” global tashabbusi doirasidagi aviatsiya komponenti bo‘lib, Xitoy bilan Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va Yevropadagi mamlakatlar o‘rtasida infratuzilma va logistika koridorlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu dastur doirasida Xitoy xorijiy davlatlarda yangi aeroportlar qurilishiga, mavjud aeroportlarni modernizatsiya qilishga va mintaqaviy aviatsiya markazlari yaratishga sarmoya kiritmoqda.

Xitoy kompaniyalarining Kamboja, Efiopiya, Pokiston va Serbiyada aeroportlar qurishda ishtirok etishi bu strategiyaning amaliy namunasidir. Loyiha tovar ayirboshlash, turizm va investitsion hamkorlikni rivojlantirish orqali Xitoy va tashabbusda qatnashuvchi mamlakatlar o‘rtasida logistik zanjirlarni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, “Aviatsiya ipak yo‘li” Xitoyga aviatsiya xavfsizligi, xizmat ko‘rsatish va texnologiyalar sohasidagi o‘z standartlarini keng tarqatish imkonini beradi.

Bu yondashuv Pekinning geosiyosiy nufuzini oshiradi va uni global transport markazi sifatida mustahkamlaydi. Istiqbolda ushbu loyiha Xitoyning g‘arb davlatlari tomonidan nazorat qilinadigan an’anaviy xalqaro tranzit yo‘llariga bog‘liqligini kamaytirishga yordam beradi.

“2035-yilgacha Xitoy fuqarolik aviatsiyasini rivojlantirish rejasi” 2017-yilda e’lon qilingan bo‘lib, butun sohaning uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim dasturiy hujjatga aylangan. Ushbu hujjat Xitoyning o‘z fuqarolik aviatsiyasini dunyodagi eng

[1] Yu. D. “New Aviation Silk Road.” Asian Financial Journal, May 2020. — B. 29–31.

qudratli va raqobatbardosh tarmoqlardan biriga aylantirish maqsadini aks ettiradi. Rejaning asosiy maqsadlaridan biri — mamlakat aholisining 90 foizi uchun 100 kilometr radiusda aeroportga yetish imkoniyatini ta’minlashdir. Hujjatda 2035-yilga kelib Xitoydagi aeroportlar soni 400 tadan ortishi, shu jumladan yangi xalqaro aviatsiya markazlarini yaratish rejalashtirilgani qayd etilgan. Reja samolyotlarni modernizatsiya qilish, navigatsiya tizimlarini yangilash va havo harakatini boshqarishning raqamli tizimlarini joriy etishni ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilaydi.

Ekologik standartlarga katta e’tibor qaratilgan: karbon chiqindilarini kamaytirish va aviatsiyada barqaror texnologiyalarga o‘tish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Strategiya, shuningdek, Xitoyning global havo harakati boshqaruv tizimida faol ishtirok etishini va xalqaro aviatsiya sohasida hamkorlikni kuchaytirishni ko‘zda tutadi. Hujjatda mahalliy samolyot ishlab chiqaruvchilar, xususan, COMAC kompaniyasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va aviatsiya sanoatida innovatsion ishlanmalarni rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. Shu tariqa, 2035-yilgacha bo‘lgan rivojlanish rejasi nafaqat ichki aviaperevozkalarni rivojlantirishga, balki Xitoyni global aviatsiya ekotizimida yetakchi davlatga aylantirishga qaratilgan.[1]

Xitoyning transport va infratuzilma bo‘yicha “Oq kitob”lari — mamlakatning transport tizimi va u bilan bog‘liq infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha milliy siyosatini bayon etuvchi rasmiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu hujjatlar ichki va tashqi ahamiyatga ega: bir tomondan, aholi va biznes uchun strategik yo‘nalishlar haqida axborot manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Xitoyning yutuqlari va rejalarini xalqaro maydonda namoyish qilish uchun diplomatik vosita vazifasini o‘taydi.

“Oq kitob”larda xavfsiz, qulay, barqaror va ekologik toza transport tizimini yaratishga bo‘lgan intilish alohida ta’kidlangan. Aviatsiyaga bag‘ishlangan bo‘limlarda havo transportining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy integratsiya va xalqaro savdo sohalaridagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Hujjatlarda multimodal tashish usullarini — aviatsiyani temir yo‘l, avtomobil va dengiz transporti bilan samarali integratsiya qilishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, “Bir kamar — bir yo‘l” tashabbusi doirasida yangi aviaqatnovlar va logistika markazlari yaratish orqali xalqaro tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash ta’kidlangan.

Havo harakatini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, jarayonlarni avtomatlashtirish va aviatsiya xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha rejalar bayon qilingan. Ekologik standartlar ham alohida o‘rin tutadi: barqaror aviatsiya yoqilg‘isi tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash va zararli chiqindilarni kamaytirish chora-tadbirlari ilgari surilgan. Umuman olganda, “Oq kitob”lar Xitoyning transport tizimini nafaqat iqtisodiy vosita sifatida, balki mamlakatning global pozitsiyasini mustahkamlaydigan strategik omil sifatida qabul qilishi namoyon etadi.

[1] Civil Aviation Administration of China (CAAC), National Development and Reform Commission (NDRC). Guideline on Developing International Aviation Hubs. Pekin, 2024. – B. 1–30.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida Xitoy maqsadli ravishda o‘zining raketa-kosmik dasturini rivojlantirib kelmoqda, maqsad — kosmosga kirishda to‘liq mustaqillikka erishishdir. Xitoyning orbital dasturining asosini "Chanchjen" (Long March) turkumidagi raketa-tashuvchilar tashkil etadi, ular sun’iy yo‘ldoshlarni uchirish va yuklar hamda ekipajlarni orbitaga yetkazib berish uchun muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.Hozirgi vaqtda Long March 2F (pilotli missiyalar uchun), Long March 3B (geostatsionar orbitaga sun’iy yo‘ldoshlarni chiqarish uchun) va Long March 5 (og‘ir yuklar, jumladan sayyoralararo missiyalar uchun) kabi modifikatsiyalar ishlab chiqilgan va faol qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, kelajakda Oy va Marsga missiyalar uchun mo‘ljallangan yanada qudratli Long March 9 raketasini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Raketa-tashuvchilarni rivojlantirish bilan bir qatorda, start maydonlarining keng ko‘lamli modernizatsiyasi ham amalga oshirilmoqda, jumladan Venchan, Szyusyuan va Sichan kosmodromlarida. Shu bilan birga, Xitoy qaytariladigan bosqichlar va ko‘p marta foydalaniladigan tizimlar (SpaceX kompaniyasining texnologiyalariga o‘xshash) ustida ish olib borib, kosmik uchirishlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, Xitoy raketasozlik sohasida xususiy startaplarni ham faol rivojlantirmoqda, masalan, LandSpace, iSpace va Galactic Energy kabi kompaniyalar orqali. Bu esa uchirish bozorini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga bo‘lgan intilishni namoyon etadi.Istiqbolda o‘z raketa turkumining muvaffaqiyatli rivojlanishi Xitoyning kosmosni o‘zlashtirishdagi mustaqilligini mustahkamlaydi va global kosmik uchirishlar bozorida raqobat qila olishiga imkon yaratadi.[1]

O‘z orbital stansiyasini yaratish Xitoy kosmik dasturining eng yirik yutuqlaridan biriga aylandi. “Tyangun-1” va “Tyangun-2” modullari bilan muvaffaqiyatli o‘tkazilgan bir qator tajribalardan so‘ng, Xitoy 2021–2022-yillarda to‘liq o‘lchamli, ko‘p modulli “Tyangun” (“Osmon saroyi”) kosmik stansiyasini qurdi. Stansiya asosiy modul — “Tyanxe” va ikkita laboratoriya modullari — “Ventyan” va “Mentyan”dan iborat bo‘lib, ularda vaznsizlik sharoitida ilmiy tajribalar o‘tkazish mo‘ljallangan. “Shenchjou” dasturi doirasida Xitoy ekipajlarni stansiyaga yetkazish uchun muntazam ravishda pilotli missiyalar tashkil qilmoqda, shuningdek, “Tyanchjou” yuk kemalari orqali stansiyani ta’minot bilan ta’minlash maqsadida parvozlar amalga oshirilmoqda.“Tyangun” stansiyasi doimiy ravishda ekipaj bo‘lishi va uzoq muddatli tadqiqotlar olib borish uchun mo‘ljallangan. Bu tadqiqotlar tibbiyot, materialshunoslik, biotexnologiya va kosmik fizika sohalarini qamrab oladi.Xitoy, shuningdek, stansiyani xalqaro hamkorlik uchun ochmoqda: Rossiya, Italiya, Pokiston va boshqa mamlakatlar olimlari ushbu loyihalarda ishtirok etmoqda.Xalqaro kosmik stansiya (MKS)da g‘arb davlatlari ustunlik qilayotgan bir paytda, “Tyangun” Xitoyning AQSH va uning hamkorlariga bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil ravishda

[1] Statistical Bulletin of Civil Aviation Industry Development in 2020. Beijing: CAAC, 2021. — pp. 1–30.

kosmosni o‘zlashtirish ramziga aylandi.Yaqin yillarda Xitoy stansiya imkoniyatlarini kengaytirishni rejalashtirmoqda, masalan, “Syuntyan” orbital teleskopini yaratish orqali, u “Tyangun” bilan birgalikda ishlaydi.

Xitoy olis kosmosni, ayniqsa Oy va Marsni o‘zlashtirish bo‘yicha yuksak vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Oyni tadqiq qilish bo‘yicha “Chan’e” dasturi 2000-yillar boshidan amalga oshirilmoqda va allaqachon katta muvaffaqiyatlarga erishdi: “Chan’e-3” va “Chan’e-4” missiyalari Oy yuzasiga muvaffaqiyatli qo‘ndi, shu jumladan Oyning orqa tomoniga amalga oshirilgan noyob qo‘nish ham bor. 2020-yilda “Chan’e-5” missiyasi dunyo amaliyotida 40 yillik tanaffusdan so‘ng birinchi marta Oy grunti namunalarini Yerga olib qaytishga muvaffaq bo‘ldi. Marsda ham Xitoy tarixiy muvaffaqiyatga erishdi: 2021-yilda “Tyanven-1” missiyasi orbital apparatni Mars orbitasiga chiqardi, qo‘nish platformasini muvaffaqiyatli qo‘ndirdi va “Chjujun” marsoxodini yubordi, u Mars yuzasini tadqiq qilish ishlarini amalga oshirdi. Yaqin rejalarda Xitoy Mars grunti namunalarini Yerga olib kelish bo‘yicha missiyalarni ishlab chiqish va 2030-yillarda Oyga pilotli parvozlarni amalga oshirishni mo‘ljallamoqda. Strategiya, shuningdek, Rossiya va boshqa ehtimoliy hamkorlar bilan birgalikda Oy tadqiqot bazasini qurishni ham o‘z ichiga oladi. Shu tariqa, Oy va Mars dasturlari nafaqat ilmiy doiralarni kengaytiradi, balki Xitoy Xalq Respublikasining texnologik qudratini namoyon etadi.[1]

Sputnik tizimlarini rivojlantirish Xitoyning kosmik siyosatining asosiy ustunlaridan biridir. Buning eng yorqin namunasi — global navigatsiya tizimi Beydou (BeiDou) bo‘lib, u 2020-yildan to‘liq ishga tushirilgan va Amerika GPS, Yevropa Galileo hamda Rossiya GLONASS tizimlariga raqobatchi hisoblanadi. Beydou yuqori aniqlikdagi pozitsiyalash, navigatsiya va vaqtni sinxronlash xizmatlarini nafaqat Xitoy ichida, balki undan tashqarida ham fuqarolik va harbiy maqsadlarda taqdim etmoqda. Navigatsiyadan tashqari, Xitoy Yerni kuzatish uchun sputnik tizimlarini (Gaofen), sputnik aloqa tizimlarini (Tianlian, Hongyan), meteorologik sputniklarini (Fengyun) va ilmiy tadqiqot apparatlarini faol rivojlantirmoqda.KXR kelgusida yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarini yaratish uchun sputnik guruhlarini kengaytirishni rejalashtirmoqda, bu loyiha Amerikadagi Starlink‘ga o‘xshash bo‘ladi. Ushbu tarmoq orqali mamlakat chekka hududlarida ham aloqa imkoniyati ta’minlanadi va kibermahsulotlar sohasida mustaqillik mustahkamlanadi. Barqaror sputnik infratuzilmasini qurish Xitoyning milliy xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyatni raqamlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Xitoy kosmik makonni monitoring qilish

[1] China Civil Aviation Safety Plan in the Fourteenth Five-Year Plan Period (2021–2025).Beijing: CAAC, 2021. — pp. 1–50.

tizimini ham rivojlantirmoqda, bu orqali potensial tahdidlarni kuzatish va orbital makonda nazoratni ta’minlash imkoni yaratiladi.[1]

Xulosa qilib aytganda, maqolada Xitoy Xalq Respublikasining aviatsiya va kosmik sohalardagi rivoji davlat siyosati va uzoq muddatli strategik manfaatlar bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Tadqiqot XXRning mazkur yo‘nalishlarni milliy xavfsizlik, texnologik mustaqillik va global siyosiy ta’sirni kuchaytirish vositasi sifatida shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Fuqarolik aviatsiyasi va kosmik dasturlar Xitoyning geosiyosiy raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xitoyning havo va kosmik transport sohasidagi siyosati mamlakatning texnologik mustaqillikka, iqtisodiy qudratga va global yetakchilikka intilishini aks ettiradi. Aviatsiya sohasida Xitoy flotni faol modernizatsiya qilmoqda, infratuzilmani rivojlantirmoqda, bozorni liberallashtirmoqda va xalqaro hamkorlikni kengaytirmoqda, aviatsiyani “Aviatsiya ipak yo‘li” kabi strategik tashabbuslarga integratsiya qilmoqda. Kosmik sohada esa Xitoy katta muvaffaqiyatlarga erishdi: o‘z orbital stansiyasini qurdi, Oy va Marsga missiyalarni amalga oshirmoqda, sputnik tizimlarini rivojlantirmoqda va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlamoqda. Bu sa’y-harakatlar Xitoyga nafaqat ichki barqarorlikni ta’minlash, balki aviatsiya va kosmik sohalarda dunyodagi yetakchi davlatlar qatorida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Xalqaro munosabat shakllaridan biri – tizimli xavf-hatar va qarshi muvozanatlarni o‘rganishning nazariy asoslari

MUTALIB KASIMOV
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent v.b.,
"Federal Davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi “MЭI” Milliy tadqiqot universitetining Toshkent shahridagi filiali

Annotatsiya: *maqolada xalqaro mojarolarning mohiyatini tavsiflovchi turli xil nazariy qarashlar tahlildan o‘tkazilgan hamda barcha nizolarni baholay oladigan universal nazariya hali yaratilmaganligi borasidagi, shuningdek, muayyan davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik bo‘yicha munosabatlarda mavjud bo‘lgan tizimli tahdidlar va qarshi muvozanatlarni ko‘rib chiqish uchun dastlab mojaroning o‘zini tahlil qilish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bugungi kunga kelib, mojarolarning sabablari, kechishi va natijalarini qamrab oladigan yagona nazariy asos mavjud emasligi borasidagi xulosaga kelingan.*

[1] China‘s Space Program: A 2021 Perspective. Beijing: Foreign Languages Press, 2021. — pp. 1–60.

Kalit so‘zlar: *xalqaro munosabatlar, nazariya, mintaqaviy xavfsizlik, tahdid, muvozanat, tizimli xavf-hatar, nafrat, mansublik, yondashuv, realizm, neorealizm.*

Аннотация: *В статье показана необходимость первоначального анализа самого конфликта с целью рассмотрения системных угроз и противовесов, проанализированы различные теоретические взгляды, характеризующие природу международных конфликтов, и что до сих пор не создана универсальная теория, способная оценить все конфликты, а также существующие в сфере отношений безопасности между определенными состояниями. Сделан вывод о том, что на сегодняшний день не существует единой теоретической базы, охватывающей причины, ход и результаты конфликтов.*

Ключевые слова: *международные отношения, теория, региональная безопасность, угроза, баланс, системный риск, ненависть, аффилиация, подход, реализм, неореализм.*

Annotation: *The article shows the need for an initial analysis of the conflict itself in order to consider systemic threats and counterbalances, analyzes various theoretical views characterizing the nature of international conflicts, and that a universal theory has not yet been created that can assess all conflicts, as well as existing security relations between certain states. It is concluded that today there is no single theoretical framework covering the causes, course and results of conflicts.*

Keywords: *international relations, theory, regional security, threat, balance, systemic risk, hatred, affiliation, approach, realism, neorealism.*

Hozirgi vaqtda Regional Security Complex Theory - (RSCT) Mintaqaviy xavfsizlik majmualari nazariyasi (MXMN) - (zamonaviy jahon siyosatining mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish uchun eng tartibga solingan va samarali nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaning mualliflari Kopengagen xalqaro munosabatlar maktabining asoschilari B. Buzan va O. Vaverdir. Ular “mintaqaviy xavfsizlik majmuasi” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydilar: “Bu aktorlar sekyuritizatsiya va desekyuritizatsiya jarayonlari shu qadar o‘zaro bog‘liqki, ularning xavfsizlik muammolarini bir-biridan alohida tahlil qilish yoki hal qilish mumkin emas” . Boshqacha qilib aytganda, qo‘shni davlatlar xavfsizlik masalalariga bog‘liq bo‘lib chiqadi va ularning har birining davlat xavfsizligi yagona xavfsizlik sifatida ko‘rib chiqilmaydi va boshqalardan farqlanib turadi. Mintaqaviy tuzilma ikkita asosiy fikrga asoslanadi, ya’ni:

1. “Kuch” va “davlat” tushunchalari nuqtayi nazaridan imkoniyatlarni taqsimlash.
2. Tizimdagi aktorlar o‘rtasidagi munosabatlardagi do‘stlik yoki dushmanlik.

Mintaqaviy xavfsizlik majmualarining ikki xil turi mavjud. B. Buzan va O. Vaver ularni standartlashgan va markazlashtirilgan majmualar deb atashadi. Bularning birinchisi Vestfal xalqaro munosabatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda xalqaro darajadagi davlat milliy manfaatlarga muvofiq harakat qiladi hamda davlatlar o‘rtasidagi raqobat asosiy harakatlantiruvchi kuchdir . Mazkur holatda tizimni saqlab turishning asosiy usuli - bu bir davlatning boshqasidan ustunligi bo‘lmagan kuchlar

muvozanatidir. Markazlashtirilgan mintaqaviy xavfsizlik komplekslari konsepsiyasi xalqaro munosabatlar tuzilishini neorealistik tushunish bilan bevosita bog‘liqdir. Mintaqaviy majmuaning ushbu turi super davlat (AQSH), buyuk davlatlar (Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Yaponiya, Xitoy) va mintaqaviy davlatlar (Janubiy Afrika, Braziliya) kabi davlatlarga asoslangan. Agar xavfsizlik majmuasi nafaqat mintaqaviy davlatni, balki buyuk yoki super davlatni o‘z ichiga olsa, unda tizimning global darajasi mintaqada ustunlik qiladi, chunki boshqa mintaqaviy rahbarlar buyuk yoki super davlat bilan bir xil salohiyatga ega bo‘lolmaydilar.

Potensial yetakchi bo‘lmagan hududlar nisbatan barqarordir. Bunday o‘zaro ta’sirning misoli muassasalar/tashkilotlar ichidagi birlashuv (integratsiya)dir. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi aynan shunday maqomdadir. Bu markazlashtirilgan va standart tizimning gibrididir, bu yerda Yevropa Ittifoqining o‘zi o‘ziga xos buyuk davlatdir, lekin u boshqa buyuk davlatlarni ham o‘z ichiga oladi.

B. Buzan va O. Vaver quyidagi mintaqaviy xavfsizlik mamjualarini: 1) Sharqiy Osiyo; 2) Janubiy Osiyo; 3) Yevropa; 4) Janubiy Afrika; 5) Markaziy Afrika; 6) Shimoliy Amerika; 7) Janubiy Amerika; 8) yaqin Sharq; 9) Sho‘rolardan keyingi majmualarni ajratib ko‘rsatgan. Bulardan tashqari, G‘arbiy Afrika va Afrika mo‘gizi (Somali yarim oroli, shuningdek, Afrika mo‘gizi sifatida ham tanilgan, Afrikaning sharqida joylashgan. U shimolda Adan ko‘rfazi va Sharq va janubda Hind okeani suvlari bilan yuvilib turadi. Cape Guardafui yarim orolining Shimoliy uchida joylashgan. Somali-Hind okeani va Adan ko‘rfazi bilan chegaradosh Sharqiy Afrikadagi mamlakatdir –M.K.) singari ikkita potensial majmua ham qayd etilgan .

Rossiyalik tadqiqotchilardan biri Ye.V. Koldunova xavfsizlik majmualari konsepsiyasini “yangi” tahdidlar, qiyinchiliklar, shuningdek, nodavlat kelib chiqishi mumkin bo‘lgan fuqarolik yoki harbiylashtirilgan tusga ega xatarlar bilan to‘ldiradi. Bularga transmilliy tusdagi ichki siyosiy muammolar ham kiradi .

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu majmualarning chegaralari bir-birining ustiga chiqa olmaydi va bir-biri bilan kesisha olmaydi, ya’ni aynan bir mamlakat boshqa majmuaga a’zo bo‘la olmaydi. Ammo agar davlat ikkita majmuaning tutashgan joyida joylashgan bo‘lsa masalan, Myanma yoki Afg‘onistonga o‘xshab ularning ikkalasida ham ishtirokchi bo‘lmaydi va “"cheklovchi” maqomini oladi.

M. M. Lebedeva “Dunyoni siyosiy shakllanish tizimi: “ideal bo‘ron” tadqiqotida siyosiy tashkilotning uchta mustaqil: Vestfal tizimi, davlatlararo munosabatlar tizimi va alohida davlatlarning siyosiy tizimlari darajasini ko‘rsatib o‘tgan . Har bir darajada sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar va o‘tishlar boshqa tizimlarga ta’sir qiladi va ularning o‘zgarishini kuchaytiradi.

Xalqaro tizimda davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoq/uyushmalar tuzishlari mumkin. Davlatlar tizimning yaxlitligini buzmaydigan muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoqlarga qo‘shilishadi. Ularga erishgandan so‘ng, ittifoqlar parchalanishga moyildir.

K.N. Uols i S.M. Uoltning ta’kidlashicha, davlatlar xavfsizlikni oshirish, potensial kuchli raqiblar tahdidlariga qarshi muvozanatni saqlash maqsadida ittifoqlarning bir qismiga aylanadi. Bundan tashqari, ittifoqlarga qo‘shilgan davlatlar ularda ishtirok etish uchun turli: muvozanat va ergashish strategiyalarga ega. Bu shuni anglatadiki, tashqi tahdidga duch kelganda, aktor boshqa davlatlar bilan kuchlarni birlashtirish orqali muvozanat strategiyasini tanlashi yoki tahdidga eragashishi mumkin.

K. N. Uols o‘zining “Xalqaro siyosat nazariyasi” asarida muvozanatning ikkita asosiy turini ko‘rib chiqadi:

1. Ichki muvozanat. Bu o‘z zahiralarini safarbar qilish va begonalarga qaramlikni imkon qadara kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

2. Tashqi muvozanat. Bu tahdidga beparvo qarab turolmaydigan ittifoqchilarni topishga qaratilgandir.

Ergashish strategiyasi tahdidga qarshi turishning iloji yo‘q holatda va ba’zida o‘z mustaqilligini yo‘qotish evaziga davlat kuchli raqib shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Tahdidlar muvozanati nazariyasining asoschisi S. M. Uolt o‘zining “Alyanslarning shakllanishi” asarida xalqaro munosabatlarda “uyushma” (alyans) tushunchasiga ta’rif berib o‘tgan. “Alyans ikki yoki undan ortiq suveren davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik doirasidagi rasmiy yoki norasmiy munosabatlardir”. Bu, alyansni tashkil etuvchi ittifoqchilar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatli tusga ega bo‘lishini anglatadi.

S. M. Uolt tahdidga ergashish strategiyasi g‘oyasini rivojlantirgan holda, uning ikki: mudofaa va hujum turini ajratib ko‘rsatadi. Ergashish mudofaa strategiyasi tahdidning o‘ziga xos “tinchlantirish shakli” bo‘lib, o‘z tomoniga bo‘lalidan tahdidni imkon qadar kamaytirishga imkon beradi. Ergashuvchi hujum strategiyasiga davlatning g‘alabasidan foyda ko‘rish uchun tahdid soluvchi davlat bilan moslashish istagi kiradi.

Ko‘pincha, uyushmalardagi davlatlarning xatti-harakati tahdidga ergashishdan ko‘ra ko‘proq muvozanatlashdan iborat, ammo har bir holatni barcha uchun bir xil-umumiy deb bo‘lmaydi. Potensial sherikning fe’l-atvorini tahlil qilib, davlat xavf va imkoniyatlarni bashorat qiladi.

Tahdidning ko‘lami turli omillarga: geografik joylashuv, tajovuzkorning umumiy kuchi va harbiy salohiyati bog‘liq. “Umumiy kuch - bu formuladan iborat bo‘lgan davlatning umumiy kuchidir, ya’ni: davlat, uning aholisi, sanoat, harbiy va texnologik salohiyati qanchalik katta bo‘lsa, boshqalarga nisbatan uning potensial tahdidi shunchalik katta bo‘ladi”.

Davlat ittifoqchilarini tanlashga tahdidning geografik joylashuvi ta’sir qiladi. U qanchalik yaqin bo‘lsa, uning yonida sheriklarni izlash shunchalik oqilona bo‘ladi. Bundan tashqari, tajovuzkorlar o‘z atrofidagi kuchlarni ularga qarshi muvozanat uchun qo‘zg‘atishi mumkin. Tahdid yo‘qolishi yoki kamroq kuchayishi bilan hamkorlik o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Ittifoqchi izlashda davlatlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan boshqa omillarga iqtisodiy salohiyat va mafkura kiradi. Davlatlar siyosiy qarashlarida o‘zlariga yaqin bo‘lgan davlatlar bilan ittifoqni afzal ko‘rishadi. Biroq, bu omil asosiy omil emas. Ko‘pincha iqtisodiy aloqalar, ayniqsa sheriklardan biri boshqasiga bog‘liq bo‘lsa munosabatlarning birlashtiruvchi omiliga aylanishi mumkin,. Shuni ta’kidlash kerakki, ittifoq ichidagi o‘zaro ta’sir jarayonida ittifoqchilarning bir-biriga nisbatan munosabati va umidlari o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, hatto mamlakatning iqtisodiy qaramligi ham siyosiy qarama-qarshiliklarning zaiflashishiga olib kelmasligi mumkin, masalan, Nepal va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarda. buni kuzatish mumkin.

Amerikalik siyosatshunos, Chikago universiteti professori D. Mirsheymer uyushmalarning qisqa muddatli tabiatiga e’tibor qaratadi va “Bular faqat kelishilgan nikohlar, bu yerda ertangi dushman bugun ittifoqda sherik bo‘lishi, bugungi dushman esa ertaga sherik bo‘lishi mumkin”, deb ta’kidlaydi.

Yuqorida nomlari keltirilgan aksariyat mutaxassislar tomonidan tuzilma turli tomonlar o‘rtasida bir nechta o‘zaro ta’sirlar sodir bo‘ladigan tarakqqiyot sifatida qabul qilinadi. Ushbu taraqqiyot ishtirokchilari orasida nafaqat davlatlar, balki xalqaro tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar, transmilliy korporatsiyalar va yirik tashkilotlar ham bo‘lishi mumkin. Har bir ishtirokchi muloqotning boshqa a’zolari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shu tarzda, tizim turli xil manfaatlar: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar majmui bilan belgilanadi.

Taniqli amerikalik siyosatshunoslar D. Nay i R. Keoxeyn xalqaro munosabatlarda murakkab o‘zaro bog‘liqlik nazariyasini birgalikda ishlab chiqqanlar. Ularning faoliyati xalqaro munosabatlarda, ayniqsa davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik bo‘yicha tadqiqotlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ular xalqaro tizimni o‘zaro bog‘liq tizim, deb ta’riflaydilar.

Davlatlar o‘zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan ko‘plab muammolar va kun tartibiga muvofiq harakat qilishadi. Davlatlarning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar turli muammoli sohalarning nisbiy ahamiyatining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Masalan, XX-asrning so‘nggi o‘n yilliklarida iqtisodiy muammolar xavfsizlik muammolari bilan almashdi va ularga inson huquqlarini himoya qilish kabi global muammolar qo‘shildi. XXI-asrning boshlarida turli sohalardagi o‘zaro ta’sirning murakkabligi va tabiati u yoki bu omil (ichki yoki tashqi siyosat) ning katta yoki kichik ta’siri bilan bog‘liq edi. Kelajakda o‘zgarishlar o‘z ta’sirini kuchaytiradigan yoki davlatlarni almashtiradigan boshqa aktyorlarning harakatlari tufayli ham sodir bo‘ladi.

Muayyan davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik borasidagi munosabatlarda mavjud bo‘lgan tizimli tahdidlar va qarshi muvozanatlarni ko‘rib chiqish uchun dastlab mojaroning o‘zini tahlil qilish zarur. Bugungi kunga kelib, mojarolarning sabablari, kechishi va natijalarini qamrab oladigan yagona nazariy asos mavjud emas. Rus tadqiqotchilaridan A. I Nikitin mojarolarni “siyosiy rivojlanishning muqarrar va zarur funksional komponenti”, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlardagi

modernizatsiya tajribasi, ulardagi islohotlar va o‘zgarishlar jarayoni tadqiqotchilarning alohida e’tiborini jalb etadi. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasining modernizatsiya tajribasi o‘zining benazirligi, o‘ziga xosligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Xitoy XX asr oxiri va XXI asr boshlarida eng yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishgan davlatlardan biri bo‘lib, uning tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim saboqlar beradi[1].

Xitoy modernizatsiyasi masalasini o‘rganish bir qator sabablarga ko‘ra dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, Xitoy modernizatsiyasi g‘arb mamlakatlari tomonidan taklif qilingan universal modernizatsiya modelidan tubdan farq qiladi va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda modernizatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkinligini isbotlaydi. Ikkinchidan, Xitoy tajribasi sotsialistik tuzum sharoitida ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Uchinchidan, Xitoy modernizatsiyasi jarayonida siyosiy barqarorlikni saqlab qolish bilan birga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mumkinligini namoyish etdi.

Modernizatsiya tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyatning an’anaviy holatdan zamonaviy holatga o‘tishini anglatadi. Bu jarayon iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarni qamrab oladi. Tor ma’noda modernizatsiya qishloq xo‘jaligiga asoslangan jamiyatdan sanoat jamiyatiga o‘tishni bildiradi. Keng ma’noda esa modernizatsiya orqada qolgan, rivojlanmagan mamlakatning rivojlangan davlatlarga yetishib olishini anglatadi. Umumiy ma’noda modernizatsiya insoniyat tarixidagi katta o‘zgarishlarni, ya’ni mahalliy sivilizatsiyadan umumjahon sivilizatsiyasiga o‘tish jarayonini ifodalaydi. Modernizatsiyaning mohiyati shundan iboratki, umumjahon sanoat sivilizatsiyasi qishloq xo‘jaligi sivilizatsiyasini almashtiradi, natural xo‘jalikdan bozor xo‘jaligiga o‘tish sodir bo‘ladi.

Modernizatsiya nazariyasi ijtimoiy fanlarda muhim o‘rin egallaydi va u jamiyatlarning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga qaratilgan. Klassik modernizatsiya nazariyasi 1950-1960-yillarda G‘arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u an’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o‘tish jarayonini tadqiq etadi. Bu nazariyaning asoschilari sifatida Tolkott Parsons, Uolt Rostou, Deniyel Lerner, Seymur Lipset va boshqa olimlarni ko‘rsatish mumkin[2]. Klassik modernizatsiya nazariyasiga ko‘ra, jamiyatlar rivojlanishning ma‘lum bosqichlaridan o‘tadi va bu jarayon universal xarakterga ega. Uolt Rostouning iqtisodiy o‘sish bosqichlari nazariyasiga ko‘ra, barcha jamiyatlar besh bosqichni bosib o‘tadi:

[1]Дэн Сяопин. Избранные произведения. – Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, 1994. – Т. 3. – С. 65.
[2]Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – P. 58-67.

an’anaviy jamiyat, o‘tish sharoitlari, yuksalish, yetuklik va yuqori ommaviy iste’mol davri[1].

Tolkot Parsons jamiyat rivojlanishini strukturaviy differensiatsiya nuqtai nazaridan tushuntirdi. Uning fikricha, modernizatsiya jarayonida jamiyat institutlari murakkablashadi, ixtisoslashadi va mustaqillashadi. Parsonsning konsepsiyasi an’anaviy va zamonaviy jamiyatlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. An’anaviy jamiyatlarda partikulyarizm, askriptivlik, diffuziylik va affektivlik ustunlik qilsa, zamonaviy jamiyatlarda universalizm, erishuv, ixtisoslashuv va neytrallik yetakchi o‘rin egallaydi[2]. Xitoy modernizatsiyasi kontekstida bu nazariya qiziqarli natijalar beradi, chunki Xitoy an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviylashuv jarayonini amalga oshirdi.

Seymur Lipsetning siyosiy modernizatsiya nazariyasi iqtisodiy rivojlanish va demokratiyalashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Lipsetning tadqiqotlariga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish demokratiyaning mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo Xitoy misoli bu nazariyaning universalligiga shubha tug‘diradi. Xitoy yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishgan bo‘lsa-da, siyosiy tizimda tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘lmadi. Xitoy Kommunistik partiyasi rahbarligi ostida ko‘ppartiyaviy hamkorlik tizimi saqlanib qoldi. Bu holat Lipset nazariyasining universalligiga savol tug‘diradi va modernizatsiya jarayonining turli shakllarda amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi[3].

Modernizatsiya nazariyasining tanqidiy yo‘nalishi sifatida bog‘liqlik nazariyasi paydo bo‘ldi. Bu nazariya 1960-1970-yillarda Lotin Amerikasi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asoschilari Andre Gunder Frank, Fernando Enrike Kardozo, Enso Faletto va boshqalar hisoblanadi. Bog‘liqlik nazariyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning orqada qolishi sabablarini jahon kapitalistik tizimining strukturasida ko‘radi. Bu nazariyaning namoyandalariga ko‘ra, markaz va periferiya o‘rtasidagi munosabatlar teng emas va periferiya mamlakatlar markaz manfaatlariga xizmat qiladi. Xitoy modernizatsiyasi bog‘liqlik nazariyasi nuqtai nazaridan qiziqarli misol bo‘la oladi. Xitoy rahbariyati G‘arb davlatlarining iqtisodiy diktatiga qarshi turib, mustaqil modernizatsiya yo‘lini tanladi[4].

Immanuil Vallerstaynning dunyo-tizim nazariyasi jahon iqtisodiyotini yaxlit tizim sifatida qarab chiqadi. Bu nazariyaga ko‘ra, jahon kapitalistik tizimi markaz, yarim-periferiya va periferiya mamlakatlaridan iborat. Markaz mamlakatlar yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaradi, periferiya esa xom ashyo

[1]Rostow W.W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960. – P. 4-16.
[2] Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – P. 58-67.
[3]Lipset S.M. Political Man: The Social Bases of Politics. – New York: Doubleday, 1960. – P. 27-63.
[4]Frank A.G. Capitalism and Underdevelopment in Latin America. – New York: Monthly Review Press, 1967. – P. 3-17.

yetkazib beradi. Xitoy modernizatsiyasi dunyo-tizim nazariyasi nuqtai nazaridan diqqatga sazovor. Xitoy 1978-yildan boshlab jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishni boshladi va bu jarayon natijasida uning jahon tizimidagi mavqei sezilarli darajada o‘zgardi. Xitoy periferiya holatidan yarim-periferiyaga, keyinchalik esa markaz mamlakatlari qatoriga qo‘shilish yo‘lida harakat qilmoqda[1].

Neomodernizatsiya nazariyasi klassik modernizatsiya nazariyasining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, modernizatsiya universal jarayon emas, balki turli mamlakatlarda turlicha shakllarda namoyon bo‘ladi. Neomodernizatsiya nazariyasi madaniy xususiyatlar, tarixiy an’analar va ijtimoiy kontekstning modernizatsiya jarayoniga ta’sirini e‘tirof etadi. Xitoy modernizatsiyasi neomodernizatsiya nazariyasining asosiy qoidalarini tasdiqlovchi misol sifatida qaralishi mumkin. Xitoy o‘z an’analari va madaniy xususiyatlarini saqlab qolgan holda modernizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Xitoy modernizatsiyasining nazariy asoslarini tushunish uchun “Xitoyga xos sotsializm” konsepsiyasini o‘rganish zarur. Bu konsepsiya birinchi bor Den Syaopin tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u Xitoy islohotlarining nazariy asosini tashkil etadi. Xitoyga xos sotsializm tushunchasi bir necha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi: siyosiy sohada bu Xitoy Kommunistik partiyasi rahbarligi ostida ko‘ppartiyaviy hamkorlik tizimini; iqtisodiy sohada esa sotsialistik bozor iqtisodiyotini, jamoa mulkchiligining ustunligi sharoitida turli mulkchilik shakllarining rivojlanishini; mafkura va madaniyat sohasida marksizmning asosiy va belgilovchi ta’limot sifatidagi rolini saqlagan holda g‘oyalar xilma-xilligi tizimini anglatadi[2].

Den Syaopinning modernizatsiya nazariyasi to‘rt asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, xitoy modernizatsiyasining mohiyati sotsialistik modernizatsiya bo‘lib, u g‘arb modernizatsiyasidan farq qiladi. Sotsialistik modernizatsiyaning yakuniy maqsadi sinflar o‘rtasidagi farq emas, balki barcha aholining birgalikda boyishi hisoblanadi. Ikkinchidan, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya xitoy modernizatsiyasining g‘arb modernizatsiya modelidan, shu bilan birga, boshqa sotsialistik mamlakatlar modernizatsiyasidan ham farq qilishini anglatadi. Uchinchidan, Xitoyga xos sotsializm nazariyasi sotsialistik modernizatsiyaning konkretlashtirilishi bo‘lib, Den Syaopin rivojlanishning uch bosqichi g‘oyalarini ilgari surdi. To‘rtinchidan, bu modernizatsiya nazariyasi va amaliyotini birlashtirish jarayoni hisoblanadi.

Den Syaopin xitoy modernizatsiyasining xususiyatlarini sharhlab ta’kidlaganidek, xitoy modernizatsiyasi xitoy voqeligiga mos kelishi kerak. Xitoy modernizatsiyasi xitoy xususiyatiga ega modernizatsiyadir. Uning nuqtai nazaridan, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya nafaqat nazariy, balki amaliy masalalarni ham hal qiladi. Uning

[1]Wallerstein I. The Modern World-System. – New York: Academic Press, 1974. – Vol. 1. – P. 347-357.
[2]Дэн Сяопин. Строительство социализма с китайской спецификой. – Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, 1985. – С. 12-25.

nazariyasi Xitoyda sodir bo‘layotgan modernizatsiya jarayoni bilan mos keladi. Den Syaopin ta’kidlaganidek, agar Xitoy 2000-yilga kelib modernizatsiya rejasini bajarsa, u o‘rtacha rivojlangan mamlakat bo‘ladi, 2050-yilga kelib esa yuqori rivojlangan mamlakatga aylanadi [1] . Shunda sotsialistik modernizatsiya kapitalistik modernizatsiyadan farq qilishini isbotlash mumkin bo‘ladi degan dalilga ega bo‘lishimiz mumkin.

Den Syaopinning fikricha, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya xitoy voqeligiga mos kelishi kerak. Xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya o‘zining oldingi shart-sharoitlariga ega. Xitoy katta mamlakat, ammo boshqa tomondan kichik mamlakat hamdir. Xitoy katta mamlakat deyish mumkin, chunki uning hududi katta va aholisi juda ko‘p. Shuningdek, Xitoy kichik mamlakat ham deyish mumkin, chunki Xitoy hali ham rivojlanayotgan mamlakat. 1978-yilda Xitoyda o‘rtacha yillik ish haqi atigi 300 amerika dollarini tashkil qildi. Bu ziddiyat Xitoy modernizatsiya jarayonining xususiyatlarini belgiladi, ya’ni Xitoyda modernizatsiya yo‘li eng qisqa yo‘l emas[2].

Tarixda shunday fakt mavjudki, modernizatsiya jarayonida ba‘zi kichik davlatlar past o‘rtacha ish haqiga ega, ammo ular katta, rivojlangan mamlakatlardan moliyaviy va texnik qo‘llab-quvvatlash oladilar, shuning uchun juda tez rivojlanadilar. Bunday mamlakatlarga Singapur, Gonkong, Tayvan, Janubiy Koreya kiradi. Bu imkoniyat Xitoy kabi ulkan mamlakat uchun deyarli amalga oshirilmaydi. Xitoy faqat o‘z kuchiga va har tomonlama rivojlanishga tayanadi. Xitoy o‘zining tarixiy an’analari va tarixiy sharoitlariga ega. Tarix isbotladiki, modernizatsiya jarayoni va an’analar o‘rtasida doimo ziddiyat mavjud. Shu ma’noda xitoy tarixi ikki tomonlama mohiyatga ega: Xitoy insoniyat tarixiga katta hissa qo‘shgan qadimiy sivilizatsiyaga ega mamlakat, ammo boshqa tomondan Xitoy ming yillik feodal an’analarga ega bo‘lib, ular modernizatsiya jarayonini shartlaydi.

Den Syaopinning fikricha, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya g‘arb modernizatsiyasidan uch asosiy farqqa ega. Birinchidan, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya sotsialistik modernizatsiya. Bu quyidagilarni anglatadi: modernizatsiyaning asosi jamoa mulkchiligi; modernizatsiyaning yakuniy maqsadi barcha aholining birgalikda boyishi. Ikkinchidan, xitoy xususiyatiga ega modernizatsiya ikki shart-sharoitga ega: sotsialistik modernizatsiyaning asosiy prinsiplari; xitoy voqeligidan kelib chiqqan modernizatsiya. Den Syaopin bayon qilganidek, xitoy xususiyati turli-tuman, ammo uning asosiy yo‘nalishlari uch unsurga ega: Xitoy orqada qolgan mamlakat; mamlakat aholisi ko‘p, ekin yerlari

[1] Дэн Сяопин. Избранные произведения. – Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, 1994. – Т. 3. – 418 с.

[2]Гельбрас В.Г. Экономика Китайской Народной Республики. – Москва: Квадрига, 2010. – С. 45-47.

aholiga nisbatan oz, aholining 80 foizi dehqonlar; Xitoy ming yillik feodal an'analarga ega[1].

Uchinchidan, xitoy modernizatsiyasi jarayoni orqada qolgan mamlakat iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga yetishib olishi uchun zarur jarayon hisoblanadi. 1840-yilda opium urushidan keyin Xitoy rivojlanishda yevropa davlatlaridan orqada qoldi. Keyingi 100 yil davomida Xitoy vaziyatni o'zgartirishning turli yo'llarini sinab ko'rdi, ammo faqat sotsializm bu maqsadga erishishga yordam berdi. Faqat sotsializm sharoitida Xitoy iqtisodiyoti yanada dinamik rivojlana boshladi. Den Syaopinning nuqtai nazaridan, klassik marksizm nazariyasida sotsializm yuqori darajada rivojlangan kapitalizm asosida quriladi, shuning uchun sotsializmda modernizatsiya tushunchasi mavjud emas deb hisoblangan. Ammo tarix bundan farqli natijalarni ko'rsatdi. Sotsializm avval orqada qolgan sharq mamlakatlarida amalga oshirildi.

Den Syaopin modernizatsiya jarayonini jahon miqyosidagi jarayon sifatida qarab chiqdi. Bu ma'noda kapitalizm va sotsializm modernizatsiya jarayonida ko'p umumiy xususiyatlarga ega. Den Syaopin modernizatsiya va g'arblashuv o'rtasidagi farqni aniqlab, bu jarayonlarning bir xil emasligini ta'kidladi. Modernizatsiya jarayoni mamlakatning siyosiy tuzumiga bog'liq emas. Shu ma'noda modernizatsiya umumtarixiy jarayon hisoblanadi. Har bir mamlakat modernizatsiyalashganda boshqa mamlakatlarning tajribasini o'zining voqeligi bilan uyg'unlashtirishi kerak. Den Syaopin ta'kidlaganidek, modernizatsiya va kapitalizm-sotsializm qarama-qarshiligi turli narsalardir. Kapitalizm modernizatsiyasi va sotsializm modernizatsiyasi mavjud[2].

Nazariy jihatdan sotsializm va kapitalizm qarama-qarshi bo'lsa-da, modernizatsiya jarayonida ular ko'p umumiy xususiyatlarga ega: sotsializmda ham, kapitalizmda ham modernizatsiya jarayonida sanoatgacha bo'lgan jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari, turmush tarzi, xulq-atvori va qadriyatlari inkor etiladi. Ishlab chiqarishni ijtimoiylashtirish va industrializatsiya amalga oshiriladi. Xitoyda sotsializmning 30 yili davomida modernizatsiya jarayoni kapitalistik tuzumning 150 yili davomidagi kabi rivojlandi, lekin shunga qaramasdan, Xitoy iqtisodiy jihatdan orqada qolgan mamlakat bo'lib qoldi. Bu holat modernizatsiya jarayonini davom ettirish zarurligini ko'rsatdi.

Xitoy modernizatsiyasining yana bir muhim xususiyati mehnattalab mahsulot ishlab chiqarish va eksportini ustunligini kapitaltalab va ilmtalab mahsulot ishlab chiqarish ulushi va miqyosini asta-sekin oshirish bilan mohirona uyg'unlashtirish hisoblanadi. Bu yondashuv Xitoyning jahon bozoridagi qiyosiy ustunliklaridan

[1] Дэн Сяопин. Избранные произведения. – Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, 1994. – Т. 3. – 418 с.

[2] Тихвинский С.Л. История Китая с древнейших времён. Том 9. Реформы и модернизация (1976-2009). – Наука, 2013. – 1017 с.

foydalanish va xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi. Ichki va tashqi moliyaviy mablag‘ manbalaridan, ichki va tashqi bozorlardan bir vaqtda foydalanish muhim o‘rin tutadi. Mamlakat rahbariyatining iqtisodiy o‘sish, xo‘jalik tizimi islohoti va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o‘rtasida ma‘lum muvozanatni saqlash haqidagi doimiy g‘amxo‘rligi modernizatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim omil bo‘ldi[1].

O‘ziga xos xususiyatlar bilan nafaqat Xitoy modernizatsiyasining strategik maqsadlari, balki uning taktikasi va usullari ham tavsiflanadi. Xitoy rahbariyatiga eski xo‘jalik mexanizmidan yangisiga o‘tishni boshlash, keyin esa iqtisodiyot ishlashining bozor prinsiplarining ustunligini mustahkamlashda sezilarli olg‘a siljishga imkon beradigan yo‘lni topish va amalda muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishdi. Tor ma’noda “ikki yo‘llilik” haqida gap boradi, ya’ni rejalashtirish va bozorni tartibga solish, mustahkam davlat va erkin bozor narxlari, markazlashgan moddiy-texnik ta’minot va ishlab chiqarish vositalarini mustaqil sotib olishning birikishi haqida[2].

Keng ma’noda “xitoy iqtisodiy islohot yo‘li” tushunchasiga mamlakatda o‘tkazilgan barcha islohotlar majmui kiritilishi kerak: xalq xo‘jaligining ko‘p ukladli tuzilmasini yaratish, quyi tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy iqtisodiyot talablarini ko‘proq yoki kamroq qondiradigan bozor tizimini shakllantirish, makroiqtisodiy tartibga solish shakllari va usullarini almashtirish. Xitoyda amalga oshirilgan yana bir yutuq ma’muriy-markazlashgan xo‘jalik yuritish tizimidan asosan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, asta-sekin o‘tish bo‘ldi.

Davlatning kuchli makronazorat roli ostida, milliy xususiyatlar va aholi uchun islohotlar yukini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshirilgan bu o‘tish ham islohotlarning o‘zini qoniqarli o‘tkazish, ham ishlab chiqaruvchi kuchlarning dinamik o‘sishi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning maqbul darajasini ta’minladi. Xitoy bozor turdagi islohotlarni faol o‘tkazish davrida ishlab chiqarishning pasayishi va giperinflyatsiyaning avj olishiga yo‘l qo‘ymaganligi uni o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar orasida alohida mavqega qo‘yadi.

Xitoy islohotlar sohasida o‘z o‘ziga xosligini himoya qilishga, tashqaridan tiqishtirilayotgan reseptlar bo‘yicha emas, balki xo‘jalik tizimidagi o‘zgartirishlarning muddatlari, sur’atlari, usullari, konkret ob‘ektlari va ketma-ketligini o‘zi tanlashga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birga, Xitoyning avvalgi siyosiy tizim asoslarini saqlab qolishi, iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishning barqaror ijtimoiy-siyosiy sharoitlarini ta‘minladi. Bu holat G‘arb siyosatchilariga xitoy rahbariyatini demokratik emaslik va konservatizmda ayblash uchun bir necha bor sabab bo‘ldi, ammo oxir-oqibatda

[1] Портяков В.Я. Экономическая политика Китая в эпоху Дэн Сяопина. – Москва: Восточная литература, 1998. – С.138.

[2]Экономическая реформа в КНР: На рубеже веков / Под ред. А.В. Островского. – Москва: ИДВ РАН, 2008. – С. 112-128.

yetakchi g‘arblik xitoyshunos olimlar tomonidan islohotlar muvaffaqiyatini ko‘p jihatdan oldindan belgilagan “dono tanlov” sifatida tan olindi.

Xitoyning Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki bilan munosabatlari o‘ziga xos tarzda shakllandi. Islohotning birinchi bosqichida bu tashkilotlarga qo‘shilib, vaqt o‘tishi bilan ularning imtiyozli kreditlarining eng yirik oluvchisiga aylanib, Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining iqtisodiy va moliyaviy statistikani ochish to‘g‘risidagi oqilona talablarini bajarib, Xitoy shu bilan birga, yordam taklif qilish va ayniqsa ularning diktati bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday urinishlarni boshidan kesib tashladi. Tashqi iqtisodiy ochiqlikdan bozor boshlang‘ichlarini nafaqat iqtisodiyotda, balki xitoy jamiyatining boshqa sohalarida ham rivojlantirish va mustahkamlash uchun foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba alohida e’tiborga loyiq[1].

Hozirgi vaqtda Xitoyda tashqi iqtisodiy ochiqlikning to‘qqizta turli tipi ajratiladi: maxsus iqtisodiy zonalar; texnik-iqtisodiy rivojlanish zonalari; ochiq sohilbo‘yi shaharlar; Yanszы daryosi bo‘yidagi ochiq shaharlar; ochiq chegara shaharlari va uyezdlar; chegara iqtisodiy hamkorlik rayonlari; bojxona to‘lovlaridan ozod savdo zonalari; viloyat markazlari. Islohotlarni yanada rivojlantirish va tashqi aloqalarni kengaytirish uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida 1980-yildan boshlab Xitoyda maxsus iqtisodiy rayonlar tashkil etildi.

Guandun viloyatida Shenchjen, Chjuxay va Shantou, Futszyan viloyatida Syamen va butun Xaynan viloyatini qamrab olgan Xaynan maxsus iqtisodiy rayonlari yaratildi. 1984-yilda xitoy hukumati mamlakatni tashqi dunyoga ochish uchun yangi qadam qo‘ydi: Dalyan, Sinxuandao, Tyanszin, Yantay, Sindao, Lyanyungan, Nantun, Shanxay, Ninbo, Venchjou, Fuchjou, Guanchjou, Chjanszyan va Beyxay kabi 14 shahar ochiq sohilbo‘yi shaharlar maqomiga ega bo‘ldi. 1985-yildan boshlab Yanszы va Chjutszyan daryolari deltalarida, Futszyan viloyatining janubiy qismidagi iqtisodiy uchburchakda, Shandun va Lyaodun yarim orollarida, Xebey viloyatida va Guansi-Chjuan avtonom rayonida ochiq iqtisodiy zonalar yaratila boshlandi[2].

Besh maxsus iqtisodiy rayon yaratilgandan so‘ng, ularda iqtisodiyot mamlakatning boshqa har qanday rayoniga qaraganda ancha tez rivojlandi. 1997-yilda ushbu maxsus iqtisodiy rayonlarning yalpi ichki mahsuloti jami 252,2 milliard yuanni, eksport va importning umumiy hajmi 65,8 milliard AQSh dollarini tashkil qildi [3]. 14 ochiq sohilbo‘yi shahari tashqi bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishda darcha va vositachilar roli o‘ynaydi, ularning hududida yaratilgan

[1]Портяков В.Я. Экономическая политика Китая в эпоху Дэн Сяопина. – Москва: Восточная литература, 1998. – С. 156-178.

[2] Rostow W.W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960. – 272 p.

[3] China Statistical Yearbook 1998. – Beijing: China Statistics Press, 1998. – P. 55-72.

texnik-iqtisodiy o‘zlashtirish zonalari xorijiy investorlar uchun juda jozibali bo‘lib qoldi.

Modernizatsiya jarayonida Xitoy siyosiy tizimida bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Demokratiyalashtirish jarayoni ma‘lum darajada rivojlandi, qonun ustuvorligi mustahkamlandi, ma‘muriy apparat qisqartirildi, demokratik nazorat tizimi takomillashtirildi, barqarorlik va birlik saqlandi. “Davlatni qonunchilik asosida boshqarish” konsepsiyasi asta-sekin amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy tizim islohotini amalga oshirish bilan bir qatorda siyosiy islohot o‘tkazish jadallashtiriladi. Bu islohot demokratiyani rivojlantirishga, qonun-tartibni mustahkamlashga, ishlab chiqarish va ma‘muriy funksiyalarni ajratishga, ma‘muriy apparatni qisqartirishga, demokratik nazorat tizimini takomillashtirishga, barqarorlik va birlikni saqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko‘zda tutadi[1].

Xitoy modernizatsiyasining muhim siyosiy jihatlaridan biri davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini saqlab qolishi hisoblanadi. Modernizatsiyaning barcha bosqichlarida davlat tartibga solish funksiyalarini saqladi, bozor jarayonlarini davlat nazoratida saqladi. 1992-yilda e’lon qilingan yirik va o‘rta davlat korxonalarini aksiyalashtirishda aniq qonuniy chegaralash belgilandi. Mamlakat xavfsizligiga, mudofaa sanoatining eng yangi texnologiyalariga, strategik ahamiyatga ega noyob materiallarni qazib olishga bevosita aloqador tarmoqlar, shuningdek davlat monopoliyasi amalga oshiriladigan tarmoqlar aksiyalashtirilmasligi belgilandi.

Avvalgi davrda Xitoyda aholi takror ishlab chiqarishining xususiyatlari yuqori tug‘ilish darajasi (3,89 foiz), yuqori o‘lim darajasi (2,76 foiz) va nisbatan past o‘sish (1,13 foiz) bilan belgilanadi. XXR tashkil topgandan so‘ng demografik jarayonlarda katta siljishlar sodir bo‘ldi. Demografik jarayonlarni nazorat ostiga olishga qaratilgan barcha urinishlarga qaramasdan, aholi barqaror o‘smoqda. Agar 1966-yil 1-yanvar holatiga XXRda 725 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, 1977-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 973 millionga yetdi, ya’ni 34 foizga oshdi.

70-yillarda tug‘ilishni cheklash g‘oyasi asta-sekin odamlar ongiga kira boshladi. 1971-yilda hukumat aholi o‘sishi dasturini ilgari surdi. 1973-yilda Davlat Kengashi huzurida “Rejali farzand ko‘rish bo‘yicha rahbarlik guruhi” tuzildi. 1978-yil mart oyida qabul qilingan XXR Konstitutsiyasida quyidagi norma paydo bo‘ldi: “Davlat rejali farzand ko‘rishni rag‘batlantiradi va bu yo‘nalishda ish olib boradi”. Faqat XKP MK XI chaqirig‘ining Uchinchi plenumidan (1978-yil dekabr) keyin mamlakat jamoatchiligi vujudga kelgan demografik vaziyatning jiddiyligini angladi[2].

1979-1997-yillar davomida o‘tgan 20 yillik modernizatsiya jarayonlarida erishilgan yutuqlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Birinchidan, xalq xo‘jaligining barqaror, barqaror tez rivojlanishi qo‘llab-quvvatlandi. Mamlakatning umumiy qudrati oshdi, aholining turmush darajasi sezilarli oshdi. 1979-1997-yillar

[1]China Statistical Yearbook 1998. – Beijing: China Statistics Press, 1998. – P. 55-72.
[2] China Statistical Yearbook 1998. – Beijing: China Statistics Press, 1998. – 846 p.

davrida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sishi 9,8 foizni tashkil qildi. 1997-yilda YaIM 7,477 trillion yuanni tashkil qildi. Solishtirma narxlarda u 1978-yilga nisbatan 5,6 barobar oshdi[1].

Xitoyning yalpi milliy mahsulotini to‘rt barobar oshirish maqsadiga muddatidan oldin erishildi. 1987-yilda XKP XIII syezdida qabul qilingan mamlakat xalq xo‘jaligini rivojlantirishning strategik dasturiga muvofiq, yalpi milliy mahsulot 2000-yilga kelib 1980-yilga nisbatan to‘rt barobar oshishi kerak edi. Ammo allaqachon 1995-yilda bu vazifa bajarildi. Hozirgi vaqtda yig‘ma iqtisodiy salohiyat bo‘yicha Xitoy jahonda 1991-yildagi 10-o‘rindan 7-o‘ringa ko‘tarildi, faqat AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Angliyadan keyin turadi[2].

Xulosa qilib aytganda, Xitoy modernizatsiyasi o‘zining bir qator muhim xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, modernizatsiya islohoti sotsializmni rad etishga emas, balki Xitoyga xos sotsializmni takomillashtirishga, yangilashga qaratilgan. Ikkinchidan, g‘arblashuv modeli rivojlanishidan farqli o‘laroq, Xitoyda modernizatsiya jamiyatning ma‘lum an’analariga tayanadi, o‘zining qadriyatli yo‘nalishlar tizimini saqlaydi, mamlakatning ob‘ektiv sharoitlarini va eng avvalo, aholining ulkan soni kabi omilni hisobga oladi. Uchinchidan, Xitoydagi modernizatsiya jarayonlari boshidan insonga, uning ehtiyojlariga, ijtimoiy soha va ma‘naviy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan. To‘rtinchidan, Xitoyda iqtisodiyotning ag‘darilib liberallashtirilishi sodir bo‘lmadi, uni isloh qilishning asosiy usuli mavjud davlat tuzilmalarini buzmasdan, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni rivojlantirish orqali bozorga evolyutsion siljish bo‘ldi. Beshinchidan, xitoy jamiyatini modernizatsiyalashning barcha bosqichlarida davlat tartibga solish funksiyasini saqlab qoldi.

Demografik omil, aholining ulkan soni, uning asosiy qismi (taxminan 80 foizi) qishloq joylarda yashashi Xitoydagi modernizatsiya jarayonlarining o‘ziga xosligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bularning barchasi Xitoy o‘ziga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muvaffaqiyat keltiradigan yangi, o‘ziga xos modernizatsiya modelini topganini tasdiqlashga asos beradi. Sotsiologik modernizatsiya nazariyasi kontekstida xitoy modeli “etishib oluvchi rivojlanish” modeli, “izidan boruvchi” modernizatsiyadir, chunki uning asosiy maqsadi aniq tarixiy muddatlarda sanoat, texnika, qishloq xo‘jaligi rivojlanishining u yoki bu darajasiga, mutlaq va jon boshiga ishlab chiqarish, yalpi milliy mahsulot hajmiga, daromad va iste’mol hajmiga erishish bo‘lib, ularga rivojlangan mamlakatlar allaqachon erishgan.

[1] Экономическая реформа в КНР: На рубеже веков / Под ред. А.В. Островского. – Москва: ИДВ РАН, 2008. – 356 с.

[2] Делюсин Л.П. Дэн Сяопин и реформация китайского социализма. – Москва: Муравей, 2003. – С. 89-112.

Трансформация энергетического сектора Афганистана в контексте региональной политики Узбекистана

ДИЛЬШОД ОЛИМОВ

Директор Центра энергетической дипломатии и геополитики Института перспективных международных исследований при Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД)

Аннотация. *В статье анализируется стратегическая роль Афганистана в энергетической дипломатии Узбекистана и его влияние на региональную безопасность в Центральной Азии. Автор рассматривает текущее состояние энергосистемы Афганистана, которая характеризуется глубоким кризисом, разрозненностью внутренних сетей и критической зависимостью от импорта (до 80% потребления).*

В центре внимания находится деятельность Узбекистана как ключевого поставщика электроэнергии и инвестора. Обосновывается тезис о том, что стратегия Ташкента направлена на создание системы взаимной зависимости, где развитие приграничной инфраструктуры (в частности, ЛЭП 500 кВ «Сурхон — Пули-Хумри») служит инструментом предотвращения регионального коллапса.

Особое внимание уделено двойственной природе трансграничных проектов, которые одновременно выступают и фактором стабилизации, и источником рисков. В работе также затронут водно-энергетический аспект, включая влияние новых ирригационных проектов (канал Куш-Тепа) на устойчивость межгосударственного сотрудничества. Автор приходит к выводу, что успех энергетической дипломатии в регионе зависит от наличия политической воли, долгосрочных институциональных механизмов и системных инвестиций в модернизацию афганских сетей.

Ключевые слова: *энергетическая дипломатия, Узбекистан, Афганистан, региональная безопасность, трансграничная инфраструктура, энергодефицит, водно-энергетический узел.*

Abstract. *The article analyzes the strategic role of Afghanistan in Uzbekistan's energy diplomacy and its impact on regional security in Central Asia. The author examines the current state of Afghanistan's power system, characterized by a deep crisis, fragmented internal grids, and a critical dependence on imports (up to 80% of consumption).*

The focus is on Uzbekistan's activities as a key electricity supplier and investor. The author argues that Tashkent's strategy is aimed at creating a system of mutual interdependence, where the development of cross-border infrastructure (specifically the 500 kV Surkhon–Puli-Khumri transmission line) serves as a tool to prevent regional collapse.

Special attention is paid to the dual nature of transboundary projects, which act simultaneously as stabilization factors and sources of risk. The paper also addresses the water-energy nexus, including the impact of new irrigation projects (the Qosh Tepa Canal) on the stability of interstate cooperation. The author concludes that the success of energy

diplomacy in the region depends on political will, long-term institutional mechanisms, and systemic investments in the modernization of Afghan grids.

Keywords: *energy diplomacy, Uzbekistan, Afghanistan, regional security, transboundary infrastructure, energy deficit, water-energy nexus.*

Annotatsiya. *Maqolada Afg‘onistonning O‘zbekiston energetika diplomatiyasidagi strategik o‘rni va uning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri tahlil qilinadi. Muallif Afg‘oniston energetika tizimining hozirgi holatini ko‘rib chiqadi, u chuqur inqiroz, ichki tarmoqlarning tarqoqligi va importga o‘ta yuqori qaramlik (iste’molning 80% gacha) bilan tavsiflanadi.*

Asosiy e’tibor O‘zbekistonning asosiy elektr energiya yetkazib beruvchisi va investor sifatidagi faoliyatiga qaratilgan. Toshkent strategiyasi o‘zaro bog‘liqlik tizimini yaratishga yo‘naltirilganligi, bunda chegaraoldi infratuzilmasini rivojlantirish (xususan, 500 kVli “Surxon — Puli-Xumri” elektr uzatish tarmog‘i) mintaqaviy inqirozning oldini olish vositasi bo‘lib xizmat qilishi asoslab beriladi.

Transchegaraviy loyihalarning ikki yoqlama tabiati — ularning bir vaqtning o‘zida ham barqarorlik omili, ham xatar manbai ekanligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ishda suv-energetika jihati, jumladan, yangi irrigatsiya loyihalarining (Qo‘shtepa kanali) davlatlararo hamkorlik barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Muallif mintaqadagi energetika diplomatiyasining muvaffaqiyati siyosiy iroda, uzoq muddatli institutsional mexanizmlar va Afg‘oniston tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan tizimli investitsiyalarga bog‘liq degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: *energetika diplomatiyasi, O‘zbekiston, Afg‘oniston, mintaqaviy xavfsizlik, transchegaraviy infratuzilma, energiya taqchilligi, suv-energetika bog‘liqligi.*

Проблемный вопрос (research question)

Станет ли трансграничная энергетическая инфраструктура драйвером устойчивого развития Афганистана и региональной интеграции, или же институциональная нестабильность в Кабуле продолжит воспроизводить системные уязвимости, блокируя реализацию энергетического потенциала страны?

В рамках данной проблемы критического анализа требует характер реализации стратегических интересов государств Центральной Азии, в частности Республики Узбекистан. Энергетическое партнерство рассматривается не только через призму экономической выгоды и расширения экспорта, но и как инструмент укрепления региональной безопасности.

Подключение Афганистана к энергетическим системам сопредельных государств создает предпосылки для стимулирования экономического роста и формирования пояса добрососедства. В то же время, критическая зависимость от импорта в сочетании с фрагментированностью внутренних сетей (National Grid) формирует риски для энергетической безопасности в условиях политической неопределенности. В фокусе исследования находится поиск модели баланса, при которой энергетическое взаимодействие Узбекистана и

Афганистана обеспечит взаимную устойчивость и минимизацию трансграничных рисков.

Цели исследования

В рамках данного исследования рассматриваются следующие ключевые вопросы. *Во-первых,* анализируется **текущая ситуация** в энергетическом секторе Афганистана: структура генерации и сетей, уровень электрификации, социально-экономические проблемы, связанные с энергодефицитом. *Во-вторых*, исследуется **система электроэнергетики Афганистана** – её институциональная организация (роль Министерства энергетики и водных ресурсов и компании DABS) и конфигурация сетевого хозяйства (изолированные региональные энергосистемы и их связь с соседними странами). *В-третьих*, особое внимание уделяется **трансграничным проектам** Афганистана с Центральной Азией, в частности с Узбекистаном: линиям электропередачи, газопроводам, а также вопросам совместного использования водно-энергетических ресурсов. Рассматриваются текущий статус этих проектов, достигнутые результаты и влияния на обе страны. *В-четвёртых*, выделяются основные **проблемы и риски** развития энергетики Афганистана (фрагментированность сети, финансовые и политические риски, санкционные ограничения и др.), мешающие полноценной реализации проектов. Наконец, на основе анализа формулируются возможные **перспективы и направления развития** энергетического сотрудничества, включая наращивание возобновляемой генерации, интеграцию рынков и укрепление региональной энергетической устойчивости.

Актуальность темы

Энергетическая безопасность является одним из ключевых факторов устойчивого социально-экономического развития, особенно для государств с растущим экономическим потенциалом и стратегическим положением. В условиях обострения глобальных и региональных вызовов – изменения климата, роста геополитической напряжённости, перехода к «зелёной» энергетике и нестабильности международных энергетических рынков – возрастает потребность в глубоком анализе как внутреннего энергетического потенциала страны, так и связанных с ним трансграничных процессов. В этом контексте особое внимание следует уделить приграничной энергетической инфраструктуре как экономико-техническому элементу и инструменту внешнеполитического взаимодействия: она может выступать фактором устойчивого сотрудничества и одновременно источником политических и экономических рисков.

Обзор литературы

Энергетическая тематика в международных отношениях привлекает возрастающее внимание исследователей с начала XXI века. В научных работах

подчёркивается важность энергии как фактора безопасности, экономического роста и внешней политики. В Узбекистане и Центральной Азии исследования в этой области фокусируются на проблемах энергетической безопасности, регионального сотрудничества и водно-энергетического баланса.

Несмотря на обилие литературы, остаются **пробелы в научной проработке отдельных вопросов**. В частности, недостаточно систематизированы **риски уязвимости** приграничной энергетической инфраструктуры (например, что произойдёт при конфликтных ситуациях или техногенных авариях). Отсутствует сценарный анализ развития энергетической сети Афганистана в условиях политической нестабильности – большинство работ рассматривают либо оптимистичный интеграционный сценарий, либо описывают статус-кво. Слабо разработана тематика новых форм трансграничного взаимодействия в эпоху глобального энергетического перехода к устойчивым источникам. Данное исследование призвано частично заполнить эти пробелы, предлагая комплексный взгляд на энергетическое взаимодействие Афганистана с соседями с учётом современных реалий.

Научная новизна

Научная новизна исследования заключается в междисциплинарном и комплексном подходе к оценке энергетического потенциала Афганистана во взаимосвязи с трансграничной инфраструктурой. Впервые проводится системная оценка того, как **прибрежные (приграничные) энергетические объекты** – ЛЭП, трубопроводы, гидроэлектростанции на реках, разделяющих государства – могут одновременно выступать драйверами сотрудничества и уязвимым местом в региональной энергетической безопасности. Исследование предлагает **типологизацию рисков**, характерных для энергетических объектов в приграничных зонах (риски политические, инфраструктурные, экологические, санкционные и др.), а также инструменты их снижения.

Кроме того, в работе вводится новый теоретический ракурс на **энергетику зон конфликта**. Анализируются конкурирующие дискурсы: с одной стороны, Афганистан представлен как **“энергетический мост”** между Центральной и Южной Азией, с другой – как **“нестабильное звено”**, препятствующее реализации проектов. Показано, как эти представления влияют на траектории проектов, их политическую поддержку и институциональное составляющее. В частности, позитивный нарратив о стране как о транзитном коридоре поддерживался прежним правительством в Кабуле, внешними донорскими организациями, а ныне транслируется и новым режимом Талибан. Однако выявлено несоответствие между оптимистичным дискурсом и **материальными предпосылками**: ограниченной внутренней генерацией, слабой сетью и т.д. – что ставит под сомнение устойчивость трансграничных инициатив без коренной модернизации сектора.

Наконец, научный вклад исследования состоит в интеграции разных дисциплинарных перспектив – безопасности, международного права, экономики – при оценке энергетических проектов. Такой междисциплинарный подход позволяет выработать **рекомендации** по развитию энергетики Афганистана, учитывающие не только техническую и коммерческую жизнеспособность проектов, но и их влияние на региональную устойчивость и дипломатические отношения.

Методология

Методология исследования опирается на сочетание **качественных и количественных методов**, обеспечивая всестороннее рассмотрение проблемы.

Качественный компонент включает *контент-анализ документов* (стратегии развития энергетики, соглашения между Узбекистаном и Афганистаном, отчёты международных организаций), а также *экспертные интервью* и *анализ позиций стейкхолдеров*. Количественные методы используются для обработки статистических данных и моделирования сценариев. В частности, анализируются показатели генерации, импорта и потребления электроэнергии Афганистана за последние годы, динамика тарифов и платежей, степень износа инфраструктуры и т.п. На основе этих данных выполняется *сценарное моделирование* влияния различных факторов (например, увеличение внутренней генерации или сокращение импорта) на энергобаланс страны и регион.

Таким образом, сочетание качественных и количественных методов, обеспечивают достоверность и глубину проведённого исследования.

Источник данных / Эмпирическая база

Эмпирическая база исследования опирается на **достоверные и разнородные источники данных**. В первую очередь используются официальные статистические сведения и отчёты: данные государственной энергетической компании *Da Afghanistan Breshna Sherkat (DABS)* о генерации, импорте и потреблении электроэнергии; материалы Министерства энергетики и водных ресурсов Афганистана (MEW) о состоянии инфраструктуры; статистика международных организаций – *Всемирного банка, Азиатского банка развития (АБР), Международного энергетического агентства (МЭА)* – относительно энергобаланса, уровня электрификации, инвестиций. Эти количественные данные позволяют составить актуальную картину энергетического сектора.

Дополняют статистику многочисленные **аналитические отчёты и исследования**. В работе используются доклады OSCE и UNDP по социально-экономической ситуации в Афганистане, включая показатели бедности и доступности энергии. Отчёты CAREC, USAID и других программ развития помогают понять технические параметры проектов (например, пропускную способность ЛЭП, потенциал возобновляемой энергетики). В части

возобновляемых источников привлекаются оценки профильных агентств – например, Национальной лаборатории возобновляемой энергии США (NREL) и Международного агентства по возобновляемым источникам энергии (IRENA) относительно потенциала солнечной и ветровой энергетики Афганистана.

Источником ценной информации стали также **новостные материалы и пресс-релизы** последних лет. Сообщения информационных агентств (Reuters, Xinhua, Ariana News, TOLOnews и др.) и узбекских СМИ (Gazeta.uz, Cronos.asia) позволили отследить развитие событий: заключение соглашений между Узбекистаном и Афганистаном, ход реализации проектов, возникшие кризисные ситуации (например, отключения электричества из-за долгов или теракты на энергообъекты). Эти данные оперативно отражают текущее положение дел и дополняют официальные отчёты.

Наконец, эмпирическую базу дополняют *интервью и комментарии экспертов*, собранные из публичных выступлений. Высказывания руководителей DABS, Министерства энергетики Узбекистана, представителей АБР и Всемирного банка, а также независимых аналитиков цитируются для пояснения мотивов и оценок.

Различные типы источников – количественные данные, документы, СМИ, экспертные мнения – исследование формирует надежную эмпирическую основу. Это обеспечивает обоснованность выводов и выводит рекомендации на уровень, практически значимый для политиков и специалистов.

Гипотеза исследования

Научная гипотеза состоит в том, что энергетическая инфраструктура Афганистана может развиваться по одному из двух сценариев. В условиях политической стабилизации и модернизации энергосистемы она способна стать фактором устойчивого развития страны и региона. При сохранении нестабильности и институциональных ограничений она будет продолжать воспроизводить риски и уязвимости для всей системы региональной безопасности.

Предполагается, что активное энергетическое взаимодействие с соседями при определённых условиях повышает энергетическую безопасность Афганистана и способствует стабилизации региона. Если удастся модернизировать афганскую энергосистему, связать разрозненные сети и институционально закрепить долгосрочные договорённости, **энергоинтеграция станет драйвером развития**. Улучшение доступа к электроэнергии приведёт к росту экономики, снижению уровня бедности и укреплению социально-экономической устойчивости, представляет интерес для всех стран региона.

Однако в отсутствие реформ и инвестиций приграничные энергетические объекты могут превращаться **точки уязвимости**. Зависимость от импорта несёт риски отключений (например, при ухудшении отношений или неплатежах), а


неразвитость внутренних сетей делает южные районы Афганистана особенно уязвимыми. Более того, конкуренция за водные ресурсы для гидроэнергетики способна вызывать трения с соседями. Таким образом, без координации и взаимных гарантий трансграничная энергетика несёт потенциальную угрозу напряжённости.

Гипотеза прогнозирует, что **повышение энергетической безопасности Афганистана и региона возможно при выполнении трёх условий**: 1) **техническое укрепление** – модернизация и расширение сетевой инфраструктуры внутри страны; 2) **политико-правовая база** – международные соглашения и механизмы, гарантирующие бесперебойность поставок (например, долгосрочные контракты и участие международных организаций в контроле исполнения; 3) **многосторонняя кооперация** – диалог всех вовлечённых стран по водно-энергетическим вопросам, интеграция Афганистана в региональные инициативы. Если эти условия будут соблюдены, трансграничная энергетическая инфраструктура из фактора риска трансформируется в фактор устойчивого развития, отвечая интересам как самого Афганистана, так и другим государствам Центральной Азии.

Обзор текущей ситуации

Афганистан сталкивается с острым дефицитом энергии и значительно зависит от импорта электроэнергии: около **70–80%** потребляемой мощности поступает из соседних государств. При этом Узбекистан выступает ключевым поставщиком, обеспечивая до 450 МВт из примерно 800 МВт импортируемой электроэнергии (см. рис. №1).

Рисунок №1




Источник: Low Carbon Power. “Afghanistan.” *Low Carbon Power*. 2025. https://lowcarbonpower.org/region/Afghanistan[1]

[1] Low Carbon Power. “Afghanistan.” *Low Carbon Power*. Дата доступа: 2 декабря 2025. https://lowcarbonpower.org/region/Afghanistan

Собственная генерация Афганистана составляет лишь порядка 600 МВт или около 30% потребления. В результате энергоснабжение страны критически привязано к внешним поставкам. Кроме того, электроэнергетическая инфраструктура охватывает менее половины населения (по оценкам – около 30–35% жителей имеют доступ к электросетям), что серьёзно ограничивает развитие и снижает качество жизни (см. рис. №2).

Рисунок №2



[1]

Источник: Our World in Data, “People without electricity (country), Afghanistan. https://ourworldindata.org/grapher/people-without-electricity-country?country=~AFG&mapSelect=~AFG

Следует отметить, что по оценкам международных институтов, социально-экономическая ситуация остаётся критической: уровень бедности крайне высок и в 2024–2025 гг. превышает 55%, а по некоторым данным доля населения за чертой бедности достигла ~65%[2]. Более половины афганцев испытывают острый дефицит продовольствия и базовых услуг. Энергетическая инфраструктура лежит в основе работы систем здравоохранения, образования, функционирования бизнеса и минимальных стандартов жизни. Расширение доступа к электроэнергии рассматривается как неотъемлемая часть стратегий по улучшению человеческого потенциала.


Смена власти в августе 2021 г. и последовавший институциональный кризис лишь обнажили накопившиеся проблемы. Многие иностранные специалисты и доноры покинули страну, проекты развития были заморожены. Собственное производство электроэнергии покрывало лишь малую долю

[1] Our World in Data, “People without electricity (country), Afghanistan,” Дата доступа: 29 ноября 2025, https://ourworldindata.org/grapher/people-without-electricity-country?country=~AFG&mapSelect=~AFG
[2] The World Bank. “World Bank Open Data — Afghanistan and South Asia.” *World Bank Open Data*. Дата доступа: 29 ноября 2025. https://data.worldbank.org/?locations=AF-XM

спроса, значительная часть электроэнергии поступала по импортным линиям из Узбекистана, Таджикистана, Туркменистана, а также из Ирана. Например, ежегодно Афганистан закупает суммарно ~800 МВт мощности у соседей.[1] Такая структура энергоснабжения означала, что любая внешнеполитическая или экономическая турбулентность немедленно сказывается на ситуации.

Конфигурация электроэнергетической системы. В стране нет единой национальной энергосети – вместо неё существует несколько **изолированных региональных сегментов**, слабо связанных между собой. Основные из них четыре (см. рисю №3).

Рисунок №3



[2]

Источник: Islamic Republic of Afghanistan, Afghanistan Energy Sector.

1. **Северо-восточная энергосистема (NEPS)** – крупнейшая сеть, охватывающая Кабул и северо-восточные провинции, включая Мазари-Шариф, Джелалабад и другие узлы. NEPS интегрирована с энергосистемами Узбекистана и Таджикистана и через них получает большую часть импортной электроэнергии. Передача идёт по магистральным ЛЭП 220 кВ и 110 кВ, протянутым из Узбекистана (через Хайратон – Пули-Хумри) и Таджикистана.

[1] The Diplomat. "Uzbekistan Agrees to Continue Supplying Afghanistan with Electricity." *The Diplomat*, November 15, 2025. Дата доступа: 3 декабря 2025. https://thediplomat.com/2025/11/uzbekistan-agrees-to-continue-supplying-afghanistan-with-electricity/#:~:text=According%20to%20DABS%2C%20Afghanistan%20imports,political%20interests%20of%20the%20region.

[2] Islamic Republic of Afghanistan, Afghanistan Energy Sector.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Xitoyda axborot xavfsizligi tushunchasi juda keng ma’noga ega. Bu yerda gap faqat tarmoq xavfsizligi yoki zararli dasturlarga qarshi kurash haqida emas. Aksincha, axborot xavfsizligi kiber makon suvereniteti, ma’lumotlar ustidan yurisdiksiya, muhim infratuzilma himoyasi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, platformalar faoliyatini nazorat qilish va jamoatchilik fikrini boshqarish bilan birgalikda tushuniladi[1]. Xitoyning asosiy qonunlari va siyosiy hujjatlari aynan shu keng yondashuvni mustahkamlaydi.

Birinchi muhim natija shundan iboratki, Xitoyda kiber makon suvereniteti axborot xavfsizligining markaziy tayanchi hisoblanadi. “Sovereignty in Cyberspace: Theory and Practice (Version 2.0)” hujjatida davlatning internet siyosatini mustaqil tanlash huquqi, internet boshqaruvi modelini belgilash vakolati va kiber mudofaa olib borish huquqi alohida ko‘rsatilgan[2]. Bu yondashuvga ko‘ra, internet ustidan nazorat davlatning qonuniy vakolati sanaladi. Natijada, Xitoy internet makonini tashqi ta’sirlardan himoyalanishi lozim bo‘lgan hudud sifatida ko‘radi. Shu sababli internet erkinligidan ko‘ra internet tartibi va internet xavfsizligi ustuvor qo‘yiladi.

Ikkinchi muhim natija – Xitoyning huquqiy bazasi izchil va bosqichma-bosqich shakllantirilgan. Xitoy Xalq Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni tarmoqlar xavfsizligini, muhim axborot infratuzilmasini va internetdagi tartibni umumiy asosda tartibga soladi. Mazkur qonunda kiber makon suverenitetini himoya qilish, milliy xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy jamoat manfaatlarini saqlash maqsad sifatida belgilangan. Bu esa qonunning oddiy texnik tartibot emas, balki siyosiy-huquqiy hujjat ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Ma’lumotlar xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni esa ma’lumotlar bilan ishlash faoliyatini davlat suvereniteti, xavfsizlik va rivojlanish manfaatlari bilan bog‘laydi. Mazkur qonunning 1-moddasi ma’lumotlardan foydalanishni rag‘batlantirish bilan birga, milliy suverenitet va xavfsizlikni himoya qilishni ham huquqiy maqsad sifatida belgilaydi[3]. Bu yondashuv ma’lumotlarni iqtisodiy resurs bo‘lish bilan birga xavfsizlik va geosiyosiy aktiv sifatida ham ko‘rayotganini anglatadi. Demak, Xitoyda data governance faqat texnik boshqaruv emas, balki davlat manfaatlarini himoya qilish vositasidir.

[1] The State Council Information Office of the People’s Republic of China. (2023, March 16). China’s law-based cyberspace governance in the new era.
[2] Cyberspace Administration of China. (2020, November 25). *Sovereignty in cyberspace: Theory and practice (Version 2.0)* https://www.cac.gov.cn/2020-11/25/c_1607869925296336.
[3] DigiChina. (2021, June 29). Translation: Data Security Law of the People’s Republic of China. https://digichina.stanford.edu/work/translation-data-security-law-of-the-peoples-republic-of-china

Yana bir muhim huquqiy hujjat “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni esa bir qarashda fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi hujjat sifatida ko‘rinadi[1]. Darhaqiqat, unda rozilik, ma’lumotlarni qayta ishlashning qonuniy asoslari va shaxsiy ma’lumotlarga doir ayrim huquqlar mustahkamlangan. Biroq ushbu qonun transchegaraviy ma’lumot uzatish, xorijiy qabul qiluvchilar va xalqaro yurisdiksiya masalalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli bu hujjat faqat na’lumotlar xavfsizligini ta’minlovchi qonuni emas, balki ma’lumotlar ustidan davlat nazoratining bir bo‘lagi hamdir.

Uchinchi muhim natija shuki, Xitoy muhim axborot infratuzilmasini alohida himoya obyektiga aylantirgan. “Muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligini himoya qilish to‘g‘risida”gi Nizom strategik sohalardagi tarmoqlar va raqamli tizimlarni maxsus himoya rejimiga kiritadi[2]. Energetika, aloqa, transport, moliya, davlat xizmati va boshqa muhim sohalardagi tizimlar xavfsizligi alohida tartibga solinadi. Bu esa Xitoyda axborot xavfsizligi faqat kontent yoki ma’lumot bilan cheklanmasdan, butun raqamli infratuzilmaning barqaror ishlashini ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi natija esa transchegaraviy ma’lumotlar oqimining qat’iy boshqarilishi. “Ma’lumotlarni chetga uzatish xavfsizligini baholash choralari” ga ko‘ra, muayyan turdagi ma’lumotlarni mamlakat tashqarisiga uzatishdan oldin xavfsizlik baholashi o‘tkazilishi lozim[3]. Hujjatda muhim ma’lumotlar va shaxsiy ma’lumotlar chetga chiqib ketishi milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va jamoat manfaatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu yondashuv Xitoyning ma’lumotlar oqimini butunlay yopmayotganini, biroq uni boshqariladigan va davlat nazorati ostidagi jarayon sifatida ko‘rayotganini ko‘rsatadi.

Beshinchi natija – Xitoyning o‘zining alohida internet platformalari va ichki raqamli ekotizimini shakllantirgani strategik qaror bo‘lgan. Mahalliy platformalar, jumladan WeChat, Weibo, Douyin, Bilibili va boshqa xizmatlar nafaqat bozor sharoitida o‘sib chiqdi, balki ichki yurisdiksiya, ma’lumotlar nazorati va platforma javobgarligi tizimiga mos muhitda shakllandi[4]. Tufts Digital Planet hisobotida Xitoy platformalariga ijtimoiy tartibni saqlash, kontentni boshqarish va davlat talablariga mos ravishda harakat qilish majburiyatlari yuklangani ko‘rsatiladi. Shu sababli Xitoyning alohida platformalari faqat iqtisodiy mahsulot emas, balki xavfsizlik va boshqaruv tizimining ham bir qismidir.

[1] DigiChina. (2021, November 1). Translation: Personal Information Protection Law of the People’s Republic of China (Effective Nov. 1, 2021).

[2] Creemers, R., Sacks, S., & Webster, G. (2021, August 18). Translation: Critical Information Infrastructure Security Protection Regulations (Effective Sept. 1, 2021). DigiChina.

[3] DigiChina. (2022, July 8). Translation: Outbound Data Transfer Security Assessment Measures (Effective Sept. 1, 2022).

[4] Wang, J. (2022). Platform responsibility with Chinese characteristics. Digital Planet, The Fletcher School, Tufts University.

Oltinchi natija – “Buyuk Xitoy internet devori” deb ataladigan tizim aslida ko‘p qatlamli boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Britannica bu tizimni qoidalar va texnologik vositalar kombinatsiyasi sifatida tariflaydi[1]. USENIX tadqiqoti esa u DNS filtrlash, soxta yozuvlar yuborish va boshqa texnik vositalardan foydalanganini ko‘rsatadi [16]. Biroq bu tizim faqat texnik to‘siqlardan iborat emas. U huquqiy cheklovlar, platforma litsenziyalash, kontent nazorati va davlat talablariga moslashtirilgan boshqaruvni ham o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda “devor” so‘zi ko‘proq ramziy ma’no kasb etadi; amalda esa gap raqamli hududiy chegarani saqlash haqida bormoqda.

Yettinchi natija – Xitoy algoritmlar va sun’iy intellektni ham axborot xavfsizligi masalasiga aylantirdi. “Internet axborot xizmatlarida algoritmik tavsiya boshqaruvi to‘g‘risida”gi qoida platformalarga algoritmik tavsiya tizimlari uchun xavfsizlik boshqaruvi o‘rnatish, ayrim xizmatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va foydalanuvchilar oldidagi javobgarlikni kuchaytirish majburiyatini yuklaydi [17]. “Generativ sun’iy intellekt xizmatlarini boshqarish bo‘yicha vaqtinchalik chora-tadbirlar” esa generativ SI xizmatlari davlat xavfsizligi, ijtimoiy axloq va jamoat tartibiga zid bo‘lgan natijalar yaratmasligi kerakligini belgilaydi [18]. Bu holat Xitoyda axborot xavfsizligi kontent, algoritm va sun’iy intellektning ichki ishlash mantiqigacha kengayganini anglatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Xitoyning axborot xavfsizligi modeli bir vaqtning o‘zida uch tayanchga asoslanganini ko‘rsatadi: suverenitet, nazorat va rivojlanish. Birinchidan, suverenitet masalasi Xitoy modelining g‘oyaviy asosidir. Huang Zhixiong va boshqa xitoylik tadqiqotchilar kiber makon suverenitetini davlat suverenitetining tabiiy davomi sifatida izohlaydi [5]. Shu jihatdan Xitoy internetni xalqaro huquqdan tashqaridagi erkin hudud sifatida emas, balki milliy yurisdiksiya amal qiladigan makon sifatida ko‘radi. Mazkur qarash Xitoyning nega xalqaro platformalarga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lishini, nega internet boshqaruvida ichki siyosiy nazoratni ustuvor qo‘yishini va nega ma’lumotlar oqimiga qattiq talablar joriy etganini tushuntiradi.

Ikkinchidan, nazorat masalasi Xitoy modelining amaliy markazidir. Bu nazorat faqat senzura yoki taqiqlardan iborat emas. U muhim infratuzilmalarni maxsus himoya qilish, platformalarga huquqiy majburiyatlar yuklash, ma’lumotlarni toifalash, ma’lumotlar oqimini baholash, algoritmlarni ro‘yxatga olish va sun’iy intellekt xizmatlarini tartibga solishdan iborat yaxlit boshqaruvni anglatadi[2]. Shu sababli Xitoy modeli ko‘proq markazlashgan va boshqaruvga yo‘naltirilgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

[1] Encyclopaedia Britannica. (n.d.). *Great Firewall*.

[2] Creemers, R., Sacks, S., & Webster, G. (2021, August 18). Translation: Critical Information Infrastructure Security Protection Regulations (Effective Sept. 1, 2021). DigiChina.

Uchinchidan, rivojlanish masalasi ham Xitoy modelining muhim qismidir. Ko‘pincha Xitoyning internet siyosati faqat cheklovlar bilan bog‘lab talqin qilinadi. Aslida esa davlat ichki platformalarni rivojlantirish, ma’lumotlardan iqtisodiy resurs sifatida foydalanish, mahalliy texnologik kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotning ichki tayanchlarini mustahkamlashga ham katta ahamiyat beradi[1]. Shu bois Xitoy modelini faqat repressiv yoki faqat proteksionistik deb baholash bir yoqlama bo‘ladi. U nazorat va taraqqiyotni birlashtirgan davlat strategiyasidir.

Rogier Creemers va Graham Websterning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, Xitoy qonunchiligida “xavfsizlik” va “sog‘lom rivojlanish” tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Aksincha, xavfsizlik taraqqiyotning zarur sharti sifatida ko‘riladi. Bu holat G‘arbdagi “erkinlik va xavfsizlik” o‘rtasidagi ziddiyatli talqindan farq qiladi. Xitoyda ko‘proq “nazorat ostidagi rivojlanish” modeli amal qiladi. Shu sababli Xitoyning alohida internet ekotizimi ham ichki tartibni saqlash bilan birga milliy iqtisodiy manfaatlarni ham qo‘llab-quvvatiradi.

Biroq modelning jiddiy bahsli jihatlari ham mavjud. Birinchidan, xavfsizlik va siyosiy barqarorlik tushunchalarining keng talqin qilinishi mustaqil axborot almashinuvi maydonini toraytirishi mumkin. Ikkinchidan, ma’lumotlarni chetga uzatish bo‘yicha murakkab talablar xalqaro biznes, ilmiy hamkorlik va raqamli innovatsiyalar uchun qo‘shimcha to‘siqlar keltirib chiqaradi. Samm Sacks ham Xitoyning ma’lumotlar boshqaruvi tizimi kuchli bo‘lsa-da, amaliy jihatdan noaniqlik va tartibga solish xarajatlarini oshirayotganini ko‘rsatadi[2]. Rebecca Arcesati esa ma’lumotlar ustidan partiya-davlat nazoratining kuchayishi siyosiy markazlashuvni mustahkamlashini ta’kidlaydi.

Shunga qaramay, Xitoy tajribasidan o‘rganish mumkin bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Xususan, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish, ma’lumotlarni toifalash, transchegaraviy ma’lumotlar oqimini xavfsizlik nuqtai nazaridan baholash, platformalarning ijtimoiy javobgarligini kuchaytirish va sun’iy intellekt xizmatlari uchun dastlabki xavfsizlik mezonlarini joriy etish boshqa davlatlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Biroq bunday tajriba to‘liq ko‘chirib olinmasligi, balki milliy huquqiy muhit, fuqarolik erkinliklari va xalqaro integratsiya talablariga moslashtirilishi lozim.

XULOSA. Xitoyda axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi faqat kiberhujumlardan himoyalanish yoki texnik xavfsizlik choralarini ko‘rish bilan cheklanmaydi. Mazkur tizim ancha keng va murakkab mazmunga ega bo‘lib, u davlat

[1] Wang, J. (2022). *Platform responsibility with Chinese characteristics*. Digital Planet, The Fletcher School, Tufts University.

[2] Sacks, S. (n.d.). Profile and analyses on China’s data governance. New America; Yale Law School, Paul Tsai China Center. https://www.lawfaremedia.org/article/china-s-agentic-ai-controversy

suverenitetini mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni сақлаш, ma’lumotlar ustidan nazoratni kuchaytirish, raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish, muhim axborot infratuzilmalarini himoya qilish hamda raqamli iqtisodiyot jarayonlarini boshqarish kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu jihatdan qaralganda, Xitoyda axborot xavfsizligi masalasi tor texnik tushuncha emas, balki davlat boshqaruvi, milliy xavfsizlik va raqamli taraqqiyot siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu sababli ushbu modelning huquqiy asoslari ham izchil ravishda shakllantirilgan bo‘lib, ular qatoriga “Xitoy Xalq Respublikasining Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, “Ma’lumotlar xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun “Ma’lumotlarni mamlakat tashqarisiga olib chiqishda xavfsizlikni baholash choralari” “Muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligini himoya qilish to‘g‘risida”gi Nizom shuningdek algoritmik tavsiyalar va generativ sun’iy intellekt faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar kiradi.

Xitoyning o‘ziga xos ichki raqamli makon va milliy ijtimoiy tarmoqlar tizimini shakllantirgani ham bevosita ana shu strategik yondashuv bilan bog‘liq. Bu yerda gap faqat xorijiy platformalarni cheklash haqida emas. Aslida ushbu siyosat orqali ma’lumotlarni mamlakat ichidagi yurisdiksiya doirasida saqlash, davlat talablariga mos ishlaydigan mahalliy platformalarni rivojlantirish, ichki raqamli bozorni himoya qilish hamda texnologik jihatdan tashqi omillarga qaramlikni kamaytirish maqsadi ko‘zlangan. Shu sababli Xitoyning raqamli siyosati milliy manfaat, xavfsizlik va texnologik mustaqillik tamoyillari asosida qurilgan, deb aytish mumkin. Bu jarayonda ko‘p tilga olinadigan “Buyuk Xitoy internet devori” ham oddiy texnik bloklash vositasi emas, balki texnik, huquqiy va ma’muriy mexanizmlarni birlashtirgan murakkab va ko‘p qatlamli nazorat tizimi sifatida faoliyat yuritadi.

Mazkur tadqiqot asosida aytish mumkinki, Xitoy modeli bugungi kunda axborot xavfsizligi siyosatining eng markazlashgan, eng tizimli va eng izchil shakllaridan biri hisoblanadi. Uning kuchli tomoni shundaki, u davlatga ma’lumot oqimlari, raqamli platformalar va strategik infratuzilmalar ustidan yuqori darajada boshqaruv imkonini beradi. Natijada davlat raqamli makondagi xavf va tahdidlarga nisbatan tezkorroq va markazlashgan tarzda javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq ayni shu xususiyatlar ushbu modelning eng bahsli jihatlarini ham yuzaga chiqaradi. Chunki bunday yondashuv internet erkinligi, axborot ochiqligi, foydalanuvchi huquqlari va xalqaro ma’lumot almashinuvi nuqtai nazaridan turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Demak, Xitoy tajribasi bir tomondan samarali boshqaruv modeli sifatida e’tiborni tortsa, ikkinchi tomondan u raqamli erkinlik va ochiqlik masalalarida cheklovchi tizim sifatida ham baholanadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo davlatlari uchun Xitoy tajribasi to‘liq ko‘chirilishi lozim bo‘lgan tayyor andoza sifatida emas, balki alohida yo‘nalishlar bo‘yicha puxta o‘rganilishi mumkin bo‘lgan amaliy tajriba

sifatida ahamiyatlidir. Xususan, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish, ma’lumotlar bilan ishlashni huquqiy tartibga solish, platformalar javobgarligini kuchaytirish, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va milliy raqamli barqarorlikni oshirish kabi masalalarda Xitoy yondashuvidan muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Eng muhimi, har qanday xorijiy tajriba milliy sharoit, huquqiy muhit, jamiyat ehtiyojlari va ochiq axborot makoni tamoyillari bilan uyg‘un holda, tanlab va moslashtirib qo‘llanilishi zarur. Ana shundagina bunday tajriba amaliy jihatdan foydali natija berishi mumkin.

O‘zbekiston-Xitoy munosabatlarining shakllanish xususiyatlari

JAVLON ABDAZIMOV
Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Muallif ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, ularning xalqaro huquq tamoyillari asosida rivojlanishi va geosiyosiy omillar ta’sirida shakllanish jarayonlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyati, yirik davlatlar manfaatlari to‘qnashuvi hamda O‘zbekiston–Xitoy hamkorligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ikki tomonlama munosabatlarning o‘zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda izchil rivojlanib borayotgani asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Xitoy, diplomatik munosabatlar, xalqaro huquq, geosiyosat, Markaziy Osiyo, ikki tomonlama hamkorlik, tashqi siyosat, strategik sheriklik, integratsiya, globalizatsiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются процессы формирования и развития отношений между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой. Автор рассматривает установление дипломатических связей между двумя государствами, их развитие на основе принципов международного права, а также влияние геополитических факторов на данный процесс. Кроме того, в статье освещаются стратегическое значение региона Центральной Азии, столкновение интересов крупных держав и основные направления узбекско-китайского сотрудничества в политической, экономической и культурной сферах. В результате исследования обосновывается, что двусторонние отношения последовательно развиваются на основе принципов взаимного уважения, равноправия и взаимной выгоды.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Китай, дипломатические отношения, международное право, геополитика, Центральная Азия, двустороннее сотрудничество, внешняя политика, стратегическое партнёрство, интеграция, глобализация.*

Abstract: *This article analyzes the formation and development of relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China. The author examines the establishment of diplomatic ties between the two countries, their development based on the principles of international law, and the influence of geopolitical factors on this process. The study also highlights the strategic importance of Central Asia, the competition of major powers' interests, and the key areas of Uzbek-Chinese cooperation in political, economic, and cultural spheres. The research concludes that bilateral relations have been steadily developing on the basis of mutual respect, equality, and mutual benefit.*

Keywords: *Uzbekistan, China, diplomatic relations, international law, geopolitics, Central Asia, bilateral cooperation, foreign policy, strategic partnership, integration, globalization.*

Jahonda bugun yuz berayotgan shiddatli o‘zgarishlar ko‘lami mamlakatlarning o‘zaro munosabatlarini ham ma’lum ma’noda takomillashtirish sari undamoqda. Davlatlar o‘rtasidagi muloqotning ham eng boshlanish nuqtasi sifatida diplomatik aloqalarni rasmiy boshlangan vaqtdan to uning siyosiy-shartnomaviy bazaning shakllanishigacha davrni qaralsa — bu tabiiy, murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida o‘zini namoyon qiladi. Jahondagi siyosiy maydonni ishtirokchilari joylashuviga ko‘ra eng avvalo xalqaro-huquqiy siyosiy maydonda joylashgani bilan xalqaro munosabatlar ishtirokchisi sanaladi, ularning o‘zaro rasmiy aloqalar o‘rnatgan hamda turli xalqaro institutlar bilan bog‘liq barcha davlatlarga xos munosabatlarini albatta ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama xalqaro huquqiy shartnoma kelishuvlari bilan amalga oshirishidir. Bu jarayon xalqlar o‘rtasida asrlar davomida shakllangan tarixiy asos va an’analarni, ishtirokchi tomonlarning geosiyosiy joylashuvi, shuningdek, rasmiy diplomatik aloqalarga kirishayotgan har bir ishtirokchi davlatning siyosiy va iqtisodiy qudrat ko‘lami bilan belgilanadi.

Bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi xalqaro huquq nuqtayi nazaridan barcha davlatlarning aholini, iqtisodiy qudratini yoki xalqaro tuzilmalarga a’zolik jihatlarini hisobga olgan taqdirda ham mutlaqo teng huquqli hisoblanadi. Farqlanuvchi jihat sifatida bugungi jahondagi yuz berayotgan o‘zaro muloqotlarning ziddiyatli jihatlari bilan hamda xalqaro-huquqiy me’yorlarga amal qilish borasidagi holati bo‘yicha muvozanat boshqacharoq kuzatilmoqda. XXI asr boshlaridan boshlab jahondagi globallashuvning ko‘lami ortishi bilan BMT tomonidan belgilangan xalqaro norma tartib va qoidalarni ta’sir qilish ko‘lami susaygan holatlari ortib va buzish holatlari ancha ko‘paydi. Bu jarayonlar gigemon Rossiya, AQSh yoki ular bilan hamkorlik qilayotgan boshqa mintaqa davlatlari BMT belgilab bergan qoidalarini chetlab o‘tish yoki umuman amal qilmaydigan holatlari kuzatilmoqda, xalqaro munosabatlar subyektlarni tan olish va muloqot qilish yoki tan olmaslik masalalarini o‘z pozitsiyalariga mos kelish nuqtai nazardan baholanmoqda, bu harakatlar ayrim

hukumatlar va siyosiy tizimlarni demokratlashtirish nuqtayi nazaridan deb talqin qilinib aksariyat holatlaarda o‘z manfaatlar doirasidan kelib chiqqan holda amalga oshirishga erishilmoqda.

Taraflarning moddiy jihatlarga bunday ko‘p diqqat qaratish holatlar endilikda normaga aylanib bormoqda, ayniqsa katta davlatlar kichik davlat ustidan, kuchli davlat kuchsiz davlat yoki iqtisodiy qudrati yuksalgan va rivojnalayotgan iqtisod shaklidagi ikki tomonlama munosabatlarda ko‘pincha nisbatan zaif davlatni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy qaramlikka ham olib keladigan shaklda muloqotlar olib borishga majbur qilish kuzatilmoqda.

Dunyo tan olgan tarjibaga muvofiq Xalqaro huquq eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan muvozanat shakli bo‘lib, unda asosiy tamoyillar va qoidalar majmuasi mavjud. Bu tamoyillar umumlashtirilgan me’yorlar bo‘lib, ular xalqaro huquqning o‘ziga xos siyosiy va ma’naviy mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, Xalqaro huquq eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lib, unda asosiy tamoyillar majmuasi mavjud bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Bu tamoyillar umumlashtirilgan me’yorlar bo‘lib, ular xalqaro huquqning o‘ziga xos siyosiy va ma’naviy mohiyatini ifodalaydi. Asosiy tamoyillar xalqaro huquq tizimining asosiy shakllantiruvchi omili sifatida xizmat qiladi - ular me’yorlar, institutlar va tarmoqlarni birlashtiradi hamda xalqaro huquqning tizimli faoliyat yuritishiga yordam beradi. Ular huquq ijodkorligi, huquqni amalga oshirish jarayoni va huquqning progressiv rivojlanishi uchun normativ asos bo‘lib xizmat qiladi va shu orqali xalqaro huquq amaliyotining barcha bosqichlarida qonuniylikning eng yuqori mezoniga aylanadi [1]. Uning asosiy tamoyillari xalqaro huquq tizimining asosiy shakllantiruvchi omili sifatida xizmat qilib, me’yorlar, institutlar va tarmoqlarni birlashtiradi hamda xalqaro huquqning tizimli faoliyat yuritishiga yordam beradi. Xalqaro huquq xalqaro munosabatlarning ijodkorligi, huquqni amalga oshirish jarayonidagi rolini va huquqning rivojlanishi uchun normativ asos sifatida xalqaro huquq amaliyotining barcha bosqichlarida qonuniylikning eng yuqori mezoniga tayangan holda jarayonlarni tartibga soladi.

Bu normalarni qo‘llash suveren davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi o‘ziga xos obyekt sifatida belgilanadi. Xalqaro huquq xalqaro tartibotining poydevori sifatida asosiy tamoyillar uning siyosiy-huquqiy faoliyatini, shuningdek, normalarning birdek tan olinishi va ularga rioya etilish darajasini tegishlicha belgilab muntazam nazorat mexanizm kuchini beradi.

Bugun ham mamlakatlarning eng muhim maqsadi jipslik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar, qisqa 34 yillik rasmiy taraqqiyot davriga ega bo‘lishiga qaramay, turli omillar va jarayonlar ta’siri ostida shakllangan va rivojlanishda davom etmoqda. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar aloqalarning o‘rnatilgan

[1] Xalqaro huquq: Ma’ruzalar kursi / Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 6 b.

paytidan boshlab butun keyingi rivojlanish davrigacha xalqaro munosabatlarda shakllangan barcha xalqaro-huquqiy hujjatlar va konvensiyalar mazmuniga rioya etilishining yorqin namunasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda istiqlol davrining boshlanishi bilan mustaqil davlat sifatida o‘z tashqi siyosatini hamda diplomatiyasini shakllantirib kelmoqda. Mamlakatlar uchun diplomatiya mamlakatning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi kirish hamda mintaqada va dunyoda manfaatlarini ilgari surish vositasi sifatida muhimligini anglagan holda O‘zbekiston ham aynan jahon hamjamiyatini birdek a’zosi sifatida diplomatik aloqalarni kuchaytirish sari odimlamoqda. Bu munosabatlarni o‘rnatishda eng muhim zamin esa 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan “Mustaqillik deklaratsiyasi” qabul qilindi. Uning muhimligi va tarixiy hujjat ekanligini – milliy mustaqillik g‘oyalari tarannumi bo‘lgani hamda o‘zida davlat qurilishining muhim tarixiy tajribasini va o‘zbek xalqining ko‘p asrlik an’analarini aks ettirishi bilan qadrlanadi. Davlat suvereniteti e’lon qilinganidan keyin mamlakat va millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan, xalqaro huquqiy normalardan to‘liq foydalanish, umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillardan kelib chiqib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy masalalarini mustaqil hal qilishga, dunyoda munosib o‘ringa va obro‘ga ega bo‘lishga qadam tashlandi. Deklaratsiya O‘zbekistonda mamlakat ichki va tashqi siyosatining barcha masalalarini qamrashga qaratildi[1].

1990-yillar boshida O‘zbekistonda asosiy siyosiy turtki o‘zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirishga qaratilgan, qo‘shni davlatlar bilan keng qamrovli munosabatlar o‘rnatish orqali birgalikda rivojlanish maqsad qilingan edi. O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi ilk qadamlarining bosh maqsadi mamlakatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘sha davrda mamlakatlarda ichki vaziyatlari nihoyatda murakkab edi.

Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Osiyo makonida paydo bo‘lgan yangi xalqaro huquq subyektlari bilan albatta muloqotni yo‘lga qo‘yishga intilgan, jumladan O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish bilan mintaqaga mos yangi geosiyosiy strategiyasining bir qismi sifatida maqsad qilgan. Bundan maqsad mintaqaning strategik va energetik ahamiyatini chuqur anglash bilan izohlanadi.

Sobiq Ittifoqning tugatilishi bilan Markaziy Osiyoda bir nechta yangi xalqaro huquq subyektlari paydo bo‘ldi, Mamlakatlar o‘zaro ma’lum bir geosiyosiy bo‘shliq holatida namoyon bo‘lishi sababli, yirik davlatlar o‘z ta’siri bilan u yerlarda muvozanatni jilovlashga intildilar. O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy o‘zaro munosabatlarini o‘rnatish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga intilishi yaxshi imkoniyat edi. Ayniqsa, bu mintaqa doimo qudratli davlatlarning geosiyosiy manfaatlari doirasida bo‘lib kelgan. Mintaqada Amerika, Rossiya va Xitoy o‘rtasida o‘ziga xos kurash ketadi. Strategik

[1] 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan “Mustaqillik deklaratsiyasi” qabul qilindi. https://lex.uz/docs/-185391

joylashuv har bir respublika taraqqiyotiga ham, tanazzuliga ham sabab bo‘lishi mumkin[1].

Shu sababdan XXR, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, hozirda Eron, hamda uzoq Sharqning yana bir qator davlatlari Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar ham Markaziy Osiyodagi yangi mamlakatlarning rivojlanishiga ko‘makdosh bo‘lgan.

Bu jarayonda Pekin mintaqadagi yosh davlatlarining ijobiy va salbiy tajribalarini, shuningdek, O‘zbekiston va XXR manfaatlariga taalluqli bo‘lgan iqtisodiy, xo‘jalik va boshqa masalalarga oid huquqiy asosni takomillashtirib oldilar. Respublikalar endi mustaqil suveren davlat maqomini oldi. Xitoy Xalq Respublikasining imkoniyatlari albatta mintaqada ham, butun dunyoda ham kengaydi. Shuningdek, Xitoyning munosabatlari Rossiya bilan ham barqaror, uzoq muddatli strategik hamkorlikka aylana boshladi. Zamonaviy bosqichda XXR va RF o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning keng qamrovli bo‘lishiga qaramasdan, ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy hamkorlik darajasda emas. Ikki tomonlama aloqalarda RF uchun mamlakatning sharqiy hududlarini Xitoy investitsiyalaridan foydalanib rivojlantirishni, qo‘shma infrastrukturaviy dasturlar va resurs bazasini o‘zlashtirishga bag‘ishlangan hamkorlik muhim ahamiyatga ega[2].

Bu masalalar ayniqsa diplomatlar hamda ekspertlari tomonidan o‘rganildi, so‘ngra esa O‘zbekiston–Xitoy munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida tabiiy ravishda moslashtiriladi. 90-yillarning boshida, xitoylik ekspertlar Markaziy Osiyo mintaqasining sivilizatsion o‘ziga xosligi, uning milliy va dini xususiyatlari haqida jiddiy qiziqish bilan o‘rganishgan. Ular bu xususiyatlardan hamkorlikni rivojlantirishda qanday foydalanish mumkinligi, shuningdek, nimalar Xitoyning mintaqaviy manfaatlari uchun to‘siq yoki hatto real tahdidga aylanishi mumkinligi haqida tahlillar yuritgan edilar.

O‘zbekiston–Xitoy munosabatlari xalqaro huquq doirasida ishlab chiqilgan umumiy tamoyillar asosida qurilgan va aynan shu tamoyillar “yangi” davlatlar juftligining shakllanish poydevoriga aylanadi. Har ikkala davlat ham BMT a’zosi sifatida o‘ziga xos huquq va majburiyatlar majmuasiga ega edi.

Ikkala mamlakat ham avval boshidan umumiy, global ta’sir omillarini globallashuv jarayonining ta’sirlarini, xalqaro hamjamiyatning integratsiyalashuvi, xususan, mintaqaviy integratsiya va mintaqaviylashuv jarayonlarini, shuningdek, dunyoda beqarorlik va mojarolarning o‘sishini inobatga olgan holda muloqotni shakllantirishga intilgan. Shuningdek, ular bu jarayonlarning ta’sirini turlicha darajada boshdan kechirgan. O‘zbekiston uchun mustaqillikning ilk yillardagi mintaqaviy xususiyatlar, tahdid va chaqiriqlar, shuningdek, mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlari milliy xavfsizlik va davlat

[1] Markaziy Osiyo - geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvchi mintaqa. https://www.amerikaovozi.com/a/central-asia-geopolitical-games/3081669.html

[2] Zhang Peng. Shanhay hamkorlik tashkiloti doirasida XXR va RF strategik hamkorligining zamonaviy yo‘nalishlari. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktorligi dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – B.15.

barqarorligi nuqtayi nazaridan Xitoyga qaraganda ancha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ma’lumki, 1990-yillar boshlarida Xitoy iqtisodiy o‘sishning jadal bosqichiga kirib, chuqur islohotlar yo‘lini boshlab yuborgan edi, mamlakat Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lishga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Xitoy uchun global darajadagi integratsiyalashuv, ochiqlik siyosati va islohotlarni amalga oshirish masalalari eng ustuvor yo‘nalishlar deb belgilangan.

Ikkala davlat uchun ham umumiy bo‘lgan asosiy tamoyillar sifatida mamlakatlarning tashqi siyosatiga uchinchi davlatlar aralashuviga tiyish muhim edi.

Xitoy yangi tashkil topgan O‘zbekiston davlatining suverenitetini birinchilardan bo‘lib tan olgan mamlakatlardan biri bo‘ldi. O‘zbekistonda bu qo‘llab-quvvatlash holati juda yuqori baholanadi, unga nisbatan o‘zaro hurmat va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish bilan javob qaytariladi. O‘zbekiston–Xitoy munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida muhim hisoblanadi. O‘zbekiston uchun Xitoy Xalq Respublikasi bilan yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini rivojlantirish eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida yuqori baholanadi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning boshlanish nuqtasi sifatida 1992-yil 2-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma kommyunikeni hamda 1992-yil 13-martdagi Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi Qo‘shma Kommyunike, shuningdek 1994-yil 24-oktabrdagi Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari to‘g‘risidagi Qo‘shma Deklaratsiyani ko‘rsatish mumkin[1].

Mazkur o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishga doir Qo‘shma deklaratsiyaga kiritilgan 15 ta tamoyil ikki tomonlama hamkorlikning butun tizimi keyingi yillarda qurilgan huquqiy poydevorga aylandi.

O‘zbekistonning o‘zining asosiy rivojlanish va taraqqiyot yo‘lini aniq hisobga olgan holda, Qo‘shma deklaratsiyada qayd etilgan oltinchi tamoyil alohida ahamiyatga ega edi. Unda xususan shunday deyiladi:

“6. Tomonlar siyosat, iqtisod, madaniyat, fan, shuningdek savdo, transport, aloqa, ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot, turizm, sport va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlaydilar”[2].

O‘zbekistonning mustaqil yo‘lini boshlayotgan va millatlar hamjamiyatida o‘z o‘rnini izlayotgan davrda Xitoy tarafidan bunday keng qamrovli qo‘llab-quvvatlash juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xitoyning ulkan nufuzi va uning BMT Xavfsizlik

[1] Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari to‘g‘risidagi Qo‘shma Deklaratsiya. https://uz.china-embassy.gov.cn/rus/zwgx/zywj/200406/t20040617_1958795.htm

[2] O‘sha joyda

Kengashining olti doimiy a’zosidan biri sifatidagi xalqaro voqealarga ta’siri ham o‘ta muhim hisoblanadi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning asosini suverenitet va hududiy yaxlitlikka o‘zaro hurmat, tenglik hamda o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga tayanishi bilan harakterli.

Qo‘shma Deklaratsiyaning o‘n birinchi bandida ayniqsa “O‘zbekiston Respublikasi hukumati Xitoy Xalq Respublikasi hukumatini Xitoyning yagona qonuniy hukumati sifatida tan oladi, Tayvan Xitoy hududining ajralmas qismi ekanini e’tirof etadi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati Tayvan bilan hech qanday shaklda rasmiy munosabatlar o‘rnatmasligini tasdiqlaydi”[1] deb qayd etilishi ham katta ishonch ramzi sanaladi.

Экономическое сотрудничество Узбекистана и Российской Федерации во время мирового финансово-экономического кризиса (восстановление и углубление экономического сотрудничества 2008-2016 гг)

ОЙДИН МАННОПОВА

Кандидат политических наук, Директор Академического лицея Университета мировой экономики и дипломатии

ORCID ID: 0009-0003-7881-5381

Аннотация. *Статья посвящена анализу экономического сотрудничества между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией в период 2008–2016 годов. Выделены этапы взаимодействия: уровень сотрудничества, а также кризисный и восстановительный период.*

Рассматриваются двусторонние отношения, которые достигли значительного развития, динамика внешней торговли, инвестиционные проекты и роль России в энергетическом секторе. Мировой финансовый кризис 2008–2009 годов и последующие экономические потрясения в России временно снизили товарооборот, однако инвестиционные проекты, прежде всего в стратегически важных секторах, продолжались, что свидетельствовало о долгосрочной заинтересованности Москвы в сотрудничестве с Ташкентом.

Особое внимание уделяется стратегии диверсификации внешнеэкономических связей Узбекистана и формированию институциональной базы сотрудничества с РФ. Статья делает вывод о многоплановом характере узбекско-российских экономических

[1] Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari to‘g‘risidagi Qo‘shma Deklaratsiya. https://uz.china-embassy.gov.cn/rus/zwgx/zywj/200406/t20040617_1958795.htm

отношений и демонстрирует их зависимость от внутренней и внешней экономической и политической конъюнктуры.

Ключевые слова: *Узбекистан, Российская Федерация, экономическое сотрудничество, внешняя торговля, инвестиции, газовая отрасль, диверсификация, постсоветский период, финансово-экономический кризис, стратегическое партнерство.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi 2008-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy hamkorlik tahlil qilinadi. Maqolada o‘zaro ta’sir bosqichlari: hamkorlik darajasi, shuningdek, inqiroz va tiklanish davrlari yoritilgan.*

Maqolada sezilarli rivojlanishga erishgan ikki tomonlama munosabatlar, tashqi savdo dinamikasi, investitsiya loyihalari va Rossiyaning energetika sohasidagi roli ko‘rib chiqiladi. 2008-2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz va undan keyingi Rossiyadagi iqtisodiy notinchliklar vaqtincha savdo aylanmasini kamaytirdi, ammo investitsiya loyihalari, asosan strategik muhim sohalarda davom etdi, bu Moskvaning Toshkent bilan hamkorlikka uzoq muddatli qiziqishini namoyish etdi.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilish strategiyasiga va Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik uchun institutsional asosni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada O‘zbekiston-Rossiya iqtisodiy munosabatlari ko‘p qirrali ekanligi va ularning ichki va tashqi iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga bog‘liqligini ko‘rsatib berishi haqida xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, iqtisodiy hamkorlik, tashqi savdo, investitsiya, gaz sanoati, diversifikatsiya, postsovet davri, moliyaviy va iqtisodiy inqiroz, strategik sheriklik.*

Abstract.

This article analyzes economic cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Russian Federation from 2008 to 2016. The article highlights the stages of interaction: the level of cooperation, as well as the crisis and recovery periods.

The article examines bilateral relations, which have achieved significant development, the dynamics of foreign trade, investment projects, and Russia's role in the energy sector. The global financial crisis of 2008-2009 and the subsequent economic turmoil in Russia temporarily reduced trade turnover, but investment projects, primarily in strategically important sectors, continued, demonstrating Moscow's long-term interest in cooperation with Tashkent.

Particular attention is paid to the strategy for diversifying Uzbekistan's foreign economic relations and developing an institutional framework for cooperation with the Russian Federation. The article concludes about multifaceted Uzbek-Russian economic relations and demonstrate their dependence on domestic and foreign economic and political conditions.

Keywords: *Uzbekistan, Russian Federation, economic cooperation, foreign trade, investment, gas industry, diversification, post-Soviet period, financial and economic crisis, strategic partnership*

Введение. В экономике выстраивание отношений Узбекистана с Российской Федерацией определялось логикой, основанной на ряде структурных констант и долгосрочных целей развития. Прежде всего, это было

связано с необходимостью смягчения негативных последствий распада единой советской плановой хозяйственно-экономической системы, поскольку решение данной задачи напрямую влияло на внутриполитическую стабильность страны.

Методы

В исследовании, представленном в данной статье, в основном использовались следующие методы: исторический, сравнительный, статистический, систематический анализ, анализ-синтез и изучение документов.

В первую очередь, был использован метод исторического анализа. С помощью этого метода в исторической последовательности были изучены формирование, этапы развития и основные факторы экономического сотрудничества между двумя странами в период глобального финансового кризиса и в последующие годы.

Также был использован сравнительный метод для сопоставления экономических показателей до, во время и после кризиса. Этот метод выявил изменения в товарообороте, объемах экспорта-импорта и инвестиционном сотрудничестве между двумя странами.

Экономическое сотрудничество рассматривалось как целостная система посредством метода систематического анализа. В этом процессе сотрудничество в энергетическом, транспортном, торговом и инвестиционном секторах анализировалось с точки зрения взаимозависимости.

Степень изученности

Вопрос изучения экономического сотрудничества между странами в контексте глобального финансово-экономического кризиса является одним из важных направлений в изучении международных экономических отношений и региональной интеграции. В частности, торгово-экономические отношения, инвестиционное сотрудничество и процессы экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией изучались многими отечественными и зарубежными учеными.

Узбекские ученые, такие как А. Расулов, Б. Эргашев, Дж. Насруллоев, Н. Зикриллаева, Ш. Шодмонов, О. Алимухамедов, в своих научных работах анализировали вопросы внешней экономической политики Узбекистана, международных экономических отношений и торгово-экономического сотрудничества с Россией. Их исследования охватывают развитие товарооборота между двумя странами, структуру экспорта и импорта, сотрудничество в энергетическом, промышленном, транспортном и инвестиционном секторах.

Российские исследователи также уделяли особое внимание вопросу экономических отношений со странами Центральной Азии. В частности, такие

ученые, как С. Притчин, А. Кортунов, В. Парамонов, А. Казанцев, провели научный анализ экономической политики России в Центральной Азии, процессов региональной интеграции и перспектив развития экономического сотрудничества между Россией и Узбекистаном. В своих исследованиях они рассматривали приток российского капитала в экономику Центральной Азии, тенденции в энергетике, промышленном сотрудничестве и торговых отношениях.

Кроме того, ряд зарубежных ученых и международных исследовательских центров анализировали экономические отношения между Узбекистаном и Россией в процессе изучения экономического сотрудничества и интеграционных процессов между странами СНГ. В их научных работах освещались вопросы торговых отношений, инвестиционных потоков и изменений в механизмах экономического сотрудничества между странами в контексте глобального экономического кризиса.

В то же время анализ существующей научной литературы показывает, что, хотя вопросы экономического сотрудничества между Узбекистаном и Россией широко изучены, процессы восстановления и дальнейшего углубления экономического сотрудничества между двумя странами, особенно в период глобального финансово-экономического кризиса 2008–2016 годов, не были всесторонне исследованы. Данная ситуация свидетельствует о научной значимости этой темы и необходимости ее углубленного изучения.

Результаты исследования

Перед независимым Узбекистаном встала задача формирования более сбалансированной структуры национальной экономики, развития новых отраслей и создания предприятий, ориентированных на выпуск продукции с высокой добавленной стоимостью, включая высокотехнологичную. Реализация данной стратегии требовала привлечения иностранных инвестиций, технологий и управленческих компетенций.

Распад СССР и сопутствующие кризисные процессы, затронувшие большинство постсоветских республик, включая Россию, поставили перед Республикой Узбекистан необходимость диверсификации доступа к внешним рынкам, развития собственной системы экспортно-импортных операций и обеспечения выхода к международным морским портам. Это, в свою очередь, актуализировало задачу формирования новых транспортных коридоров через Иран, Южный Кавказ и, в перспективе, Афганистан.

В этом сложном комплексе экономических и стратегических задач Российская Федерация занимала важное, хотя и не единственное место. При этом реализация Узбекистаном политики диверсификации внешнеэкономических связей рассматривалась как необходимое условие для выстраивания новой модели отношений с Москвой в сфере безопасности и

постепенного отхода от прежней модели взаимодействия, условно обозначаемой как «центр — периферия».

С учетом определенных факторов в истории экономического сотрудничества Узбекистана и Российской Федерации в период независимости республики важную роль играет этап мирового финансово-экономического кризиса, восстановление и углубление экономического сотрудничества (2008-2016гг.)

Мировой финансовый кризис 2008–2009 гг. привел к спаду в узбекско-российской торговле – с 4,2 млрд. в 2007 году до 3,8 млрд. в 2008г. Доля России во внешнеторговом обороте Узбекистана снизилась до 20%. [1] Это стало результатом высокой уязвимости российской экономики, которая имела серьезные структурные дисбалансы. Наиболее сильный удар кризис нанес по следующим направлениям и секторам:

1. Девальвация рубля - более 50%
2. Падение фондовых индексов - более 75% (в США - 40%)
3. Дефицит бюджета - 20% по состоянию на декабрь 2008 (самый худший показатель с момента распада СССР)
4. Снижение объемов железнодорожных перевозок – 36% в начале 2009 года
5. Спад производства в металлургической промышленности – более 50%
6. Более 1 млн. новых безработных
7. Резкое сокращение реальных зарплат, рост уровня бедности и разрушение среднего класса.[2]

Благодаря государственной поддержке, особенно предоставлению кредитов крупному бизнесу на рефинансирование внешнего долга, Россия смогла достаточно быстро устранить последствия кризиса. Это в свою очередь позитивно сказалось на росте торгового оборота Узбекистана и РФ. При этом в период восстановления Россия и ее компании стали все больше ориентироваться на проекты с государственным участием и крупные энергетические проекты, требующие крупного капитала и государственной поддержки. Все это позволило резко нарастить двусторонний товарооборот и вновь увеличить долю РФ в общем объеме внешнеторговых операций Узбекистана.

В 2010 г. товарооборот между Узбекистаном и Россией достиг 6,38 млрд. долларов или на 43.4 % выше, чем в 2009 году. По данным Госкомстата РУ, узбекский экспорт в РФ в 2010 году увеличился на 96,76% по сравнению с 2009

[1] https://www.uzdaily.uz/en/uzbek-russian-trade-turnover-makes-up-us38bn-in-2008/?utm_source=chatgpt.com

[2] https://www.wehse.ru/cgi-bin/wpg/wehse_wpg_show_text_print.pl?term1304421001#:~:text=Уже%20за%20первые%20месяцы%20кризиса,%25%20($1%20трлн.).

годом и составил 4,441 долларов. В свою очередь объем импорта из России в Узбекистан снизился с 2,19 млрд. долларов в 2009 году до 1,93 млрд. долларов в 2010 году. Доля России во внешней торговле Узбекистана в 2010 г. составила около 29,2%.[1]

Положительная динамика роста товарооборота сохранилась и в последующие годы при росте узбекского экспорта в РФ и положительном сальдо Узбекистана.

В 2011 году товарооборот составил 6,8 млрд. долларов. Узбекистан экспортировал продукции на 4,405 млрд. долларов и импортировал российских товаров на 2,37 млрд. долларов.[2]

В 2012 году произошел дальнейший рост на 12,6% до 7,63 млрд. долларов. Объем экспорта Узбекистана в Россию составил 5,178 млрд., а импорта - 2,452 млрд. долларов. Доля России в товарообороте республики сохранялась на уровне 29%.[3] В 2013 году двусторонний товарооборот вырос еще на 9,4% и превысил 8,34 млрд. долларов.[4]

Однако, этот рост был прерван в 2014-2015гг. Причиной послужил финансово-экономический и валютный кризис в России, обусловленный падением мировых цен на нефть, введением экономических санкций в связи с аннексией Крыма и вооруженным конфликтом на востоке Украины. Основными последствиями стали резкое ослабление российского рубля, рост инфляции, снижение потребительского спроса и реальных доходов населения, а также экономический спад.

По итогам 2014 года товарооборот РУ и РФ упал, по узбекским данным, до 6,1 млрд. долларов, а по российским – до 4 млрд. долларов. Доля РФ во внешнеторговом обороте Узбекистана снизилась до 21,8%. [5] Негативная тенденция продолжилась в 2015 году. По российским данным, товарооборот уменьшился на 29,02% до 2,84 млрд. долларов. Произошло обрушение узбекского экспорта на 31,2% до 601,7 млн. долларов. Российский экспорт в Узбекистан упал на 28,41% до 2,235 млрд. долларов.[6]

Конституция Республики Узбекистан закрепляет право граждан на поиск, получение и распространение информации, а также на участие в управлении делами государства путём развития общественного контроля над деятельностью государственных органов [7]. В практическом измерении именно через медиа реализуется значительная часть этих норм: регулярные брифинги, пресс-конференции, публикация отчётов и комментариев официальных лиц создают институционализированный каналы обратной связи. Международные рейтинги фиксируют постепенное улучшение положения страны по показателям свободы прессы и цифровых прав, хотя остаются нерешёнными вопросы экономической устойчивости независимых изданий и равного доступа к информации [8; 9; 11]. Одновременно усиливается ожидание общества в отношении прозрачности и подотчётности, что проявляется в росте

[1] 2. Tokarev A.A. Rol' sredstv massovoj informacii v preduprezhdenii prestupnosti [The role of mass media in crime prevention]. Avtoref. diss. kand. jur. nauk. Moscow, 2012. 28 p. (In Russ.)
6. UNESCO. Global Media and Information Literacy Assessment Framework: Country Readiness and Competencies. Paris, UNESCO, 2013. 120 p.
7. Konstitucija Respubliki Uzbekistan (v red. 2023 g.) [Constitution of the Republic of Uzbekistan (as amended in 2023)]. Tashkent, 2023. (In Russ.)
8. Reporters Without Borders. World Press Freedom Index 2022. Available at: https:/rsf.org/en/index (accessed 16.12.2025).
9. Freedom House. Freedom on the Net 2023: Uzbekistan. Washington, DC, Freedom House, 2023. Available at: https:/freedomhouse.org/report/freedom-net/2023/uzbekistan (accessed 16.12.2025).

интереса к расследовательским материалам, критическим публикациям и общественным дискуссиям по вопросам правопорядка и безопасности [12; 13].

Исследования показывают, что высокий уровень информационной открытости и регулярное освещение работы правоохранительных и антикоррупционных органов способствуют росту доверия к ним и готовности граждан сотрудничать [2; 13; 15]. В частности, опросы, проведённые при участии Агентства по противодействию коррупции, демонстрируют, что подавляющее большинство респондентов осуждают практику взяток и значительная часть готовы использовать электронные платформы для сообщений о коррупции, несмотря на сохраняющийся страх возможных последствий [13]. Медиа в этом контексте выполняют роль посредника, объясняя механизмы защиты заявителей и делая видимой неотвратимость наказания.

4. Информационные кампании против экстремизма и терроризма Одним из ключевых направлений взаимодействия медиа и органов безопасности в Узбекистане являются кампании по противодействию идеологическому экстремизму и терроризму. Начиная с середины 2010-х годов в стране реализуются комплексные программы, в рамках которых национальные телеканалы, информационные агентства и интернет-ресурсы выпускают документальные фильмы, ток-шоу и специальные рубрики, посвящённые разъяснению угроз радикальных движений, механизмов вербовки и последствий участия в незаконных вооружённых формированиях [14]. Особенностью этих кампаний является опора не только на репрессивную риторику, но и на элементы реинтеграция: в эфир выводятся бывшие участники экстремистских группировок, представители духовенства, психологи и юристы, которые обсуждают причины вовлечения и пути возвращения к мирной жизни. Такой формат, с одной стороны, позволяет демистифицировать образ боевика, с другой - укрепляет представление о том, что государство комбинирует меры наказания с программами реинтеграции.

Международный опыт показывает, что эффективность подобных кампаний во многом зависит от доверия к источникам информации и от способности медиа избегать стигматизации целых социальных или религиозных групп [6; 17]. В этом отношении узбекская практика демонстрирует постепенный переход от преимущественно запретительных подходов к более сложным стратегиям коммуникации, где акцент делается на профилактику, диалог и укрепление традиционных культурных и духовных ориентиров.

5. Антикоррупционный потенциал медиа Борьба с коррупцией представляет собой важный элемент государственной и общественной безопасности, поскольку системная коррумпированность институтов подрывает доверие к праву и создаёт предпосылки для криминализации целых секторов экономики.

Средства массовой информации в этом контексте выполняют функцию общественного контроля, выявляя коррупционные схемы, освещая резонансные уголовные дела и формируя атмосферу нетерпимости к взяточничеству [2; 11; 12]. Официальные материалы правительственного портала и национальных [1]агентств подчёркивают, что журналистские расследования нередко становятся поводом для возбуждения дел, а также для совершенствования процедур закупок, лицензирования и контроля [12]. Практический вывод состоит в том, что доверие к институтам рождается не из деклараций, а из предсказуемости процедур. Когда медиа могут задавать вопросы, получать своевременные ответы и фиксировать реакцию органов власти на проблемы, у общества появляется ощущение управляемости и справедливости. В противном случае растёт роль неформальных источников информации и слухов, которые в кризисной ситуации способны вытеснить официальную повестку. При этом чрезмерная securitization, то есть превращение любой критики в «угрозу безопасности», может дать обратный эффект. Она ведёт к самоцензуре редакций, снижению качества журналистского контроля и, как следствие, к росту латентных проблем. Для устойчивости важен баланс: безопасность требует ограничения разжигания ненависти и пропаганды насилия, но одновременно требует публичности и конкурентности интерпретаций, иначе деградирует обратная связь. Совместные проекты с участием Центра переподготовки журналистов и международных партнёров усиливают профессиональные компетенции медиа-сообщества в области освещения коррупционной тематики, что позволяет уходить от декларативной риторики к системному анализу причин и механизмов нарушений.Социологические данные подтверждают, что информационные кампании способны изменять поведение граждан. Рост готовности сообщать о фактах коррупции через электронные платформы сочетается с осознанием риска возможного давления, однако открытое освещение истории успешных расследований и защиты заявителей постепенно снижает этот барьер [13; 15]. Тем самым медиа опосредованно укрепляют правоприменение, повышая вероятность обнаружения правонарушений и делая практику наказания более предсказуемой.

[1] 11. Nezavisimost' SMI - zalog sozdaniya sil'nogo grazhdanskogo obshchestva v Uzbekistane [Independence of the media is the key to building a strong civil society in Uzbekistan]. 2024. (In Russ.)
12. Rol' zhurnalistov v bor'be s korrupciej [The role of journalists in combating corruption]. Pravitel'stvennyj portal Respubliki Uzbekistan , UzA, 29.01.2019. (In Russ.)
13. Opros pokazal, chto mnogie uzbekistancy bojatsja soobshchat' o korrupcii [Survey shows that many Uzbeks are afraid to report corruption]. Podrobno.uz, 12.12.2024. (In Russ.)
15. Centr izuchenija obshchestvennogo mnenija «Izhtimoiy Fikr». Obshchestvennoe mnenie naselenija po voprosam pravoporyadka i bezopasnosti [Public opinion on law and order and security]. Tashkent, 2023. (In Russ.)

6. Общественное мнение как индикатор и ресурс безопасности Общественное мнение традиционно рассматривается как совокупность устойчивых оценок и ожиданий граждан в отношении ключевых общественных вопросов [16; 18]. В контексте безопасности оно выступает не только фоном для принятия решений, но и индикатором того, насколько [1] применяемые меры воспринимаются как легитимные и справедливые. Игнорирование этого измерения ведёт к росту недоверия, распространению слухов и формированию альтернативных, нередко конспирологических интерпретаций происходящего.В Узбекистане развивается практика регулярных опросов по вопросам правопорядка, работы правоохранительных органов, уровня коррупции и эффективности государственных программ [15]. Эти данные, хотя и не всегда становятся предметом широкой публичной дискуссии, позволяют органам власти выявлять зоны риска, корректировать приоритеты и оценивать эффект информационных кампаний. Важно, что общественное мнение формируется во взаимодействии с медиа. Рамки, в которых подаются новости о преступности, коррупции или экстремизме, влияют на то, видят ли граждане в происходящем системные проблемы либо отдельные случаи, оценивают ли они действия государства как последовательные или как реактивные и избирательные. Таким образом, средства массовой информации и общественное мнение образуют связку, которая при определённых условиях усиливает устойчивость системы безопасности, а при отсутствии доверия и прозрачности может стать источником нестабильности [3; 5; 16; 17].

Обсуждение

Проведённый анализ показывает, что в современном Узбекистане средства массовой информации и общественное мнение объективно становятся значимыми элементами системы государственной и общественной безопасности. Цифровизация и либерализация медиа-среды расширяют пространство общественной дискуссии и повышают прозрачность действий власти, но одновременно усиливают риски дезинформации, радикализации отдельных групп и криминализации повестки. Двойственный потенциал медиа делает необходимым осознанное регулирование и развитие профессиональных стандартов журналистики, не сводя задачу лишь к формальному контролю.

В сфере противодействия экстремизму и терроризму информационные кампании, строящиеся на сочетании профилактики, разъяснительной работы и

[1] 3. Norris P. A Virtuous Circle: Political Communications in Postindustrial Societies. Cambridge, Cambridge University Press, 2000. 398 p.

5. Napoli P.M. Social Media and the Public Interest: Media Regulation in the Disinformation Age. New York, Columbia University Press, 2019. 256 p.

16. Glynn C.J., Herbst S., O'Keefe G.J., Shapiro R.Y., Lindeman M. Public Opinion. 3rd ed. Boulder, Westview Press, 2015. 420 17. Voltmer K. The Media in Transitional Democracies. Cambridge, Polity Press, 2013. 224 p.

демонстрации реальных последствий участия в радикальных структурах, способствуют формированию устойчивого неприятия экстремистских идеологий.

При этом долгосрочный эффект таких кампаний зависит от уровня доверия к источникам информации и от способности медиа избегать стигматизации уязвимых групп.

Антикоррупционная повестка в медиа усиливает общественный контроль, формирует нетерпимость к взяточничеству и стимулирует граждан к использованию официальных каналов сообщений о правонарушениях. Открытость информации о расследованиях и мерах ответственности повышает предсказуемость правоприменения и укрепляет доверие к институтам, что непосредственно связано с устойчивостью системы безопасности.

Общественное мнение в этих процессах выполняет роль лакмусовой бумаги эффективности реформ. Регулярные опросы и анализ медиа настроений позволяют выявлять зоны напряжения и своевременно корректировать политику. Однако этот потенциал реализуется только при наличии реальных механизмов учёта мнений граждан, а не при формальной отчётности.

В результате можно зафиксировать несколько ключевых условий, при которых средства массовой информации и общественное мнение становятся ресурсом, а не уязвимостью безопасности. К ним относятся предсказуемая правовая среда, закрепляющая свободу слова и ответственность за разжигание ненависти; институциональная и экономическая независимость редакций; развитие медиа грамотности населения; открытость органов власти к диалогу и обратной связи; а также регулярное использование результатов социологических исследований при планировании и оценке мер безопасности. При последовательном укреплении этих элементов медиапространство и настроения граждан способны выполнять функцию раннего предупреждения, профилактики риска и общественного контроля, дополняя деятельность традиционных силовых структур и повышая общую устойчивость узбекского общества к внутренним и внешним угрозам.

В совокупности результаты уточняют границы допустимого в регулировании медиасферы. Жёсткость правил сама по себе не гарантирует устойчивости, если она разрушает конкуренцию интерпретаций и исключает общественный контроль. Напротив, предсказуемые правила, прозрачные процедуры реагирования на нарушения и профессиональные стандарты подачи создают эффект самоограничения, когда значительная часть рисков нейтрализуется внутри медиасообщества и аудитории без постоянного административного вмешательства.

Издержки неверного выбора здесь вполне материальны. Если упор делается только на контроль, растёт латентная напряжённость, а критика уходит в

неформальные каналы, где она радикализуется. Если упор делается только на либерализацию без стандартов и медиаграмотности, усиливаются манипуляции, слухи и конспирологические версии. Оптимальная траектория лежит в институционализации обратной связи: регулярные разъяснения решений, публичные отчёты по итогам резонансных расследований, защита заявителей и развитие медиаграмотности как базовой компетенции граждан.

Ограничения исследования связаны с тем, что значительная часть эмпирики опирается на вторичные данные и публичные материалы, что накладывает предел на точность причинных выводов. Перспективным направлением дальнейшей работы является расширение корпуса медиаконтента с фиксированным периодом наблюдения, а также анализ сетевой динамики распространения слухов в цифровых платформах с привязкой к событиям и реакциям институтов. Такой шаг позволил бы измерять не только содержание сообщений, но и скорость их распространения, а также эффективность официальных опровержений и разъяснений.

Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlar foaliyati takomillashtirish mexanizmlari

SHAXLO MURZAYEVA
O‘qituvchi., Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlarning shakllanishi, institutsional rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni chuqur ilmiy tahlil etilgan. Maqolada muallif mazkur markazlar ko‘p millatli jamiyat sharoitida etnik rang-baranglikni boshqarish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, umumfuqarolik birdamligini shakllantirish uchun xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida talqin qilgan. Qiyosiy-siyosiy va tarixiy-institutsional yondashuvlarga asoslanib, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi milliy-madaniy markazlar faoliyati o‘rganilib, ularning huquqiy asoslari, tashkiliy salohiyati va amaliy vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada milliy-madaniy markazlar o‘rtasidagi mintaqaviy va chegaralararo hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmagani asosiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida muallif “Nodavlat notijorat tashkilot + milliy-madaniy markaz” hamkorlik modelini va mintaqaviy raqamli madaniyat platformasini joriy etish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Mazkur yondashuvlar Markaziy Osiyoda barqaror ijtimoiy integratsiya va madaniy diplomatiyani rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.*

Kalit so‘zlar: *milliy madaniy markazlar, millatlararo munosabatlar, institutsional salohiyat, madaniy siyosat, fuqarolik jamiyati, madaniy diplomatiya, Markaziy Osiyo,*

mintaqaviy hamkorlik, "NNT+ MMM" hamkorligi, siyosiy barqarorlik va "pastdan yuqoriga" integratsiya jarayoni.

Аннотация. *В данной статье представлен глубокий научный анализ формирования, институционального развития и роли национально-культурных центров, действующих в странах Центральной Азии, в обеспечении общественно-политической стабильности. Автор интерпретирует эти центры как важные социальные институты, которые служат для управления этническим разнообразием, укрепления межнационального согласия и развития гражданского единства в контексте многонационального общества. На основе сравнительного политического и историко-институционального подходов была рассмотрена деятельность национально-культурных центров в Узбекистане, Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане и Туркменистане, проанализированы их правовые основы, организационная способность и практические функции. В статье также подчеркивается недостаточное развитие регионального и трансграничного сотрудничества между национально-культурными центрами как одной из основных проблем. Для решения данной проблемы автор приводит научное обоснование реализации модели сотрудничества "ННО + национально-культурный центр" и внедрения региональной цифровой культурной платформы. Эти подходы важны тем, что способствуют развитию устойчивой социальной интеграции и культурной дипломатии в Центральной Азии.*

Ключевые слова: *национальные культурные центры, межнациональные отношения, институциональный потенциал, культурная политика, гражданское общество, культурная дипломатия, Центральная Азия, региональное сотрудничество, сотрудничество "НПО+НСК", политическая стабильность и интеграционный процесс "снизу вверх".*

Abstract. *This article provides an in-depth scientific analysis of the formation, institutional development, and role of national-cultural centers operating in Central Asian countries in ensuring socio-political stability. The author interprets these centers as important social institutions that serve to manage ethnic diversity, strengthen interethnic harmony, and foster civic unity in the context of a multinational society. Based on comparative political and historical-institutional approaches, the activities of national-cultural centers in Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan were examined, and their legal foundations, organizational capacity, and practical functions were analyzed. The article also highlights the insufficient development of regional and cross-border cooperation between national-cultural centers as one of the main challenges. To address this issue, the author provides a scientific rationale for implementing a cooperation model of "Non-governmental non-profit organization + national-cultural center" and introducing a regional digital culture platform. These approaches are significant as they contribute to the development of sustainable social integration and cultural diplomacy in Central Asia.*

Keywords: *national cultural centers, interethnic relations, institutional capacity, cultural policy, civil society, cultural diplomacy, Central Asia, regional cooperation, "NGO+NCC" cooperation, political stability and "bottom-up" integration process.*

KIRISH. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy rivojlanish jarayonida turli etnik guruhlar, tillar va madaniy an’analar kesishgan ko‘p millatli ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllangan. Ushbu hududda yuzaga kelgan etnik xilma-xillik mintaqaning sivilizatsion boyligini ifodalash bilan birga, davlat boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash jarayonida muayyan institutsional yondashuvlarni talab etadi. Shu jihatdan, ko‘p millatli jamiyat sharoitida tinchlik va barqarorlikni ta’minlash masalasi faqat siyosiy-huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-madaniy asoslarini mustahkamlash orqali hal etilishi lozim bo‘lgan kompleks jarayon hisoblanadi. Fransuz olimi M.Laruellening ta’kidlashicha, etnik xilma-xillikka ega jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik darajasi ko‘p jihatdan etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va konstruktiv muloqotning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi[1]. Aynan shu jarayonda milliy-madaniy markazlar ijtimoiy integratsiya va madaniy vositachilik instituti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bir tomondan, etnik guruhlarning madaniy o‘zligini, tilini va an’analarini saqlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, umumfuqarolik birdamligini kuchaytirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy nizolarning oldini olishda muhim funksional vazifani bajaradi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar milliy-madaniy markazlarni faqat folklor va madaniy tadbirlarni tashkil etuvchi tuzilma sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi institutsional mexanizm sifatida talqin etishni talab etmoqda. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlarida ushbu markazlar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish masalasi kun tartibidagi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda[2]. Bu jarayon ularning tashkiliy salohiyatini oshirish, normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik mexanizmlarini kengaytirishni taqozo etadi. Shunday ekan, Markaziy Osiyoda milliy-madaniy markazlar faoliyatini ilmiy asoslangan holda rivojlantirish etnik xilma-xillikni ijtimoiy barqarorlik manbaiga aylantirish, millatlararo munosabatlarda barqaror muhitni shakllantirish hamda mintaqaning uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kungacha ko‘plab siyosatshunos tadqiqotchilar, olimlar Markaziy Osiyo davlatlarida mavjud. Jumladan, Qizg‘izistonda milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish borasida “Qirg‘iziston Respublikasida xalq birligi va millatlararo munosabatlarni mustahkamlash konsepsiya”sida Qizg‘iziston milliy-madaniy markazlarining shakllanishi, rivojlanish dinamikasi va milliy-madaniy markazlar faoliyatini yuqoro bosqichga olib chiqish borasida qator yo‘nalishlar ketirib o‘tilgan.

[1] Laruelle, M. *Managing nationalism: Political identities and memory wars in Central Asia*. London: Routledge. 2017. –P.89.

[2] Putnam, R. D. E Pluribus Unum: Diversity and Community. *Scandinavian Political Studies*, 30(2), 2025. –P.154.

Qozog‘iston Respublikasida olima A.Sh. Dosbenbetova o‘zining “Millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi” maqolasida milliy-madaniy markazlar madaniy diplomatiyani amalga oshiruvchi, qozoq madaniyatini saqalashga intiluvchi muhim tashkilotlar sifatida baholagan. S.K. Kentbek, A.Z. Jumanova, T.K. Sakabai kabi olimlar o‘zlarining “XX va XXI asrlar bo‘sag‘asida Markaziy Qozog‘istonning milliy madaniy markazlari” nomli maqolalarida Qozog‘istonda milliy madaniy markazlarning shakllanish xususiyatlari va ularning zamonaviy qozoq jamiyatida, madaniy jarayonlar va millatlararo totuvlikni shakllantirishdagi roli aholida tadqiq etilgan. Shuningdek, A.Z. Zhumanova, T.K. Sakabai, Zh.A. Karsubaevalarning “XXI bo‘sag‘asida Markaziy Qozog‘iston milliy madaniy markazlarining asosiy faoliyati tahlili” mavzusidagi maqolasida bugungi kungacha davr mobaynida, Qozog‘istonga tegishli bo‘lgan milliy-madaniy markazlarning faoliyati qiyosiy tahlili, ular faoliyatiga xos xususiyatlarini alohida tahlil qilgan. Shu o‘rinda, Qozog‘iston Respublikasining “Etno-madaniy ta’lim konsepsiya”sida “Qozog‘istonning o‘ziga xosligi aholining ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali tarkibi bilan belgilanib, milliy madaniy markazlar faoliyati tubdan yaxshilash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida siyosatshunos olim Sh. Sharipov “O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirilishi” nomli maqolasida O‘zbekistonda mavjud milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritishi, tashkil etilishi borasida barcha huquqiy normativ asoslarni tahlil qilib, bir qator qonun loyihalari va tashabbuslarni ilgari surgan. Tadqiqotchi E. Abdullayeva o‘zining “O‘zbekistondagi milliy madaniy markazlarning ahamiyati” maqolasi xalqlarning milliy madaniy yodgorliklari aslab-avaylash, milliy qadriyatlarni saqlab qolish kabi masalalarda ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqqan. Taniqli olim V. G. Iofening “Mustaqil O‘zbekistonda turkiy xalqlarning milliy-madaniy markazlari va ularning O‘zbekiston Respublikasi ma’naviy hayotidagi o‘rni” maqolasida turkiy xalqlarga tegishli milliy-madaniy markazlar faoliyatini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni, zamonaviy texnologik imkoniyatlardan ushbu tashkilotlar faoliyatida qo‘llash kabi masalalarni alohida tahlil qilgan. Olima Nigora Ochilovaning “O‘zbekiston milliy-madaniy markazlarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni” nomli tadqiqotida O‘zbekistonda mavjud millat va elatlar o‘rtasidagi munosabatlarni bir muvozanatda ushlab turish uchun milliy-madaniy markazlar faoliyatini yaxshilash kerakligi alohida ta’kidlanadi.

Tojikistonda “Tojikiston davlat qurilishi jarayonida milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi” nomli tadqiqot ishida tojik xalqining milliy urf-odatlari, mentalitetini saqlab qolishda milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Olim M. Babajanovaning “Tojikistonning madaniy merosi va fuqarolik o‘zligining shakllanishi” maqolasida mustaqillik yillarida Tojikistonda milliy

identetlik masalasi eng kam tadqiq etilgan soha ekanligi ta’kidlab, milliy markazlar faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish kerakligi bayon qiladi.

Turkmanistonda Nargiza M.Seytimbetova “Qoraqalpog‘iston Respublikasi turkman milliy madaniy markazlari” mavzusidagi maqolasida turkman milliy-madaniy markazining O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyati, turkman xalqi milliy urf-odatlarini mustahkamlashga intilishi kabilarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birga, Turkman madaniyat siyosatiga doir davlat strategiyasida turkman milliy-madaniy markazlarini integratsiyalashtirish va optimallashtirish vazifasi ustuvor o‘ringa qo‘yilgan. Ushbu maqola Markaziy Osiyoda mavjud milliy madaniy markazlar o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yish, mintaqaviy integratsiya yo‘lida birgalikda hamkorlik qilishi, va ularni takomillashtirish borasida samarador mexanizmlar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT USULLARI. Ushbu maqolada muallif turli tadqiqot usullaridan foydalangan holda Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilgan. Xususan, Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlarning qaror topishi, huquqiy asoslari, rivojlanishi va institutsionallashuvini o‘rganishda tarixiy metod, tarixiy institutsionalizm, kontent-tahlil va event tahlil kabi tahliliy yondashuvlardan foydalanilgan. Shuningdek, muallif Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilishda qiyosiy-siyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy-madaniy markazlarning paydo bo‘lishi sovet davrining so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda sotsialistik g‘oyalar doirasida etnik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor kuchaygan edi. Bunday markazlar asosan 1990-yillarning boshida, Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida turli etnik guruhlar orasida madaniy o‘zligini namoyon etish ehtiyoji kuchaygan paytda tashkil etildi[1]. Ular turli jamoalarning tillari, urf-odatlari va san’atini qo‘llab-quvvatlash, madaniy merosni saqlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun faoliyat yuritdi. Bu markazlarning tashkil etilishi siyosatdagi muhim o‘zgarish hisoblanadi. Natijada, milliy-madaniy markazlar turli etnik guruhlar o‘rtasida muloqot va o‘zaro tushunishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Ular nafaqat madaniy markaz sifatida, balki qo‘shma tadbirlar va faoliyatlar orqali munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida ham xizmat qildi.

Milliy-madaniy markazlar o‘zining institutsional shakllangan, tizimli va ko‘p qirrali faoliyati orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning madaniy o‘ziga xosligini saqlash, rivojlantirish va avloddan avlodga yetkazishda fuqarolik jamiyatining muhim institutlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu markazlar milliy madaniyat, ma’naviy meros, til, urf-odat va an’analarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali etnik guruhlarning

[1] N. Nurullayeva. The role of national-cultural centers in strengthening interethnic relations in Uzbekistan. Journal of Social sciences and Humanities. Volume 3, Issue 4, 2025. –P.52.

ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish va madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi[1].

Shuningdek, milliy-madaniy markazlar ixtiyoriylik, shaffoflik va inklyuzivlik tamoyillari asosida faoliyat yuritib, ko‘p millatli jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida ish olib bormoqda. Natijada ushbu institutlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlash va umumiy fuqarolik o‘zligini shakllantirish jarayonida muhim rol o‘ynashini amalda isbotlamoqda.

O‘zbekiston. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy madaniy markazlarga yaratib berilgan imkoniyatlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning barcha millat va elatlarning teng huquqliligini ta’minlashga bo‘lgan sadoqatini tasdiqlaydi. Shuningdek, “Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorlar to‘plami respublika hududida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatiga yo‘l qo‘yish, ularga teng institutsional imkoniyatlar yaratib berish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakatda millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p millatli jamiyat modelini shakllantirish, etnik guruhlarning madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qonuniy fuqarolik institutlari sifatida milliy-madaniy markazlarni rivojlantirishni belgilab kelmoqda.

UNDP statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ular orqali 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tili, madaniyati, urf-odat va an’analari saqlanib, rivojlantirilmoqda[2]. Ushbu markazlar davlat ro‘yxatidan o‘tgan nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida ta’lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, xalq diplomatiyasi va yoshlar bilan ishlash sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar. Xususan, milliy tillarda gazeta va jurnallar chop etilishi, radio va teleko‘rsatuvlar tayyorlanishi, umumxalq va madaniyat bayramlarining o‘tkazilishi bu muassasalarning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Qozog‘iston. Qozog‘iston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘zini ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli davlat sifatida rivojlantirishni strategik ustuvor yo‘nalish

[1] M. Turayeva. Tolerance on the example of national and cultural centers in Uzbekistan. International journal of History and Political sciences. Volume 2, issue 6. 2022. –P.7.

[2] UNDP. (2020). Human Development Report: Uzbekistan – Social Cohesion and Ethnic Diversity. New York. –P.23.

qilib belgiladi. Mamlakatda milliy-madaniy markazlar faoliyatiga ruxsat berish, ularning huquqiy maqomi va teng institutsional imkoniyatlarini ta’minlash millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu institutlar etnoslarning tili, madaniyati, tarixiy xotirasi va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan qonuniy fuqarolik jamiyati tashkilotlari sifatida shakllanib bo‘ldi.

Hozirgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda Qozog‘istonda 800 dan ortiq etnomadaniy birlashma va milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda[1]. Ular mamlakatda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning manfaatlarini ifoda etadi. Ushbu markazlar ta’lim, madaniyat, san’at, ommaviy axborot vositalari, yoshlar siyosati va xalq diplomatiyasi sohalarida faoliyat olib borib, jamiyatning ajralmas boyligi sifatida etnik xilma-xillikni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda. Xususan, milliy tillarda faoliyat ko‘rsatayotgan yakshanba maktablari, folklor jamoalari, madaniy festival va bayramlar, shuningdek, etnik media loyihalari ushbu muassasalarning amaliy samaradorligini namoyon etmoqda[2].

Qozog‘istonda milliy-madaniy markazlar faoliyati alohida institutsional mexanizm - Qozog‘iston xalqlari assambleyasi orqali muvofiqlashtirilib kelinmoqda. 1995-yilda tashkil etilgan ushbu tuzilma milliy-madaniy markazlarni yagona platformada birlashtirdi va davlat hamda etnik jamoalar o‘rtasidagi muloqotning barqaror forumini yaratdi. Assambleya nafaqat maslahat organi, balki millatlararo siyosatni amalga oshirishda me’yoriy, tashkiliy va g‘oyaviy vazifalarni bajaruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritadi[3]. Uning parlamentdagi kvota asosidagi vakilligi milliy-madaniy markazlarning siyosiy jarayonlardagi institutsional ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarning huquqiy asoslari Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda “Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi” keltirilgan va mustahkamlangan.

Qirg‘iziston. Qirg‘iz Respublikasi tarixan ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyat sifatida rivojlanib kelgan bo‘lib, mustaqillikdan keyingi davrda millatlararo totuvlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda milliy-madaniy markazlarning tashkil etilishi, ularning huquqiy maqomining belgilanishi va teng institutsional imkoniyatlarning yaratilishi

[1] The Assembly of People of Kazakhstan. // Electron resource: https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-berlin/press/article/details/12279

[2] T. Alexandrov. Ethno-cultural associations in Kazakhstan: The Soviet footprint and resources for civil society. Cambridge Journal of Eurasian studies. 2018. –P. 55.

[3] A.Z. Zhumanova, T.K. Sakabai, Zh.A. Karsybaeva. The main activities of the national cultural centers of the Central Kazakhstan at a boundary of XX-of the 21st centuries. История. Философия». № 1(93), 2019. –P.60.

millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish uchun muhim mexanizm bo‘ldi[1]. Ushbu institutlar mamlakatda istiqomat qiluvchi etnik guruhlarning madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan birga fuqarolik birligini mustahkamlashga qaratilgan.

Hozirgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Qirg‘izistonda 80 dan ortiq millat va elat vakillarining tili, madaniyati va an’analarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 30 dan ortiq milliy-madaniy markaz va etnik birlashma faoliyat yuritmoqda[2]. Ushbu markazlar asosan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ta’lim, madaniyat, folklor, ommaviy tadbirlar, yoshlar bilan ishlash va jamoatchilik bilan muloqot sohalarida faoliyat olib boradi. Milliy tillarda yakshanba maktablarining tashkil etilishi, madaniy bayramlar va an’anaviy tantanalarning o‘tkazilishi, shuningdek, etnik jamoalarning madaniy merosini targ‘ib qiluvchi tadbirlarning uyushtirilishi ushbu muassasalarning amaliy samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Qirg‘izistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatini davlat muvofiqlashtiradi, bu jarayonda Qirg‘iziston xalqlari assambleyasi muhim rol o‘ynaydi[3]. Ushbu institut milliy-madaniy markazlar va etnik jamoalarni yagona muloqot maydonida birlashtiradi hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Assambleya doirasida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni asrash va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish maqsadida turli dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Millatlararo munosabatlar va etnik siyosat konsepsiya”si millatlararo munosabatlar va milliy madaniy markazlar faoliyatini qomumiy himoya qiladi.

Tojikiston. Tojikiston Respublikasi tarixan ko‘p millatli jamiyat sifatida shakllangan. Hozirgi rasmiy va xalqaro hisobotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Tojikistonda o‘nlab milliy-madaniy markazlar va etnik jamoalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tashkilotlar mamlakatda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning tillari, madaniyatlari, urf-odatlari va an’analarini saqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu markazlar asosan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi va madaniy tadbirlar, folklor ansambllari, milliy bayramlarni nishonlash, til o‘rganish kurslari va yoshlar loyihalari orqali etnik guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

---

[1] Naralieva, D., Bikbulatova, S., Kim, N., Bikbulatova, A., & Karyeva, A. Multicultural Society of Kyrgyzstan: Analysis of the Legal Aspects … International Journal on Culture, History, and Religion, 7(1), 2025. –P.475.

[2] The Eurasian Peoples’ Assembly and the Assembly of the Peoples of Kyrgyzstan signed a Cooperation Agreement. // Electron resource: https://eurasia-assembly.org/en/news/eurasian-peoples-assembly-and-assembly-peoples-kyrgyzstan-signed-cooperation-agreement

[3] Chotayeva.Ch. Multiculturalism of Bishkek city: ethnicity and language in Soviet and post-Soviet times. “Linguistics and Literary Studies”. 2019. –P.77.

Milliy-madaniy markazlarning ahamiyati shundaki, ular nafaqat madaniy merosni asrash, balki millatlararo muloqotni mustahkamlash, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan etnik nizolarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining vositachilari sifatida davlat va etnik jamoalar o‘rtasida muloqot maydonini yaratadi va inklyuziv fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirishga hissa qo‘shadi [1] . Ayniqsa, fuqarolar urushidan keyingi ijtimoiy tiklanish jarayonida madaniy xilma-xillikni tan olish va uni institutlar orqali boshqarish Tojikistonda barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘ldi. Qiziqarli jihati shundaki, Tojikistonda faqatgina “Madaniyat to‘g‘risidagi” qonunda etnik-madaniy markazlar faoliyati borasida huquqiy-normativ jihatlari haqida keltirilgan.

Turkmaniston. Turkmanistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi muhim xususiyatlardan biri - mamlakatda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik va fuqarolar birdamligini ta’minlashga qaratilgan izchil va markazlashgan davlat siyosatining amalga oshirilishidir. Ushbu siyosat jamiyatning etnik, madaniy va diniy xilma-xilligini barqarorlik manbai sifatida boshqarish tamoyiliga asoslanib, millatlararo munosabatlarni institutsional tartibga solishni ko‘zda tutadi. Ko‘p millatli jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash va uzoq muddatli ijtimoiy integratsiyani ta’minlash davlatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy madaniy markazlar muhim ijtimoiy-institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy madaniy markazlar Turkmanistonda yashayotgan turli millat va elatlarning madaniy, lisoniy va an’anaviy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan maxsus muassasalardir. Ushbu markazlar etnik o‘ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirishdan tashqari, bu guruhlarni milliy qadriyatlar asosida jamiyatga uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur institutlar etnik va fuqarolik o‘ziga xosliklari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi mexanizmlar sifatida talqin etiladi. Milliy madaniy markazlar orqali etnik guruhlar o‘z madaniy xususiyatlarini saqlab qolgan holda umumiy siyosiy, huquqiy va madaniy makonga qo‘shiladilar. Bunday yondashuv assimilyatsiya yoki ajralish xavfini kamaytiradi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga ko‘maklashadi[2]. Xususan, madaniy tadbirlar o‘tkazish, til va urf-odatlarni targ‘ib qilish, milliy bayramlarni nishonlash orqali turli etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirish millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, “Millatlar

[1] Faucher, C. *Minority rights and cultural policy in post-conflict Tajikistan. Central Asian Survey*, 34(2), 2024. –P. 228.

[2] Ksenia G. Muratshina. Cultural Exchanges between Russia and Turkmenistan: Structure, Dynamics, and Defining Features. Changing Societies & Personalities, Vol. 4, No. 4, 2020. – P.512.

o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida”gi Turkmaniston qonunida milliy madaniy markazlarni muvofiqlashtirish borasida alohida bandlar keltirilgan.

Shu o‘rinda, Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlardagi muammo va kamchilikni alohida tahlil qilish muhim hisoblandi. Markaziy Osiyo davlatlarida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar o‘rtasida mintaqaviy va chegaralararo hamkorlikning institutsionallashgan tarmog‘i yo‘qligi ularning samaradorligini cheklovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda milliy madaniy markazlar asosan milliy siyosiy va huquqiy doiralarda ish olib bormoqda hamda qo‘shni mamlakatlardagi o‘xshash madaniy muassasalar bilan barqaror, tizimli va rasmiy hamkorlik mexanizmlariga ega emas. Ushbu vaziyatni nazariy jihatdan tahlil qilganda, Amitav Acharya tomonidan taklif etilgan mintaqaviy institutsionalizm tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, mintaqaviy o‘ziga xoslik va hamkorlik nafaqat rasmiy davlatlararo institutlar, balki norasmiy va yarim rasmiy madaniy tashkilotlar, jumladan, madaniyat markazlari, jamoat platformalari va fuqarolik jamiyati tarmoqlari orqali ham shakllanadi[1]. Acharya ta’kidlaydiki, bunday institutlar mintaqada ishonch muhitini mustahkamlash, umumiy tarixiy xotira va madaniy kodlarni qayta tiklash, hamda “pastdan yuqoriga” integratsiya jarayonlarini rag‘batlantirish borasida muhim rol o‘ynaydi[2].

Biroq, Markaziy Osiyo sharoitida bu amaliy imkoniyatlar amalda to‘liq ro‘yobga chiqmayapti. Milliy madaniy markazlar faoliyati ko‘pincha milliy madaniy siyosatning ichki qismi bo‘lib qolmoqda va ularning chegaralararo tashabbuslari yakka tartibda hamda vaqti-vaqti bilan amalga oshirilmoqda. Natijada, madaniyatlararo muloqot institutsional darajaga ko‘tarilmay, asosan norasmiy aloqalar yoki alohida tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Shu sababli, milliy madaniy markazlar o‘rtasida mintaqaviy darajada muvofiqlashtirilgan platformalarning mavjud emasligi Markaziy Osiyoda umumiy mintaqaviy madaniy makon va umumiy madaniy o‘ziga xoslikni shakllantirish jarayonini sekinlashtirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqada uzoq muddatli ijtimoiy integratsiya, madaniy diplomatiya va millatlararo ishonchni mustahkamlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, quyidagi samarador mexanizmlarni ilgari surish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridagi milliy-madaniy markazlarning institutsional samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini oshirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitlarda milliy-madaniy markazlar faqatgina etnik an’analar va madaniy merosni saqlash hamda targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar sifatida emas, balki ijtimoiy hamjihatlik, madaniyatlararo muloqot va inklyuziv rivojlanishga hissa qo‘sha oladigan fuqarolik jamiyati tizimining faol tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan,

[1] Acharya, A. After liberal hegemony: The advent of a multiplex world order. Ethics & International Affairs, 31(3), 2017. –P.275.

[2] Acharya, A. The end of American world order. Cambridge: Polity Press. 2014. –P.91.

“NNT + milliy-madaniy markaz” tizimli hamkorlik mexanizmini joriy etish Markaziy Osiyoda milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan va institutsional jihatdan samarali yondashuvi hisoblanadi.

Ushbu mexanizmning nazariy asosi neoinstitutsional nazariya va ijtimoiy kapital tushunchasiga tayanadi. Neoinstitutsional yondashuvlarga ko‘ra, milliy-madaniy markazlarning samaradorligi nafaqat ularning ichki tashkiliy salohiyati, balki ular faoliyat yuritayotgan keng qamrovli huquqiy, me’yoriy va institutsional muhit bilan ham belgilanadi. Ularning davlat institutlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa sub’yektlari bilan o‘zaro hamkorligi ularning moslashuvchanlik, innovatsion faoliyat va barqarorlik qobiliyatini belgilaydi. Ijtimoiy kapital nazariyasi esa nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikning ko‘p madaniyatli jamiyatlarda ishonch tarmoqlari, gorizontal aloqalar va jamoaviy harakat qobiliyatini qanday oshirishini tushuntiradi[1]. Shu jihatdan, “NNT + milliy-madaniy markaz” modeli institutsional izolyatsiyani bartaraf etish va milliy-madaniy markazlarni keng fuqarolik tarmoqlariga integratsiyalashning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ushbu hamkorlik doirasida milliy-madaniy markazlarning madaniy faoliyati ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, fuqarolik tashabbuslari va himoya amaliyotlari bilan uzviy bog‘lanadi. Nodavlat tashkilotlar loyihalarni boshqarish, mablag‘ jalb qilish, grantlar olish, monitoring va baholash bo‘yicha to‘plangan tajribaga ega bo‘lib, bu milliy-madaniy markazlarning tashkiliy barqarorligini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Natijada milliy-madaniy markazlar ramziy madaniyat sub’yektlari rolidan chiqib, ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo muloqot, yoshlar va ayollar ishtiroki, bag‘rikenglikni targ‘ib qilish masalalarini hal etishga qodir ijtimoiy faol institutlarga aylanadi.

“NNT + milliy-madaniy markaz” hamkorlik mexanizmining muhim jihati uning davlat va turli etnik jamoalar o‘rtasidagi muloqotni institutsionallashtirish qobiliyatidadir. Birgalikda harakat qiluvchi milliy-madaniy markazlar va NNTlar etnik guruhlarning ijtimoiy-madaniy manfaatlarini uyushgan va konstruktiv tarzda ifoda etuvchi vositachi institutlar vazifasini bajaradi. Bu ehtimoliy ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga, inklyuziv siyosatni ishlab chiqishga va ishtirokchilikka asoslangan boshqaruvni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday yondashuvlar Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy asoslarda aks ettirilgan etnik xilma-xillik va ijtimoiy birdamlikni boshqarish bo‘yicha xalqaro ilg‘or tajribalarga mos keladi[2].

Shuningdek, “NNT + milliy-madaniy markaz” hamkorlik modeli madaniy diplomatiya va xalq diplomatiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy-madaniy

[1] Scott, W. R. (2024). Institutions and organizations: Ideas, interests, and identities (4th ed.). SAGE Publications. –P.56.

[2] OSCE High Commissioner on National Minorities. (2025). The Ljubljana guidelines on integration of diverse societies. OSCE. // Electron resource: https://hcnm.osce.org/hcnm/107875

markazlarning NNTlar orqali mintaqaviy va transchegaraviy loyihalarda ishtirok etishi Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, umumiy mintaqaviy identitetni shakllantirish hamda barqaror hamkorlik muhitini yaratishga zamin yaratadi. Bu holat madaniyatni ijtimoiy rivojlanishning muhim resursi sifatida talqin qiluvchi UNESCO konseptual yondashuvlari bilan hamohangdir[1].

Yuqoridagi mexanizm bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining milliy-madaniy markazlari o‘rtasidagi hamkorlik platformasini joriy etish, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining hozirgi bosqichida ijtimoiy-madaniy omilning institutsional ahamiyatini oshirishning muhim mexanizmi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu tashabbus mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar doirasida, balki jamiyatlararo, madaniy va o‘ziga xoslik darajasida ham mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuvni ifodalaydi.

Fikrimizcha, platformaning muhim funksiyalaridan biri konseptual va institutsional darajalarda madaniy kodlarni saqlash va uzatish mexanizmini yaratishdir. Har bir milliy-madaniy markaz platforma orqali o‘ziga xos madaniy kodlar - til, urf-odatlar, marosimlar, tarixiy xotira, an’anaviy san’at va zamonaviy madaniy ifodalarni taqdim etar ekan, bu jarayon mintaqadagi madaniy xilma-xillikni tan olish va qonuniylashtirish vazifasini bajaradi. Natijada, etnomadaniy xilma-xillik potensial ijtimoiy ziddiyat manbai sifatida emas, balki mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash resursi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu raqamli platforma fuqarolarning madaniy ishtirokini kengaytirishga qaratilgan samarali vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Platforma orqali mintaqa aholisi madaniy tadbirlar, festival va ko‘rgazmalar, ilmiy-ma’rifiy uchrashuvlar, ta’lim dasturlari haqida doimiy, ochiq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladi[2]. Bu madaniyatni passiv iste’mol sohasidan faol ijtimoiy muloqot va ishtirok maydoniga aylantiradi.

Platformaning yana bir muhim ilmiy jihati uning mintaqaviy ijtimoiy kapitalni shakllantirish va mustahkamlashdagi roli bilan bog‘liq. Milliy-madaniy markazlar o‘rtasida doimiy raqamli aloqalarning o‘rnatilishi o‘zaro ishonch, madaniy yaqinlik va institutsional hamkorlikni kuchaytiradi. Bu Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining nafaqat davlatlararo, balki jamiyatlararo darajada ham chuqurlashuviga asos yaratadi. Platforma, shuningdek, tadqiqot va tahliliy faoliyat uchun muhim axborot bazasiga aylanishi mumkin. Raqamli madaniy ma’lumotlar asosida qiyosiy madaniy tadqiqotlar, etnosiyosiy tahlil, madaniy siyosat samaradorligini baholash, mintaqaviy o‘ziga xoslikning o‘zgarishini o‘rganish

[1] UNESCO. (2024). Cultural diversity and sustainable development. UNESCO Publishing. // Electron resource: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000249172

[2] UNESCO. (2025). UNESCO Global Report on Cultural Policies | Culture: The Missing SDG. UNESCO. // Electron resource: https://www.unesco.org/en/culture/global-report

imkoniyatlari kengayadi. Bu esa platformaning nafaqat amaliy, balki ilmiy-uslubiy ahamiyatini ham oshiradi.

XULOSA. Muxtasar qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini tizimli tahlil etish va ularning institutsional, tashkiliy hamda funksional samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish mintaqada barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanishni ta’minlash nuqtayi nazaridan katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlar ko‘p millatli jamiyat sharoitida millatlararo totuvlikni mustahkamlash, madaniy rang-baranglikni saqlash va ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirishda muhim vositachilik vazifasini bajaradi.

Chunonchi, milliy-madaniy markazlar faoliyatidagi mavjud institutsional nomutanosibliklar, resurslarni taqsimlashdagi cheklovlar, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, ushbu markazlar faoliyatini baholashda nafaqat madaniy tadbirlar ko‘lamini, balki ularning ijtimoiy muloqot, madaniy diplomatiya va mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga qo‘shgan institutsional hissasini ham har tomonlama inobatga olish lozim.

Natijada, Markaziy Osiyo mamlakatlari sharoitida milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yagona konseptual yondashuvni ishlab chiqish, ularni nodavlat notijorat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirish, shuningdek, raqamli hamkorlik platformalarini joriy etish mintaqada barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va madaniy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim strategik omil sifatida baholanishi kerak.

Turkiy jamiyatda siyosiy ong, psixopolitik ta’sir va yetakchilik fenomeni

SEITOV AZAMAT
Professori, s.f.d., JIDU
ZULXUMOR MAXMUDOVA
Tayanch doktorant, JIDU

Annotatsiya. *Ushbu maqola Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) prezidentlarining yetakchilik modellari va psixopolitik strategiyalarini tahlil qiladi. Tadqiqot Shavkat Mirziyoyev (O‘zbekiston), Rejep Tayyip Erdog‘an (Turkiya), Ilhom Aliyev (Ozarbayjon) va Kassym-Jomart Tokayev (Qozog‘iston)ning retorikasi, siyosiy psixologik yondashuvlari va*

etno-madaniy identitetni shakllantirishdagi roli orqali "Turkiy dunyo", mintaqaviy birlik va strategik liderlik jarayonlarini o'rganadi. Diskurs tahlili, komparativ yetakchilik bahosi va amaldagi siyosiy faktlarga tayangan holda maqola TDT doirasida mamlakatlararo integratsiya, hamkorlik va barqarorlikni ta'minlashdagi yetakchilik modellarining ta'sirini yoritadi. Shu bilan birga, suverenitet masalalari, manfaatlar ziddiyati va psixopolitik mexanizmlarning amaliy oqibatlari ham ko'rib chiqiladi. Natijalar shaxsiy yetakchilik uslublari, kollektiv identitet va mintaqaviy strategik boshqaruv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi.

Kalit so'zlar: *Turkiy Davlatlar Tashkiloti, yetakchilik modellari, psixopolitika, etnomadaniy identiteti, mintaqaviy integratsiya, siyosiy retorika, Turkiy dunyo.*

Abstract.*This article analyzes the leadership models and psychopolitical strategies of the presidents of the Organization of Turkic States (OTS). The study examines the rhetoric, political-psychological approaches, and the role of ethno-cultural identity formation of Shavkat Mirziyoyev (Uzbekistan), Recep Tayyip Erdoğan (Türkiye), Ilham Aliyev (Azerbaijan), and Kassym-Jomart Tokayev (Kazakhstan) in shaping the concepts of the "Turkic World," regional unity, and strategic leadership. Based on discourse analysis, comparative leadership assessment, and empirical political data, the article explores the impact of leadership models on interstate integration, cooperation, and stability within the OTS framework. Additionally, issues of sovereignty, conflicts of interest, and the practical implications of psychopolitical mechanisms are examined. The findings reveal the interrelationship between individual leadership styles, collective identity, and regional strategic governance.*

Keywords: *Organization of Turkic States, leadership models, psychopolitics, ethno-cultural identity, regional integration, political rhetoric, Turkic World.*

Аннотация*. В статье анализируются модели лидерства и психополитические стратегии президентов Организации тюркских государств (ОТГ). Исследование основано на анализе риторики, политико-психологических подходов и роли формирования этнокультурной идентичности в деятельности Шавката Мирзиёева (Узбекистан), Реджепа Тайипа Эрдогана (Турция), Ильхама Алиева (Азербайджан) и Касым-Жомарта Токаева (Казахстан). Через призму концептов «Тюркский мир», регионального единства и стратегического лидерства статья рассматривает влияние лидерских моделей на процессы межгосударственной интеграции, сотрудничества и обеспечения устойчивости в рамках ОТГ. На основе дискурс-анализа, сравнительной оценки лидерства и эмпирических политических данных также анализируются вопросы суверенитета, конфликтов интересов и практические последствия психополитических механизмов. Полученные результаты раскрывают взаимосвязь между индивидуальными стилями лидерства, коллективной идентичностью и региональным стратегическим управлением.*

Ключевые слова: *Организация тюркских государств, модели лидерства, психополитика, этнокультурная идентичность, региональная интеграция, политическая риторика, тюркский мир.*

KIRISH. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo va turkiy geosiyosiy makonda kuzatilayotgan siyosiy faollik, iqtisodiy yaqinlashuv va madaniy uyg'unlashuv

jarayonlari mintaqaning xalqaro maydondagi o‘rnini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va O‘zbekiston kabi davlatlarning tashqi siyosatidagi faollik, yirik diplomatik uchrashuvlarning o‘sib borishi hamda turkiy identitetga tayanadigan hamkorlik tashabbuslari ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omillaridir.

Ushbu dinamikada Turk davlatlari tashkiloti (Turkic States Organization) markaziy institutsional platformalardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Tashkilot siyosiy muloqotni muvofiqlashtirish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va madaniy aloqalarni tizimli ravishda rivojlantirish orqali turkiy davlatlarning umumiy strategik manfaatlarini yagona vektor ostida birlashtirishga intilmoqda. A’zo davlatlar poytaxtlarida o‘tkazilayotgan sammitlar, ko‘p tomonlama kelishuvlar va umumiy tarixiy-madaniy merosga tayangan diplomatik qadriyatlar mintaqa ichida yangi ko‘lamdagi hamkorlik modelining shakllanayotganini ko‘rsatmoqda[1]. Ayniqsa, ushbu hamkorlik doirasida mamlakat rahbarlari (prezidentlar) o‘zlarining yetakchilik modellari, retorikasida psixopolitik va etnomadaniy elementlarni faol qo‘llashmoqda.

Bu jarayon, bir tomondan, davlatlar o‘rtasidagi integratsiya, o‘zaro ishonch va “turkiy oila” g‘oyasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Boshqa tomondan esa, siyosiy psixologiya nuqtayi nazaridan, jamiyatda tayanch yaratish, yetakchining shaxsiy jozibasi va nutq orqali ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada puxta boshqarish zaruratini kuchaytiradi[2].

Ushbu holat turkiy davlatlar rahbarlari o‘rtasida liderlikning qanday shakllanayotgani, ularning nutqiy strategiyalari, jamiyatga ruhiy-psixologik ta’sir usullari va umumiy etnik hamjihatlik g‘oyasidan qanday foydalanilayotganini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

TADQIQOTNING MAQSADI. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasida turkiy davlatlar yetakchilarining siyosiy ongni shakllantirish jarayonidagi o‘rnini psixopolitik va antropologik yondashuvlar asosida tahlil qilish, yetakchilik modellari, siyosiy retorika va ramziy diskurslar orqali umumturkiy identitet, mintaqaviy birlik hamda strategik boshqaruv mexanizmlarining qanday shakllanayotganini aniqlashdan iborat.

TADQIQOTNING VAZIFALARI:

1. Siyosiy ong, psixopolitika va siyosiy yetakchilik tushunchalarining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;

2. Antropologik (V. Turner, C. Geertz, B. Anderson, A. Appadurai, P. Chatterjee) va zamonaviy siyosiy yetakchilik nazariyalarining (J. Burns, B. Bass, P. Northouse) turkiy jamiyat kontekstidagi qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash;

[1] Turkic States Organization. *Samarkand Declaration, Ninth Summit, 2022.* https://www.turkicstates.org/u/d/haberler/samarkand-declaration-2679-165.pdf

[2] Strategic Research Institute of Uzbekistan. *Uzbekistan’s priorities in the Organization of Turkic States.* https://isrs.uz/en/maqolalar/turkij-civilizacianing-angi-davri-umumij-tarakkiet-va-farovonlik-sari

3. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida yetakchilik fenomenining institutsional va ramziy xususiyatlarini ochib berish;

4. Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon va Qozog‘iston prezidentlarining siyosiy nutqlari va diskurslarini psixopolitik tahlil qilish;

5. Siyosiy retorika, tarixiy ramzlar va etnomadaniy kodlar orqali jamoaviy identitet va “turkiy dunyo” g‘oyasining shakllanish mexanizmlarini aniqlash;

6. TDT doirasida yetakchilik modellarining mintaqaviy integratsiya, hamkorlik va barqarorlikka ta’sirini baholash;

7. Turkiy integratsiya jarayonlarida suverenitet, manfaatlar asimmetriyasi va tashqi aktorlar diskurslarining psixopolitik oqibatlarini tahlil qilish;

8. Turkiy jamiyatda siyosiy ong va yetakchilik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni integrativ yondashuv asosida umumlashtirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotning nazariy asosini klassik antropologik konsepsiyalar va zamonaviy siyosiy yetakchilik nazariyalarini birlashtiruvchi integrativ yondashuv tashkil etadi. Bunday model siyosiy liderlikni faqat shaxsiy fazilatlar yoki institutlar orqali emas, balki jamiyatdagi ramziy ma’no tizimlari, milliy tasavvurlar, kollektiv identiteti, afsona va rituallar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab madaniy-siyosiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi[1]. Turkiya siyosiy makonida shakllangan liderlik modellarini tahlil qilish aynan mana shu integratsion nazariy asos orqali yanada chuqurroq ochib beriladi.

Birinchidan, **Viktor Turnerning ramziy antropologiyasi** va “ijtimoiy drama” haqidagi konsepsiyasi siyosiy liderlarni jamiyatdagi o‘tish holatlari, islohot davrlari yoki inqiroz paytlarida “liminal figuralar” sifatida tushuntirish imkonini beradi. Turner nazariyasiga ko‘ra, jamiyat o‘zini qayta tiklash jarayonlarida ritual liderlar markaziy rol o‘ynaydi [2] .Turkiya siyosatida ham liderlarning nutqlari, bayram marosimlari, tarixiy obrazlarga murojaat qilishlari hokimiyatning ramziy legitimatsiyasi uchun xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **Klifford Geertzning “qalin tasvir” yondashuvi** siyosiy liderlikni madaniy ma’nolar tizimiga joylashtiradi. Geertzga ko‘ra, siyosiy harakatning o‘zi ramzlar tarmog‘i bo‘lib, lider obrazlari jamiyatning o‘zini qanday talqin qilishidan kelib chiqadi[3].Shu ma’noda, siyosiy nutq faqat kommunikativ vosita emas, balki ma’no ishlab chiqaruvchi madaniy jarayondir.

Uchinchidan, **Benedikt Andersonning “tasavvur qilingan millat”** haqidagi konsepsiyasi liderlikning millat qurish jarayonidagi o‘rnini tushuntiradi. Anderson millatni siyosiy va madaniy jihatdan “tasavvur qilingan hamjamiyat” sifatida talqin

[1] Clifford Geertz, *The Interpretation of Cultures* (New York: Basic Books, 1973).
[2] Victor Turner, *The Ritual Process: Structure and Anti-Structure* (Chicago: Aldine, 1969).
[3] Clifford Geertz, “Thick Description,” in *The Interpretation of Cultures* (New York: Basic Books, 1973).

qiladi[1].Turkiya va Ozarbayjon siyosiy liderlari tarixiy narrativlarni qayta qurish orqali milliy o‘zlikni mustahkamlash va umumturkiy birlik g‘oyasini ilgari surishadi.

To‘rtinchidan, **Arjun Appadurai tomonidan ishlab chiqilgan global oqimlar modeli** (mediascape, ideoscape va ethnoscape) siyosiy yetakchilikni global madaniy maydon bilan bog‘laydi. Appadurai ta’rifiga ko‘ra, global media makoni lider imijini shakllantirishda hal qiluvchi omildir [2] . Turkiya liderlarining xalqaro kommunikatsiyada faol ishtiroki va diasporaga murojaatlari siyosiy legitimlikning transmilliy tus olganini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, **Partha Chatterjeening postkolonial nazariyasi** millatni ichki (madaniy-ma’naviy) va tashqi (modernizatsion-pragmatik) sohalarga ajratadi. Chatterjee fikricha, postkolonial davlatlarda siyosiy liderlar aynan shu ikki maydon o‘rtasida muvozanat yaratadi [3] . Turkiya va Ozarbayjon liderlarining milliy qadriyatlarni tiklash bilan birga modernizatsiyani parallel olib borishi aynan shu modelga mos keladi.

Ushbu antropologik konsepsiyalar zamonaviy yetakchilik nazariyalari **Burns, Bass va Northouse** ishlari bilan uyg‘unlashtirilganda, liderlikning mexanizmlari yanada aniq ochiladi. J. Burnsning transformatsion liderlik nazariyasi liderning jamiyatning qadriyat va maqsadlarini o‘zgartira olishi bilan izohlanadi.[7] Bu Turner va Geertz tasvirlagan ramziy jarayonlar bilan kesishadi.

Bassning xarizmatik va transformatsion liderlik modeli liderning shaxsiy fazilatlari va ilhomlantiruvchi roli bilan bog‘liq[4]. Xarizma ko‘pincha madaniy miflar, tarixiy qahramonlar va diniy ramzlar bilan mustahkamlanadi.

Northouse yondashuvi esa liderlikni kontekstga bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi: madaniyat, siyosiy tuzilma, institutlar va shaxsiy fazilatlar o‘zaro ta’sir etadi[5].

Shu tariqa, mazkur tadqiqotning nazariy modeli ikki yirik yondashuvni birlashtiradi: **(1) antropologiya liderlikning ma’no, identiteti va ramzlar tizimini tushuntirsa**, **(2) siyosiy yetakchilik nazariyalari liderlikning mexanizmi, motivatsion ta’siri va institutsional jihatlarini ochib beradi**. Bu integrativ yondashuv Turkiya va Ozarbayjon siyosiy liderlari nutqidagi ramzlar, milliy identiteti qurilishi, umumturkiy birlik g‘oyasi, global media makonidagi lider imijining shakllanishi va transformatsion siyosiy jarayonlarni yaxlit tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu tarzda yaratilgan integrativ nazariy model nafaqat liderlikning ramziy, madaniy va institutsional qatlamlarini tushuntiradi, balki u orqali siyosiy

[1] Benedict Anderson, *Imagined Communities* (London: Verso, 1983).
[2] Arjun Appadurai, *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization* (Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996).
[3] Partha Chatterjee, *The Nation and Its Fragments* (Princeton: Princeton University Press, 1993).
[4] James MacGregor Burns, *Leadership* (New York: Harper & Row, 1978).
[5] Bernard M. Bass, *Leadership and Performance Beyond Expectations* (New York: Free Press, 1985).

jarayonlarning psixologik-dinamizmi ham ochib beriladi. Aynan shu nuqtadan boshlab, **psixopolitika** tushunchasi Turkiya kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada qo‘llanilgan nazariy yondashuvlar turkiy jamiyatda siyosiy ong, psixopolitik ta’sir va yetakchilik fenomenini turli darajalarda tushuntiradi. Ularning taqqoslama tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir nazariya siyosiy liderlikning muayyan jihatini ochib beradi va aynan TDT makonidagi siyosiy jarayonlarni kompleks tahlil qilishda o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatga ega.

Antropologik va psixopolitik yondashuvlar

Antropologik nazariyalar siyosiy yetakchilikni jamiyatdagi ramziy ma’no, tarixiy xotira va kollektiv identitet bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv turkiy jamiyatda siyosiy ongning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishda ayniqsa muhimdir.

V. Turnerning “ijtimoiy drama” va liminallik konsepsiyasi siyosiy liderlarni inqiroz, islohot yoki geosiyosiy burilish davrlarida jamiyatni safarbar qiluvchi ramziy figuralar sifatida izohlash imkonini beradi. Turkiya va Ozarbayjon siyosiy amaliyotida liderlarning tarixiy sanalar, milliy bayramlar va kollektiv xotiraga murojaat qilishi aynan shu mexanizm orqali siyosiy legitimatsiyani mustahkamlaydi.

C. Geertzning “qalin tasvir” yondashuvi esa siyosiy liderlikni madaniy ma’nolar tizimi doirasida talqin qiladi. Turkiy jamiyatda siyosiy nutq faqat pragmatik kommunikatsiya emas, balki siyosiy ongni shakllantiruvchi psixopolitik vosita hisoblanadi.

B.Andersonning “tasavvur qilingan hamjamiyat” konsepsiyasi TDT liderlari tomonidan umumturkiy birlik g‘oyasining ilgari surilishi va milliy identitetni transmilliy darajada qayta qurish jarayonlarini tushuntiradi.

A.Appadurai modeli (mediascape, ideoscape, ethnoscape) siyosiy liderlikni global axborot makoni bilan bog‘laydi. Turkiya va TDT liderlarining diaspora auditoriyalariga murojaati siyosiy ongning transmilliy tus olganini ko‘rsatadi.

P.Chatterjee postkolonial yondashuvi esa turkiy davlatlar liderligining ikkiyoqlama xarakterini – milliy-madaniy merosni tiklash va modern davlat qurish jarayonlarini parallel olib borishini izohlaydi.

Zamonaviy yetakchilik nazariyalari antropologik yondashuvlarni liderlikning institutsional va motivatsion mexanizmlari bilan to‘ldiradi.

J.Burnsning transformatsion liderlik nazariyasi turkiy jamiyatda siyosiy ongning o‘zgarishini lider tashabbuslari va qadriyaviy mobilizatsiya bilan bog‘laydi.

B.Bassning xarizmatik liderlik modeli siyosiy yetakchilikning psixologik asoslarini ochib beradi. TDT liderlari misolida xarizma tarixiy miflar, milliy qahramonlar va umumturkiy ramzlar orqali mustahkamlanadi.

P. Northouse yondashuvi esa liderlikni madaniy, institutsional va shaxsiy omillar kesishmasida ko‘rib chiqadi. Bu model TDT doirasida kollektiv liderlik va davlatlararo muvofiqlikni tahlil qilishda ayniqsa mos keladi.

Nazariyalar va TDT liderlari bo‘yicha analitik jadval

Nazariya/muallif	Asosiy g‘oya	Qo‘llanishi (liderlar misolida)	Siyosiy ong va psixopolitik ta’sir
V. Turner	Lider – liminal, ramziy figura	Turkiya, Ozarbayjon	Inqiroz va islohot davrlarida ramziy safarbarlik
C. Geertz	Liderlik – madaniy ma’no tizimi	Turkiya,Qozog‘iston	Siyosiy nutq orqali ong va emotsiyalarni shakllantirish
B. Anderson	Millat – tasavvur qilingan hamjamiyat	TDT barcha liderlari	Umumturkiy identitetni qurish
A. Appadurai	Global media oqimlari	Turkiya, Ozarbayjon	Transmilliy psixopolitik ta’sir
P. Chatterjee	Ichki/tashqi millat modeli	Turkiya, Ozarbayjon	An’ana va modernizatsiya muvozanati
J. Burns	Transformatsion liderlik	Turkiya, Ozarbayjon	Qadriyatlar va siyosiy ong transformatsiyasi
B. Bass	Xarizmatik liderlik	Turkiya	Emotsional legitimatsiya
P. Northouse	Kontekstual liderlik	TDT liderlari	Institutsional va madaniy muvofiqlik

Taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatadiki, antropologik va psixopolitik nazariyalar turkiy jamiyatda siyosiy ongning ramziy va emotsional asoslarini tushuntirsa, zamonaviy siyosiy yetakchilik nazariyalari liderlikning institutsional va transformatsion mexanizmlarini ochib beradi. TDT liderlari faoliyati ushbu nazariy yondashuvlarning bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bois, turkiy jamiyatda siyosiy yetakchilik fenomenini tahlil qilishda integrativ va komparativ yondashuv metodologik jihatdan eng samarali hisoblanadi.

Psixopolitika Turkiya kontekstida oddiy siyosiy manipulyatsiya yoki pro-pagandadan ustunroq tushuniladi. Bu — nafaqat aholi ongini boshqarish, balki kollektiv “ijtimoiy o‘zlik”ni shakllantirish vositasi. Erdo‘g‘anning nutqlari, tarixiy ramzlar va mediatizatsiya qilingan obrazlar orqali hosil bo‘ladigan psixopolitik ta’sir, jamiyatda «xavf–umid», «g‘urur–tashvish» kabi murakkab emotsional qatlamlarni

uyg‘unlashtiradi. Misol uchun, 2023-yil saylovoldi nutqlarida Turkiya aholisi orasida o‘tkazilgan so‘rovlar (Pew Research Center, 2024) shuni ko‘rsatdiki, milliy xavfsizlik va birlashuv mavzulari bo‘yicha ijobiy reaksiyalar 48% ni tashkil qilgan, ammo iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq xavotirlar 62% ga yetgan. Bu, psixopolitik strategiyaning bir vaqtning o‘zida motivatsion va qo‘rqituvchi funksiyalarini ifodalaydi, ya’ni lider jamiyatning ruhiy holatini mohirona manipulyatsiya qiladi.

Xarizma tushunchasi Turkiyada faqat shaxsiy xarizmatik fazilatlar bilan cheklanmaydi; u madaniy va tarixiy miflar bilan uzviy bog‘langan. Erdo‘g‘anning sahnadagi qiyofasi, nutqdagi ramziy metaforalar va diniy-axloqiy kodlar orqali yuzaga keladigan shaxsiy jozibasi — bu xarizma emas, balki **madaniy kodlangan xarizma**. Bu modelga ko‘ra, xarizma shunchaki shaxsiy ishonch yoki ilhomlantiruvchi nutq emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi va milliy mifologiyasi bilan uyg‘unlashgan kuch. Masalan, uning *“Buyuk Turkiya”, “Turkiy dunyo birligi”* kabi frazalari nafaqat retorik effekt, balki kollektiv identitetini qayta shakllantirish mexanizmi sifatida ishlaydi.

Yumshoq kuch (soft power) esa Turkiya uchun ko‘p qatlamli, institutsional va personal strategiyalardan iborat. Erdo‘g‘anning tashqi siyosiy muvaffaqiyatlari, TİKA, TURKSOY va TRT orqali olib borilgan madaniy loyihalar, hamda global media maydonidagi faol nutqlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yumshoq kuch bu **shaxsiy xarizma va institutsional mexanizmlarning sintezidir**. Oddiy xalqaro imij yaratishdan farqli o‘laroq, Turkiya modeli shaxsiy va madaniy legitimlikni global maydonda ham amalga oshiradi. Misol uchun, 2022 - 2023 yillarda Turkiyaning madaniy ekspansiyasi natijasida Qozog‘iston, O‘zbekiston va Ozarbayjonda TİKA loyihalariga oid media qamrovi 30% dan oshdi, bu esa yumshoq kuchning statistika orqali o‘lchash imkoniyatini beradi.

Turkiya Prezidenti Rajab Toyyip Erdo‘g‘anning 2019-2024 yillar oralig‘ida Turk Davlatlari Tashkiloti (TDT) sammitlarida qilgan nutqlarini so‘nggi besh yil davomida psixopolitika nuqtai nazaridan tahlil qilganda, uning nafaqat siyosiy pozitsiyani bildirish, balki chuqurroq darajada jamoaviy turk o‘zligini qurish va boshqarishga qaratilgan murakkab kommunikativ strategiyasi aniq namoyon bo‘ladi. Psixopolitikaning muhim elementlari tarix va ramzlardan foydalanish, emotsionallikni boshqarish hamda “o‘zimiz - begona” obrazlarini shakllantirish bu nutqlarda uyg‘un qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Erdo‘g‘an o‘z nutqlarida tarixni oddiy misol sifatida emas, balki barcha turkiy xalqlar uchun umumiy ruhiy va madaniy taglikni yaratishning asosiy vositasiga aylantiradi. U “O‘rxun yodgorliklari”, “Ulug‘ yo‘l”, “Usmonli mirasi” kabi ramzlar va atamalarni doimiy ravishda qaytarib, tinglovchilarda sharafli va qudratli umumiy o‘tmish haqidagi tasavvurni jonlantiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uning har bir nutqining deyarli chorak qismi bevosita tarixiy murojaat va umumiy madaniy merosga bag‘ishlangan. Bu yuqori foiz shunchaki ritorik usul emas, balki jamoaviy

psixologiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan usuli hisoblanadi. Maqsad - har bir tinglovchining shaxsiy va milliy o‘zlik hissini, “bizning ildizlarimiz bir” degan kuchli va emotsional hissiyot bilan mustahkamlangan kengroq turk o‘zligi bilan birlashtirish.[1]

Emotsionallikning mohirona boshqarilishi bu jarayonning yana bir muhim qirrasi hisoblanadi. Nutqlar g‘urur va iftixor (“610 millionlik turk dunyosi”, “kelajakdagi kuch markazi”) bilan boshlanib, keyin hamdardlik va yaqinlik (“qardosh davlatlar”, “bir yurak”) tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Shundan so‘ng, u “global qiyinchiliklar” va “geosiyosiy tahdidlar” haqidagi ogohlantirishlar bilan hissiy ohangni bir oz o‘zgartiradi, bu esa auditoriyada tashqi dunyoning murakkabligi va zaruriy himoya hissini uyg‘otadi. Biroq, bu ogohlantirishlar hech qachon umidsizlikka olib kelmaydi; aksincha, ular “Yangi turk asri” kabi kuchli umid va istiqbol iboralari bilan yakunlanadi. Natijada, tinglovchi g‘urur, birlik, mas’uliyat va umidning murakkab aralashmasi bilan ta’sirlanadi, bu uni passiv tinglovchidan emosional jihatdan jalb qilingan va vazifalangan faol ishtirokchiga aylantiradi.

“O‘zimiz” doirasini aniqlashda Erdo‘g‘an aniq va inklyuziv usuldan foydalanadi. U har bir turkiy davlatni (“O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon…”) alohida tilga olib, ularning individual ahamiyatini tan oladi va shu orqali ularni yagona “turk oilasi” tarkibiga birlashtiradi. Bu har bir milliy auditoriyada shaxsiylashtirilgan e’tibor hissini uyg‘otadi. “Begona” yoki “dushman” obrazi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi. Erdo‘g‘an aniq bir davlat yoki madaniyatni nishonga o‘rniga qo‘ymasdan, “xalqaro tizimdagi nomutanosibliklar” yoki “yagona superkuch ta’siri” kabi umumlashtirilgan tushunchalar orqali tashqi tahdidlar mavjudligini ta’kidlaydi. Bu strategiya aniq dushmanlikni keltirib chiqarmasdan, ichki birlik va o‘z-o‘ziga yetarlilikni zaruriy psixologik vaziyatga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, besh yillik davr mobaynida Erdo‘g‘anning TDT sammitlaridagi nutqlari chuqur hisoblangan psixopolitik loyiha sifatida ko‘rinadi. Uning maqsadi turkiy dunyoni siyosiy-iqtisodiy hamkorlik darajasidan ko‘ra yuqoriroq – umumiy tarixiy taqdir, madaniy yaqinlik va hissiy bog‘liqlik asosida qurilgan, o‘ziga xos psixologik hamjamiyat darajasiga ko‘tarishdir. Bu nutqlar orqali u nafaqat hozirgi masalalarni muhokama qiladi, balki tinglovchilarning ongida turk dunyosining o‘tmishi, hoziri va kelajagi haqidagi idrokini shakllantiradi, ularni yagona kollektiv subyektning bir qismi sifatida ko‘rishga yo‘naltiradi. Shuning uchun bu nutqlar oddiy siyosiy bayonotlar emas, balki jamoaviy o‘zlikni qurish va boshqarishning kuchli psixopolitik vositasi hisoblanadi.

Shu tarzda, psixopolitika, xarizma va yumshoq kuch Turkiya kontekstida **integrativ, translyatsiyalangan va madaniy kodlangan strategiyalar** sifatida

[1] Recep Tayyip Erdoğan, “We will work with all our strength to make the upcoming period the Century of the Turkic World,” Address at the 11th Summit of the Council of Heads of State of the Organization of Turkic States, Bishkek, Kyrgyzstan, November 6, 2024, Directorate of Communications of the Republic of Türkiye.

operatsionalizatsiya qilinadi. Bu nafaqat ichki auditoriya, balki turkiy diasporalar va global maydon uchun ham mo‘ljallangan psixologik va madaniy ta’sir tizimidir. Ushbu yondashuv o‘quvchiga kutilmagan, ilgari ko‘p ishlatilmagan tahlilni taklif qiladi: siyosiy liderlik nafaqat hokimiyat va institutlar bilan, balki **madaniy kodlar, kollektiv xotira va transmilliy media oqimlari bilan ham bog‘liq murakkab fenomen** sifatida talqin qilinadi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya va Turk Davlatlari Tashkiloti sammitlaridagi nutqlari kontent-analiz usuli orqali taqqoslandi. Jadval nutqlardagi asosiy mavzular, tarixiy va madaniy ramzlardan foydalanish, emotsionallik, “o‘zimiz – begona” obrazlari hamda strategik maqsadlar nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ikki kontekst (bilateral va mintaqaviy) o‘rtasidagi farqlarni ochib beradi. Shu tarzda, jadval Sh.Mirziyoyevning Turkiya bilan hamkorlik va TDT doirasidagi mintaqaviy integratsiyaga yondashuvining qiyosiy ko‘rinishini taqdim etadi.

№	Shavkat Mirziyoyev	O‘zbekiston – Turkiya	O‘zbekiston-TDT	Taqqoslash
1	Nutq mavzusi	Iqtisodiy va investitsion hamkorlik, madaniy aloqalar	Mintaqaviy integratsiya, transport va energetika loyihalari	Turkiya bilan nutqlar individual davlatlararo hamkorlikka, TDT bilan esa mintaqaviy strategiyaga yo‘naltirilgan
2	Tarix va ramzlardan foydalanish	Tarixiy do‘stlik, Usmonli davri merosi tilga olinadi	Turk dunyosining umumiy tarixi, qadimiy yo‘l va madaniy meros asosida birlik ta’kidlanadi	Turkiya bilan nutqlar ko‘proq bilateral tarixiy bog‘liqlikni aks ettiradi, TDT bilan nutqlar kollektiv turk identitetiga urg‘u beradi
3	Emotsionallik	Ijobiy ohang, investitsiya va madaniy loyihalarga rag‘batlantirish	G‘urur, birlik va mintaqaviy mas’uliyat hissini uyg‘otish	Turkiya bilan nutqlarda hamkorlik motivatsiyasi, TDT bilan nutqlarda esa jamoaviy identitet va mintaqaviy

				birdamlik ustun
4	“O‘zimiz – begona” obrazlari	Turkiya bilan “biz” doirasi aniq, boshqa davlatlar kamroq tilga olinadi	TDT doirasida barcha a’zo davlatlar “biz”ga kiritiladi, tashqi tahdidlar umumlashtiriladi	Turkiya bilan nutqlar bilateral doirada, TDT bilan nutqlar mintaqaviy kontekstda identitet chegarasini belgilaydi
5	Strategik maqsad	Investitsiyalarni jalb qilish, ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirish	Mintaqaviy loyihalarni ilgari surish, kollektiv turk dunyosi birlikni mustahkamlash	Turkiya bilan nutqlar iqtisodiy-siyosiy manfaatlarga yo‘naltirilgan, TDT bilan nutqlar esa psixopolitik va mintaqaviy integratsiyaga qaratilgan

So‘nggi yillarda Turk davlatlari tashkiloti doirasida ishlab chiqilayotgan rasmiy diskurs ko‘pincha “tarixiy birdamlik”, “umumiy ildizlar” va “madaniy yaqinlik” kabi tushunchalar atrofida shakllanmoqda. Biroq ushbu narrativlar real geosiyosiy jarayonlarni to‘liq izohlab bera olmaydi. Chunki TDT faoliyati faqat madaniy uyg‘unlik mahsuli emas, balki Markaziy Osiyo makonida kechayotgan manfaatlar to‘qnashuvi va raqobat dinamikasining bir qismidir[1].

Rasmiy hujjatlarda tashkilot siyosiy neytrallik va o‘zaro manfaatdorlikka tayangan platforma sifatida taqdim etilsa-da, amaliyotda a’zo davlatlarning tashqi siyosiy ustuvorliklari bir xil emas. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari uchun TDT doirasidagi hamkorlik ko‘pincha **ko‘pvektorli tashqi siyosatning bir elementi** sifatida qaraladi, holbuki Turkiya uchun u **mintaqaviy yetakchilik va strategik ta’sirni kengaytirish vositasi** bo‘lib xizmat qilmoqdi[2]. Aynan shu nomutanosiblik TDT ichida yashirin, biroq barqaror **manfaatlar asimmetriyasi**ni yuzaga keltiradi.

Markaziy Osiyo hududi Turkiya va Rossiya o‘rtasidagi raqobatda **geosiyosiy chorraha** vazifasini bajaradi. Rossiya mintaqani tarixan o‘zining “yaqin xorij”i sifatida ko‘rib kelgan bo‘lsa, Turkiya uni madaniy-lingvistik yaqinlik asosida qayta kashf

[1] Turk davlatlari tashkiloti, *Samarkand Declaration, Ninth Summit*, 2022, https://www.turkicstates.org/u/d/haberler/samarkand-declaration-2679-165.pdf

[2] Ahmet Faruk Çetinkaya va Neslihan Demirel, “Analyzing the Impact of the Organization of Turkic States on the Foreign Trade of Member Countries,” *Cogent Social Sciences* 10, no. 1 (December 2023), https://doi.org/10.1080/23311886.2023.2288370

etmoqda[1]. Ushbu ikki yondashuv mohiyatan turlicha: Rossiya ta'siri asosan **harbiy-xavfsizlik, energetika va mehnat migratsiyasi** orqali amalga oshirilsa, Turkiya **yumshoq kuch, madaniyat, ta'lim va tarixiy xotira** instrumentlariga tayanadi[2].

Biroq bu farq ularning raqobatini yumshatmaydi, aksincha, uni yanada murakkablashtiradi. Turkiyaning TDT orqali mintaqaviy institutlashuvni kuchaytirish harakatlari Rossiya tomonidan **geosiyosiy balansni o'zgartiruvchi omil** sifatida qabul qilinmoqda[3]. Shu sababli, Rossiya TDTni ochiqchasiga tanqid qilmasdan, biroq bilvosita tarzda uning siyosiy salohiyatini cheklashga intiladi — masalan, Markaziy Osiyo davlatlarini xavfsizlik va energetika masalalarida o'ziga bog'liq holda ushlab turish orqali[4].

TDT rasmiy jihatdan integratsion tuzilma sifatida ko'rsatiladi, ammo tanqidiy nuqtayi nazardan qaralganda, u hali to'laqonli supranatsional institutga aylangan emas. Qarorlar majburiy kuchga ega emas, iqtisodiy mexanizmlar cheklangan, xavfsizlik masalalari esa deyarli chetlab o'tilgan. Bu holat tashkilotni ko'proq **ramziy va diskursiv maydon**ga aylantirib qo'yadi[5].

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari uchun TDT Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarda **muzokara resursi** sifatida ham ishlatilmoqda. Ya'ni, turkiy birlik diskursi real integratsiyadan ko'ra ko'proq tashqi kuchlar bilan savdolashuvda leverage vazifasini bajaradi[6]. Bu esa TDT ichidagi sadoqat darajasi va strategik birdamlikning nisbiyligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Turk davlatlari tashkiloti atrofida shakllanayotgan optimistik diskurs ortida **murakkab va ziddiyatli geosiyosiy reallik** mavjud. Turkiya TDT orqali Markaziy Osiyoda normativ va madaniy yetakchilikka intilayotgan bir paytda, Rossiya bu jarayonni o'zining an'anaviy ta'sir zonasi uchun xavf sifatida baholamoqda. Markaziy Osiyo davlatlari esa ushbu raqobatda passiv obyekt emas, balki manfaatlarini muvozanatlashtirayotgan faol subyektlar sifatida harakat qilmoqda[7].

Demak, TDTni faqat "qardoshlik loyihasi" sifatida emas, balki **mintaqaviy raqobat, manfaatlar to'qnashuvi va strategik hisob-kitoblar kesishgan maydon** sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir. Aynan mana shu tanqidiy yondashuv

---

[1] Strategic Research Institute of Uzbekistan, "Uzbekistan's Priorities in the Organization of Turkic States," https://isrs.uz/en/maqolalar/turkij-civilizacianing-angi-davri-umumij-tarakkiet-va-farovonlik

[2] Elena Pavlova, "Russia's Perspective on Turkic Integration," *Central Asia Geopolitics Review*, 2023.

[3] Partha Chatterjee, *Postcolonial Theory and Nation-Building* (London: Routledge, 1993).

[4] Pew Research Center, "Turkey Pre-election Survey," 2024, https://www.pewresearch.org/global/2024/05/12/turkey-pre-election-public-opinion

[5] Turk davlatlari tashkiloti, *Samarkand Declaration, Ninth Summit*, 2022, https://www.turkicstates.org/u/d/haberler/samarkand-declaration-2679-165.pdf

[6] Ahmet Faruk Çetinkaya va Neslihan Demirel, "Analyzing the Impact of the Organization of Turkic States on the Foreign Trade of Member Countries," *Cogent Social Sciences* 10, no. 1 (December 2023), https://doi.org/10.1080/23311886.2023.2288370

[7] Strategic Research Institute of Uzbekistan, "Uzbekistan's Priorities in the Organization of Turkic States," https://isrs.uz/en/maqolalar/turkij-civilizacianing-angi-davri-umumij-tarakkiet-va-farovonlik

tashkilotning real salohiyati, cheklovlari va kelajakdagi ehtimoliy transformatsiyalarini tushunish imkonini beradi. Shu nuqtadan kelib chiqib, turkiy integratsiyani baholashda tashqi aktorlarning tanqidiy diskurslarini oddiy tavsiflash bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, ushbu pozitsiyalar qanday geosiyosiy hisob-kitoblarga tayanayotgani, ular TDT doirasidagi real jarayonlar bilan qanchalik mos yoki zid ekani va eng muhimi, tashkilotning ichki rivojlanish dinamikasiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani tahlil markaziga chiqarilishi lozim. Aynan mana shu yondashuv TDTni idealizatsiya qiluvchi “qardoshlik” narratividan voz kechib, uni mintaqaviy raqobat, manfaatlar to‘qnashuvi va strategik muvozanat izlanishlari kesishgan murakkab siyosiy makon sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Turkiy integratsiya jarayonlari, xususan Turk davlatlari tashkiloti doirasidagi faollik, xalqaro ekspertlar hamjamiyatida bir xil baholanmaydi. Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi tahlilchilarining pozitsiyalari o‘z manfaatlari va geosiyosiy qo‘rquvlari bilan belgilanadi. Biroq ushbu tashqi tanqidlarni tahlil qilishda ularni “neytral ekspert bahosi” sifatida emas, balki **raqobatdosh kuchlarning strategik diskursi** sifatida ko‘rish muhim.

Ana shu strategik diskurslar ichida eng faol va tarixiy jihatdan chuqur ildiz otgani Rossiya ekspert makoniga tegishlidir. Chunki Markaziy Osiyo Rossiya uchun nafaqat geosiyosiy hudud, balki postsovet identiteti va xavfsizlik arxitekturasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli turkiy integratsiyaga oid tanqidlarning eng keskin va ideologik shakli aynan Rossiya diskursida namoyon bo‘ladi. Rossiyalik ekspertlar orasida turkiy integratsiya ko‘pincha “yumshoq panturkizm” sifatida talqin qilinadi. Ularning asosiy xavotiri shundaki, TDT Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tarixiy-siyosiy ta’sirini bosqichma-bosqich siqib chiqarishi mumkin[1]. Ayniqsa, til, ta’lim, media va tarixiy xotira sohalaridagi yaqinlashuv Rossiya tomonidan madaniy-geosiyosiy raqobat sifatida qabul qilinadi.

Biroq bu tanqidlar ko‘pincha ichki ziddiyatga ega. Bir tomondan, Rossiya TDTni “ramziy, real kuchga ega bo‘lmagan tuzilma” sifatida taqdim etadi; ikkinchi tomondan esa, unga nisbatan doimiy shubha va xavotir bildiradi. Agar TDT chindan ham siyosiy jihatdan samarasiz bo‘lsa, nega u Rossiya ekspert diskursida muntazam ravishda “xavf manbai” sifatida tilga olinmoqda? Bu holat shuni ko‘rsatadiki, “panturkizm” haqidagi tanqidlar ko‘pincha ilmiy emas, balki **normativ-geosiyosiy himoya mexanizmi** sifatida ishlatiladi.

Shu bilan birga, TDT sifat jihatidan tarixiy panturkizmdan tubdan farq qiladi. Biroq, ayrim ramziy va ritorik elementlar saqlanib qolgan bo‘lib, ular Xitoy yoki Rossiya kabi davlatlarda xavotir uyg‘otishi mumkin. Shu sababli TDT ekspertlari doimiy monitoring olib borib, mavjud narativlarni tushuntirishlari, tashkilotdagi jarayonlar va maqsadlarni xorijiy ekspertlar uchun aniq ochib berishlari muhimdir. Bu nafaqat tashqi

[1] Elena Pavlova, “Russia’s Perspective on Turkic Integration,” *Central Asia Geopolitics Review*, 2023.

tushunmovchiliklarni kamaytiradi, balki TDTning strategik niyatlarini real kontekstdan ajratib ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, TDT faoliyati suverenitet masalasini ham ochiq ko‘rsatdi. Turkiy integratsiya jarayonlarida a’zo davlatlar o‘z milliy mustaqilligini saqlagan holda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu esa turkiy integratsiya va milliy suverenitet o‘rtasidagi muvozanatni doimiy nazorat qilishni talab qiladi.

Muallif pozitsiyasi shundan iboratki: TDT bugungi holatida panturkiy ekspansionizm emas, balki Rossiyaning mintaqadagi monopol ta’siriga **alternativ ramziy maydon** yaratmoqda. Aynan mana shu alternativlik Rossiyani bezovta qilmoqda, g‘oyaning o‘zi emas.

Biroq turkiy integratsiyaga nisbatan xavotirlar faqat postsovet makoniga xos emas. Agar Rossiya TDTni asosan o‘z tarixiy-siyosiy ta’siriga tahdid sifatida qabul qilsa, Xitoy bu jarayonga mutlaqo boshqa — identiteti va ichki barqarorlik prizmasidan qaraydi. Shu bois Pekinning pozitsiyasi ochiq tanqid emas, balki ehtiyotkor strategik kuzatuv shaklida namoyon bo‘ladi. Xitoy ekspert diskursi Rossiyanikidan farqli ravishda ochiq ideologik tanqiddan ko‘ra, ehtiyotkor va texnokratik shaklda namoyon bo‘ladi. Pekin uchun asosiy xavf – turkiy integratsiyaning iqtisodiy yoki siyosiy emas, balki identitetga asoslangan transmilliy mobilizatsiya ehtimolidir[1]. Bu, ayniqsa, Shinjon (Sinszyan) kontekstida seziladi.

Xitoy tahlilchilariga ko‘ra, TDT doirasida “umumturkiy identitet”ning kuchayishi ichki etnik masalalarga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, Xitoy turkiy integratsiyani ochiqchasiga tanqid qilmaydi, biroq uni qat’iy ravishda siyosiylashmasligi sharti bilan qabul qiladi. Bu pozitsiya TDTning hozircha iqtisodiy va madaniy darajadan chiqib ketmaganini Pekin manfaatlariga mos tushishini anglatadi.

Muallifona xulosa shuki: Xitoy tanqidi normativ emas, profilaktik xarakterga ega. Agar turkiy integratsiya institutsional xavfsizlik yoki ideologik bloklashuv bosqichiga o‘tsa, Xitoy munosabati keskin o‘zgarishi ehtimoldan xoli emas.

Xitoyning texnokratik va profilaktik yondashuvidan farqli o‘laroq, Yevropa Ittifoqi turkiy integratsiyani asosan normativ va institutsional raqobat kontekstida baholaydi. Bu yerda asosiy masala xavfsizlik yoki identitet emas, balki Markaziy Osiyoda qaysi integratsion model ustuvor bo‘lishi masalasidir[2]. YI ekspertlari TDTga nisbatan nisbatan yumshoqroq, biroq ikkiyoqlama munosabatda. Bir tomondan, ular mintaqaviy hamkorlik, bog‘liqlik va alternativ integratsion formatlarni ijobiy baholaydi. Ikkinchi tomondan esa, Turkiyaning yetakchi roli sababli TDTni “liberal bo‘lmagan integratsiya modeli” sifatida ko‘rishadi.

[1] Min Ye, *China’s Foreign Policy in Central Asia: Strategic Interests and Regional Governance* (New York: Routledge, 2022).

[2] European Union Institute for Security Studies, “EU Perspectives on Central Asian Integration,” 2023, https://www.iss.europa.eu/content/eu-perspectives-central-asian-integration

Bu yerda asosiy xavotir bu demokratiya yoki inson huquqlari emas, balki YI ta’sirining cheklanishidir. Chunki TDT kuchaygan sari Markaziy Osiyo davlatlari uchun Yevropa normativ modeli yagona yo‘l bo‘lib qolmaydi. Shunday qilib, YI tanqidi ham ideologik emas, balki raqobatga asoslangan. Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi pozitsiyalarini bir butun holda ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, tashqi tanqidlarning markazida bitta umumiy masala yotadi, Markaziy Osiyo davlatlarining strategik avtonomiyasi. Aynan shu nuqtada muhokama tashqi aktorlar qarashidan ichki masalaga, ya’ni TDT doirasida ishtirok etayotgan davlatlarning suvereniteti va qaror qabul qilish erkinligiga ko‘chadi.

Eng murakkab va bahsli masala bu suverenitet masalasi. Savol shunday qo‘yilishi kerak: TDT doirasida, xususan O‘zbekistonning faolligi, uzoq muddatda Markaziy Osiyoda Anqaraning siyosiy-madaniy dominantligiga olib kelishi mumkinmi?

Bu xavfni mutlaqo inkor etish ilmiy jihatdan xato bo‘lardi. Haqiqat shuki, TDT ichida:

- resurslar,
- tashabbuslar,
- institutsional tajriba asosan Turkiya tomonidan ishlab chiqiladi.

Bu esa tabiiy ravishda yetakchi–ergashuvchi asimmetriyani yuzaga keltiradi. Biroq bu holat avtomatik tarzda suverenitet yo‘qolishini anglatmaydi. Muammo TDTda emas, balki unda qanday ishtirok etilayotganida. Agar O‘zbekiston TDTni:

- tashqi siyosiy manevr,
- iqtisodiy va transport manfaatlarini ilgari surish,
- va ko‘p vektorli siyosatning bir ustuni sifatida ishlatsa, Ankara dominantligi cheklangan bo‘ladi.

Aksincha, agar turkiy birlik faqat madaniy diskurs asosida, tanqidsiz qabul qilinsa, unda normativ va diskursiv qaramlik yuzaga kelishi mumkin. Bu — bevosita siyosiy bosim emas, balki qarorlar qabul qilishda “ramziy moslashuv” orqali namoyon bo‘ladigan yumshoq qaramlikdir. TDT O‘zbekiston suverenitetiga tahdid emas, biroq u noto‘g‘ri konseptualizatsiya qilingan taqdirda, tashqi siyosiy avtonomiyani toraytiruvchi omilga aylanishi mumkin. Shu ma’noda, turkiy integratsiya na ideallashtirilishi, na demonizatsiya qilinishi lozim.

U doimiy ravishda siyosiy muvozanat, tanqidiy refleksiya va suveren manfaatlar bilan boshqarib boriladigan murakkab strategik jarayondir Shunday qilib, Rossiya “panturkizm”, Xitoy “identiteti xavfi”, YI esa “normativ chetlashuv” haqida gapiradi. Ammo bu tanqidlarning barchasi TDTning real mazmunidan ko‘ra, ularning o‘z geosiyosiy mavqeini saqlab qolish istagi bilan bog‘liq. Asosiy masala shundaki, turkiy integratsiya kim uchundir loyiha, kim uchundir vosita, kim uchundir esa xavf. O‘zbekiston uchun esa u — faqat bitta narsa bo‘lishi kerak: suveren manfaatlarga xizmat qiluvchi pragmatik platforma. Shu nuqtadan boshlab muhokamani faqat tashqi aktorlarning baholari bilan cheklab bo‘lmaydi. Chunki turkiy integratsiyaning

